Антикоррупционная этика должна основываться на добровольном, осознанном выборе личностью стратегии своего поведения, где коррупционное поведение должно, в конечном итоге, стать “неприличным” на ценностно-ориентационном уровне. Люди, инициирующие коррупцию, не анализируют эти действия с этической точки зрения. Как ни странно, они не считают их неэтичными. Безусловно, среда, в которой происходит социализация индивида, передача и усвоение необходимых норм и правил для успешного функционирования личности в обществе, оказывает первостепенное влияние на формирование системы ценностей личности, в том числе и её антикоррупционного сознания и поведения. Следует отметить, что в большинстве смысл жизни в обществе заключается в массовом потреблении материальных благ, а счастье для потребителя эквивалентно максимуму данных благ. Индивид стремится адаптироваться к обществу, окружающему его, стать его успешным членом. Стремление к успеху – доминирующая мотивация личности наших соотечественников. Если спросить жителя нашего общества «Что такое успешный человек в представлении молодых людей?», он ответит: «Когда всё есть: деньги, квартира, машина». Таким образом, сегодня успех в жизни измеряется, в первую очередь, уровнем материального благосостояния и количеством имеющихся в распоряжении денежных средств.

Изучая статьи и литературные источники по указанной проблематике, отметим, что большинство опрошенных считают, что «барьером при достижении ими “социального успеха” является отсутствие необходимых финансовых ресурсов». Мотивация человека, его стремление к определённому стилю жизни во многом формируется конкретными социокультурными обстоятельствами его бытия. Как уже было сказано, целью активности людей в «обществе потребления» является накопление материальных благ. В погоне за ними человек забывает о нравственной стороне своей деятельности. В этом случае личность, ориентированная на самоограничения, “человек-аскет”, смысл жизни которого состоит в том, чтобы жертвовать удобствами ради каких-либо “высших ценностей”, представляет для бизнеса серьёзную опасность». Как видим, «обществу потребления» свойственен низкий уровень нравственной культуры его членов, приоритет материальных, а не духовных ценностей. Но именно такой дисбаланс нравственной сферы характерен, по мнению отечественных исследователей, для так называемой «коррупциогенной личности», «ведущей смыслообразующей составляющей поведения» которой «является приобретение богатства как значимого дескриптора осмысленности жизни.

Следует констатировать, что в систему ценностей жителя общества одним из основных компонентов входит достижение высокого уровня материального благополучия. В то же время необходимо отметить, что реальных легальных путей достижения этого благополучия практически нет – средняя зарплата более чем в 2 раза меньше, чем желанная сумма, запрашиваемая самыми скромными респондентами нашей страны. Поэтому вполне закономерными и предсказуемыми представляются нам результаты, полученные в ходе изучения деформации профессионального правосознания молодежи: «По результатам проведённого среди студентов высших учебных заведений исследования лишь 10% испытуемых считают, что закон нарушать нельзя, лишь 36% из 50 принявших участие в исследовании считают, что материальное вознаграждение должностного лица (взятка) недопустимо в любом случае. 64% респондентов придерживаются противоположного мнения. По нашему мнению, социальную среду, скорее следует рассматривать как психологический фактор, который препятствует формированию антикоррупционной направленности личности наших соотечественников. В рамках усвоения социальных и культурных норм происходит формирование нравственных ценностей и моральной сферы человека.

Формирование личности – это прежде всего формирование сложной системы мотивов, ценностей, и в конечном итоге – направленности его личности. Базисом для формирования направленности личности, в том числе и антикоррупционной направленности как её составной части, служат его потребности, поэтому успешное протекание процесса формирования антикоррупционной направленности личности невозможно обеспечить без учёта потребностной сферы реального жителя нашей страны. Согласно гуманистической теории личности А. Маслоу, жизнь человека нельзя понять, если не заниматься анализом его потребностей. Попробуем рассмотреть знаменитую «пирамиду Маслоу», включающую в себя 5 основных потребностей человека, и, проанализировав степень удовлетворения этих потребностей у среднестатистического жителя нашей страны, спрогнозировать возможный вариант его поведения в коррупционно-провоцирующих ситуациях. Сохранит ли гражданин Узбекистана в сложившейся обстановке способность следовать нормам закона и нравственности? Первую ступень в иерархической модели потребностей человека, разработанной А. Маслоу, занимают физиологические потребности. Это потребности в пище, питье, кислороде, сне, защите от экстремальных температур и т.д. Очевидно, что для удовлетворения этих базовых потребностей современному гражданину нужны немалые денежные средства. Вторая ступень пирамиды – потребности в безопасности и защите (в комфорте, в стабильности условий жизни, в свободе от таких угрожающих сил, как болезнь, страх, хаос). Для того, чтобы эти потребности были удовлетворены в условиях современного социума, также необходимы материальные средства: например, качественная медицинская услуга, как правило, осуществляется платно; страх потерять работу приводит к постоянному стремлению обеспечить себя материально «на чёрный день». В этих условиях житель страны задумается об «альтернативных» источниках дохода, возможно, и незаконных. На следующей ступени иерархии находятся социальные потребности, из них особенно значимой для любого человека является потребность иметь отношения дружбы и любви. Однако всем известно, что семья строится также на прочном финансовом основании. Отсутствует достаточное количество денег – в семье начинаются проблемы, и очень часто она распадается. Друзья также предпочитают дружить с «успешными» членами общества, а таковые в настоящее время определяются в первую очередь по имущественному статусу – наличие машины, предпочтительно дорогой, квартиры или дома, отдых за границей и т. д. Четвёртой позицией в «пирамиде» А. Маслоу являются потребности самоуважения. Учёный делил их на два основных типа: самоуважение и

уважение другими людьми. Человеку необходимо чувствовать себя успешным и достойным уважения человеком. Уважение другими опять же включает в себя такие компоненты, как социальный статус (подразумевающий и высокий уровень заработка), престиж, признание, оценка и приятие. На сегодняшний день эти критерии также напрямую связаны с уровнем материального благосостояния – взрослого человека уважают обычно за то, что у него есть хорошо оплачиваемая работа, семья, дети, дом, машина и т.д. Главным символом индивидуального успеха стал уровень обеспеченности материальными благами. Последняя ступень – это духовные потребности (познание, самоактуализация, самовыражение, самоидентификация). Сам автор «теории потребностей» признавал, что самоактуализация, воплощение в жизнь высших возможностей человека осуществимы только при «хороших условиях». Следовательно, и здесь необходим высокий уровень материального благосостояния, чтобы человек мог наиболее полно раскрыть потенциальные возможности своей личности.

Также следует отметить, что элементы общего правового статуса являются необходимыми и неотъемлемыми элементами статуса любого государственного служащего. Правовому статусу государственных служащих свойствен ряд особенностей, позволяющих отличить его от других специальных правовых статусов.

Первая из таких особенностей заключается в том, что правовой статус государственных служащих характеризуется особой правовой связью государственного служащего с государством, что вполне закономерно, поскольку именно государство, по сути, поручает государственному служащему реализовать определённые государственные функции, оплачивая при этом его служебную деятельность из государственного бюджета. Причём эта самая «особая правовая связь» государственного служащего с государством является основным признаком правового статуса государственных служащих, порождающим все последующие признаки их правового статуса.

Вторая особенность – это антикоррупционная направленность правового статуса государственных служащих, которая неразрывно связана с первой: государственный служащий должен верой и правдой служить своему государству, и если его профессиональная служебная деятельность коррумпирована, то он этой деятельностью попросту ослабляет государственную власть. Следовательно, одним из проявлений особой правовой связи государственного служащего с государством является противодействие коррупции в системе государственной службы.

К правовым нормам, закрепляющим антикоррупционную направленность правового статуса государственных служащих (опять же на примере государственных гражданских служащих) относятся:

а) большинство запретов для государственных гражданских служащих (в частности, запрет на осуществление предпринимательской деятельности; запрет на получение в связи с исполнением должностных обязанностей вознаграждения от физических и юридических лиц и др.);

б) ряд обязанностей государственных гражданских служащих (в частности, обязанность представлять в установленном порядке предусмотренные законом сведения о себе и членах своей семьи, а также о полученных ими доходах и о принадлежащем им на праве собственности имуществе, являющемся объектами налогообложения, об обязательствах имущественного характера; обязанность сообщать представителю нанимателя о личной заинтересованности при исполнении должностных обязанностей, которая может привести к конфликту интересов, принимать меры к предотвращению такого конфликта и др.);

в) ряд требований, предъявляемых к служебному поведению государственных гражданских служащих (в частности, требование осуществлять профессиональную служебную деятельность в рамках установленной законодательством Республики Узбекистан; требование не оказывать предпочтение каким-либо общественным или религиозным объединениям, профессиональным или социальным группам, организациям и гражданам; требование не совершать действия, связанные с влиянием каких-либо личных, имущественных (финансовых) и иных интересов, препятствующих добросовестному исполнению должностных обязанностей и др.);

г) нормы, закрепляющие механизм урегулирования конфликта интересов на государственной гражданской службе и др.

Многочисленные причины, порождающие правонарушения коррупционной направленности в системе государственной службы (так называемые «коррупционные риски» служебного поведения государственных служащих) можно условно разделить на две большие группы: общие и специальные. К общим коррупционным рискам служебного поведения можно отнести следующие: а) несовершенство законодательных и иных нормативных правовых актов, их неполнота, неясность и порой даже противоречивость между собой; б) причины экономического, социального и

организационного характера; в) неотлаженность механизма ведомственного контроля; г) низкий уровень правовой культуры. К специальным коррупционным рискам служебного поведения следует отнести: а) психологические; б) социально-психологические [6]. Различные учёные, исследующие данную проблематику, так или иначе, выделяют три основные группы факторов, ведущих к профессиональной деформации личности государственного служащего: а) не зависящие от особенностей личности и от социально-психологических характеристик служебного коллектива, обусловленных спецификой соответствующей служебной деятельности; б) сугубо личностные свойства отдельно взятого государственного служащего; в) факторы социально-психологического характера, под которыми подразумеваются социально-психологический климат, стиль руководства в коллективе, степень социально-психологической защищённости государственного служащего. Социальное поведение упорядочивается нормами права, нормами морали, нормами социальных групп и организаций, соблюдение которых контролируется. А основной мотивацией поведения, так или иначе, служат общезначимые ценности, представляющие собой нравственные и эстетические требования, выработанные человеческой культурой, конкретным обществом, нацией, социальными группами

Таким образом, можно прийти к выводу, что полноценное формирование антикоррупционной направленности личности будет сильно затруднено по вполне объективным причинам в условиях современного социума. Коррупция – это разновидность корыстного поведения человека, итогом его становится приобретение определённого количества материальных благ. Поэтому социальная ситуация, когда материальные потребности человека хронически не удовлетворяются или удовлетворяются частично, будет постоянно провоцировать человека на возможное совершение тех или иных правонарушений, и коррупционных в частности.

По полученным данным от исследования научных работ указанной проблематике, примечателен тот факт, что, более трети осуждённых коррупционеров выражают уверенность «в целесообразности совершения преступления при сохранении за ними прав на имущество, добытое коррупционным путём, даже несмотря на наказание в виде лишения свободы». Следовательно, декларативная пропаганда антикоррупционных ценностей, никак не подкреплённая государственными мерами по повышению уровня жизни населения, заранее обречена на неудачу в современном обществе с его ярко выраженной «культурой потребления».

В настоящее время научное мировое сообщество серьёзно озабочено проблемой коррупции, так как она считается угрозой общественному порядку, поскольку нарушает идеи равенства и справедливости. В этой связи большое значение имеет изучение опыта тех стран, в которых масштабы коррупции удалось минимизировать до уровня, не беспокоящего общественность. Например, Сингапур сегодня – страна, в которой коррупционные правонарушения практически полностью ликвидированы. Если проанализировать систему мер государственной политики правительства Сингапура, осуществление которой привело к такому результату, то в числе других факторов мы выясним, что заработная плата местных «коррупционно устойчивых» государственных служащих эквивалентна среднему уровню дохода успешных банкиров или адвокатов. Посмотрим на другие страны – в последние годы в Грузии отмечаются положительные результаты в сфере противодействия коррупции. В числе мер, предпринятых правительством Грузии в отношении сотрудников правоохранительных органов, в первую очередь, следует отметить 10-кратное увеличение зарплаты её новых сотрудников. В Узбекистане также ведётся поэтапная политика по увеличению зарплаты государственных служащих. Таким образом, очевидно, что задача формирования антикоррупционной направленности личности не может быть успешно решена без грамотного психологического обоснования и комплексного воздействия государства на все сферы общественной жизни.

Заключение. Коррупция представляет собой социальное явление, включающее в себя экономический, юридический, социальный, управленческий, этический и политический компоненты.

Соглашаясь с позицией отечественных авторов, считаем, что формирование антикоррупционных нравственных ценностей подрастающих поколений должно быть одним из приоритетных направлений противодействия коррупции. С учётом проведённого нами анализа отечественных и зарубежных научных источников считаем возможным предложить следующее определение понятия «антикоррупционная направленность личности» – это динамическая система, включающая в себя совокупность потребностей, мотивов, установок и ценностей личности, являющаяся составной частью её мировоззрения и обуславливающая способность человека следовать нормам закона и нравственности в коррупционно-провоцирующих ситуациях.

Результаты изучения трудов зарубежных авторов подтверждают необходимость интенсивной и многоплановой работы как в области повышения уровня нравственной и правовой культуры нашего общества, так и в сфере совершенствования законодательства и государственной социальной политики, направленной на повышение уровня жизни населения, к созданию в нашей стране высокоэффективной и разноплановой системы противодействия коррупции во всех сферах общественной жизни.

Литература:

1. Абдрахманова Л.В. Социальная среда как фактор формирования антикоррупционной устойчивости личности // Высшее и среднее профессиональное образование России в начале 21-го века: состояние, проблемы, перспективы развития. Материалы 12-ой Международной научно-практической конференции. – 2018. – с. 288-291.
2. Алексеева Ю.С. Формирование антикоррупционной культуры у студентов // Современные проблемы науки и образования. – 2015. – № 1-1. – с. 933-939.
3. Ананьев Б. Г. Человек как предмет познания. – СПб.: Питер, 2001. – 288 с.
4. Андреева Г.М. Социальная психология: учебник для студентов высших учебных заведений, обучающихся по направлению с специальности «Психология». – М.: Аспект Пресс, 2009. – 362 с.
5. Баумик С. К. Коррупция может быть уничтожена только согласованными действиями во всём мире // Актуальные проблемы экономики и права. – 2017. – т. 11, № 1. – с. 117-128.
6. Борьба с коррупцией в сфере государственных услуг: Хроника реформ в Грузии. – The WorldBank, 2012. – 126 с.
7. Ванновская О.В. Личностные детерминанты коррупционного поведения // Известия Российского государственного педагогического университета им. А.И. Герцена. – 2009. – № 102. – с. 323-328.
8. Ванновская О.В. Психология коррупционного поведения государственных служащих: монография. – М. Издательство Юрайт, 2018. – 251 с

НОРҚУЛОВ Хусниддин Дўсбекович

“Маҳалла ва оила” илмий-тадқиқот институти
бўлим бошлиғи, педагогика фанлари номзоди,

доцент

norqulov.h69@mail.ru

МИЛЛИЙ АНЪАНАЛАР ТРАНСФОРМАЦИЯСИ ШАРОИТИДА ОИЛАДА ЎСМИРЛАР ТАРБИЯСИГА САЛБИЙ ТАЪСИР КЎРСАТУВЧИ ОМИЛЛАР

Мақолада ўсмирларнинг психо-педагогик ҳаёт тараққиётида ҳал этиши зарур бўлган муаммолар, ўсмирлик даврига хос хусусиятлар, педагогик вазиятлар ва уларни бартараф этиши механизмлари ҳамда тарбиявий ишга оид вазифалар келтирилган. Шу билан бирга, оилада ота-оналар ўсмирларни тарбиялашда етакчи куч ҳисобланганлиги, ўсмирларга берилган тарбиянинг нотўғрилиги натижада салбий оқибатларини ҳам келтириб чиқариши мумкинлиги, тарбияси қийин ўсмирлар дунёқараши ва улар билан индивидуал муносабатда бўлишнинг ўзига хос хусусиятлари ёритилган.

Калит сўзлар: ўсмирлик даври, баркамол авлод тарбияси, ўсмирларда оила тарбияси, ота-она тарбияси, низоли ҳолатлар, тарбиявий ҳамкорлик, индивидуал ёндашув.

ФАКТОРЫ НЕГАТИВНОГО ВОЗДЕЙСТВИЯ НА ВОСПИТАНИЕ ПОДРОСТКОВ В УСЛОВИЯХ ТРАНСФОРМАЦИИ НАЦИОНАЛЬНЫХ ТРАДИЦИЙ В СЕМЬЕ

В статье представлены проблемы, которые необходимо решить в психолого-педагогическом аспекте жизненного пути подростков, особенности подросткового возраста, педагогические ситуации и механизмы их устранения, задачи, связанные с воспитательной работой. Освещается то, что родители являются главной решающей силой в воспитании подростков в семье, в этом могут проявляться и негативные последствия неправильного воспитания подростков, наряду с этим освещены мировоззрение трудновоспитуемых подростков и специфические особенности индивидуальных отношений.

Ключевые слова: Подростковый период, воспитание гармонично развитого поколения, семейное воспитание подростков, родительское воспитание, конфликтные ситуации, воспитательное сотрудничество, индивидуальный подход.

FACTORS OF NEGATIVE IMPACT ON EDUCATION OF ADOLESCENTS UNDER CONDITIONS OF TRANSFORMATION OF NATIONAL TRADITIONS IN THE FAMILY

The article presents the problems that need to be solved in the psychological and pedagogical aspect of the life path of adolescents, the characteristics of adolescence, pedagogical situations and mechanisms for their elimination, tasks related to educational work. It highlights the fact that parents are the main decisive force in the upbringing of adolescents in the family, this can also manifest the negative consequences of improper upbringing of adolescents, along with this, the worldview of difficult-to-educate adolescents and the specific features of individual relationships are highlighted.

Key words: Adolescence, education of a harmoniously developed generation, family education of adolescents, parental education, conflict situations, educational cooperation, individual approach.

Қириш. Ҳар қандай жамият тараққиётида оилалар мустаҳкамлиги муҳим ўрин тутди. Оилада соғлом муҳит бўлиши, ижобий психологик иқлимнинг ҳукм суриши, шу муҳитда дунёга келиб, шахс сифатида шаклланиб вояга етаётган, кейинчалик ўзи яшаётган давлатнинг фуқаросига айланадиган инсон тақдирига таъсир этади.

Замонавий оилалардаги ўсмир-ёшлар дунёда содир бўлаётган барча воқеа-ҳодисалардан, ижобий ўзгаришлар ва янгиликлардан доимий хабардор бўлиб бораётганлиги барчамизга аён. Шунингдек, бугунги ўсмирлар тараққий этган давлатларнинг оилаларидаги жорий қилинган тарбияси борасида ўз вақтида эшитиб, англаб тушуниб олаётганлигини таъкидлаш жоиз. Демак, Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев келтирганидек, “Биз ёшларимизни мамлакатимиз

ҳаётидаги демократик жараёнларда фаол иштирок этишига, уларнинг сиёсий ва ижтимоий салоҳиятини оширишига алоҳида эътибор қаратишимиз лозим” [1. б. 386].

Миллий анъаналар трансформацияси жараёнида пайдо бўлган янгича тафаккур, янгича дунёқараш ўсмирларда садоқатни, миллий қадрият ва анъаналарга ижобий муносабатларни, ўз оиласига, қавму-қариндошларига ҳамда яқинларига меҳрибонлик муҳитини шакллантиришга хизмат қилиши керак.

Тарбия тушунчасига эътибор берадиган бўлсак, бу – шахснинг ўзи ва ўз хулқи, характери ҳақидаги тасаввур ва тушунчаларининг холис бўлишини таъминловчи жараёндир. Яхши тарбияланган инсон тарбияси оғир бўлган кишидан шу жиҳатлари билан фарқ қиладикки, яъни у ўзининг қандай одам эканини, хатти-ҳаракатлари, фикрлари инсонларга қанчалик манфаатли, фойдали эканини тушунади, ўзини ноҳўя хатти-ҳаракатлардан сақлайди ҳамда назорат қилишга куч топади. Бу борада Куръони Каримда ҳам билим эгаллаш нақадар юксак неъмат эканлиги қуйидагича келтирилган: “*Айттинг: Биладиганлар билан билмайдиганлар тенг бўлурми?!*” [2. б. 459]. Тарбияси етарли даражада бўлмаган одам эса, афсуски, ўз амаллари нафақат ўзгаларга, ҳаттоки, ўзига ҳам зиён, бефойда, бемаъни эканини яхши англаб етмайди.

Ўсмирлик даври дунёқарашнинг ривожланиши, эътиқоднинг мустаҳкамланиши учун ўта жиддий босқич бўлиб, психология тили билан айтганда, “сензитив” (ҳаддан ташқари сезгир, қабул қилувчи) давр ҳисобланади. Шу боис барча таъсир чоралари бевосита ёшлар эътиборига, уларнинг соф қалби, онги ва тафаккурига йўналтирилган бўлади.

Ҳар бир даврнинг ўзига хос тарбиявий усул ва воситалари бўлади. Қадим замонлардан тарбия ёш авлоднинг кекса авлод тажрибаларини ўзлаштириш шакллари билан бири сифатида қараб келинган. Президент Шавкат Мирзиёев тарбия борасида: “*Бизни ҳаммиса ўйлантириб келадиган яна бир муҳим масала – бу ёшларимизнинг одоб-ахлоқи, юриш-туриши, бир сўз билан айтганда, дунёқараш билан боғлиқ. Бугун замон шиддат билан ўзгаришти. Бу ўзгаришларни ҳаммадан ҳам кўпроқ ҳис этадиган ким – ёшлар. Майли, ёшлар ўз даврининг талаблари билан уйғун бўлсин. Лекин айни пайтда ўзлигини ҳам унутмасин. Биз киммиз, қандай улуг зотларнинг авлодимиз, деган даъват уларнинг қалбида доимо аксадо бериб, ўзлигига содиқ қолишга ундаб турсин. Бунга ниманинг ҳисобидан эришамиз? Тарбия, тарбия ва фақат тарбия ҳисобидан*” [3. б.1] – деб таъкидлайди.

Оилада барқамол авлод тарбияси юзасидан жуда кўп олимлар, тадқиқотчилар томонидан олиб борилаётган илмий изланишлар жараёнида янги-янги ечимини қутаётган қирралар очилиб, муаммоли вазиятларни ҳал этишга тўғри келмоқда. Чунки жамият ўзгариши билан оилада фарзанд тарбиясида ҳам ўзгаришлар пайдо бўлмоқда.

Оила бизнинг ҳаётимиз ва жамият тараққиётининг юксак даражага чиқишида, ёхуд, аксинча, ўсмирлар тарбиясида инқирознинг юзага келишига ҳам сабабчи бўлиши мумкин. Чунки оилалардаги носоғлом муҳитнинг, ноқобил ва низоли оилалар ҳамда ажрашишларнинг ортиши натижасида жамиятга турли муаммолар билан бирга, бундай муҳитда дунёга келиб улғайган ўсмирлар ҳам ўз ота-онаси, ака-укаларига ва яқин қариндошларига нисбатан шундай муносабатда бўлади.

Бу борада Азизуддин Насафий “Комил инсон” номли асарига келтиришича: “*Билгилки, комил инсон қуйидаги тўрт нарсага мукамал шаклда эга бўлган инсондир. Уларнинг биринчиси, яхши сўз, иккинчиси эзгу фаолият, учинчиси гўзал ахлоқ, тўртинчиси илм. Бу тўрт нарсага эришган киши комил бўлиши мумкин*” [4. б. 4].

Шахсни шахс бўлиб шаклланиши асосан оила муҳитидан бошланади. Демак, оилада ўсмирнинг асосий хусусиятлари, сифатлари, миллий одатлари, хулқ-атвори, феъли, одамларга нисбатан муносабати, эътиқод ва қарашлари вужудга келади. Оила биологик, тарбиявий, ижтимоий, ахлоқий, маънавий-маърифий ва психологик муносабатларнинг узвий алоқадорлиги натижасида вужудга келади.

Шунингдек, ўзбек оиласида интизом масаласига қадимдан жуда катта аҳамият қаратилган. Оилада тарбияли, маънавиятли ва ахлоқли руҳда шаклланган инсон давлат ва жамият ҳаётида ҳам шу мафкура билан ўз фаолиятини давом эттиради ҳамда ҳукумат қонунларига ҳам интизом нуқтаи назардан ёндашади. Ҳар бир ишни ўз ўрнида ва ўз вақтида белгиланган тартибда амалга оширади. Абдурауф Фитрат бундай интизомлиликнинг ижтимоий моҳиятини келтириб, “Оила ва оила бошқариш тартиблари” асарига шундай ёзади: “*Ҳар бир миллатнинг саодати ва иззати, албатта, шу халқнинг ички интизому ва тотувлигига боғлиқ. Тинчлик ва тотувлик эса шу миллат оилаларининг интизомига таянади. Қаерда оила муносабати кучли интизомга таянса, мамлакат ва миллат ҳам шунча кучли ва мунтазам бўлади*” [5. б. 4].

Авваломбор, ўсмир тарбияси оиланинг тарбиявий кўрсаткичларга, оилада қарор топган ота-онанинг шахси, ҳаёт тажрибаси, иш фаолиятлари, турмуш тарзи ва оила аъзолари ўртасидаги ўзаро муносабатларга, маънавий-ахлоқий ва руҳий кечинмаларга боғлиқ.

Шахс ва унинг индивидуал хусусиятлари тақрорланмасдир. Шундай экан, оила ҳам икки, уч қарра тақрорланмасдир. Масалан, маълум бир оила учун меъёр талабларида бўлган шахслар ўртасидаги муносабатлар барқарорлиги, бошқа бир оилага умуман тўғри келмаслиги ёки аксинча ҳаракатлар ўз навбатида бошқа оила аъзоларининг ўзаро муносабатларида жиддий оқибатларга олиб келиши мумкин.

Алишер Навоий “Ҳамса” асаридаги дostonларида комил инсонлар образларини шакллантирган. “Ҳайрат ул-аброр” асарида Ҳотам Тойи, Нўширавони одил, Аюб, Искандардаги қаноат, вафо, садоқат ҳақидаги ҳикоятларида эзгулик ва жаҳолат, яхшилик ва ёмонлик, инсонийлик ва мунофиқлик ўртасидаги баҳсли муносабатларни кўрамыз. Бу фалсафий воқеаларга мутафаккир шоирнинг қалбидаги ўйлари ҳамда орзу-умидлари жо қилинган бўлиб, бугунги ўсмир-ёшларимиз улардан ўзининг ҳаётлари учун ибрат намуналарини олса бўлади. “*Ёш болага нисбатан энг зарур иш, – деб ёзади у, – билки, уни кичкинализидан парвариш қилишидир*” [6. б. 19].

Ўсмирлар психологиясининг бузилишига олиб келадиган манбалар қаторида:

- ота-она ва оила аъзолари ўртасидаги муносабатларнинг бузилиши;
- ота-оналарда фарзанд тарбияси ҳақидаги билимларининг етишмаслиги;
- болани ақлий ёки жисмоний жиҳатдан ривожлантириш мақсадида ҳаддан зиёд кўп

вазифалар юклаш;

- болага нисбатан бўлаётган турли муносабатларда унинг ёш ва индивидуал хусусиятларини эътиборга олмасликлари;

- спорт машғулотларига барвақт борган боланинг мураббийси билан ўзаро салбий муносабатларнинг пайдо бўлиши;

- боланинг ўз тенгдошлари билан муносабатнинг салбий бўлиши;

- оила аъзоларининг соғлом турмуш тарзига эътиборсизлигини мисол қилиб келтириш мумкин бўлади.

Ота-онаси, онаси билан келини, ота-онаси билан тўнғич фарзандлар (ака, опалар) ўртасидаги можаралар ва келишмовчиликлар ўз навбатида боланинг асабийлашувига, руҳиятининг бузилишига сабаб бўлади дейиш ўринли.

Ўсмирларнинг маънавий қашшоқлиги, ножўя ҳаракатлари юзасидан ўтказилган тадқиқотларда ҳам бир хил хулосалар кўлга киритилган. Бунинг сабаби биринчидан, телеэкранларда кўп зўравонликларни кўрган болалар ҳаётдаги барча масалаларни зўравонлик билан ҳал этиш мумкин деган хулосага келишлари мумкин, иккинчидан, сахнада зўравонликни кўп кўрган киши реал ҳаётда зўравонликлардан анча ҳимоясиз бўлиб қолади, учинчидан, бола сахнада қанча кўп зўравонликларни кўрса, шунча марта зўравонликларнинг қурбони бўлиш эҳтимоли ортади, тўртинчидан, бола сахнада бундай тартибдаги телекўрсатувларни доимий кўриб борса, унинг келажакда бошқаларга нисбатан агрессив инсон бўлиб ўсиши, ҳаттоки жиноят содир этиш эҳтимоли янада ортиши кузатилади.

Юқоридагиларнинг исботи сифатида айрим мактабларда тарбияси бузилган ўқувчилар ўз синфдошларини, ўқитувчиларини ва бошқаларни ўқотар қуроллар билан отиб ташлагани каби мисоллар билан изоҳлаш мумкин. 2021 йил 1 декабрдаги АҚШнинг Мичиган штати Оксфорд шаҳридаги мактабда юз берган отишмада уч киши ҳалок бўлди, саккиз киши яраланди. Бу ҳақда Associated Press [7] хабар берди.

Россия таркибига кирувчи Татаристон Республикаси пойтахти - Қозон шаҳридаги 175-сонли гимназияга 2021 йил 11 май куни уюштирилган ҳужумда, сўнгги маълумотларга кўра, тўққиз киши ҳалок бўлди. [8].

2022 йил 25 майдаги АҚШнинг Техас штати Ювалд шаҳридаги бошланғич мактабда содир этилган отишмада 18 нафар бола ва уч нафар вояга етган шахс ҳалок бўлди. Бу ҳақда сенатор Роланд Гутеррес маълум қилди, деб ёзади «RВК» [9]. Текширувлар натижасига кўра бунга асосий сабаб компьютердаги машҳур ножўя ўйинлар бўлиб чиққан.

Башарти, ўсмирлар ҳулқидаги оғишлар ва тарбия бузилишига таъсир этувчи омилларни ўрганар эканмиз, уларнинг субъектив ва объектив кўринишларини бир-биридан фарқлаш лозим бўлади. Тарбия бузилишининг субъектив сабабларига ўсмир шахсининг қизиқиш ва эҳтиёжлари, дунёқараши ва маънавий олами, мақсад ва йўналишлари, кадриятлари, ҳуқуқий онги, ҳаётий режалари, турмуш тарзи ва мотивлари (ҳаётий йўналиши, мақсад ва қарашлари) киради. Субъектив шарт-шароитларга эса инсонларнинг демографик ва ижтимоий-психологик хусусиятлари, характери, темпераменти, ёши ва жинси киради.

Объектив сабаблар сифатида жамиятдаги носоғлом муҳит, шарт-шароит, иктисодий ва сиёсий беқарорлик, кичик ижтимоий гуруҳлардаги ижтимоий-психологик муҳит ҳамда кишилар билан бўладиган ўзаро шахслараро муносабатларни келтириш мумкин. *“Болани тергаб-назорат қилиш ота-она юзининг ёруғлигини таъминлайди. Тарбиядан ташқаридаги бола бебош ва ярамаслик сари оғади. Эрка бўлиб ўсган ўғил-қизлар хатти-ҳаракати ота-онага мунг ва алам келтиради”* [10. б. 8].

Демак, тарбия бузилишининг объектив шарт-шароитлари эса, жамиятдаги ташкилий ва техник хатоликлар, бошқарув тизимидаги камчиликлар, қонун ва қоидаларнинг талабга жавоб бермаслиги ва бошқалардан иборатдир.

Ўз-ўзидан маълумки, оилаларда содир бўладиган низола ва уларнинг сабабларини ягона бир ўлчам ёки сабаблар билан кўрсатиб бериш мантиқан тўғри эмаслиги ҳаммага аён. Зеро, ҳар хил оилаларни ўрганиш, оила аъзоларининг ўзаро муносабатларини қиёсий таққослашлар асосида айрим нисбий хулоса ва мулоҳазаларга келиш мумкин. Шулардан ҳар бир инсон ўзига тегишли хулоса олишлари мақсадга мувофиқ бўлади.


Ўсмир тарбияси мураккаб бўлиб, бунда ота-она ўз ролидаги фаолиятини қай даражада олиб боришига боғлиқ. Оилаларда болаларнинг тарбияси учун энг қулай шарт-шароитларни яратиш чораларини кўриш керак. Қайсики, ўсмир болалар тарбиясида оилада зиддиятли муҳит устун бўлса, оила аъзолар ўртасидаги ҳам руҳан ҳам қалбан яқинлик мавжуд бўлмаса, ўсмир тарбиясида оғиш ва ривожланишидаги бузилишларга асос бўлиб хизмат қилади.

Ўтказилган тадқиқотларимиз натижасида ўсмир боланинг оилада тарбияланиши ва ижтимоий ҳаёт учун зарур бўлган кўникма ва малакаларни эгаллашида ота-онанинг педагогик уқуви, психологик саводдонлиги катта аҳамиятга эга эканлиги аниқланди. Президентимиз Шавкат Мирзиёев Бухоро вилояти сайловчилар вакиллари билан учрашувдаги нутқида бу масалани ўта муҳим эканлигини таъкидлаб ўтди: *“Фарзандларимизни мустақил фикрли, замонавий билим ва касб-хунарларни эгаллаган, мустақкам ҳаётий позицияга эга, чинакам ватанпарвар инсонлар сифатида тарбиялаш биз учун долзарб аҳамиятга эга бўлган масала ҳисобланади”* [11. б.157-158].

Азал-азалдан ўзбекларда баланд овозда гапириш, кўчага баланд овознинг эшитилиши ор-номус, уят ҳисобланган. Ота-боболаримиз ажрим, болаларни тирик етим қолдириш, уйдаги муаммоларни кўчага олиб чиқиш, қўшнилarga ёмонлик қилиш ва шу қабилардан ор қилишган. Оила аъзолари оиланинг шаъни, ор-номуси учун курашишни, обрў-эътиборини юқори даражага кўтаришни ўзининг шарафи деб билган. Бугунги замонавий жамиятда эса ўсмирлар орасида бир қарашда ўзбек миллатига хос бўлмаган иллатлар, яъни оммавий маданият элементларининг пайдо бўлиб қолаётганлиги, оилавий ҳаётга тайёр эмаслиги, катталарга нисбатан безътибор муносабатларнинг тез-тез кўзга ташланаётганлиги кишини ташвишлантиради. Бу эса ўз навбатида оилавий ўзаро муносабатларда келиша олмаслик ҳамда низоли ҳолатларда ўз аксини топмоқда.

Оилаларда носоғлом психологик муҳитнинг мавжудлиги оилавий муносабатлар нохушлиги, оилавий ажрашишлар, ота-оналардан бирининг йўқлиги, оилавий тарбиядаги йўл қўйилаётган нуқсонлар ҳамда оиланинг тарбиявий таъсирга эга эмаслик ҳолатлари ўсмирларда жиноятчилик хулқининг келиб чиқишига таъсир кўрсатади.

Демак, оилада ўсмирлар тарбиясини ижобий томонга ўзгартиришнинг муҳим омилларини қуйидаги расмда келтириб ўтамыз.



Кузатишларга қараганда, кейинги йилларда оилаларда турли хил сабабларга кўра, масалан, юртимизда кечаётган ислохотлар, кундалик турмуш ташвиш ва қийинчиликларининг ортиб бораётганлиги бўлса, ўз навбатида келажакка нисбатан янгича тафаккур ва дунёқарашнинг етишмаслиги ҳам оилада фарзандлар тарбиясига эътиборнинг биров сусайишига ҳамда оналарнинг фарзандлар билан кам мулоқотда бўлишига сабаб бўлмоқда.

Тадқиқотлар натижасига кўра, оилада ўсмирлар тарбиясида муаммоли ҳолатларни келтириб чиқарувчи сабаблар қуйидагича:

➤ болаларга ота-оналар томонидан диққат-эътиборнинг етишмаслиги ҳамда улар билан мулоқотда бўлиш истагининг сустлиги;

➤ ота-оналар билан фарзандлар бир-бирини тушуниш, ҳамжиҳатлик ва ҳар икки томонлама интилишнинг етишмаслиги;

➤ ота-оналарнинг фарзандларга кўпол ва авторитар муносабатда бўлиши;

➤ оила муҳитида доимий келишмовчилик ва жанжалларга барҳам бериш чораларининг кўрилмаганлиги;

➤ фарзандлар даврасида ота-оналарнинг ножўя хатти-ҳаракатлари, яъни ичкилик, гиёҳвандлик, кашандалик ва уруш-жанжал каби иллатларнинг намоён бўлиши;

➤ оила муҳитида адолатсизлик, иккиюзламачилик, ўғрилиқ, таъмагирлик каби иллатларнинг намоён бўлиши;

➤ ота-оналарнинг билим савиялари, яъни маънавий-маърифий ва мафкуравий даражаларининг пастлиги ёки қарама-қаршилиги;

➤ оила аъзоларини қалбан ва маънан бирлаштирувчи аъёналар, урф-одатларга амал қилишнинг сустлиги;

➤ ота-она ва фарзандлар ўз вазифа ҳамда бурчларига педагогик-психологик нуқтаи назардан ёндашмаслиги, уларга риоя қилмаслиги;

➤ ота ва она ёки ота-она ва фарзанд ўртасидаги ўзаро тушунмовчилик ва келишмовчиликларнинг, зиддиятларнинг сурункали кўринишга эга бўлиши.

Зеро, оила ўсмирларни халқ кадриятларига онгли муносабатда, иллатларга мурасасизликда, юксак ахлоқий ва маънавий сифатларни шакллантиришда, оилавий ҳаётга руҳий ва амалий жиҳатдан тайёрлашда кенг имкониятларни ўзида мужассам этган институт эгаллигини яна бир қарра эътироф этиш мумкин. Цивилизация юқори чўккига кўтарилган сайин оилада фарзандни тарбиялашда, камол топтиришда бир қатор муаммолар ва камчиликларга дуч келинмоқда. Табиийки, ушбу муаммо ва камчиликлар ўсмирлар хулқ-атворида, шахс сифатида шаклланишига ножўя таъсир кўрсатмоқда.

Кайковуснинг “Қобуснома” асарида ёшлар тарбиясида - жувонмардлик талабларидан энг муҳими - ахлоқ тарбияси деб кўрсатилади. У ёшларда инсонга нисбатан инсоний муносабатда бўлиш, адолатлилик, самийлик, сахийлик каби хислатларни таркиб топтиришни истади. У бу борада: *“Эй фарзанд, яхшилик қил ва қилгон яхшиликдан ҳаргиз пушаймон бўлмагил. Бир кишига бир яхшилик қилсанг, кўргилки, яхшилик қилгон вақтда у кишига нақадар роҳат етгон бўлса, сенинг кўнглингга ҳам ундан зиёдроқ шодлик ва хуррамлик етишур. Агар кишига ёмонлик қилсанг, унга нақадар ранж етса, сенинг кўнглингга ҳам ул миқдор танглик етишур. Демак, бу жаҳонда яхшилик ва ёмонлик муқофоти, албатта, етгусидур”* [12. б. 39] – дейди.

Кайковуснинг катта хизмати шундаки, у ёшларни ҳаётга тайёрлашда уларни ҳар томонлама камолга етказишнинг назарий масалаларини амалий фаолиятга тадбиқи нуқтаи назаридан ифодалаши билан ҳамма замонларда, ҳар қандай тузумда ҳам ўз қимматини йўқотмади ва амалий ҳаёт дастури сифатида ўз ўрнига эга бўлди.

Хулоса. Оилада мукамал тарбия кўрмаган болалар турмуш қийинчиликларидан қоқилади. Турли хил низоли вазиятларга дуч келади. Тарбиясизлик ўсмирни яхши ўртоқларидан, давралардан айиради. Оқибатда ўсмир учун бирдан-бир йўл носоғлом хулқли тенгқурлари даврасига кўшилиб кетиш бўлиб қолади.

Тадқиқот натижаларига таянган ҳолда ўсмирларда тарбия бузилишини олдини олиш бўйича қуйидаги хулосаларга келинди:

1. Ўсмирларда тарбия бузилишининг асосий сабабларидан бири уларда ўқишга нисбатан қизиқишни ошириш зарур.

2. Тарбияси оғир ўсмирларнинг пайдо бўлишига олиб келадиган оиладаги низо ва зиддиятларни камайтириш керак.

3. Тарбияси оғир бўлган ўсмирлар хатти-ҳаракатларининг оила аъзолари томонидан назоратини кескин кучайтириш мақсадга мувофиқ.

4. Тарбиясида оғиш бўлган ўсмирларнинг низоли жараёнларга тушиб қолишининг олдини олиш зарур.

5. Тарбиясида оғиш бўлган ўсмирларнинг ота-оналарига қўйиладиган талабларни кучайтириш керак.

6. Ота-оналар билан фарзандлар орасидаги муносабатларнинг бузилишига олиб келувчи сабабларни ўрганиш лозим.

7. Ўсмирлар тарбиясида ғайрияхлоқий хулқнинг пайдо бўлишига оилавий тарбиядаги приметив (эскирган, номаъқул) усуллардан воз кечиш талаб этилади.

8. Ота-оналарнинг фарзандлар тарбиясидаги ғоявий-тарбиявий билимларини ошириш чораларини кучайтириш мақсадга мувофиқ.

Болани қанчалик эрта ўргатсанг, тарбия берсанг, шунчалик тез мослашади, ўрганади. Кўпчилик ота-оналар ёшлигида фарзандимнинг қорни тўқ, усти бут бўлса бўлди, ўйлашади. Аслида бу даврга келиб фарзанд тарбияси, унинг эртанги қуни ҳақида ўйлаш кеч бўлганини айрим ота-оналар вақтида тушуниб етмайдилар. Маълумки, фарзандлар табиатан ҳар хил, яъни турли хил характерга, қобилиятга эга бўладилар. Башарти, ҳар бир ота-она фарзанд тарбиясига бепарқ эмас экан, ўсмирларга ёндашиш, улар билан муносабатда бўлиш ва тарбия бериш усулидан тўлиқ фойдаланиш мақсадга мувофиқдир.

Халқ педагогикасида оила тарбиянинг бирламчи омили эканлиги келтирилади. Оила ўсмирларга қачон ва қандай таъсир этиш усул ва воситаларини тартибли равишда сингдириб бориши, дам олишни, меҳнат ва ўқув машғулоти тартибини белгилаши лозим. Шунингдек, оила ота-она ва фарзандлар орасидаги ўзаро муносабатларнинг энг қулай меъёрларини жорий этиши шарт. Чунки ўсмирлар ўзини қизиқтирган саволларига жавобни энг аввалло ўз оила аъзоларидан, яъни ота-онаси, ака-укаси ва шу каби яқин кишиларидан олишлари мақсадга мувофиқдир. Бу ўз навбатида оила аъзолари орасидаги ижобий муносабатларнинг ўрнатилишида катта аҳамият касб этади.

Қадимдан ажодларимиз оилада фарзандларини мустақил ҳаётга қадам ташлашига, хусусан оилавий ҳаётга тайёрлаш масаласига катта эътибор билан қаратганлар. Шунинг учун оилада ҳар бир фарзандни чақалоқлигидан бошлаб соғлом, жасур, эпчил, чакқон, ботир, мағрур, ор-номусли, ҳаёли-иболи қилиб тарбиялашга алоҳида эътибор беришимиз биз кўзланган баркамол шахсни вояга етказишда етакчи омиллардан бири бўлиб қолаверади.

Адабиётлар:

1. Мирзиёев Ш. Нияти улуғ халқнинг иши ҳам улуғ, ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади. – Тошкент: Ўзбекистон, 2019. - 400 б. 386-б.

2. Қуръони Карим, “Зумар” сураси, 9-оят. /таржимон Шайх Мухаммад Содик Мухаммад Юсуф. –Тошкент: “Ҳилол-нашр”, 2018. – 632 б. 459-Б.

3. Мирзиёев Ш. Тошкент шаҳар Учтепа туманидаги 78-умумтаълим мактабидаги нутқи. “Ёшлар тарбияси – энг муҳим масалалардан”. 2017 йил 16 июнь. [Интернет манба]. URL: <https://uza.uz/posts/56188>. (Мурожаат этилган сана: 2017 йил 16 июнь).

4. Ҳаққул И. Навойига қайтиш. –Тошкент: Фан, 2007. -33 б. 4-бет.

5. Фитрат А. Оила. –Тошкент: Маънавият, 2000. -110 б. 4-б.

6. Мусурмонова О. Маънавий кадрятлар ва ёшлар тарбияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996. – 192 б. 19-Б.

7. “АҚШ мактабида 15 ёшли ўқувчи отишма содир этди. Оқибатда уч киши ҳалок бўлди” [Интернет манба]. <https://daryo.uz/> Дунё хабарлари. 01.12.2021. (Мурожаат этилган сана: 01.12.2021).

8. “Ўзининг “худо” эканини англаган ва қонуний равишда ов милтиғи сотиб олган “оғир-босиқ” талаба. Қозондаги мактабга ҳужум ва ҳужумчининг ўзи ҳақида батафсил” [Интернет манба]. URL: <https://daryo.uz/> Дунё хабарлари. 12.05.2021. (Мурожаат этилган сана: 12.05.2021).

9. АҚШ мактабидаги отишма қурбонлари сони 21 кишига етди. Байден қурол лоббисига қарши курашишга чақирди” [Интернет манба]. <https://daryo.uz/> Дунё хабарлари. 05.25.2022. (Мурожаат этилган сана: 05.25.2022).

10. Тоҳир Малик. Одабийлик мулки (Ахлоқ китоби). – Тошкент: Истиклол, 2005. 140-б. 8-бет.

11. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қураимиз. 1 жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – 488 б. 157-158 б.

12. Кайковус. Қобуснома. –Тошкент: Ўқитувчи, 1973. -208 Б. 39-бет.

ARSLANOVA Umidaxon Komiljon qizi

Namangan davlat pedagogika instituti Maktabgacha va
boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrası o'qituvchisi
E-mail: umidaarslanova1996@gmail.com

**PEDAGOG-TARBIYACHI FAOLIYATIDA KREATIVLIK TUSHUNCHASI VA UNI
RIVOJLANTIRISH YO'LLARI**

Mazkur maqola tarbiyachi pedagogik faoliyatining yetakchi tarkibiy qismi va tarbiyachini pedagogik mukammallik cho'qqisiga ko'tarishda hal qiluvchi omillardan biri bo'lgan kreativlik ya'ni ijodkorlik xususidadir.

Kalit so'zlar: kreativ, ijodkorlik, tasavvur, faoliyat, tafakkur, g'oya, izchil, qobiliyat, ko'nikma, malaka

**ПОНЯТИЕ ТВОРЧЕСТВА В РАБОТЕ ПЕДАГОГА-ВОСПИТАТЕЛЯ И
ПУТИ ЕГО РАЗВИТИЯ**

Эта статья посвящена творчеству, которое является ведущим компонентом педагогической деятельности педагога и одним из решающих факторов в подъёме педагога к вершине педагогического мастерства.

Ключевые слова: творческий, творческий подход, мышление, деятельность, идея, последовательный, способность, навык, умение.

**THE CONCEPT OF CREATIVITY IN THE WORK OF A TEACHER-EDUCATOR AND
WAYS TO DEVELOP IT**

This article is about creativity, which is a leading component of the pedagogical activity of the educator and one of the decisive factors in raising the educator to the peak of pedagogical excellence.

Key words: creative, creativity, imagination, activity, the idea, consistent, ability, talent, formation.

Kirish. Mamlakatimizda ta'lim taraqqiyotiga bo'lgan e'tibor yuksak darajada rivojlanayotgan bugungi zamonda, maktabgacha ta'lim sohasida ham tub burilishlar davri yuzaga kelishiga asos bo'ldi. Maktabgacha yosh davri inson tafakkuri shakllanishidagi eng muhim bosqich sifatida olimlar tomonidan aniq dalillarga asoslanib e'tirof qilinganligi bois ushbu yoshdagi bolalarni har tomonlama barkamol etib tarbiyalash muhim vazifa sifatida qaralmoqda. Xususan, yurtboshimiz Sh.Mirziyoyev ta'biri bilan aytganda: —Aslida, farzandlarimiz tarbiyasida eng asosiy bo'g'in hisoblangan maktabgacha ta'lim tizimining jamiyatimiz hayotidagi o'rni va ahamiyatini hech narsa bilan o'lchab bo'lmaydi. Aynan maktabgacha ta'lim sohasiga bo'lgan e'tibor mamlakatning ertangi taraqqiyoti uchun mustahkam zamin yaratish imkoniyatini beradi, deb hisoblanadi.[1]

Asosiy qism. Ma'lumki komil inson tarbiyasidagi birinchi bo'g'in bu shubhasiz - Maktabgacha ta'limdir. Bugungi kunda respublikamiz hududida maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarining aqliy yetuk, jismonan sog'lom, ayniqsa qobiliyatli ijodkor bo'lib voyaga yetishlari davlat talabi hamdir. Bolaning "Ijodiy rivojlanish" sohasi quyidagi kichik sohalarga bo'linadi: - dunyoni badiiy tasavvur etish; - badiiy-ijodiy qobiliyatlar". Buning uchun esa tarbiyachi o'z ish faoliyatida kreativ sifatlarga ega bo'lmog'i lozimdir. Shu o'rinda kreativlik tushunchasining mohiyatiga to'htalib o'tsak: "Kreativlik" (lot., ing. "create" – yaratish, "creative" yaratuvchi, ijodkor) – individning yangi g'oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati ma'nosini ifodalaydi. [1]

Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg'ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo'ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini, zehni o'tkirlilikni tavsiflaydi. Shuningdek, kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida aks etadi. Aniqroq qilib aytganda kreativlik odatiy ravishda "ijodiy" deb nomlanadigan faoliyatlar masalan, rasm chizish, she'r yoki musiqa yaratish, sahnada rol ijro etish va hokazolar bilan bog'liq bo'lishi shart emas. Kreativlik bu nostandart fikrlash, topqirlik, ixtirochilik, har qanday tasodifiy vaziyatlarga tezkor yechim topa olish, o'z-o'zini rivojlantirish va ish faoliyatiga ijodkorona yondashuv demakdir. Shuni alohida qayd etib o'tish joizki, har bir shaxs tabiatan kreativlik qobiliyatiga ega. Xo'sh, ular o'zlarida kreativlik qobiliyati mavjudligini qanday

namoyon eta olishlari mumkin. Bu o'rinda Amerikalik olim, xalqaro taqdimotchi Patti Drapeau shunday maslahat beradi: "Agarchi o'zingizni kreativ emasman deb hisoblasangiz, hozirdanoq kreativ tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan darslarni tashkil eta boshlashingizni maslahat beraman. Aslida, gap sizning ijodkor va kreativ bo'lganingiz yo bo'lmaganingizda emas, balki darslarni kreativlik ruhida tashkil etishingiz va yangi g'oyalarni amalga sinashga intilishingizdadir". Patti Drapeau nuqtai nazariga ko'ra kreativ fikrlash, eng avvalo, muayyan masala yuzasidan har tomonlama fikrlash sanaladi. [2]

Pedagog-tarbiyachining kreativ qobiliyati ya'ni ijodkorlik sifatiga to'htalib o'tadigan bo'lsak, tarbiyachi o'z-o'zidan ijodkor bo'lib qolmaydi. Uning ijodkorlik qobiliyati ma'lum vaqt ichida izchil o'qib o'rganish, o'z ustida ishlash orqali shakllantiriladi va u asta-sekin takomillashib, rivojlanib boradi.

Har qanday mutaxassisda bo'lgani kabi bo'lajak pedagog-tarbiyachilarning kreativlik qobiliyatiga ega bo'lishlari uchun talabalik yillarida poydevor qo'yiladi va kasbiy faoliyatni tashkil etishda izchil rivojlantirib boriladi. Bunda tarbiyachining o'zini o'zi ijodiy faoliyatga yo'naltirishi va bu faoliyatni samarali tashkil eta olishi muhim ahamiyatga ega. Tarbiyachi ijodiy faoliyatni tashkil etishda muammoli masalalarni yechish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, shuningdek, pedagogik xarakterdagi ijod mahsullarini yaratishga alohida e'tibor qaratishi zarur.

Pedagog-tarbiyachining o'z kasbiy-ijodiy faoliyati davomida eng ustuvor vazifalaridan biri bu - ijodkor shaxsni tarbiyalashdir. Bu esa - kasbiy-ijodiy faoliyat tajribalarini qaror toptirish va boyitish asosida ijodiy g'oya, ularni amalga oshirish ko'nikma va malakalariga ega shaxsni shakllantirish va rivojlantirish demakdir.[3]

Mutaxassislarining fikriga ko'ra insondagi ijodiy jarayonga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi salbiy omillar, ichki va tashqi to'siqlar mavjud. Ichki to'siqlarga quyidagilar kiradi:

- mas'uliyatsizlik, dangasalik;
- mehnatga qiziqishning yetishmasligi;
- kasallik;
- beqaror ruhiy holat;
- zararli odatlar;
- rejimsiz ishlash;
- vaqtni to'g'ri tashkil qila olmaslik;
- xarakter va tafakkurning salbiy fazilatlarini.

Tadqiqotchilar tashqi to'siqlarga quyidagilarni misol qilishadi:

- noqulay muhit (masalan, xona);
- begona aralashuv (shovqin, issiqlik, sovuq va boshqalar);
- jamoada yomon psixologik iqlim;
- faoliyatni yetarli darajada baholanmaganligi (kam baholangan).
- fikrlash stereotiplari;

- xato qilishdan qo'rqish, muammoni o'ziga xos tarzda hal qilmaslik, balki yuqori ball olish istagi;

- haddan tashqari istak ijodiy jarayonni susaytirishi, improvizatsiya, ilhom paydo bo'lishiga xalaqit berishi mumkin;

- bir tomonlama bilim ijodga hissa qo'shmaydi, hayotning turli sohalarida keng manfaatlar zarur;
- diqqat markazida bo'lishdan qo'rqish, isrofgarchilik.

Pedagogning kreativlik potentsiali uning umumiy xususiyati sifatida aks etadi. U ijodiy faoliyatning dastlabki sharti va natijasi sanaladi. Mazkur sifat shaxsning o'z-o'zini namoyon qilish layoqatiga egalikni va tayyorlikni ifodalaydi. Qolaversa, kreativ potentsial negizida har bir mutaxassisning shaxsiy qobiliyatlari, tabiiy va ijtimoiy quvvati yaxlit holda namoyon bo'ladi. Kreativ potentsial bilish jarayoniga yo'naltirilgan ijodkorlik bilan chambarchas bog'liq. Pedagogning kreativ potentsiali an'anaviy tafakkur yuritishdan farqli ravishda quyidagilarda namoyon bo'ladi: - tafakkurning tezkorligi va egiluvchanligi; ¹ - yangi g'oyalarni yaratish qobiliyati; - bir qolipda fikrlamaslik; - o'ziga xoslik; - tashabbuskorlik; - noaniqlikka toqat qilish; Pedagog kreativlik potentsialiga ega bo'lishi uchun kasbiy faoliyatida quyidagilarga e'tiborini qaratishi zarur: - kasbiy faoliyatiga ijodiy yondashish; - yangi-yangi g'oyalarni yaratishda faollik ko'rsatish; - ilg'or pedagogik yutuq va tajribalarni mustaqil o'rganish; - hamkasblar bilan pedagogik yutuqlar xususida fikr almashish. Har bir pedagogning o'zini o'zi rivojlantirishi va o'zini o'zi namoyon eta olishi bevosita uning kreativlik qobiliyatiga egaligi bilan bog'liq. Odatda pedagoglarning kreativlik qobiliyatiga ega bo'lishlari pedagogik muammolarni hal qilishga intilish, ilmiy-tadqiqot ishlari yoki ilmiy loyihalarni amalga oshirish va o'zaro ijodiy hamkorlikka erishishlari orqali ta'minlanadi. Pedagog o'z-o'zidan ijodkor bo'lib qolmaydi. Uning ijodkorlik qobiliyati ma'lum vaqt ichida izchil o'qib-o'rganish, o'z ustida ishlash orqali shakllantiriladi va u asta-sekin takomillashib, rivojlanib boradi. Har qanday mutaxassisda bo'lgani kabi bo'lajak pedagoglarning kreativlik qobiliyatiga ega bo'lishlari uchun talabalik yillarida poydevor qo'yiladi

va kasbiy faoliyatni tashkil etishda izchil rivojlantirib boriladi. Bunda pedagogning o'zini o'zi ijodiy faoliyatga yo'naltirishi va bu faoliyatni samarali tashkil eta olishi muhim ahamiyatga ega. Pedagog ijodiy faoliyatni tashkil etishda muammoli masalalarni yechish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, shuningdek, pedagogik xarakterdagi ijod mahsulotlarini yaratishga alohida e'tibor qaratishi zarur. Muammoli masala va vaziyatlarni hal qilar ekan, pedagogning masala yechimini topishga ijodiy yondashishi unda hissiy-irodaviy sifatlarning rivojlanishiga yordam beradi. Pedagog o'z oldiga muammoli masalalarni qo'yish orqali mavjud bilimlari va hayotiy tajribalariga zid bo'lgan dalillar bilan to'qnash keladi. Buning natijasida o'z ustida ishlash, mustaqil o'qib o'rganishga nisbatan ehtiyoj sezadi. Tarbiyachilar mashg'ulotlarda bolalarning erkin fikr yuritishlarini ta'minlay olishlari kerak. Xuddi shu holatdagina ularning fikrlari kreativlik kasb etadi. *“Kreativlik darslarida talabalar birgina “to'g'ri” javobni izlash o'rniga o'zlarini erkin va hotirjam sezishlari va yuzaga kelgan muammolarga turli echimlarni izlab topishlari maqsadga muvofiqdir. Qancha ko'p g'oya va fikrlarni o'rta tashlasalar, shuncha ko'p g'oyalar kreativ bo'ladi (Simonton, 1999). O'quvchilar “Aqliy hujum” metodidan foydalanmalarida noaniqlikka duch kelishlari mumkin. Talabalarni to'g'ri yo'lga yo'naltirish va keyinchalik ularni mustaqil “sayohatga” qo'yib yuborish ularda kreativ va, hattoki noaniq bo'lsada, turli g'oyalarni o'ylab topishga bo'lgan intilishni kuchaytiradi. CHak Djons aytganiday “Qo'rquv xissining yuzaga kelishi kreativlikka asoslangan har qanday ishda mavjud; havotir kreativlikning xizmatkoridir” (Goleman, Kaufman, & Ray, 1992).* Kreativlik potentsialiga ega pedagog o'zida quyidagi malakalarni namoyon eta oladi: - bajariladigan vazifaning mohiyati va ahamiyatini belgilay bilish; - masalaning qo'yilishini tahlil qila olish; - masalani hal qilish rejasini tuzish; - masalani hal qilishda samarali metodlar (analiz, sintez, induksiya, deduksiya, taqqoslash va b.)larni qo'llash; - masalani hal qilish usullarini tanlay olish; - qabul qilingan qarorning to'g'riligini asoslash va qayta tekshirish; - masalani hal qilishda kichik tadqiqot (izlanish)ni olib borish; - masalani hal qilish sharoiti, jarayonning borishi va masala echimi yakunlarini umumlashtirishga oid dalillarni rasmiylashtirish. Ijodkorlikni rivojlantirish, ijodiy faoliyat qobiliyati sifatida, insonning har tomonlama rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Zamonaviy ta'lim muvaffaqiyatining yetakchi sharti bu faoliyatning o'zi va uning natijasining ijodiy xarakteridir.[4] Pedagogik kreativlik: pedagogning an'anaviy pedagogik fikrlashdan farqli ravishda ta'lim va tarbiya jarayonini samaradorligi ta'minlashga xizmat qiluvchi yangi g'oyalarni yaratish, shuningdek, mavjud pedagogik muammolarni ijobiy hal qilishga bo'lgan tayyorgarligini tavsiflovchi qobiliyati. Pedagogning kreativlik potentsiali uning umumiy xususiyati sifatida aks etadi. U ijodiy faoliyatning dastlabki sharti va natijasi sanaladi. Mazkur sifat shaxsning o'z-o'zini namoyon qilish layoqatiga egalikni va tayyorlikni ifodalaydi. Qolaversa, kreativ potentsial negizida har bir mutaxassisning shaxsiy qobiliyatlari, tabiiy va ijtimoiy quvvati yaxlit holda namoyon bo'ladi. Kreativ potentsial bilish jarayoniga yo'naltirilgan ijodkorlik bilan chambarchas bog'liq bo'lib, an'anaviy tafakkur yuritishdan farqli ravishda tafakkurning tezkorligi va egiluvchanligida, yangi g'oyalarni yaratish, qobiliyati, shuningdek, shaxs xarakteriga xos jihatlari – bir qolipda fikrlamaslikda, o'ziga xoslikda, tashabbuskorlikda, noaniqlikka toqat qilishda, zakovatli bo'lishda aks etadi. Boshqa har qanday sifat (fazilat) kabi kreativlik ham birdaniga shakllanmaydi. Kreativlik muayyan bosqichlarda izchil rivojlantirilib boriladi. Xo'sh, shaxs faoliyatida kreativlik xususiyatlari qachondan namoyon bo'ladi? Odatda kreativlik bolalarning faoliyatida tez-tez ko'zga tashlansada, biroq, bu holat bolalarning kelgusida ijodiy yutuqlarni qo'lga kiritishlarini kafolatlamaydi. Faqatgina ular tomonidan u yoki bu ijodiy ko'nikma, malakalarni o'zlashtirishlari zarur degan ehtimolni ifodalaydi. Bolalarda kreativlikni rivojlantirishda quyidagilarga e'tibor qaratish zarur: 1) ular tomonidan ko'p savollar berilishini rag'batlantirish va bu odatni qo'llab-quvvatlash; 2) bolalarning mustaqilligini rag'batlantirish va ularda javobgarlikni kuchaytirish; 3) bolalar tomonidan mustaqil faoliyatni tashkil etilishi uchun imkoniyat yaratish; 4) bolalarning qiziqishlariga e'tibor qaratish Tadqiqotchi N.Fayzullaeva pedagogik tafakkurga ega bo'lish uchun bo'lajak pedagoglar pedagogika oid bilimlarni puxta o'rganish asosida quyidagi ko'nikma, malakalarni o'zlashtira olishlari zarur deb hisoblaydi: pedagogikaning asosiy g'oyalari, konseptsialari, qonuniyatlarini va pedagogik hodisalarning rivojlanish qonuniyatlarini bilish; pedagogikaning eng muhim nazariy g'oyalari, asosiy kategoriyalari va tushunchalarini bilish; asosiy pedagogic faktlarni bilish; ta'lim va tarbiyaning umumiy uslubi haqidagi amaliy bilimlarni egallash. Psixologiyada E.P.Torrens tomonidan shaxs kreativligini aniqlovchi test ishlab chiqilgan. E.P.Torrensning fikricha, shaxs kreativligi Ozida quyidagi belgilarni namoyon qiladi: 1) savollar, kamchiliklar va bir-biriga zid ma'lumotlarga e'tiborsiz bo'lmaslik; 2) muammolarni aniqlash uchun harakat qilish, ilgari surilgan taxminlar asosida ularning echimini topishga intilish. Bugungi kunda psixologiyada shaxs kreativligi uning faoliyatiga xos ikki jihatga ko'ra aniqlanmoqda. Bunda faoliyatning ikki jihatini yorituvchi testlardan foydalaniladi. Ular quyidagilardir : E.P.Torrensning shaxsa kreativ sifatlarni namoyon bo'lishini aniqlovchi testlarning turlari Bo'lajak pedagoglarda kreativ fikrlash ko'nikmasini shakllantirishdan oldin sinfda qulay muhitni yaratish lozim.

Odatda pedagoglarning kreativlik qobiliyatiga ega bo'lishlari pedagogik muammoni hal qilishga intilish, ilmiy tadqiqot ishlari yoki ilmiy loyihalarni amalga oshirish va o'zoro ijodiy hamkorlikka erishishlari orqali ta'minlanadi, shakllantiriladi va asta-sekin takomillashtirilib, rivojlantirib boradi. Pedagog ijodiy faoliyatni tashkil etishda muammoli masalalarni yechish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, shuningdek, pedagogik xarakterdagi ijod mahsulotlarini yaratishga e'tibor qaratishi lozim. Muammoli masala va vaziyatlarni hal qilar ekan, pedagogning masala yechimini topishga ijodiy yondashishi unda hissiy irodaviy sifatlarning rivojlanishiga yordam beradi. Pedagog o'z oldiga muammoli masalalarni qo'yish orqali mavjud bilimlari va hayotiy tajribalariga zid bo'lgan dalillar bilan to'qnash keladi. Buning natijasida o'z ustida ishlash, mustaqil o'qib o'rganishga nisbatan ehtiyoj sezadi. Zamonaviy ta'lim barcha turdagi ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan tarbiyachi, pedagoglarning ijodkor bo'lishlarini taqozo etmoqda. Pedagog ijodiy faoliyatni tashkil etishda muammoli masalalarni yechish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, shuningdek, pedagogik xarakterdagi ijod mahsulotlarini yaratishga alohida e'tibor qaratish zarur.[5]

Pedagog-tarbiyachi o'zidagi ijodkorlik sifatlarini rivojlantirish uchun:

- sohasiga doir bilim, ko'nikma va malakalariga ega bo'lmog'i,
- ma'lum bir aniq reja asosida ish olib borishi,
- o'z ustida tinimsiz ishlashi,
- badiiy-ilmiy adabiyotlarni ko'p o'qishi,
- faoliyatiga doir eng so'ngi yangiliklar, qaror, farmonlar bilan muntazam tanishib borishi,
- yangilik, o'zgarishlar qilishdan cho'chimasligi,
- ishiga mas'uliyat bilan yondashishi,
- muammoli vaziyatlarda o'zini yo'qotmaslik va oqilona yechim topishga urinish,
- ish jarayonida zamonaviy texnologiyalar va yangi metod usullardan foydalanish,
- og'zaki nutqi ustida ishlash,
- nazariy olgan bilimlaridan amaliyotda unumli foydalana olishi lozim.

Kreativlikni: ijodga intilish, hayotga ijodiy yondashish, o'ziga doimiy tanqidiy nazar solish va tahlil etish deyish mumkin. Hozirgi zamon psixologiya vapedagogika lug'atlariga asoslanib o'qituvchining kreativligi deb uning fikrlaridagi sezgilaridagi, muloqotdagi, alohida faoliyat turidagi, ijodiy yondashish, bilish darajasi deb ta'riflash mumkin. Kreativlik insonda mavjud ma'lumotlarni qayta ishlab chiqarish va ularni cheksiz yangi modelini yaratishga javob beradi. Ta'lim sohasiga qo'yiladigan talablar orasida maktabgacha ta'lim tashkilotlari mutaxassislarining kasbiy va kreativ kompetentligini oshirish uchun qator chora- tadbirlar yo'lga qo'yilgan. Pedagog shaxsiga qo'yiladigan talab - eng avvalo o'z ustida izlanishlar olib borishidir. Shunday ekan, maktabgacha ta'lim tizimida eng muhim ehtiyoj maktabgacha ta'lim tashkiloti mutaxassislarining kasbiy yetukligi bilan birga kreativ kompetentligi hamdir.

Xulosa. Pedagog-tarbiyachi tug'ma ijodkor bo'lmasligi mumkin, lekin yuqorida keltirilgan qoidalarga rioya qilishi natijasida ma'lum muddat ichida, ijodkorlik sifatlariga ega bo'la oladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, hozirgi jadal rivojlanib borayotgan axborot texnologiyalari asrida, har tomonlama yetuk, intellektual salohiyatli, ijodkor-qobiliyatli insonni tarbiyalash uchun pedagog-tarbiyachi o'z kasbiy faoliyatiga, albatta, kreativ yondashishi shartdir. Kreativlik esa ijodkorlik, nostandart fikrlash, muammoli vaziyatlarda tezkor oqilona yechim, o'z ustida tinimsiz ishlash, rivojlangan yuksak tasavvur, ijodiy qobiliyat, ijodiy tafakkur va o'z-o'zini ijodiy shakllantirish demakdir. Bu sifatlarga ega bo'lish uchun pedagog-tarbiyachidan o'z ustida tinimsiz ishlash talab etiladi. Pedagogik jarayonda ijodkorlikni rivojlantirish uchun shaxs salohiyatini oshirishga, ijodiy faolligini oshirishga yordam beradigan o'qitish metodlari va texnologiyalaridan foydalanish zarur. Ushbu texnologiyalar shaxsning o'zini o'zi qadrlashni shakllantirishga, o'z imkoniyatlariga bo'lgan ishonchni oshirishga va voqelik bilan adekvat aloqada bo'lishga to'sqinlik qiladigan psixologik qiyinchiliklarni rivojlanishiga yordam beradi.

Adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим Вазирлиги Наманган давлат университети “Мақтабгача таълимда инновацион ёндашувлар асосида – устоз - шогирд тизимини такомиллаштириш” мавзусидаги илмий-амалий конференцияси материаллари (2022 йил 14-15 апрел).
2. "O'qituvchining ijodkorligi muttasil sohaning rivojlanishi va maktabgacha yoshdagi bolalarni ijodiy o'ylashi uchun zaruriy shart" Antonova N.A. Sorochinsk, 2018 yil.
3. Creativity in research and structural-content meaning of pedagogical creative work. Ibragim kyzy Shynar and Ismuratova Zhanar Ibragimovna
4. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. Scientific Journal Impact Factor. “Kreativ pedagogika – pedagogikaga yangicha yondashuv” Ruzimatova B.S., Yulchiyev I.I.
5. Academic Research in Educational Sciences. “Tarbiyachining pedagogik faoliyatga kreativ yondashuvi”. Xudoyberdiyeva Feruza G'anisher.



AZIZOVA Ozoda Murodquz qizi

Samarqand davlat universiteti
Psixologiya mutaxassisligi
2-bosqich magistranti

TA'LIMDA ART TERAPIYA IMKONIYATLARIDAN FOYDALANISH O'RNI

Ushbu maqolada art terapiyaning xususiyatlari, shaxslararo munosabatlar tizimiga ta'siri haqida fikr yuritilgan. Ta'lim tizimida psixologik muammosi bor o'quvchilar bilan olib boriladigan korreksion rivojlantiruvchi mashg'ulotlarda keng qo'llash yaxshi samara berishligi aytib o'tilgan. Art-terapiya elementlari bilan mashqlar uchun materiallarni tanlash faqat bolaning tasavvuri bilan cheklangan. Rasm chizayotganda o'zini yoshiga mos rasm chizishini tavsiya etiladi. Kichik maktab yoshidagi yoki maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga bo'yoq qurigandan so'ng qalam bilan izlar chizishni taklif qilishingiz mumkin. Mazkur mashqlarni bajarish orqali yaratish va xayolatga solish orqali siz hissiy tajribalaringizni, o'zingizni va ichki dunyoyingizni tushunishingiz mumkin va siz kichikintoyingizga unung uyatchangligini engishga, odamlar bilan ochiq va ochiq muloqatda bo'lishiga yordam bergan bo'lasiz. Mashqlarni tanlashda bemorning yoshi shuningdek ularning aqliy va jismoniy holati (shikastlanishlar, irsiy kasalliklar va boshqalar) juda muhim hisoblanadi. Bolalardan o'zi hojlagandek ranglardan foydalanib bo'yashni tushintiriladi va mavzuning rivojlantirib, bolaning o'z oila a'zolarining tasvirlashga imkon yaratib bering.

Kalit so'zlar: art terapiya, shaxslararo munosabatlar, ruhiy holat, musiqa, raqs, rasm chizish, o'spirin.

«РОЛЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ВОЗМОЖНОСТЕЙ АРТ-ТЕРАПИИ В ОБРАЗОВАНИИ»

В данной статье рассматриваются особенности арт-терапии и её влияние на систему межличностных отношений. Отмечено, что широкое использование коррекционных занятий, проводимых со студентами с психологическими проблемами в системе образования, даёт хороший эффект. Выбор материалов для занятий с элементами арт-терапии ограничивается только фантазией ребёнка. При рисовании рекомендуется рисовать соответствующие возрасту картинки. Можно предложить детям младшего школьного или дошкольного возраста рисовать следы карандашом после высыхания краски. Создавая и представляя эти упражнения, вы сможете понять свои эмоциональные переживания, себя и свой внутренний мир, и вы сможете своему малышу преодолеть застенчивость, открыто и откровенно общаться с людьми. При выборе упражнений учитывают возраст пациента и его психические особенности, большое значение имеет физическое состояние (травмы, наследственные заболевания и др.) Раскрывается необходимость объяснения детям, как рисовать нужными красками, развития темы и предоставления ребёнку возможности описать членов своей семьи.

Ключевые слова: арт-терапия, межличностные отношения, психическое состояние, музыка, танец, рисование, подросток.

THE PLACE OF USING ART THERAPY OPPORTUNITIES IN EDUCATION

This article discusses the features of art therapy and its impact on the system of interpersonal relationships. It has been mentioned that the wide application of correctional exercises conducted with students with psychological problems in the educational system has a good effect. The choice of materials for exercises with elements of art therapy is limited only by the child's imagination. When drawing, it is recommended that he draw age-appropriate pictures. You can offer children of junior school age or preschool age to draw traces with a pencil after the paint dries. By creating and imagining these exercises, you can understand your emotional experiences, yourself and your inner world, and you will help your little one to overcome his shyness, to communicate openly and openly with people. When choosing exercises, the age of the patient and their mental and physical condition (injuries, hereditary diseases, etc.) is very

important. Explain to the children how to paint using the colors they like, and develop the theme and give the child an opportunity to describe his family members.

Key words: *art therapy, interpersonal relations, mental state, music, dance, drawing, adolescent.*

Kirish. Art – terapiya - bu psixokorreksiya usuli bo'lib, birinchi bo'lib 1938-yilda A.Xill tomonidan psixoterapiyada foydalanilgan. Oddiy, ishoniruvchan bolalar nayranglarini eslatadigan mashqlar orqali siz nafaqat har qanday odamning (bolalar ham, kattalar ham, qariyalar ham) ruhiy holatini bilishingiz, tashxislashingiz mumkin. Balki ruhiy tomondan paydo bo'ladigan asab kasalliklarini ham muvaffaqiyatli engishingiz mumkin. Agar siz art-terapiya seansi paytida rasm chizishni rejalashtirmoqchi bo'lsangiz, unda qog'ozni turli formatdagi yoki kartonga joylang. Rangli qalamlar, sezgir uchli qalamlar, qalamchalar, bo'yoqlar, ko'mir- bularning barchasi o'z his tuyg'ularingizni aniq ifoda etishga yordam beradi. Maket yaratish uchun sizga bir hil, shuningdek jurnallar va gazetalarning qirqish uchun qaychi, yelim kerak bo'ladi. Agar siz haykal yasamoqchi bo'lsangiz loy va plastilin kerak bo'ladi.

Asosiy qism. Art-terapiya elementlari bilan mashqlar uchun materiallarni tanlash faqat bolaning tasavvuri bilan cheklangan. Rasm chizayotganda o'zini yoshiga mos rasm chizishini tavsiya etiladi. Kichik maktab yoshidagi yoki maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga bo'yoq qurigandan so'ng qalam bilan izlar chizishni taklif qilishingiz mumkin. Bolaga shunday savol bilan murojaat bilan- “chizgan rasmlaringdan qanday tasvirlarni yaratish mumkin?” deb savol berish bolani chizgan rasmiga e'tiborligini kuchaytiradi.

Art-terapiya- bolalar uchun mashqlar:

- Sinalayotgan bolani ichki hayoti bilan tanishish;
- Shaxs sifatida o'zini rasmini shakllantirish;
- Ijobiy o'zining o'zi imidjini yaratish;
- His tuyg'ularini ifoda etishni o'rgatish;
- Psixoemotsional stressni olib tashlash;
- Ijodiy faoliyatining har xil turlari uchun muloqot qobiliyati va qobiliyatlari.

Mazkur mashqlarni bajarish orqali yaratish va xayolatga solish orqali siz hissiy tajribalaringizni, o'zingizni va ichki dunyoyingizni tushunishingiz mumkin va siz kichikintoyingizga unung uyatchangligini engishga, odamlar bilan ochiq va ochiq muloqatda bo'lishiga yordam bergan bo'lasiz. Mashqlarni tanlashda bemorning yoshi shuningdek ularning aqliy va jismoniy holati (shikastlanishlar, irsiy kasalliklar va boshqalar) juda muhim hisoblanadi. Bolalardan o'zi hoxlagandek ranglardan foydalanib bo'yashni tushintiriladi va mavzuning rivojlantirib, bolaning o'z oila a'zolarining tasvirlashga imkon yaratib bering. Qarindoshlar bolangizning hayotida qanday o'rin tutishi va ularning har biri bilan qanday munosabatda bo'lishi haqida bunday rasmda ko'p narsalarning bilib olishingiz mumkin. Daun sindromiga chalingan bolalar bilan ishlashda juda yaxshi art-terapiya mashqlari o'zining fanda isbotlagan.

Art-terapiya Daun sindromi bo'lgan bolalarga to'g'ri tutish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi. Atr-terapiya texnikasi va mashqlari juda ko'p. Ular bolaga ichki dunyosining shakllantirishga va ularning boshqa tomondan qarashga imkon beradi va vosita qobiliyatlari, tasavvur va ijodiy qobiliyatlarning rivojlantiradi. Bolaning yoshi va uning psixologik holatining hisobga olgan holda mashqlarni tanlang. Natijasi ta'sir ko'rsatishga tez urinmang. Tez orada art-terapiya sizning sevimli bolangizning hayotida va shunga mos ravishda sizning hayotingizda ko'p narsaning o'zgartirishi mumkinligining ko'rasiz. Atr- terapiya psixologlar, psixoterepevtlar va hatto o'qituvchilarning “ eng yumshoq” va shu bilan birga eng chuqur usullaridan biridir. Art-terapiyaning pedagogik yo'nalishi ham mavjud: bu- rivojlanish, ta'lim va ijtimoiylashtirishdir. “Art” so'zi vizual san'at ma'nosini ifodalaydi. Bunga misol sifatida rassomlik, bo'yoqsiz chiziqlar bilan rasm solish san'ati — grafika, haykaltaroshlik kabi san'at turlarini keltirish mumkin. Grekcha “terapiya” so'zi esa “san'at” ma'nosini anglatadi. Art-terapiya mohiyatida inson san'atning biror turi bilan mashg'ul bo'lar ekan — chizadi yoki yasaydi — bunda u kechinmalari va ichki dunyosini namoyon qiladi degan tushuncha yotadi. Davolovchi mashg'ulotlar albatta art-terapevt, psixolog yoki psixoterepevt ishtirokida o'tkazilishi shart. Art-terapiya usuli o'z oldiga qator psixologik vazifalarni qo'yadi. Shu sabab unda mutaxassis ishtiroki va maslahati zarur. Kundalik tashvishlardan chalg'ish, tushkunlik va yolg'izlik dahshatini yengib o'tish uchun musiqa, raqs, rasm chizish kabi mashg'ulotlar yordam berishi tez-tez uchrab turadigan holat. Bolaligimizda turli qiziq faoliyatlar tufayli vaqt hisobini yo'qotib, xayol dunyosiga g'arq bo'lganimizni yaxshi eslaymiz. Art-terapiya shunga o'xshash mashg'ulotlar zamirida paydo bo'lgan va uning maqsadi ham insonga ruhiy beqarorliklar davrida yordam berishdir. Art-terapiyaning ko'plab turlari mavjud: mu-siqaterapiya, ertakterapiya, o'yinterapiya, fototerapiya, qumterapiya, artsintez terapiya va boshqalar. Uni boshqa yo'nalishlar bilan sintez qilish natijasida yangi turlar ham paydo bo'lmoqda. Art terapiya insonga san'at orqali, psixologik muammolarini hal qilishiga ko'maklashadi.

Art terapiyani nimalarda qo'llash mumkin?

- Individual qabulda- shaxsiy rivojlanish, emotsional ta'sir qilishda;
- Guruhni shakllantirishda – shaxslararo munosabat, adaptatsiya, psixologik iqlimni yaxshilash,zo'riqishni yo'qotishda;
- Psixologik konsultatsiyada;
- Oilaviy konsultatsiyada.

Shuni ta'kidlash kerakki, kattalar bilan ishlashda ham, o'spirinlar va bolalar bilan ishlashda ham art-terapiyaning yuqori samaradorligi. bu insonning ichki kuchini ochib berishga imkon beradi. Art-terapiya o'ziga bo'lgan ishonchni oshiradi; sizni dam olishga va shni va fikrlardan xalos bo'lishga o'rgatadi; guruh ishlarida u odamda muhim ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantiradi. Art-terapiya individual va guruh psixoterapiyasida, turli mashg'ulotlarda qo'llaniladi. Shuningdek, u psixoterapiyaning boshqa usullari va yo'nalishlariga, shifo, ta'lim va tarbiya tizimlariga qo'shimcha sifatida xizmat qilishi mumkin.

O'smirlik inqirozi paytida bolalar o'zlarini tushunishlari juda qiyin. Ular hali ham o'zlariga nima bo'layotganining sabablarini tahlil qilishni bilishmaydi. O'smirlar inqirozi qanday kechishiga ta'sir ko'rsatadigan ko'plab omillar: shaxsiy, biologik (rivojlanishdagi yosh normalaridan chetga chiqish, psixofiziologik xususiyatlar, sog'liq muammolari), jamiyatning ishlashi uchun psixologik, pedagogik va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar. Bu kabi ko'plab omillar, ularning kombinatsiyasi ko'pincha o'spirinlarning ijtimoiy nosog'lomligiga (ijtimoiy rivojlanish jarayonining buzilishi, shaxsning sotsializatsiyasi) olib keladi. Art-terapiyada biz imkoniyati cheklangan o'spirinlarga psixolog yoki guruh bilan aloqalarni rivojlantirishga qaratilgan turli xil tasviriy va amaliy san'at turlari (rasm, grafika, rasm, ertak yozuvi, fotosuratlar, mayda plastik san'at, turli xil inshootlar, hunarmandchilik va boshqalar) taklif etamiz. Bir tomondan o'zlarining tajribalarini, muammolarini, ichki qarama-qarshiliklarini yanada aniqroq va nozikroq ifoda etish uchun, boshqa tomondan ijodiy ifoda uchun. Art-terapiyadan foydalanishning ahamiyati shundaki, u turli xil his-tuyg'ular va hissiyotlarni ramziy darajada ifodalash va o'rganish uchun ishlatilishi mumkin: sevgi, nafrat, g'azab, g'azab, qo'rquv, quvonch va boshqalar. Undan foydalanib, odamni tushunishga yordam berasiz. Muammo nima va uni hal qilish yo'llarini ko'rib chiqing. Bundan tashqari, psixolog mijozlarning ijodiy faoliyatiga qanchalik kam aralashsa, olingan terapevtik samarasi shunchalik yuqori bo'ladi, hamdardlik, o'zaro ishonch va qabul qilish munosabatlari o'rnatiladi. Art-terapevtik jarayonda buyruqlar, ko'rsatmalar, talablar, majburlash qabul qilinishi mumkin emas. Art-terapiyada hukmlarni, baholarni, tanqidlarni va jazolarni taqqoslash va baholash taqiqlangan. Mijoz ijodiy faoliyatning mazmunini, ko'rgazmali materiallarni tanlash, shuningdek o'z xohishi bilan ishlash huquqiga ega.

Xulosa. Shunday qilib, art-terapiyani ta'lim tizimining barcha bosqichlarida qo'llash o'spiringa qiyin bo'lgan hamma narsani so'zlar bilan tushuntirishga, o'z qalbiga murojaat qilishga va kundalik fikrlashda nimalarni yo'qotib qo'yishini ko'rishga imkon beradi. Bu o'spiringa o'zini o'zi saqlab qolishga, o'zini noqulay his qilmaslikka, uyalishga, haqoratga berilmaslikka, yanada muvaffaqiyatli, uning fikriga ko'ra bolalar bilan solishtirish orqali o'z tabiatiga ko'ra rivojlanishiga imkon beradi. Moslashuv nuqtayi nazaridan, art terapiyani shaxsni umumiy uyg'unlashtirishga hissa qo'shadigan, atrof-muhitga moslashish imkoniyatlariga nisbatan faol pozitsiyani ta'minlaydigan integratsiyalashgan moslashuv mexanizmi sifatida ko'rib chiqish mumkin ana shunda shaxsdagi ijtimoiylashuv jarayonlarida kamchiliklar kuzatilmaydi.

Adabiyotlar:

1. Киселева М.В (2006) Арт-терапия в работе с детьми: руководство для детских психологов, педагогов, врачей и специалистов, работающих с детьми. Санкт-Петербург;
2. Колошина Т.Ю. Арт-терапия: Методические рекомендации. – М.: Изд-во Института психотерапии и клинической психологии, 2002.
3. Копытин А. И. Современная клиническая арт-терапия. Учебное пособие /А. И. Копытин — «Когито-Центр», 2015.
4. Лебедева Л.Д. Практика арт-терапии: подходы, диагностика, система занятий. - СПб.: Речь, 2003.
5. Баер У. Творческая терапия – Терапия творчеством (Теория и практика психотерапии, использующей различные формы творческой активности). М., Независимая фирма «Класс», 2013.
6. Колошина Т.Ю. Арт-терапия: Методические рекомендации. – М.: Изд-во Института психотерапии и клинической психологии, 2002.
7. Копытин А.И., Свистовская Э.Э. Болалар ва ўсмирлар учун қўлланма ва оилавий арт-терапия. - М.: Когито-маркази, 2006. -- 250 п.

8. Ландгартен Х. Оилавий арт_психотерапия // Ўйин оилавий психотерапия / Эд. С. Счаэффер ва Л. Керей. - Санкт-Петербург: Питер, 2001 йил .-- С. 276--292.
9. Пролх Л. Гуруҳ ёш болалар ва уларнинг ота-оналари билан арт_ терапия // Арт_ терапия - янги уфқлар / Эд. А.И. Туёқ - М.: Когито-Марказ, 2006 .-- С. 87--104.
10. Эдемиллер ЭГ Россия ва дунёнинг замонавий маданий контекстида психиатрия ва психотерапия // Болалар психиатрияси: дарслик / Эд. Э.Г. Эдемиллер .-- Санкт-Петербург: Петер, 2005 .-- 15 - 28 бет.

BAFAYEV Muxiddin Muxammadovich

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Psixologiya kafedrasini mudiri, PhD

TOLERANTLIKNI SHAXSDA NAMOYON BO‘LISHNING PSIXOLOGIK OMILLARI

Tolerantlik murakkab va o‘ziga xos ham ijtimoiy ham individual xususiyatlarini o‘zida mujassam etgan voqelik hisoblanadi. Ahvoli, diniy e‘tiqodiga qaramasdan muvozanatda saqlash me‘yorlarini anglatadi. Tolerantlik faqat insonning o‘z shaxsiy xususiyatlariga aloqador bo‘lgan psixologik tushuncha bo‘lmay, balki insonga xos bo‘lsa ham ana shu o‘ziga xoslikni boshqa insonlarga qarata ishlata olish, qo‘llay bilish ko‘nikmalaridan iboratdir. Hozirgi globallashtirish sharoitida: bir tomondan, dunyo xalqlarining milliy o‘zligini anglashi va ijtimoiy-mental identifikatsiyalashuv jarayoni kuchayishi; ikkinchi tomondan, xalqaro ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy munosabatlar globallashtirishi, ma‘naviy-axloqiy qadriyatlar integratsiyasi sharti bo‘lgan tolerantlik hodisasini alohida maqomga ega bo‘lgan mezonga va omilga aylantirmoqda.

Kalit so‘zlar: shaxs, tolerantlik, psixologik-axloqiy yo‘nalganlik, tolerantlik mezonlari, tolerantlik turlari, etnik tolerantlik, millatlararo tolerantlik, shaxsiy xususiyat, ijtimoiy-madaniy soha, interkorrelyatsion aloqadorlik.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ ПРОЯВЛЕНИЯ ТОЛЕРАНТНОСТИ ЛИЧНОСТИ

Толерантность - это реальность, сочетающая сложные и специфические социальные и индивидуальные особенности. Его состояние, несмотря на религиозные убеждения, означает нормы сохранения в равновесии. Толерантность заключается не только в психологическом понимании человека, имеющем отношение к его личностным особенностям, но и в том, что он похож на человека, но и в его умении использовать и применять эту уникальность в отношении других людей. В условиях нынешней глобализации: с одной стороны, национальное самосознание народов мира и усиление процесса социально-ментальной идентификации; с другой стороны, глобализация международных социальных, экономических, политических, культурных отношений, интеграция духовно-нравственных ценностей превращают явление толерантности в критерий и фактор, имеющий особый статус.

Ключевые слова: личность, толерантность, психолого-нравственная направленность, критерии толерантности, виды толерантности, этническая толерантность, межнациональная толерантность, личностная специфика, социально-культурная сфера, интеркорреляционная связь.

PSYCHOLOGICAL FACTORS OF PERSONAL DEMONSTRATION OF TOLERANCE

Tolerance is a reality that combines complex and specific social and individual features. His condition, despite religious beliefs, means the norms of keeping in balance. Tolerance lies not only in the psychological understanding of a person related to his personal characteristics, but also in the fact that he looks like a person, but also in his ability to use and apply this uniqueness to other people. In the context of the current globalization: on the one hand, the national identity of the peoples of the world and the strengthening of the process of socio-mental identification; on the other hand, the globalization of international social, economic, political, cultural relations, the integration of spiritual and moral values turn the phenomenon of tolerance into a criterion and a factor with a special status.

Key words: personality, tolerance, psychological and moral orientation, tolerance criteria, types of tolerance, ethnic tolerance, interethnic tolerance, personal specificity, socio-cultural sphere, intercorrelational connection.

Kirish. Tolerantlik ko‘rinishlari va turlarning xilma-xilligini anglash “tolerant shaxs” haqida aniq bir xulosa aytish differensial munosabatni talab etadi. Bu muammoni yechish yo‘llaridan biri “tolerantlik - intolerantlik” binar qarama-qarshiligini rad etish va tolerantlik bosqichlari kontinuumini qurishga o‘tish hisoblanadi. Diversifikatsiyaning aspektlaridan yana biri, ko‘p qirralilik, ya‘ni tolerantlikning psixologik mazmuni yagona mazmun emasligi, tolerantlikni faqat bir yondashuv nuqtai-nazaridagina yetarli darajada ta‘riflash mumkin emasligidir.

Eng avvalo tolerantlikni shakllantirishning psixologik prinsiplarini ilmiy jihatdan asoslash lozim. Tolerantlik tarbiyasini amalga oshirish - samarali, davr bilan hamnafas, yoshlar diqqatini o'ziga jalb eta oladigan, yoshlar psixologiyasi va qiziqishlariga javob bera oladigan metod va usullarni izlab topishga qaratilmog'i dardkor. Chunki tolerantlikni inson ijtimoiyligi, jamiyatdagi faol ishtirokisiz tarbiyalab bo'lmaydi. Inson – ijtimoiy mavjudot hisoblanadi. U hayoti davomida o'z ijtimoiyligini muntazam ravishda ko'rsatib boradi. Tolerantlik tarbiyasi esa ana shu ijtimoiylikni ko'rsatishning zaruriy qonuniyatlarini yoshlar tafakkuriga singdirish usuli hisoblanadi.

Asosiy qism. Yoshlarda tolerantlikning shakllantirilishi ularda quyidagi xususiyat va his-tuyg'ularning tarbiyalanishiga olib keladi: mulohazakorlik, insoniylik, g'amxo'rlik, mehribonlik, iroda, qat'iyatlilik, chidam, bardosh, e'tibor, e'zoz, izzat, tavoze, hurmat, tinchliksevarlik, tenghuquqlilik, tushunish va anglash, ochiqlik, yaxshi kayfiyat, keng dunyoqarash, madaniyatlar, xalqlar, urf-odatlar, dinlar va e'tiqodlar tarixini bilish va hurmatlash, bag'rikenglik, millatparvarlik, sabr, kechirimli bo'lish, xalqparvarlik, muloqot madaniyati egallash, muomalali bo'lish, toqat, muruvvatli bo'lish, saxiylilik, mehmonnavozlik, yot g'oyalarga qarshi tura olish, ular mazmunini anglash, yetakchilik, o'z so'zi ustida turish, ma'naviy-ruhiy butunlik, bilimdonlik, dardkashlik, birodarlik, do'stlik, onglilik v.h. Shuningdek, tolerantlik ruhi yoshlarda quyidagi salbiy his-tuyg'ular va kechinmalardan o'zini asrash qobiliyatini shakllantiradi: ikkiyuzlamachilik, qat'iyatsizlik, qahr, g'azab, jizzakilik, o'zini birovlardan ustun qo'yish, o'ziga oro berish, birovlarini mensimaslik, kek, qo'pollik, nizolarni keltirib chiqarish, ziddiyatlarga moyillik, insonlarni bir-biriga qarshi qo'yish, e'tiborsizlik, behurmatlik, guruhbozlik, ayirmakashlik, bilimsizlik, ongsizlik, bezbetlik, manmanlik, xudbinlik, millatchilik, xiyonat, ma'naviy ko'rlik, manqurtlik, sovuqlik, yakkahokimlik, avtoritarizm, egoistlik, kibr, janjalkashlik, surbetlik, o'z manfaatlarini ustun qo'yish, jamoatchilikdan qochish, muomalasizlik, qo'rslik, hirs, aqidaparastlik, buzg'unchilik v.h.

Shunday qilib, yoshlarda tolerantlikni shakllantirish jarayoni mazmuni har tomonlama murakkab va tarmoqlashgan, serqirra mavzular va jihatlar mujassamligidan iborat jarayon bo'lib, uning maqsadi – tolerant tafakkurli komil va yetuk, mustaqil shaxsni tarbiyalashga qaratilmog'i dardkor. Yoshlar shaxsida shakllantirilgan his-tuyg'ular majmuasi, yoshlarning komil va yetuk shaxs sifatidagi irodasi va malakalari ularning faol fuqarolar sifatidagi hayot tarzida o'z aksini topadi.

Shaxsda tolerantlikni shakllantirish – murakkab jarayon bo'lib, o'quvchilarning tengdoshlar va atrofdagi kishilar bilan muloqotga kirishish asosida hamda boshqa kishilarga munosabati va qarashlari bilan bog'liq ijtimoiy voqelik ta'sirida amalga oshadi. Ta'lim muassasalarida tashkil etiluvchi tarbiyaviy faoliyat natijasida talabalarda quyidagi tarzdagi psixologik-axloqiy yo'nalganlik tarkib toptirilishi zarur:

- 1) insoniylik – shaxslararo munosabatlarni insoniylashtirish, insonning ichki olamiga e'tibor qaratish;
- 2) refleksivlik – shaxsiy o'ziga xos xususiyatlari, yutuq va kamchiliklarini anglash, ularni tolerant xulq-atvor bilan bog'liqlikda yo'lga qo'yish;
- 3) javobgarlik – qarorlar qabul qilish vaziyatida ichki kuchlarning namoyon bo'lishiga asoslanuvchi shaxsiy talablar tizimiga egalik;
- 4) himoyalanganlik – boshqa kishilar bilan birgalikda faoliyat yuritishning qo'llab-quvvatlanishi, xavfsizligi va imkoniyati borligining kafolatlanishi;
- 5) moslashuvchanlik – vaziyat, sharoit bilan bog'liqlikda to'g'ri qarorlar qabul qila olish;
- 6) o'z-o'ziga ishonch – o'zining kuch va imkoniyatlarini adekvat baholay olish;
- 7) o'z-o'zini boshqara olish – o'zining his-tuyg'ularini boshqara olish, o'z xulqini nazorat qila olish;
- 8) xilma-xillik – bir-biriga o'xshash murakkab vaziyatlarda qarorlar qabul qila olish, voqelikni baholashda xilma-xil yondashuvlarga tayanish;
- 9) persepsiya – kishilardagi turli xil xususiyatlarni seza olish va aniqlay olish, ularning ichki dunyosini anglash ko'nikmasi;
- 10) empatiya – boshqa kishilarning muammolariga hamdard bo'lish, voqelikni emosional baholay olish;
- 11) hazilkashlik – ayrim holatlar, noqulay vaziyatlardan kulgi yo'li bilan chiqib keta olish [8].

Tolerantlik – o'zgalarning turmush tarzi, xulq-atvori, odatlari, his-tuyg'ulari, fikr-mulohazalari, g'oyalari va e'tiqodlariga nisbatan toqatli, chidamli bo'lishdir. Tolerantlik bu insonning ongli mazmunli va mas'uliyatli tanlovi bo'lib, shaxs muayyan munosabatlarni o'rnatishda o'z pozitsiyasi va faoliyati orqali namoyon bo'ladigan murakkab, ko'p qirrali va komponentli hodisadir [4,5]. Shu nuqtayi nazardan tadqiqotda ishtirok etgan talabalar guruhida tolerantlikni shakllanishida tolerantlikning etnik, ijtimoiy va barkamollik turlari bilan aloqadorlik darajasini o'rganishga harakat qildik. Buning uchun tadqiqotda ishtirok etgan guruhlar o'rtasida “Tolerantlik indekslari” ekspress so'rovnomasi (G.Soldatova, O.Kravsova, O.Xuxlayev, L.Shaygerova) o'tkazilib, empirik ma'lumotlar to'plandi (1-jadval).

1-jadval

Shaxsda tolerantlik mezonlari va tolerantlik turlari o'rtasidagi munosabat xususiyatlari

Tolerantlik mezonlari	Tolerantlik turlari		
	Etnik tolerantlik	Ijtimoiy tolerantlik	Barkamollik
yuqori	0,33*	0,25*	0,09
o'rta	0,23*	0,28*	0,16
quyi	0,1	0,22	0,12

Jadvalda keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, shaxsda tolerantlikning yuqori darajasi etnik tolerantlik bilan ($r=0,33$; $p \leq 0,001$), yuqori darajada, ijtimoiy tolerantlik bilan ($r=0,25$; $p \leq 0,005$) ahamiyatli darajada aloqadorlikka ega ekanligi ma'lum bo'ldi. O'z-o'zidan shaxsda tolerantlikni rivojlanishi ularda etnik va ijtimoiy tolerantlikni ham kuchayishiga sabab bo'ladi. Shuningdek, tolerantlik o'rta darajada shakllanganlarda etnik tolerantlik bilan ($r=0,23$; $p \leq 0,05$) va ijtimoiy tolerantlik bilan ($r=0,28$; $p \leq 0,05$) ahamiyatli aloqadorlik mavjudligi qayd etiladi. Natijalardan ko'rinadiki, shaxsda tolerantlikning rivojlanishi darajasiga ko'ra tolerantlik turlari o'rtasida ijobiy korrelyasion munosabat kuzatiladi. Buni tolerantlik mezonlarida ko'radigan bo'lsak, etnik tolerantlik bilan ijtimoiy tolerantlikning shakllanmaganligi shaxsda tolerantlikning quyi darajada ekanligini bildiradi. Bu esa, o'z navbatida korreksion rivojlantiruvchi tadbirlarni amalga oshirish zaruratini ko'rsatadi.

Tadqiqotimizda belgilangan vazifalardan biri tolerantlik turlari o'rtasidagi aloqadorlikni asoslashdan iborat (2-jadval).

2-jadval

Shaxsda tolerantlik turlarini o'zaro interkorrelyasion aloqadorligi

Tolerantlik indeklari	Tolerantlik indeklari		
	Etnik tolerantlik	Ijtimoiy tolerantlik	Barkamollik
Etnik tolerantlik	1	0,24**	0,19**
Ijtimoiy tolerantlik	0,24**	1	0,30**
Barkamollik	0,19**	0,30**	1

Jadvalda keltirilgan natijalarga ko'ra, talabalik davrida etnik tolerantlik ijtimoiy tolerantlik bilan ($r=0,24$; $p \leq 0,01$), barkamollik bilan ($r=0,19$; $p \leq 0,01$) mustahkam aloqadorlik kuzatiladi. Ma'lumki, etnik tolerantlik shaxsning boshqa etnik jamoa vakillarining notanish turmush tarziga, ularning xatti-harakatlari, milliy urf-odatlar, his-tuyg'ulari, qarashlari, g'oyalari, e'tiqodlari va boshqalarga nisbatan sabr-toqatni namoyon eta olish qobiliyati. Shu nuqtayi nazardan shaxsda o'z millatiga nisbatan qadr-qimmat, urf-odatlariga nisbatan hurmat hissini kuchayishi, o'zga millatlarga bo'lgan munosabatni ijobiy tomonga o'zgarishiga olib keladi. Shu o'rinda aytish lozimki, o'zga millatlarga nisbatan ijobiy munosabat, qarashlarning paydo bo'lishi, ularning milliy urf-odatlar, dini va qadriyatlariga nisbatan hurmat hissining ortib borishi ularda milliy bag'rikenglikni shakllanishidagi muhim omillardan sanalishi mumkin.

“Tolerantlik” va “etnik tolerantlik” tushunchasi mazkur atamalar bir qator umumiy va turli xildagi ta'riflarga ega ekanligi haqidagi xulosalarga kelishga imkon beradi. “Etnik tolerantlik” tushunchasining o'ziga xosligi, birinchidan, u tolerantlikni boshqa etnik guruhga mansublik bilan shartlangan “begona”ni qabul qilishga asoslangan turi sifatida tushuniladi. Ikkinchidan, tolerantlik shaxsning shaxsiy qiyofasi namoyon bo'ladigan xususiyatlari sifatida mushohada qilinsa, etnik tolerantlik boshqa guruhga (guruhlarga) mansublik munosabatlari ko'rsatmalarining majmuasi sifatida tushuniladi. Shundan kelib chiqib, aytish mumkinki, tolerantlik insonni sifatlovchi shaxsiy xususiyat sifatida ancha barqaror tushuncha, etnik tolerantlik/intolerantlik esa ichki shart-sharoitlar va shu bilan birgalikda tashqi omillar bilan shartlangan, o'zgarishlarga oson beriluvchan tushuncha deb xulosa qilish mumkin. Mazkur tadqiqotda etnik tolerantlik/intolerantlik deb boshqa etnik guruhlar vakillarini qabul qilish/qilmaslik darajasida namoyon bo'ladigan ijtimoiy-psixologik ta'rif tushuniladi.

Etnik tolerantlik ko'rsatmalar majmuasi sifatida qaralganda, quyidagi tarkibiy qismlarni ajratib ko'rsatish mumkin [7; 9-b.]:

1. Kognitiv (boshqa etnik guruhlar, ularning madaniyati, etnoslararo munosabatlar haqidagi tasavvurlar; tolerantlik fenomeni to'g'risidagi, etnik mansubligidan qat'iy nazar inson huquqlari haqidagi bilimlar).

2. Emosional (boshqa etnik guruhlarga munosabat).

3. O‘zini tutishga xos munosabatlar (tolerantlik/intolerantlikning aniq jarayonlariga: boshqa etnik guruhlar vakillari bilan muloqotga kirishishga intilish, masofa saqlash, ularga nisbatan tajovuzkorlikni namoyish qilish);

Tolerantlikka bag‘ishlangan tadqiqotimiz muammosini tahlil qilishda, yuqorida aytib o‘tilgan fikrlardan kelib chiqqan holda mushohada yuritamiz. Bizningcha, etnoslararo munosabatlarning shakli va mazmunini tadqiq qilishda tolerantlikning quyidagi turlarini ajratish maqsadga muvofiq:

1. faol tolerantlik (etnoslararo, millatlararo munosabatlarga ochiqlik, tayyorlik);
2. nofaol tolerantlik (millatlararo munosabatning bir maromda emasligi, boshqa etnik guruhlar vakillari bilan muloqotda ijobiy munosabatlarni saqlagan holda, o‘z milliy guruhi vakillari bilan muloqot qilishga moyillikning mavjudligi);

3. tanlovli, ajratib olingan tolerantlik (munosabat biror-bir xususiyat jihatidan chegaralangan xususiyatga ega – tili, dini, madaniyatiga mansubligi yuzasidan);

4. majburiy tolerantlik (tolerantlik biror-bir bosim ostida va ishi yuzasidan katta ahamiyatga ega bo‘lganligi uchun amalga oshiriladi, xususan, xizmat faoliyati nuqtai nazaridan);

5. intolerantlik (boshqa madaniyat va millat vakillari bilan muloqot qilishdan qat’iy bosh tortish).

Etnik tolerantlik asosida ijobiy etnik tenglik yotadi, salbiy etnik tenglikning komponentlarining mavjudligi esa etnik murosasizlikka olib keladi. Ijobiy etnik tenglik o‘z millati tarixi va madaniyatini yaxshi bilgan va sevgan xalqlardagina shakllanadi.

Xulosa. Shunday qilib, tolerantlikning eng muhim xususiyatlaridan biri sifatida etnik tolerantlikni “boshqa etnik guruh vakiliga nisbatan salbiy munosabatning mavjud emasligi, aniqroq qilib aytganda o‘z madaniyatiga nisbatan ijobiy idrokni saqlab qolgan holda boshqa madaniyat tarzini ijobiy qabul qila olish” deb talqin qilish o‘rinlidir. Tadqiqotimizning keyingi bosqichlarida tolerantlikning boshqa turlarini shaxsda namoyon bo‘lish holatlarini tahlil qilamiz.

Shu o‘rinda millatlararo tolerantlik boshqa millatlar hamda etnik guruhlar vakillariga nisbatan namoyon bo‘ladi. Binobarin, etnik guruhlar o‘rtasidagi muloqotda tolerantlik millatlararo muloqot madaniyati darajasini aks ettiradi, millatlararo totuvlikka erishish vositasi, odamlarning yetukligi, hamkorlik qilishga tayyorligi ko‘rsatkichidir. Ijtimoiy-madaniy hodisa va shaxsiy xususiyatlar sifatida tolerantlikning ba’zi bir asosiy xususiyatlarini aniqlash mumkin:

➤ Tolerantlik zamonaviy xalqaro munosabatlarning asoslaridan biri va zamonaviy shaxsning zarur fazilatlaridan biridir;

➤ Tolerantlik – bu etnik guruhlarining ijtimoiy-madaniy o‘ziga xosligini ta’minlaydigan, svilizatsiya saqlanib qolishi va rivojlanishi uchun amaliy shart-sharoitlarni, turli madaniyatlarning muloqoti va chuqur konstruktiv o‘zaro ta’sirini tashkil etadigan qadriyat;

➤ Tolerantlik axloqiy chegaralarga ega bo‘lishi mumkin va bo‘lishi kerak: shafqatsizlik, xiyonat va hokazolarga toqat qilish mumkin emas.

➤ Millatlararo tolerantlik ma’nosining ildizlari “tolerantlik” (bag‘rikenglik)ka borib taqaladi, ammo tolerantlik passiv chekinish bilan cheklanib qolmaydi, balki subyektlarning muloqot yo‘lidagi faol harakatlarini nazarda tutadi;

➤ Millatlararo tolerantlik shaxs yoki bir guruh odamlar faoliyati va xulq-atvorida namoyon bo‘ladi.

➤ Shaxs xususiyati sifatida millatlararo tolerantlik bevosita ijobiy milliy o‘ziga xoslikni shakllantirishga bog‘liq;

➤ Tolerantlik ma’lum bir boshlang‘ich “tabiiy” darajaga ega, undan yangi, maqsadga muvofiq belgilangan darajaga o‘tishi mumkin.

Tolerantlikni shaxsiyat xususiyati sifatida tushunish uchun ushbu sifatning shakllanishi yoki uning yo‘qligini baholash uchun yetarlicha to‘liq va to‘g‘ri mezonlarni ishlab chiqish juda muhimdir.

Adabiyotlar:

1. Асмолов А.Г. На пути к толерантному сознанию. – М.: Смысл, 2000. – 255 с.
2. Андреева Г.М. Социальная психология. 5-е изд. – М.: Аспект Пресс, 2010. – 363 с.
3. Бардиер Г.Л. Социальная психология толерантности. – СПб.: Изд-во, СПбГУ, 2005. – С.120.
4. Бафаев М.М. Структура и классификация толерантности. Освіта та розвиток обдарованої особистості: щоквартальний науково-методичний журнал. – Київ: ІОД. – 2019. № 3 (74). – С. 44-51.
5. Бафаев М.М. Социально-психологические детерминанты формирования национальной толерантности в молодежной среде. “Таълим ва инновацион тадқиқотлар” халқаро илмий-методик журнал. – Бухара, 2021. – Б.139-152
6. Исмоилова Н.З. Ижтимоий психология. Ўқув кўлланма. – Т.: Ўзбекистон файласуфлари

миллий жамияти нашриёти, 2018. – 110-111-бетлар.

7. Каримова Э. Толерантлик ва ҳозирги замон. // Ж. Фалсафа ва ҳуқуқ. – Т., 2008. – №3. – Б.51.

8. Кушакова Г.Э. “Ёшларда толерантлик тафакқурини шакллантириш технологияси (олий таълим муассасалари мисолида)”, 13.00.01–Педагогика назарияси. Педагогика таълимотлар тарихи (педагогика фанлари). пс.ф.б.ф.д.илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. Ж., 2019. – 138 б.

9. Лебедева Н.М. Этническая и кросс-культурная психология: Учебник для высших учебных заведений. – М.: МАКС Пресс, 2011. – С. 61-80.

10.Маматов М.М. Этнопсихология. – Тошкент, 1999. – 59 б.

11. Насирходжаева Г. Бағрикенглик – жамият барқарорлигининг асоси.// Историко-философское наследие Фараби и Беруни в контексте проблемы толерантности (илмий-амалий анжуман материаллари). Тошкент, 2003. – С. 148-149

12.Риэрдон Б. Э. Толерантность — дорога к миру! М.: Бонфи, 2001. 304 с. – с.16.

DAVRANOVA Gulbahor Numondjonovna

Buxoro muhandislik-texnologiya instituti
tayanch doktoranti
(sunny.davranova@gmail.com)

ZAMONAVIY TA'LIMDA RAQAMLASHTIRISH JARAYONI VA UNING PEDAGOGIK IMKINOYATLARI

Ushbu maqolada bugungi taraqqiyot har bir o'qituvchidan o'ziga xos ijodkorlikni, malaka va tajribani taqozo etayotganligi va bu, o'z navbatida, maktab o'qituvchilari zimmasiga katta mas'uliyat yuklashi, XXI asr muallimi yuksak taraqqiy etib borayotgan bugungi fan-texnika yutuqlariga har doim hozirjavob bo'lishi, ulardan o'z darslarida samarali foydalana olishi, darslarda qo'llanadigan interaktiv usullar o'quvchilarda o'z ona tili va yurtiga mehr-muhabbat tuyg'ularini uyg'otish, ularni mukammal savodxonlik darajasiga ko'tarish, mantiqiy aniq va to'liq nutq sohibi bo'lishiga erishish kabi muhim vazifalarni bajarishi, darslarda o'tiladigan mavzuga oid materiallarni topish, ularni bajarishda o'yin usullaridan foydalanish yaxshi natija berishi, bundan tashqari, kompyuterli o'qitish tushunchasining paydo bo'lishi, kompyuter texnologiyalarining turli funksiyalarini bajarishni qo'llab-quvvatlashi uchun apparat va dasturiy ta'minot kerakligi, kompyuterli o'qitish vositalarini yaratish va amalga oshirishda didaktik, uslubiy va texnik jihatlarni farqlash muhim ahamiyat kasb etishi haqidagi fikrlar ushbu maqolada bayon etilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim, axborotlashtirish, o'yin, qiziqish, kompyuter, EHM, elektron axborot resurslari, dasturiy ta'minot, kompyuterli o'qitish vositalari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, Internet, taqdimot, dastur, videokamera, Wi-Fi tarmoqlari, raqamli sinf, pedagogik dasturiy vositalar, motivatsiya, multimediyalar vositalari, pedagogik texnologiya, kompyuter didaktikasi, integratsiya, motiv, sensorli boshqarish, kompyuterlashtirilgan ta'lim texnologiyasi.

ПРОЦЕСС ЦИФРОВИЗАЦИИ В СОВРЕМЕННОМ ОБРАЗОВАНИИ И ЕГО ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ

В данной статье раскрывается то, что современное развитие требует от каждого учителя уникального творчества, умений и опыта, а это, в свою очередь, накладывает большую ответственность на школьных учителей, заставляет их всегда быть в курсе своих достижений, уметь эффективно использовать их на своих уроках, практиковать интерактивные методы, используемые на уроках, чтобы пробудить у учащихся чувство любви к родному языку и стране, поднять их до уровня совершенной грамотности, выполнить важные задачи, такие как стать логичным, ясным и законченным говорящим, найти материалы, относящиеся к теме, изучаемой на занятиях, использовать игровые методы для их качественного выполнения, кроме того, появление концепции компьютерного обучения, потребность в аппаратных и программных средствах для поддержки выполнения различных функций компьютерной техники, создавать компьютерные средства обучения и подчёркивается, что в дальнейшем развитии важно различать дидактический, методический и технический аспекты.

Ключевые слова: образование, информатизация, игра, интерес, компьютер, ЭУ, электронные информационные ресурсы, программное обеспечение, компьютерные средства обучения, информационно-коммуникационные технологии, Интернет, презентация, программа, видеокamera, Wi-Fi сети, цифровой класс, педагогические программные средства, мотивация, мультимедийные средства, педагогическая технология, компьютерная дидактика, интеграция, мотивация, сенсорное управление, компьютеризированная образовательная технология.

THE PROCESS OF DIGITALIZATION AND ITS PEDAGOGICAL CAPABILITIES IN MODERN EDUCATION

This article shows that today's development requires unique creativity, skills and experience from each teacher, and this, in turn, imposes a great responsibility on school teachers. to always be aware of their achievements, to be able to use them effectively in their lessons, interactive methods used in lessons to awaken feelings of love for their native language and country in students, to raise them to the level of perfect literacy, to perform important tasks such as becoming a logical, clear and complete speaker, to find

materials related to the topic taught in classes, to use game methods to perform them well, in addition, the emergence of the concept of computer-based teaching, the need for hardware and software to support the performance of various functions of computer technology, the creation of computer-based training tools and In this article, the opinions about the importance of distinguishing didactic, methodological and technical aspects in raising.

Key words: education, informatization, game, interest, computer, EHM, electronic information resources, software, computer teaching tools, information and communication technologies, Internet, presentation, program, video camera, Wi - Fi networks, digital class, pedagogical software tools, motivation, multimedia tools, pedagogical technology, computer didactics, integration, motivation, touch control, computerized educational technology.

"Ta'lim - bu dunyoni o'zgartirish uchun eng kuchli qurol"

Nelson Mandela


Kirish. Zamonaviy dunyoda kompyuterlashtirish jarayonini uyg'onish davridagi muhim bosqich deb hisoblash mumkin. Bu jarayon insoniyat taraqqiyotidagi sifat o'zgarishlaridan biri bo'lib, insoniyatning ko'plab muammolarini hal qilish imkoniyatidir. Kompyuterlashtirilgan ta'lim texnologiyasi – bu kompyuterdan foydalanishga asoslangan o'qitishdir. O'qitishning kompyuter texnologiyasi yangi axborot texnologiyalarning bir turi bo'lib, bu tushunchaga aniqroq izoh berish, o'z navbatida, “kompyuter” so'zining ma'nosiga murojaat qilishni taqozo etadi. Ma'lumki, kompyuter inglizcha “computer” so'zidan olingan bo'lib, “hisoblash” degan ma'noni anglatadi. U hozirda nafaqat hisoblovchi qurilma, balki matnlar, tovush, video va boshqa ma'lumotlar ustida ham amallar bajaradi. Shunga qaramasdan hozirda uning eski nomi – kompyuter saqlanib qolgan. Uning asosiy vazifasi turli ma'lumotlarni qayta ishlashdan iborat.

Bunda o'quvchilar muvaffaqiyatini baholardan tashqari mukofotlaydigan madaniyatni yaratish lozim. Agar o'quvchi jasorati, mehnatsevarligi, qat'iyati, sinfdoshlariga hurmati uchun ham mukofotlansa, ular o'rganish jarayonining birlamchi ekanini anglab yetishadi. Bunday madaniyat esa halollikni rivojlantiradi. Masalan, maktabda boshlang'ich sinflar kesimida o'quvchilarning bilim va axloqini umumlashtiruvchi darslar jarayonida faollik, boshqalarning fikrini tinglay olish, darsda va darsdan tashqari vazifalarni bajarishda o'ziga talabchanlik, darsga o'z vaqtida kelish, uy vazifalariga yondashuvdagi o'ziga xoslik kabi akademik halollikka dastlabki zamin bo'ladigan fazilatlarini qo'llab-quvvatlash hamda baholab borish bu borada juda samarali natija berishi mumkin.

2. Axloqiy lug'atni rivojlantirish:

Akademik halollik xalqaro markazi (ICAI) ma'lumotiga ko'ra, akademik halollikning 5 asosiy qadriyatlari: mas'uliyat, hurmat, adolat, ishonchlik va halollikni o'z ichiga oladi.

Tadqiqotchilar ushbu 5 qadriyatni maktab milliy o'quv dasturiga kiritishni va o'quvchilarga garchi ular insofsizlik va hurmatsizlik hukm surayotgan jamiyatda yashayotgan bo'lsalarda, odamlar o'z e'tiqodlari va qadriyatlarini himoya qilib, o'zlari yoki butun insoniyat uchun qanday o'zgarishlar qilganiga misollar topishga harakat qilishlari kerak.

3. Sizga nisbatan ishlatilgan yolg'onga haqiqat bilan javob qaytarish:

O'qituvchi sifatida bilim egallash o'zlari uchun birlamchi omil ekanini anglab yetgan o'quvchilarga uni o'zlashtirish uchun o'z xatti-harakatlarini nazorat qilishlari haqida uqdirish, o'quvchilar fikrini hurmat qilgan holda, sinfda hech qachon noinsoflikka o'rin yo'qligini tushuntirish.

4. O'quvchini o'zingizga jalb qilish uchun hikmatli so'zlardan foydalanish:

Dars jarayoni yoki suhbatni imkon qadar mashhur iqtiboslar bilan boshlang. Zero bu o'quvchilarda halollik, axloq va ijobiy odatlar rivojiga yordam beradi.

5. O'quvchilarning o'zlariga ishonishlariga yordam berish:

Bizning fikrimizcha ushbu yo'l bilan yoshlarda o'z vaqti va iqtidorini boshqalardan qizg'anmaslik, ishtiyoq, fidoiylilik, to'siqlarni yengib o'ta olishga ishonchni shakllantirish lozim. Yosh avlod o'ziga ishonchni o'rgansagina insofsizlik va hurmatsizlikning ma'nosi qolmaydi. Halollik bilan yashash hayot tarziga aylanadi.

O'zbek xalqi mentalitetida esa, halollik va to'g'riso'zlik azaldan insonni komillikka yetaklovchi oliy xislatlar sanalgan. Islom shariatida ham halollik inson umrining xotirjam, osoyishta va farovon o'tishi garovidir deyiladi. Ammo bugungi kunda global integratsiyalashuv va texnika taraqqiyoti kabi omillar yosh avlodni, xususan maktab va universitet talabalarini turli bahonalar niqobida halollikdan yuz burishga undamoqda.

Shu bois O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev, 2020-yil Oliy Majlisga murojaatnomasida “halollik vaktsina”si bilan emlash orqali jamiyatimizda halol turmush tarzini barqaror shakllantirish masalasini ko'tarib, ushbu muammoni ziyolilar oldiga vazifa qilib qo'ydi va shu asnosida jamiyatning barcha jabhalarida xususan, ta'lim-tarbiya borasida halollik tamoyiliga tayanib ish ko'rish masalasi ustuvor vazifa qilib belgilandi. Buning uchun avvalo insonlar “halol” va “harom” tushunchalarining mohiyatini chuqur anglab yetishi lozim. Bolalarga halolni bilish va unga amal qilishni erta bolalik davridanoq o'rgatish kerak bo'ladi.

Akademik halollik borasida o'zbek olimlari orasida f.f.f.d Raxmatova Mehriniso Muhsinovna tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlar ta'lim tizimida akademik halollik masalasining dolzarbligi, hamda maktab va universitet ta'lim jarayonlarida akademik yaxlitlikning buzilishiga sabab bo'ladigan qator yechimini kutayotgan muammolarni o'zida aks ettirgan. Olima fikricha, halollik faqatgina axloqiy atama bo'lib qolmay, balki ta'limda kompleks yondashish kerakligi ta'kidlanadi. [19] Ya'ni talabalar va o'quvchilar faqatgina jazolanmay yoki ulardan ayb qidirmagan holda ta'lim tizimining o'rgatish yo'lidan borish kerak degan konsepsiyani ilgari suradi.

Xulosa. Xulosa o'rnida aytib o'tish joizki, akademik halollik borasida olib borilgan xalqaro miqyosdagi ilmiy tajribalar shuni asoslaydiki, bugungi shiddatli taraqqiyot davrida ilmiy halollik ko'zguisida aks ettirish dunyo hamjamiyati hamda milliy ta'lim tizimimiz oldida turgan ustuvor vazifa bo'lib, bu boradagi muammolarga nafaqat o'quvchi yoki talaba, balki ta'lim muassasasi va oila ko'magida yechim topish maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar:

1. Brimble, M., Stevenson-Clarke, P (2005). Perceptions of the prevalence and seriousness of academic dishonesty in Australian universities. *Aust. Educ. Res.* **32**, pp.19–44. <https://doi.org/10.1007/BF03216825>

2. Donald McCabe (Obituary). (2016). Star-Ledger. Retrieved from <http://obits.nj.com/obituaries/starledger/obituary.aspx?pid=181490279>
3. McCabe, D.L., & Treviño, L.K. (1993). Academic Dishonesty: Honor Codes and Other Contextual Influences. *The Journal of Higher Education*, 64, pp.522-538.
4. Bretag, Tracey (2016). *Handbook of Academic Integrity*. Singapore: Springer. ISBN 978-981-287-097-1.
5. Bretag, Tracey; Harper, Rowena; Burton, Michael; Ellis, Cath; Newton, Philip; Rozenberg, Pearl; Saddiqui, Sonia; Haeringen, Karen van (2019-11-02). "Contract cheating: a survey of Australian university students". *Studies in Higher Education*. 44 (11): 1837–1856. doi:10.1080/03075079.2018.1462788. ISSN 0307-5079
6. Bretag, Tracey; Mahmud, Saadia; Wallace, Margaret; Walker, Ruth; James, Colin; Green, Margaret; East, Julianne; McGowan, Ursula; Patridge, Lee (2011-12-12). "Core elements of exemplary academic integrity policy in Australian higher education". *International Journal for Educational Integrity*. 7 (2). doi:10.21913/IJEI.v7i2.759. ISSN 1833-2595.
7. Ellis, Cath; van Haeringen, Karen; Harper, Rowena; Bretag, Tracey; Zucker, Ian; McBride, Scott; Rozenberg, Pearl; Newton, Phil; Saddiqui, Sonia (2020-04-15). "Does authentic assessment assure academic integrity? Evidence from contract cheating data". *Higher Education Research & Development*. 39 (3): pp.454–469. doi:10.1080/07294360.2019.1680956. ISSN 0729-4360.
8. Eaton, Sarah Elaine (2017). "Comparative Analysis of Institutional Policy Definitions of Plagiarism: A Pan-Canadian University Study". *Interchange*. 48 (3): pp.271–281. doi:10.1007/s10780-017-9300-7. ISSN 0826-4805.
9. Eaton, S. E. (2018). Contract cheating: A Canadian perspective. Retrieved from <http://blogs.biomedcentral.com/bmcblog/2018/07/24/contract-cheating-a-canadian-perspective/>
10. Lancaster, Thomas (2019). "The emergence of academic ghost writers from India in the international contract cheating industry". *International Journal of Indian Culture and Business Management*. 18 (3): pp.349. doi:10.1504/IJICBM.2019.099281. ISSN 1753-0806
11. Foltýnek, Tomáš; Králíková, Veronika (2018). "Analysis of the contract cheating market in Czechia". *International Journal for Educational Integrity*. 14 (1): pp.1–15. doi:10.1007/s40979-018-0027-8. ISSN 1833-2595
12. Foltýnek, Tomáš; Glendinning, Irene (2015). "Impact of Policies for Plagiarism in Higher Education Across Europe: Results of the Project". *Acta Universitatis Agriculturae et Silviculturae Mendelianae Brunensis*. 63 (1): pp. 207–216. doi:10.11118/actaun201563010207. ISSN 1211-8516
13. Tricia Gallant, "Revisiting the Past: The Historical Context of Academic Integrity", *Academic Integrity in the Twenty-First Century*, pp. 13–31
14. Tricia Gallant, "Twenty-First Century Forces Shaping Academic Integrity", *Academic Integrity in the Twenty-First Century*, pp. 65–78
15. Tauginienė, L., Gaižauskaitė, I., Razi, S. et al. (2019). Enhancing the Taxonomies Relating to Academic Integrity and Misconduct. *J Acad Ethics* 17, pp.345–361. <https://doi.org/10.1007/s10805-019-09342-4>
16. Khan, Z.R., Dyer, J., Bjelobaba, S. et al. (2021). Initiating count down - gamification of academic integrity. *Int J Educ Integr* 17, 6. <https://doi.org/10.1007/s40979-020-00068-0>
17. Tauginienė, Loreta & Ojstersek, Milan & Foltýnek, Tomáš & Marino, Franca & Cosentino, Marco & Gaizauskaite, Inga & Glendinning, Irene & Sivasubramaniam, Shivadas & Razi, Salim & Ribeiro, Laura & Odineca, Tatjana & Trevisiol, Oliver. (2019). Developing guidelines for academic integrity.
18. Price-Mitchell, M. (2009). Boundary Dynamics: Implications for Building Parent-School Partnerships. *School Community Journal*, 19, pp. 9-26.
19. Musinova, R. M. (2022). *Academic Integrity: Teaching and Learning Challenges. Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes*, pp.30–33. Retrieved from <http://conferenceseries.info/index.php/online/article/view/35>
20. Rakhmatova Mehriniso Musinova. (2021). Aesthetic value in english, uzbek and tajik national cultures. *Academia Globe: Inderscience Research*, 2(05),380–389. Retrieved from <https://agir.academiascience.org/index.php/agir/article/view/19>
21. International Baccalaureate Organization (2019). *Academic integrity*, pp.3-4.
22. Dlabolová Dita (2017). *Academic Integrity Workshop for Secondary School Teachers. European network for academic integrity. Plagiarism across Europe and Beyond 2017—Conference Proceedings*, 5.
23. Tomáš Foltýnek. (2017) *European network for academic integrity. Plagiarism across Europe and Beyond 2017—Conference Proceedings*, pp.11–11

24. Carlgren, I. (2015). Kunskapsstrukturer och undervisningspraktiker. Gothenburg: Daidalos, pp.16-32.
25. Harrison, C., & Howard, S. (2013). Bedömning för lärande i årskurs F-5 : inne i “the primary black box”(2. uppl. ed.). Stockholm: Stockholm : Liber.
26. Swedish National Agency for Education. (2018). Läroplan för grundskolan, förskoleklassen och fritidshemmet 2011 : reviderad 2018(Femte upplagan. ed.). Stockholm: Skolverket
27. Exupery International School (2020). Academic integrity policy.
28. Skagerak International School (2017), ‘Academic Honesty Policy’ https://www.skagerak.org/uploaded/Policies/SIS_Academic_Honesty_policy_FINAL_2017.pdf (Accessed 3 December 2019)
29. Price-Mitchell, M. (2008). Where the Sea Meets the Land: Remembering Gregory Bateson, pp.12-20.
30. International Center for Academic Integrity [ICAI]. (2021). The Fundamental Values of Academic Integrity, pp.4-10. (3rd ed.). www.academicintegrity.org/the-fundamental-values-of-academic-integrity
31. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий мажлисга Мурожаатномаси (2020 йил 29 декабрь) "Халқ сўзи", 2020 йил 30 декабрь

SAFOYEV Husen Aminovich

Buxoro davlat universiteti mustaqil
izlanuvchisi

TALABALARNI HARBIY VATANPARVARLIK RUHIDA TARBİYALASH JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalari talabalarini harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash borasidagi ishlarni yanada kuchaytirish bo'yicha amalga oshirilishi kerak bo'lgan dolzarb vazifalarni yechish masalalariga qaratilgan bo'lib, harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash jarayonlarini takomillashtirishning tizim hamda mexanizmlariga alohida e'tibor qaratilgan. Talaba-yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ta'limning ijtimoiy va shaxsiy yo'naltirilgan qadriyati sifatida qaralishi ta'lim-tarbiya jarayoniga, o'quv rejalar, dasturlar, darsliklar hamda metodik adabiyotlardan samarali foydalanish bo'yicha aniq maqsadga yo'naltirilgan vazifalar belgilab o'tilgan. Shuningdek, maqolada talabalarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda ta'lim muassasalari, oila, ijtimoiy muhitning ta'siri hamda foydali jihatlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: yoshlar, harbiy vatanparvarlik, vatanparvarlik tuyg'usi, sadoqat, fidokorlik, urf-odat, bilim, ko'nikma, malaka, mahorat, iroda, milliy g'urur, axloq va odoblilik, saxovat, jasorat

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПРОЦЕССОВ ВОСПИТАНИЯ СТУДЕНТОВ В ДУХЕ ВОЕННОГО ПАТРИОТИЗМА

В данной статье рассматриваются вопросы решения актуальных задач по дальнейшему усилению работы по военно-патриотическому воспитанию студентов высших учебных заведений, особое внимание уделяется системным механизмам совершенствования процессов военно-патриотического воспитания. Военно-патриотическое воспитание студенческой молодёжи рассматривается как социально-личностная ценность образования, намечены конкретные целенаправленные задачи по эффективному использованию учебно-воспитательного процесса, учебных планов, программ, учебников и методической литературы. В статье также анализируются влияние и полезность образовательных учреждений, семьи, социальной среды в воспитании студентов в духе военного патриотизма.

Ключевые слова: молодёжь, военный патриотизм, чувство патриотизма, верность, самоотверженность, традиции, знания, умения, квалификация, мастерство, воля, национальная гордость, нравственность и порядочность, щедрость, мужество.

IMPROVING THE PROCESSES OF EDUCATION OF STUDENTS IN THE SPIRIT OF MILITARY PATRIOTISM

This article discusses the issues of solving urgent tasks to further strengthen the work on military-patriotic education of students of higher educational institutions, special attention is paid to systemic mechanisms for improving the processes of military-patriotic education. Military-patriotic education of students is considered as a social and personal value of education, specific targeted tasks are outlined for the effective use of the educational process, curricula, programs, textbooks and methodological literature. The article also analyzes the influence and usefulness of educational institutions, families, and the social environment in educating students in the spirit of military patriotism.

Keywords: youth, military patriotism, sense of patriotism, loyalty, dedication, traditions, knowledge, skills, qualifications, skill, will, national pride, morality and decency, generosity, courage.

Kirish. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Qurolli Kuchlar oliy bosh Qo'mondoni Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, “Barchamizga yaxshi ma'lumki, vatanparvarlik har bir davlat hayotining ma'naviy asosi hisoblanadi va jamiyatni har tomonlama rivojlantirish borasida eng muhim safarbar etuvchi kuch sifatida namoyon bo'ladi”. [4]

O'zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichida yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning yangicha tizimini shakllantirish dolzarb vazifalardan biriga aylandi. Ommaviy axborot vositalari, internet tizimidagi

ma'lumot oqimlari hamda jarayonlarning sabablari noaniqligi yosh avlodning fikran sobit, axloqan yetuk, jismonan baquvvat bo'lishini talab qilmoqda. Globalizm, “dunyo odami” tushunchalari butun bir avlodlarni o'z tarixidan, axloqiy va ma'naviy burchlardan mosuvo qilishga, kelajak haqida qayg'urmaslikka-umuman insonning shaxs sifatidagi maqomini yo'q qilishga qaratilgan g'oyalarni ma'lum ma'noda mujassamlashtiradi.

Vatanparvarlik insonning fuqaro hamda muayyan jamiyat a'zosi sifatidagi eng buyuk burchi bo'lib, oilaga sadoqat, kelajakka ishonch, tarixga hurmat, bugungi kuniga e'tibor, atrofdagi insonlar manfaatlarini hisobga olish, haqni nohaqdan ajrata olish kabi xislatlarni jamlaydi. Istalgan qo'shin, jamiyatda vatanparvarlik tuyg'usi kamolga yetmas ekan, uning ixtiyoriga eng zamonavy qurol berilganda ham foydasi bo'lmaydi. Shuning uchun ham Vatan himoyasida, avvalo, inson omili yetakchi o'rinda turadi.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Yoshlarning harbiy hayot, jismoniy tarbiya bilan bog'liq tadbirlarda ishtirok etishida qog'ozbozlik, yuzakilik va sustkashlikka yo'l qo'yish katta xato ekanligi ta'kidlandi. Shuning uchun talaba-yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning yangicha pedagogik texnologiyalar hamda hozirgi zamon talablariga mos dasturlar ishlab chiqish bugungi kunning kechiktirib bo'lmas muhim vazifalardan biriga aylandi.

Ta'lim to'g'risidagi qonunda belgilangan vazifalarning to'laqonli amalga oshirishga erishish ham yoshlarda vatanparvarlik sifatlarini va fidoyilik xususiyatini shakllantirishda muhim omil bo'ladi. Ushbu maqsaddan kelib chiqqan holda yoshlarda harbiy-vatanparvarlik fazilatini rivojlantirish va ijtimoiy maydonga vatanparvarlikni targ'ib qilishning samarali mexanizmlari ishlab chiqish ishlari boshlab yuborildi, bu borada texnik va texnologik vositalarning imkoniyatlaridan to'laqonli foydalanish tizimi yo'lga qo'yildi. Misol uchun, yoshlarda fuqarolik pozitsiyasi, mas'uliyatini shakllantirish maqsadida turli harbiy-sport musobaqalari, ko'rik-tanlovlar o'tkazilmoqda. «Mustaqillik», «Amir Temur», «Jaloliddin Manguberdi» ordenlari, «Jasorat», «Sodiq xizmatlari uchun», «Mardlik» medallari ta'sis etildi. Ayniqsa, yoshlarda harbiy vatanparvarlik hissini shakllantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Harbiy akademik litseylarga «Temurbeklar maktabi» nomi berilishi fikrimizning yorqin dalilidir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi farmoni bilan “Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili” da amalga oshirishga oid davlat dasturi ishlab chiqildi. Ushbu dasturning yettinchi yo'nalishi «Mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish, ochiq, pragmatik va faol tashqi siyosat olib borish» qilib belgilanganligi harbiy vatanparvarlikni chinakam e'tiqodga aylantirish bo'yicha amalga oshirilishi kerak bo'lgan asosiy vazifalar belgilab o'tilgan.

Shu nuqtayi nazardan bugungi kunda yoshlarning ta'lim olishi, kasb-hunar egallashi, yetuk insonlar bo'lib ulg'ayishi yo'lida zamonaviy, ilg'or-innovatsion shart-sharoitlarni yaratib berish uchun barcha imkoniyatlar yaratilmoqda. Chunki yosh avlodni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ma'naviy yetuk, jismonan sog'lom, vatanparvar va fidoyi etib tarbiyalash, huquq hamda manfaatlarini himoya qilishga bo'lgan e'tibor qancha kuchli bo'lsa, uning samarasi ham shuncha yuqori bo'ladi. Shu bois jamiyatimizning faol qatlami sifatida e'tirof etiluvchi yoshlarga “muammo” deb emas, balki yurt ravnaqini ta'minlovchi katta kuch, davlatning strategik resursi sifatida qaralmoqda. Natijada bugun yuksak bilimli, zamonaviy fikrlaydigan, qat'iy pozitsiyaga ega yoshlar mamlakatning ertangi taraqqiyotida tobora hal qiluvchi kuchga aylanib bormoqda.

Talaba-yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ta'limning ijtimoiy va shaxsiy yo'naltirilgan qadriyati sifatida qaralishi ta'lim-tarbiya jarayoniga, o'quv rejalari, dasturlari, darsliklari, metodik adabiyotlarda puxta gavdalantirilishi zarur. Bu ishni amalga oshirishda xalq pedagogikasi – xalq og'zaki ijodi muhim manba hisoblanadi. Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida bosqichma-bosqich tarbiyalash – bugungi kunda harbiy pedagogika fanining asosiy yo'nalishlaridan biridir. Buning uchun turli variativ dasturlar, moslashuvchan shakllar, samarali metodlar, qulay vositalar, pedagogik mos sharoitlar va axborot texnologiyalarini ishlab chiqish talab etiladi. Aynan ijodiy-pedagogik, innovatsion yondashish ta'limning asosiy qadriyati – harbiy-vatanparvarlikni muvaffaqiyatli shakllantirish uchun keng imkoniyat yaratadi.

So'nggi yillarda mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi keskin o'zgarishlar, yangi ijtimoiy munosabatlarning o'rnatilishi, jamiyatning yangi qadriyatlarini shakllanishi milliy ta'lim tizimining maqsad va vazifalarini qaytadan sinchiklab ko'zdan kechirish hamda unga tanqidiy baho berishni taqozo qilmoqda. Ta'lim jarayonining shaxsiga yo'nalganligi, o'quv mashg'ulotlarining sifatli tashkil etilishi, ta'lim-tarbiyaning mazmuni, metodikasi, texnologiyasi zamonaviy talab va ehtiyojlarga mosligi ta'minlanmoqda.

Shu nuqtayi nazardan bugungi kunda har tomonlama rivojlangan, ijtimoiy faol shaxs – talaba-yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash harbiy ta'lim tizimining asosiy maqsadiga aylandi. Natijada talaba-yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash harbiy ta'limning asosiy qadriyati sifatida ilgari surildi.

Oliy ta’lim muassasalari, mehnat jamoalari hamda mahallalarda uyushgan va uyushmagan yoshlar hamda milliy armiyamiz saflaridagi yosh avlod vakillari bilan harbiy-vatanparvarlik yo’nalishidagi tadbirlarni tizimli tashkil etish, bu ishlarni faollashtirish va yuksak darajaga ko’tarish talab etiladi

Shunday ekan, harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ta’limning ijtimoiy-shaxsiy qadriyati sifatida qaraladi, uni amalga oshirishda xalq pedagogikasi, talaba shaxsiga e’tibor va davlat ta’lim siyosatining boshqa metodologik ko’rsatmalari muhim o’rin egallaydi. Pedagogika fani ta’limni rivojlantirishda faol bo’lishi va harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash doirasida muhim muammolarni hal etishi lozim.

Oliy ta’lim muassasalarida talabalarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga tayyorlash haqiqiy jarayonining dialektikasini, shu yo’nalishda foydalaniladigan nazariy-amaliy asoslarning pedagogik samaradorligini ko’rsatib berish muhimdir.

Ta’lim-tarbiyalash nazariyasining amaliyot bilan, o’quv-tarbiyaviy jarayon o’zaro bog’liqligini ko’rsatib berish, talabalarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga tayyorlashning nazariy-amaliy asoslari, yuksak pedagogik samaradorligi yo’llarini asoslab berish, sabablari, qonuniyatlarini ochib berish, shartlarini aniqlash asosiy vazifa hisoblanadi.

Zero, O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 52-moddasida “O’zbekiston Respublikasini himoya qilish – O’zbekiston Respublikasi har bir fuqarosining burchidir”, deb qat’iy belgilab qo’yilgan. Demak, shu mamlakatda yashayotgan har bir fuqaro, ayniqsa, talaba-yoshlar o’z vatani sarhadlarini himoya qilishga mas’uldir. Bu ishlarni amalga oshirish uchun yoshlar o’zlarining fuqarolik majburiyatlarini anglab yetishlari zarur. Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini har bir shakli va metodlarining mazmundorligi, tarbiyaviy maqsadi va ahamiyatiga e’tibor qaratish lozim.

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan 2017-yil 28-iyulda qabul qilingan “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko’tarish to’g’risida”gi PQ-3160-Qarorida “Bugungi kunda dunyoda globallashuv jarayonlari kuchayib, tinchlik va barqarorlikka qarshi yangi tahdid hamda xatarlar tobora ko’payib bormoqda. Bunday murakkab va tahlikali vaziyat sohada amalga oshirilgan ishlarni tanqidiy baholab, uning faoliyatini zamon talablari asosida takomillashtirishni taqozo etmoqda. Xususan, oila, mahalla va ta’lim muassasalarida yoshlar tarbiyasi, chekka hududlar va mahallalarda uyushmagan yoshlar bilan maqsadli g’oyaviy-tarbiyaviy ishlarning yuzaki tarzda olib borilayotgani, jinoyatchilik, diniy ekstremizm va terroristik harakatlarga adashib qo’shib qolish, milliy qadriyatlarga e’tiborsizlik, erta turmush qurish, oilaviy ajralishlar kabi salbiy holatlarning oldini olishga qaratilgan targ’ibot ishlarining aksariyat hollarda kutilgan natijani bermayotgani bu masalalarga jiddiy e’tiborni talab etmoqda”, deya ta’kidlab o’tilgan.

Mazkur maqsadlarni amalga oshirish va yaxshi natijalarni qo’lga kiritish uchun talaba-yoshlarning ma’naviy-ma’rifiy saviyasini ko’tarish, ularda harbiy-vatanparvarlik tuyg’ularini yanada rivojlantirish lozim. Buning uchun oliy ta’lim muassasalari, mahallalar va oilalar hamkorligida turli xil tadbirlar tashkil qilish maqsadga muvofiqdir. Bugungi kunda talaba-yoshlarning harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining turli shakllarini maqsadli qo’llash ta’lim jarayonida kutilgan samaradorlikka erishish imkonini beradi. Buning uchun oliy ta’lim muassasalari ta’lim jarayonida harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining sinovdan o’tgan qator shakl va metodlaridan unumli foydalanish zarur. Ular quyidagilar:

Talaba-yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga oid bu kabi shakl va metodlarni keng ko’lamda olib borish, jamiyatdagi turli psixologik qatlamlar, yosh guruhlari o’rtasidagi tafovutlar va farqlanishlarni bartaraf etadi. Buning natijasida talaba-yoshlarda harbiy-vatanparvarlik hissi samarali ta’minlanadi.

Shuning uchun ham oliy ta’lim muassasalarida harbiy ta’limning ustuvor vazifalaridan biri – talaba-yoshlar ongi va qalbida Vatan himoyachilari shuurida milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarni qaror toptirish, unda kelajakda jamiyatda o’zining munosib o’rnini topishi uchun amaliy-hayotiy ko’nikmalarni shakllantirish orqali ularni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarga faol kirishishlariga imkon yaratishdan iborat.

Shu nuqtayi nazardan, oliy ta’lim muassasalari o’quv-tarbiya jarayonida talabalarga nafaqat harbiy yo’nalishdagi fanlar bo’yicha bilim berish, balki egallagan bilim va malakalarini amaliyotga tatbiq etish, ulardan kelajakda milliy armiyamiz safida xizmat qilish davrida foydalana olish kompetensiyalarini qo’llay olishga o’rgatish ham oliy ta’lim tizimi oldida turgan muhim vazifalardan hisoblanadi.

Bugungi kunda oliy ta’lim muassasalarida harbiy ta’lim berish tizimini mazmunan modernizatsiyalash va ta’lim-tarbiya samaradorligini yangi sifat bosqichiga ko’tarish ustuvor masala bo’lib, hukumat tomonidan qo’yilgan bu sohadagi vazifalar ijrosini ta’minlash muhim amaliy ahamiyatga ega. Buning uchun quyidagilarni samarali amalga oshirish taqozo qilinadi:

- oliy ta’lim muassasalarida talaba-yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga qaratilgan harbiy ta’lim tizimining barcha bosqichlarida fanlarni o’qitish ketma-ketligi va uzluksizligini ta’minlovchi yagona harbiy ta’lim konsepsiyasini yaratish;

- o’qitish va tarbiyalash jarayonlarini uyg’unlashtirish, bo’lajak vatan himoyachilarini nafaqat bilimli, balki ma’naviy, axloqiy jihatdan yetuk shaxs sifatida voyaga yetkazish bo’yicha ta’sirchan pedagogik choralarni ishlab chiqish, oliy ta’lim muassasasi faoliyatiga ulardagi talabalarning harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalanganlik darajasidan kelib chiqqan holda baho berish, buning uchun, eng avvalo, talabalarning bilim darajasini belgilovchi davr talablariga mos mezonlarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish;

- Vatanimizni turli diniy-ekstremistik tashkilotlar, g’oyalar, turli axborot xurujlari ta’siridan himoyalash, buning uchun talaba-yoshlarda harbiy-vatanparvarlik, o’z oilasi, kasbi va yurtiga sadoqat, uning taqdiriga daxldorlik tuyg’ularini tarkib toptirish;

- oliy ta’lim muassasalarida harbiy ta’limni amalga oshirish jarayonida sog’lom ijodiy muhitni yaratish, bunda ilg’or innovatsion, pedagogik va axborot texnologiyalaridan unumli foydalanish orqali harbiy-vatanparvarlik ta’lim-tarbiyasining sifatini yangi bosqichga ko’tarish, talaba-yoshlarning dunyoqarashi, tafakkuri, mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

- Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda talabalarni harbiy-vatanparvarlik – ona yurt mustaqilligi, ozodligi, obodligi, uning sarhadlari daxlsizligi va himoyasi yo’lida fidoyilik ko’rsatib yashash, xalqning ornomusi, shon-sharafi, baxtu saodati uchun kuch-g’ayrati, bilim va tajribasi, butun hayotini baxsh etishdir. Bugungi yoshlar Vatan manfaati, qadr-qimmatini, taqdiri, istiqloli, istiqboli, ona yurtga muhabbat tuyg’usini qancha chuqur anglasalar, shunchalik ularda harbiy-vatanparvarlik tuyg’usi yuksak bo’ladi.

Talaba-yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash jarayonida o’zbek xalqining qadimiy tarixi va madaniyati, jonajon Vatanimizning mustaqilligi va ravnaqi yo’lida fidokorona kurashgan milliy qahramonlarimiz bilan faxrlanish, ularga munosib avlod bo’lish tuyg’usini shakllantirish maqsadga muvofiqdir. Bu esa “Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyasi”ning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Yoshlarda harbiy vatanparvarlikni tarbiyalash faqatgina Vatanni sevish yoki yaxshi ko’rish bilan cheklanmaydi, balki, mavjud ma’naviy va jismoniy imkoniyatlarini to’liq safarbar qilgan holda Vatanni himoya qilish, asrash va ravnaq toptirishga xizmat qiladi.

Oliy ta’lim muassasalarida talaba-yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari, O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari qarorlari, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari, Qurolli Kuchlarning umumharbiy nizomlari va boshqa qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi. Buning natijasida oliy ta’lim muassasalarida talaba-yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari muntazam ravishda tizimli va ilmiy asosda tashkil etiladi.

Talaba-yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash tizimi quyidagilardan iborat:

- oliy ta’lim muassasalarida ta’lim-tarbiya jarayonida talabalarga ijtimoiy-ma’naviy ahamiyatga molik qadriyatlar, Vatanga muhabbat va sadoqat ruhini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan o’quv mashg’ulotlari ko’lamini kengaytirish;

- ommaviy va harbiy vatanparvarlik ishlarini amalga oshiradigan davlat va nodavlat notijorat tashkilotlari bilan hamkorlikda talabalarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashni amalga oshirish.

- Oliy ta’lim muassasalarida talaba-yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash uchun quyidagi diniy va ma’naviy tarbiya metodlarini qo’llash ta’lim jarayonida kutilgan samaradorlikka erishish imkonini beradi:

- talaba-yoshlar ongi milliy ruh va iftihar tuyg’ulari bilan sug’orilgan badiiy kompozitsiyalar, film va roliklar, ko’rsatuv va teleloyihalar;

- milliy va etnik ishlanmalar;

- yurtimizning tarixiy qadamjolariga doimiy ekskursiyalar;

- Vatan himoyachilari bilan uchrashuvlar, ochiq muloqotlar;

- talaba-yoshlarni muqaddas Islom dini olamida mashhur bo’lgan buyuk allomalar Imom al-Buhoriy, Imom at-Termiziy, az-Zamaxshariy, Moturudiylarning ilmiy merosiga qiziqtirish orqali ularda harbiy vatanparvarlik hissini shakllantirish.

- oliy ta’lim muassasalarida yuqoridagi ma’naviy tadbirlar muntazam ravishda o’tkazib borish orqali talaba-yoshlarning nafaqat bo’sh vaqtlarini unumli tashkil etishlari, balki, ularni shu vatan, shu yurt uchun fidoyi inson bo’lib voyaga yetishishlari uchun xizmat qiladi.

➤ Talaba-yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda ularning yosh va psixologik xususiyatlarini bilish hamda hisobga olish muhim hisoblanadi. Shuningdek, ularda o‘ziga ishonch, o‘z xulqini yaxshilash motivlarini quyidagicha shakllantirish mumkin:

- yoshlarning o‘z xulq-atvorlarini o‘zlari baholashga o‘rgatish;
- yoshlarda o‘zlariga nisbatan ishonch hissini shakllantirish;
- oilada farzandlar oldiga qo‘yilgan vazifalarni bajarishda erishgan yutuqlarini rag‘batlantirish;
- yoshlarga tarbiya berishning optimal strategiyasini aniqlash;
- yoshlarga mustaqil faoliyat (o‘qish, o‘yin, mehnat, xobbi va qiziqishlari)ni tanlash uchun imkoniyat berish.

➤ O‘zbekiston Respublikasi milliy xavfsizligi manfaatlaridan kelib chiqqan holda, mafkuraviy tahdidlar o‘ta xatarli va nozik tus olgan sharoitda aholi, ayniqsa, yoshlar orasida harbiy-vatanparvarlik tarbiyasiga yo‘naltirilgan targ‘ibot ishlarining dolzarb yo‘nalishlari sifatida quyidagilarni qayd etish mumkin:

➤ har-bir talaba-yoshda mustaqil fikrlash madaniyatini shakllantirish, mavjud ma‘naviy-mafkuraviy tahdidlarni to‘g‘ri baholash, ulardan tegishli xulosa va saboqlar chiqara olish qobiliyatini shakllantirish;

➤ talaba-yoshlarga darslar va darsdan tashqari vaqtlarda kuchayib borayotgan mafkuraviy tahdidlarga nisbatan doimo sergak, ogoh va hushyor bo‘lib yashashni o‘rgatib borish;

➤ yoshlarda milliy qadriyatlar, vatanparvarlik, davlat va jamiyat manfaatlariga sadoqat, or-nomus, uyat va andisha kabi axloqiy tuyg‘u va tushunchalarning ma‘no-mazmunini chuqur anglab yetishi va amal qilishiga erishish;

➤ yoshlar faoliyatida beparvolik va loqaydlikning oldini olish, ularda hushyorlik va jonkuyarlikni tarbiyalash, mamlakat taqdiriga daxldorlik tuyg‘usini kamol toptirish kabilar.

Xulosa. Oliy ta‘lim muassasalarida talaba-yoshlarda harbiy vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirish bilan bir qatorda, ular qalbida Vatanning mard posbonlari, yurtning jasur farzandlariga bo‘lgan havas va ishonchni mustahkamlash, “Men – Vatan himoyachisiman” degan g‘urur va iftixor tuyg‘ularini singdirish, yoshlar qalbi va ongida mustaqil Vatanimiz xavfsizligi uchun mas‘ullik, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar jarayoniga daxldorlik tuyg‘usi, harbiy tayyorgarlik, sergaklik, botirlik, yurt sha‘nini himoya qilish, askarlik burchini shakllantirishda milliy qahramonlarimiz jasoratining o‘rni beqiyosligini alohida ta‘kidlash lozim.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2021.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmoni. <https://uza.uz/oz/documents/zbekiston-respublikasi-oliy-talim-tizimini-2030-yilgacha-riv-09-10-2019>.

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-fevraldagi 140-sonli qarori asosida shakllantirilgan “Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”– T., 2018. www.lex.uz; Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 23.02.2018. 09/18/140/0816-son.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 25 yilligi munosabati bilan vatan himoyachilariga bayram tabrigi 14.01.2017-yil

5. “Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlikni tashkil etish va uni amalga oshirish tartibi to‘g‘risida” gi Nizom, 2014 y.

6. Mamurov U.I., Junaydullayev M.A. “Harbiy vatanparvarlik nazariyasi” Darslik. 1-qism. Buxoro “Durdona” nashriyoti. 2021-y.

7. Mamurov U.I. “Harbiy qismlarda tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar uslubiyoti” Darslik. Buxoro “Kamolot” nashriyoti. 2022-y.

8. Mamurov U.I., Valiyev A.A.. “Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi” uslubiy qo‘llanma. - Toshkent: Ziyonur” nashriyoti, 2021y.

SAIDOVA Zilola

Buxoro davlat universiteti
mustaqil izlanuvchisi

TA'LIMNI INTEGRATSIYALASH O'QITISHNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH VOSITASI

Maqolada integrativ ta'limning rivojlanishi ijtimoiy hamda axborot kommunikatsiya sohaslarining o'zaro tizimli aloqadorligi, ilm-fanning istalgan yo'nalishida kuzatilayotgan integrativ jarayonlarning barchasi jamiyatning zamonaviy ta'limni oldiga qo'ygan talablarini qondirishga qaratilgan o'quv-tarbiya jarayonining samarasini ta'minlashning ustuvor strategiyasi xususida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: integratsiya, ta'lim, o'qituvchi faoliyati, o'quvchi, fanlararo bog'liqlik, axborot, kasbiy faoliyat.

ИНТЕГРАЦИЯ ОБРАЗОВАНИЯ – СРЕДСТВО ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ОБУЧЕНИЯ

В статье рассматривается приоритетная стратегия развития интегративного образования, представляющего собой системную взаимосвязь социального и информационного коммуникативного полей, интеграционные процессы, наблюдаемые в любом направлении науки, все они обеспечивают эффективность образовательного процесса, направленного на удовлетворение запросов общества на современное образование.

Ключевые слова: интеграция, образование, педагогическая деятельность, студент, междисциплинарность, информация, профессиональная деятельность.

INTEGRATION OF EDUCATION - A MEANS OF INCREASING THE EFFICIENCY OF LEARNING

The article discusses the priority strategy for the development of integrative education, which is a systemic relationship between the social and information communicative fields, integration processes observed in any direction of science, all of which ensure the effectiveness of the educational process aimed at meeting the demands of society for modern education.

Keywords: integration, education, teacher activity, student, interdisciplinary communication, information, professional activity.

Kirish. O'qituvchilarni tayyorlashning sifat jihatidan yangi darajasidagi ta'lim muassasalari, jumladan, Garvard Oliy ta'lim maktabining “Project Zero” tadqiqotchilari turli xil sharoitlarda fanlararo aloqadorlikni o'rganib kelmoqda. Bu esa star-wiki.ru saytida o'z ifodasini topadi. Ular fanlararo bog'liqlik zamonaviy fikrlaydigan talabalar uchun juda muhim ekanligini ta'kidlab o'tishadi. Shuningdek, “UC Berkeley Web Research Environment” (WISE) bilimlarni integratsiyalash nazariyasiga muvofiq ishlab chiqilgan. Bu esa dunyo ta'lim tizimi oldida talabalar tafakkurini rivojlantirish, ularni nazariy-metodik faoliyatga tayyorlashda integrativ yondashuvning ilmiy-amaliy imkoniyatini belgilab beradi.

Mamlakatimizda ham zamonaviy taraqqiyot ta'lim sohasiga jiddiy e'tibor berib, yuqori talablar qo'yimoqda. Bugungi globallashuv va integratsiyalashuv jarayoni nazariy-metodik raqobatni yuzaga keltirmoqda. Shunga bog'liq ravishda mehnat bozorida raqobatbardosh pedagog kadrlarga, erkin fikrlashga qadriyatli – mazmunli munosabatga, axborot-kommunikatsion texnologiyalar hamda boshqa yondosh fanlardan akademik bilim, ko'nikmalarga ega pedagog kadrlarga ehtiyoj yuzaga keldi. Bu esa bo'lajak mutaxassislarining shaxsiy va nazariy-metodik tayyorgarligini jahon standartlari talablari darajasiga yetkazishni taqozo qilmoqda.

Zamonaviy ta'limni bugungi kunda keng qamrovli kompyuter texnologiyalarisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Chunki axborot-kommunikatsiya texnologiyalari nazariy-metodik muammolarni hal qilishning samarali vositasi sifatida maydonga chiqadi. Shu boisdan, talabalarning nazariy-metodik tayyorgarligini axborotlashgan ta'lim muhitida integratsion yondashuv asosida shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, fanlararo bog'liqlik ijodiy faoliyatga qodir malakali mutaxassisni shakllantirish uchun asos bo'lib ham xizmat qilishi mumkin.

Zero, zamonaviy ta’limning asosiy vazifasi yuqori texnologiyalar asosida bo‘lajak mutaxassislarining qobiliyatini ochib berish, hayotga va nazariy-metodik faoliyatga tayyorlash, raqobatdosh kadrlarni dunyo maydoniga chiqarishdan iboratdir. Shuningdek, har bir talabani o‘z oldiga mustaqil ravishda jiddiy maqsadlarni qo‘yishi va ularga erishishi, turli xil nazariy-metodik vaziyatlarga mohirona javob berishi uchun tayyorlashi kerak. Bunga esa pedagogik jarayonga integratsion yondashuv asosida erishish maqsadga muvofiq.

Tahlillar va natijalar. Hozirgi yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda bozor iqtisodiyotidagi o‘zgarishlar talablariga javob beradigan ta’lim tizimida samaraga erishish har qachongidan ko‘ra dolzarbdir. Chunki bugungi kundagi ta’lim oluvchiga bevosita taqdim qilinayotgan axborotlarning keng ko‘lami ularni integrativ yondashuv asosida o‘qitish ehtiyojlarini ham yuzaga keltiradi. Biz uni quyidagicha ifodaladik: ta’lim mazmunining integratsiyasi deganda mazmunlar orasidagi mustahkam aloqa, ularning bir-birlariga o‘tish jarayoni va ularga mos natijalar hamda ushbu jarayondagi bilimlar sintezi, faoliyat turlari va qobiliyatlarning yaxlit tizimidir.

Integratsion yondashuv ta’lim jarayonida integratsiyalash ishlarini tashkil qilish, kasbiy faoliyatga tayyorlashga oid ko‘nikma va malakalarni shakllantirishni tizimga solish, sintez qilingan bilimlarni o‘z ichiga olgan.

Pedagogik atamalar lug‘atida “Integratsiya” – o‘quv fanlarining o‘zaro aloqadorligi; lotincha “integratio” so‘zidan olingan bo‘lib, qayta qurish, tiklash, to‘ldirish; “integr” - to‘liq, butun, yaxlit degan ma‘noni anglatadi. Integratsiya – bir-biri bilan organik birlashib ketish, bir-biriga o‘zaro singdirish, bir-biri bilan birlashib yangi, yagona barqaror umumlashgan yaxlit g‘oyani hosil qilish ma‘nolarini ifoda etganligi bilan ahamiyat kasb etadi [1; 29-b].

Pedagogika ensiklopediyasida Integratsiya (lot. integratio — tiklash, to‘ldirish, integer — butun so‘zidan) — 1) sistema yoki organizmning ayrim qismlari va funksiyalarining o‘zaro bog‘liqlik holatini hamda shunday holatga olib boruvchi jarayonni ifodalaydigan tushuncha; 2) fanlarning yaqinlashishi va o‘zaro aloqa jarayoni; differentsiatsiya bilan birga kechadi; 3) 2 va undan ortiq davlatlarning iqtisodiyotini o‘zaro muvofiqlashtirish va birlashtirish tarzida talqin qilingan. (O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 1-jild. Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2000).

Integratsion tarzda tashkil etilgan darslar fanlararo bog‘liqlikni o‘zida jamlagan holda o‘quvchilar dunyoqarashini har tomonlama rivojlanishiga xizmat qiladi. Bu jarayonni an’anaviy ta’lim tizimi doirasida ham, zamonaviy o‘quv-tarbiya jarayonida ham amalga oshirib borish mumkin. O‘zaro aloqadorlik jarayonining o‘ziga xosligi esa - integrativ tizimning har bir komponenti mohiyatiga ko‘ra sifatli o‘zgarishlarni nazarda tutadi.

Demak, integratsion dars odatdagi darslardan:

- aniqligi, ixchamligi, o‘quv materialining zich ko‘lami;

- darsning har bir bosqichida integratsiyalanayotgan o‘quv fanlarining har taraflama mantiqiy shartlanganligi;

- berilayotgan o‘quv materialidagi keng ko‘lamli axborotga egaligi bilan ajralib turadi.

(Mavlonova R.A. Boshlang‘ich ta’limning integratsiyalashgan pedagogikasi. Metodik qo‘llanma. - T.: Nizomiy nomidagi Toshkent davlat universiteti, 2005. [http:// library.ziyounet.uz/ru/book/33810](http://library.ziyounet.uz/ru/book/33810).)

Pedagogikadagi integrativ yondashuv muammolari ko‘plab tadqiqotchilarning asarlarida turli ko‘rinishda ko‘rib chiqilgan.

I.G.Pestalossi o‘quv fanlar o‘zaro bog‘lanishlarining turli-tumanligini ochishda: “O‘z onginda mohiyatiga ko‘ra, barcha o‘zaro bog‘langan fanlarni ular tabiatda haqiqatdan qanday aloqada bo‘lsa, aynan shunday aloqaga keltirish kerak” - degan fikrni ilgari suradi.

Bir qator turkum fanlardan olingan ma’lumotlardan foydalanib, o‘quvchilarni nutq uslublari bilan tanishtirish imkoniyatiga ega bo‘lish maqsadga muvofiq. Mazkur jarayonda ta’lim oluvchilar badiiy uslubni adabiyot, ilmiy uslubni biologiya, kimyo, fizika, matematika, ish qog‘ozlari uslubini huquq asoslari fanlaridan olingan materiallar asosida o‘zaro aloqadorlikda o‘rganishlari zarur [2; 38-b].

Tadqiqotlar tahlili natijasida olimlarning pedagogikada integrativ ta’limning bir qator kategoriyalarini ajratib ko‘rsatganligini keltirib o‘tamiz: integrativ tizim, integratsiya jarayoni, integratsion yondashuv, integratsiya tamoyillari, integrativ omillar, integratsiya shakllari. Mazkur kategoriyalar mazmunan quyidagicha ifodalanishi qayd etiladi.

Integratsiya tamoyillari - o‘quv jarayonining barcha komponentlarining o‘zaro aloqadorligini, tizimlar orasidagi bog‘liqlikni nazarda tutadi. Shuningdek, ta’lim maqsadini belgilashda, o‘qitishning mazmuni, uning shakllari va usullarini aloqadorlikda tashkil etishda birlamchi hisoblanadi.

Integrativ yondashuv - bu pedagogik jarayonning istalgan komponentida integratsiya tamoyilini amalga oshirishni ko‘zda tutadi va pedagogik jarayonning yaxlitligi va izchilligini ta’minlaydi.

Integral jarayonlar - bu tizimning alohida elementlarini yoki butun tizimni sifatli o'zgartirish jarayoni.

Bizningcha, manbalarni tahlil qilish har qanday turdagi tadqiqot maqsadlariga muvaffaqiyatli erishish uchun zarur shartdir. Lekin, birinchi navbatda, bu “voqelik haqidagi bilim” va “bilim haqidagi voqelik” ka ega bo'lgan nazariy va uslubiy tadqiqotlarga tegishli. Shunday ekan, integratsiyalashgan yondashuv muammosiga doir ko'rib chiqilayotgan manbalarni quyidagi guruhlar ko'rinishida yoritish mumkin:

- 1) integratsiyaning nazariy masalalarini yoritadigan va tahlil qiladigan guruhi;
- 2) fanning ayrim tarmoqlari va mavzulari orasidagi bog'liqlikni o'rganuvchi guruhi.

L.Fedotovning “Integratizm hayot hodisalarini bilishda soddadan murakkabgacha bo'lgan yo'l” nomli maqolasida qismlar va yaxlit integratsiyaning uch bosqichi ajratiladi (tizimning paydo bo'lishi). Bunda integratsiya – qismlar orasidagi aloqa; butun tarkibga kirganda, ularning o'ziga xos xususiyatlarini elementlari yo'qolishi (bir butunlilik); qismlarning xossalari tufayli hamda bo'linmalararo aloqalarning paydo bo'lishi sababli ham yangi xususiyatlarning yuzaga kelayotgan yaxlitligining namoyon bo'lishi deb tavsiflanadi [4].

Falsafiy va ilmiy adabiyotlarda pedagogik integratsiyaning muammolari va uning yechimiga doir har xil qarashlar mavjud. Bu borada inson tafakkuri turli fanlarning kelib chiqishi haqidagi bilimlarning ko'payishi bilan to'yinganligi bois ularni sintetik idrok etish imkoniyatini beradigan samarali qarshi choralar ko'rishni o'rganish vazifasini qo'yadi. Shunga ko'ra chora-tadbirlar quyidagilarda o'z ifodasini topadi:

a) o'quv jarayonida amaliy muammolarni ham, ilmiy-nazariy muammolarni ham fanlararo aloqadorlikda hal qilish;

b) o'quv jarayonida kibernetik mashinalarning keng qo'llanilishiga ahamiyat berish;

v) ta'limning barcha bosqichlarida bilimlarni aloqadorlikda mustaqil egallash ko'nikmalarini singdirishni ta'minlaydigan usullardan foydalanish va h.k. [4].

Ma'lum darajada, sinergetik paradigma shaxsga integratsiya kategoriyalarini ishlab chiqish va amalga oshirishda ratsionalistik va irratsional yondashuvlar o'zaro ta'sirining qiyinchiliklarini yengishga yordam beradi. Demak, “hozirgi vaqtda har qanday chinakam ijodiy jarayon an'anaviy va noan'anaviy bilimlarni birlashtirish bilan bog'liq. Aynan ularning bo'g'inida yangi sohalarga katta yutuqlar kiritiladi, ko'pincha eng murakkab muammolarni yorqin va o'ziga xos yechimlari taklif etiladi” [5].

Fanlararo aloqadorlikning pedagogik-psixologik jihatdan hamda ushbu muammoning metodik jihatdan tadqiq qilinishi “Shaxsning integratsion konsepsiyasi” ning mazmun-mohiyatini ko'rsatadi. Bu konsepsiya inson hayotining turli jihatlari va sohalarini tavsiflashning umumiy tamoyillari asosida amalga oshirilishi mumkin: elementlarning xilma-xilligi, kombinatsiyasi (uyg'unlashuvi) va hokazo. Bir-birini to'ldirish va kompensatsiya qilish yanada ortadi [5]. Shunday qilib, integrativ yondashuv inson uchun uning ijodiy tabiatini tan olib, ratsional chegaralarini uzoqlashtiradi. Irratsionalistlar shu tariqa ma'lum va noma'lum sohaning doimiy izlash istiqbollarini belgilaydilar. Bunda har bir yo'nalishning o'z xususiyatlarini saqlanib qolishiga alohida ahamiyat qaratiladi.

Bilamizki, ta'limning rivojlanishi o'qishning barcha shakllarini birlashtirish imkoniyatini yaratadi. “Nazariy muammo - amaliyotda joriy etish” siklini o'zlashtirishning yagona tizimi paydo bo'ladi [5]. Mazkur jarayonda avvalo, muammoli o'qitishdan foydalanish ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarda muhim samaradorlikka erishishni ta'minlash bilan bir qatorda ular o'rtasidagi munosabatlarning yangi shakli yuzaga kelishini belgilaydi. Ikkinchidan, turli vaziyatlarni simulyatsiya qiladigan konstruktiv o'yinlar kiradi. Bunda avvalo, o'qituvchi quyidagilarga e'tibor berishi lozim:

darsning maqsadini to'g'ri tanlash;

dars jarayonida beriladigan bilimlarni tizimlashtirish, umumlashtirish;

beriladigan materialning taqdim etish usullari, turlari va texnikasini aniqlash;

fanlar ichida va fanlararo bog'liqlikni ta'minlash;

mavzular mazmunidan “integral qism” elementlarini ajratib ko'rsatish;

ta'lim oluvchilarning o'ziga xos qobiliyatlarini aniqlash hamda rivojlantirish imkonini yaratish;

integrativ darslar o'quvchilarning faoliyatni mustaqil tanlashlarini nazarda tutganligi sababli pedagogik jarayon komponentlari uchun qiziqarli va samarali bo'lishini ta'minlaydi.

Ta'lim jarayonida integratsiyalashgan darslar muammosining vazifalarini quyidagicha ifodalash mumkin:

fanlararo bog'liqlikni amalga oshirishda nazariy-metodik bilimlarning aloqadorligidan amalda qo'llash;

didaktik jarayonni qulaylashtirish;

o'quvchilar qobiliyatiga asoslangan holda ularning kognitiv faoliyatini rivojlantirish.

O'qitish jarayonida o'quv fanlarining integratsiyasidan foydalanishga yetarlicha e'tibor berish lozim. Shu sababli fanlarni integratsiyalashda fanlararo yondashuv optimal yo'nalishlardan biri sifatida qaraladi.

Fanda integratsiyaning muhim-kategorik xususiyatlari ham o‘rganilgan bo‘lib, o‘zaro aloqadorlik (subyektlararo aloqa) ekanligi tushuntiriladi. Aniqroq aytadigan bo‘lsak, muvofiqlashtirish pedagogik tizim qaysi maqsad uchun tashkil etilgan bo‘lsa, o‘sha maqsadlarga mos munosiblik darajasini aniqlashdir. Bir sharoit uchun erishilgan muvofiqlik hech qachon boshqa sharoitlarga mos kelmaydi. Shuning uchun muvofiqlashtirish tushunchasi aniqlikni talab qiladi. Muvofiqlashtirish umumiy bo‘lishi mumkin emas, u faqatgina belgilab olingan masofaga nisbatan yuzaga kelishi mumkin. Muvofiqlashtirishning nazariy va amaliy yo‘nalishlarini ajrata bilish zarurdir. Shuningdek, integratsiya uzviy bog‘liqlik yaratish jarayoni va natijasi sifatida tavsiflanadi. Shunga e‘tibor berish kerakki, bir tomondan muvofiqlashtirish pedagogik jarayonning mavjud sharoitga moslashuvini nazarda tutsa, boshqa tomondan o‘zi yangi sharoit yaratib, unga pedagogik jarayon moslashishini talab qiladi. Bu yerda hech qanday qarama-qarshilik yo‘q, chunki bu ikki jarayon bir biri bilan bog‘liq holda davom etadi.

Ilmiy adabiyotlarda “integratsiya” zamonaviy bilim va mutaxassislar tayyorgarligining holati, tendensiyasi, namunasi, jarayoni, omili, natijasi sifatida qaraladi. Fanlararo aloqadorlikning asosiy mazmun-mohiyatini atrof-olam haqidagi yaxlit tasavvurlarini rivojlantirish va tizimlashtirish aks ettiradi. Bunda integratsiyaning rivojlanish xususiyatlariga asoslangan holda quyidagilar ajratib ko‘rsatiladi. Bular:

integratsiyalashgan tendensiyaning differentsiatsiyadan ustunligi;

har bir fanning ortib borayotgan murakkablik darajasi uning predmeti, tuzilishi va vazifalarining murakkabligi bilan bog‘liq holda integratsiyalashuvi;

integratsiya jarayonlarining tezligi va sifatining ortib borishi.

Integratsiya obyektlarining o‘zaro ta‘sirini o‘rnatish jarayoni sifatida integratsiyaning asosiy o‘zak qismini aynan bog‘lanishlar tashkil etadi. Masalan: o‘quv material mazmuni ichidagi, material bloklari orasidagi va darsning rejasiga mos bog‘lanishlardir. Bog‘lanishning mazmun-mohiyatini integratsiyalashgan darsda beriladigan ma‘lumotlarni o‘rganish, uzatish va o‘zlashtirishning ketma-ketlikka asoslanishi tashkil etadi.

Fanlararo integratsiya – umumiy tushunchalar orqali bilimlarni birlashtirish hamda tizimni tashkil etuvchi asosiy omillarni aniqlash orqali kuzatiladi.

Akademik fanlar integratsiyasi – bir nechta turdosh fan uchun umumiy g‘oya, ko‘p o‘lchovli, murakkab muammolar asosida amalga oshiriladi. Integratsion tendensiyalar nazariy va metodik tadqiqot maydonini yaxlit taqdim etish va qurishda namoyon bo‘ladi.

Mavzularni ketma-ket taqdim etish asosidagi integratsiya. Konsentriзм tamoyiliga asosan o‘rganilgan mavzu yangi material (yangi mavzu)ni to‘ldiradi. Taftologiya asosida takrorlangan materiallarni bartaraf etish maqsadida dasturlarda mavzulararo uyg‘unlikni ta‘minlashga qaratilgan. Zamonaviy sharoitda o‘quv rejasida o‘quv predmetlarining soni ko‘pligi tufayli bunday turdagi dasturlar yaratishga kuchli ihtiyoj sezilmoqda. Dastur va darsliklarni o‘rganish, tahlil qilish natijalari shuni ko‘rsatadiki, muayyan dasturlarni uyg‘unlashtirish lozim. Mavzulararo integratsiyada bir fan doirasida beriladigan o‘quv materiallari boshqa bir fan doirasidagi mohiyatan yaqin bo‘lgan matereallar uyg‘ulashtiriladi.



1-rasm. Integratsion pedagogik tushunchalar guruhlari.

Xulosa. Tarbiya nafaqat ta‘lim potensialini, balki uni amalga oshirish yo‘llari, qarama-qarshiliklari hamda insonni hayot tarzi bilan yaxlit, aloqadorlikda amalga oshirishning harakatlantiruvchi kuchi sifatida e‘tirof etiladi. Shu bois, tarbiya “muayyan fanlarning nazariy tushunchalarini birlashtiradi hamda ularni didaktik jarayonga qo‘llash imkonini beradi”. Bu esa pedagogik vazifalarni hal qilish, ilg‘or pedagogik tajribani umumlashtirish, uni ommaviy amaliyotga joriy etish” imkoniyatini beradi. Integratsiyalashgan ta‘limning o‘ziga xos konsepsiyasi – ta‘limning yaxlitlik konsepsiyasidir. Ta‘limning yaxlitlik konsepsiyasining markazida maqsad o‘z ifodasini topadi. Shu bilan birga ta‘lim berish va ta‘lim olish, tarbiyaviy va assimilyatsiya jarayonlarini birlashtirgan pedagogik maqsad muhim rol o‘ynaydi.

Adabiyotlar:

1. Пачина Н.Н. Интеграция педагогики и психологии в образовательном процессе университета: диссертация ... кандидата педагогических наук / Н.Н. Пачина. Елец, 2006. 254 с.
2. Фоминых Ю.В. Интегративный подход к формированию мировоззрения школьников / Ю.В. Фоминых // Педагогика. 1994. № 4. С. 26–80. с. 33.
3. Федорев Г.Ф. Проблема интеграции в теории и практике обучения: (Предпосылки. Опыт): учебное пособие к спецкурсу / Г.Ф.Федорев; науч. ред. З.И. Васильева. Ленинград: Изд-во Ленингр. гос. пед. ин-та им. А.И. Герцена, 1989. 93 с.
4. Федотова Л.Д. Теоретические основы интегрированного содержания начального профессионального образования: автореферат диссертации ... доктора педагогических наук / Л.Д. Федотова. Москва, 1993. 56 с. с. 8-9.
5. Философский словарь / под ред. И.Т.Фролова, 6-е изд. – Москва: Политиздат, 1991. 559-б.
6. Халиков А.А. Олий таълим муассасаларида бўлажак ўқитувчиларнинг педагогик маҳоратини ривожлантириш: пед. фан. докт... дисс. –Т., 2016. – Б.72.
7. Халиуллин И.А. Интегративный урок производственного обучения / И. А. Халиуллин. Казань: Школа, 1997. 92 с.

SHARAFUTDINOVA Xadichaxon
Gulyamutdinovna

Termiz davlat universiteti Psixologiya kafedrasini mudiri,
psixologiya fanlari nomzodi, dotsent

DESTRUKTIV SHAXSNING MANIPULYATIV MUNOSABATLARI

Mazkur maqola oilada destruktiv shaxsning manipulyativ munosabatlarini o'rganishga bag'ishlangan bo'lib, unda oila va oilaviy munosabatlarning xususiyatlari, oilada destruktiv shaxs muammosi, destruktiv shaxs manipulyativ munosabatlarining muhim jihatlari yoritilgan. Destruktiv xulq-atvor asosi va uning har xil ko'rinishlari namoyon bo'lishi, destruktiv xulqli shaxs xulqining oilaning boshqa a'zolariga ta'siri tahlil qilingan. Shuningdek, notinch oilalarda er-xotinlarning manipulyativ munosabatlari darajasini o'rganish bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalari bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Oila, munosabat, destruktiv shaxs, manipulyatsiya, manipulyativ munosabat,

МАНИПУЛЯТИВНЫЕ ОТНОШЕНИЯ ДЕСТРУКТИВНОЙ ЛИЧНОСТИ

Данная статья посвящена изучению манипулятивных отношений деструктивной личности в семье, в ней описаны особенности семьи и семейных отношений, проблема деструктивной личности в семье, важные аспекты манипулятивных отношений деструктивной личности в семье. Проанализированы основы деструктивного поведения и различные его проявления, влияние поведения человека с деструктивным поведением на других членов семьи. Также описаны результаты исследования, проведенного с целью изучения уровня манипулятивных отношений супругов в неблагополучных семьях.

Ключевые слова: Семья, отношения, деструктивная личность, манипуляция, манипулятивные отношения.

MANIPULATIVE RELATIONSHIPS OF A DESTRUCTIVE PERSON

This article is devoted to the study of the manipulative relations of a destructive personality in the family, it describes the features of the family and family relations, the problem of a destructive personality in the family, important aspects of the manipulative relations of a destructive personality in the family. The basics of destructive behavior and its various manifestations, the impact of the behavior of a person with destructive behavior on other family members are analyzed. The results of a study conducted to study the level of manipulative relations of spouses in dysfunctional families are also described.

Keywords: Family, relationships, destructive personality, manipulation, manipulative relationships.

Kirish. Oila muqaddas makon. Uni asrab-avaylash, mustahkamligi uchun kurashish ruhiy olami mukammal insonlarga xosdir. Zero, har bir inson oila atalmish makonga tug'ilgan ondanoq ruhan bog'lanadi. Nozik tuyg'ular: baxt, quvonch, shodlik, sevinch kabilar eng avvalo oila a'zolarining ishtirokida, bag'rida tuyiladi. Oiladagi iliq psixologik muhit, ahillik, hamfikrlik, bo'lishish kabi oliyjanob munosabatlar boshqa guruhlarda takrorlanmaydi. Ayrim oilalarda ana shunday poklik, samimiylikni saqlash va rivojlantirish uchun zarur munosabatlar oilaning har bir a'zosi o'z mas'ulligini his etib o'zaro munosabatlarni yo'lga qo'yadilar. Ammo ba'zi oilalarda ahillik o'rniga o'zaro janjal, samimiylik o'rniga hasad, iliqlik o'rniga sovuq munosabatlarning hukm surilishi ham sir emas.

Oilada o'zaro munosabatlarning yomonlashuviga sabab bo'luvchi omillar ko'p va xilma xil. Bunday vaziyatlarda oilaviy nizolar, ularning kelib chiqish sabablari, oilada er-xotin, ota-ona va farzand, farzand-farzand munosabatlari bilan bog'liq janjallarga ko'proq urg'u beriladi. Lekin, oilada destruktiv xususiyatli shaxs mavjud bo'lishi, uning o'ziga xosligi, oilada munosabatlarning buzilishiga olib keluvchi jihatlari, u xoh ayol, xoh erkak, aka yoki uka, opa yoki singil, ota yoki ona, amma yoki xola, tog'a yoki amaki va xokazolar bo'lishi mumkinligi ikkinchi darajada qoladi. Psixologik tadqiqotlar esa oilada bitta destruktiv shaxsning borligi xam shu oiladagi munosabatlarning yomonlashuviga olib kelishi mumkinligini ko'rsatmoqda.

Destruktiv xulq-atvor psixologiyada etarli darajada tadqiq etilmagan, «destruktsiya», «destruktiv munosabat», «destruktiv xulq» tushunchalarining mazmuni, sabablari chuqur o'rganilmagan.

Ko'pchilik tadqiqotchilar destruktiv xususiyatning xususan, o'smirlilik davrida kuzatiladigan xulq og'ishi, ayol va erkaklardagi agressivlik, qotillik, suisid, terrorchilik faoliyati singari turli ko'rinishlariga e'tibor qaratganlar. Kuzatishlarga ko'ra destruktivlikning ayrim ko'rinishlari biolog, genetik, psixolog, seksopatolog, tarixchi, xuquqshunoslar tomonidan o'rganilgan. Muammoni yaxlit holda tadqiq etish uning mohiyatini anglashga yordam berishi mumkinligini xisobga olganda destruktiv muammosi, destruktiv xulq, uning sabablari va oqibatlarining etarli darajada o'rganilmaganligi muammoning dolzarbligini asoslaydi.

Mazkur mavzuni chuqur tadqiq etish, destruktiv xulq-atvor asosini va uning har xil ko'rinishlari namoyon bo'lishini tahlil qilish, destruktivlik muammosini hal etishning jahon tajribasini umumlashtirish insonning vayronkor tabiatini jilovlab turishga va destruktiv mayllarni boshqa faoliyat sohasiga yo'naltirishga imkon beruvchi ijtimoiy-psixologik mexanizmlarni yaratish imkonini berishi mumkin. Olimlar tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlarda inson destruktiv faoliyatiga ijtimoiy-psixologik fenomen sifatida baho berishga harakat qilingan. Xususan, uning biologik, neyrofiziologik, psixologik va ijtimoiy asoslarini tahlil qilish, insonning tabiatidan kelib chiqib, destruktiv xulq mohiyatini tushuntirib berish mumkinligi ta'kidlanadi.

Tadqiqotchi Y.A.Kleyberg o'zining destruktiv xulq-atvor tipologiyasini ishlab chiqishda “Shaxsning destruktivligi va uning buzg'unchi xatti-harakatlarga moyilligi, asosan, uning individual eksperimental rivojlanish xususiyatlari va uning bevosita ijtimoiy muhiti bilan belgilanadi. Garchi u ko'pincha vayronkorlik sifatida qabul qilinsada, hozirda mavjudlik uchun keskin kurash sharoitida millionlab yillar evolyutsiyasi bilan shakllangan har bir insonning tug'ma mulki sifatida qabul ilinadi. Shu bilan birga, 19-20 asrlarda falsafa, sotsiologiya, biologiya, psixologiya, neyropsixologiya va psixofiziologiyaning rivojlanish tajribasi bu tug'ma emas, balki ijtimoiy-tarixiy masalada bahslashishga imkon beradigan faktlarning to'planishiga olib keldi. Tarixiy qarama-qarshi bo'lgan jamiyat sharoitida shaxsning ijtimoiylashuvi jarayonida shakllangan hatti-qarakatlarining buzg'unchilik tabiatidir.” –degan printsipga asoslanadi.[5]

Insonlarning destruktiv xulq-atvorining mohiyatini tushunishga ushbu yondashuvning asosini, albatta, L.S.Vo'gotskiyning madaniy-tarixiy kontseptsiyasi tashkil etadi.[2] U har bir shaxsni bir-biridan biologik etukligi va madaniy rivojlanishini aniq ajratib turadi. Birinchisi, shaxsiyatni shakllantirish uchun tug'ma asos bo'lib, uni albatta e'tiborsiz qoldirib bo'lmaydi. Ikkinchisi, ijtimoiylashuv jarayonida shakllangan va rivojlangan shaxsiy rivojlanish mazmuni, bu har bir insonni o'rab turgan jamiyatdagi real munosabatlar interiorizatsiyasining samarasidir.

O'zbekistonlik psixolog U.D.Qodirovning “Yoshlarni destruktiv ta'sirlardan himoyalashning psixologik jihatlari” nomli kitobida “Inson destruktiv faoliyatini tahlil qilish jarayonida asosiy e'tiborni ijtimoiy-madaniy kontekstda sodir bo'ladigan neyrofiziologik jihatlarga qaratgani ma'qul. Destruktsiya biologik jihatdan asosiy, determinantlashgan omil deyishdan ko'ra, biologik jihatdan ahamiyatli degan fikr haqiqatga yaqindir. Yuqoridagi mulohazalarda destruktiv faoliyatning biologik va neyrofiziologik asoslari bayon qilingan bo'lib, uning psixik negizlarini ham o'rganib chiqish maqsadga muvofiqdir.” –deb ta'kidlagan [14]

Oilada destruktiv xulqli shaxs u yoki bu jihatlari bilan oilaning boshqa a'zolariga ta'sir ko'rsatib, ularning ruxiy olamiga putur etkazishi mumkin. Jumladan, psixologik manipulyatsiyadan foydalanib, manipulyativ hatti harakat va munosabatlar orqali o'z qurboniga ruhiy ta'sir ko'rsatishga ham qodir bo'ladilar.

Psixologik manipulyatsiya-bu yashirin, aldamchi va zo'ravonlik taktikasidan foydalangan holda manipulyator manfaati uchun boshqa odamlarning xulq-atvorini o'zgartirish maqsadida amalga oshiriladigan ijtimoiy ta'sir turi yoki ijtimoiy-psixologik hodisadir [1]. Bunday usullar manipulyatorning manfaatlarini boshqa odamlar hisobiga ilgari suradi, shu tufayli ularni ekspluatatsion, zo'ravonlik, insofsiz va axloqsiz deb hisoblash mumkin. Ma'lumki, ijtimoiy ta'sir har doim ham salbiy bo'lavermaydi. Ijtimoiy ta'sir, agar majburlash bo'lmasa va uni qabul qilish yoki rad etish xuquqini hurmat qilsa, zararsiz hisoblanadi.

Manipulyatsiyaning muhim jihatlardan biri shundaki, u orqali ob'ektning hatti-harakatlarini dasturlash mumkin. Manipulyator doim insonning aynan ruhiy dunyosini mo'ljalga oladi. Bunda manipulyatsiya ob'ektiga shaxs sifatida qaralmaydi. Manipulyator uchun u shunchaki ta'sir ko'rsatishning ob'ekti bo'ladi. Agar odam o'ziga qaratilgan murojaatlarning asl mohiyatini bilib tursa, yashirin maqsadlardan xabardor bo'lsa, bu holata manipulyatsiya sifatida baho berib bo'lmaydi. Shunday ekan, manipulyatsiyaning maqsadlari fosh etilgan taqdirda, shu vaqtdan boshlab ta'sir ko'rsatishning manipulyativ xarakteri yo'qoladi.

Tadqiqotchi E.L.Dotsenkoning so'zlariga ko'ra, insonning barcha harakatlari qadriyatlar yoyi bo'ylab joylashishi mumkin: "boshqasiga munosabat sifatida qadriyat - boshqasiga munosabat sifatida vosita" [3]. Birinchi qutb (subyektiv) boshqa odamning ichki qadriyatini tan olishni, u qanday bo'lish huquqiga ega

bo'lishni nazarda tutadi. Bu munosabat hamkorlik istagi, teng xuquqli munosabatlar o'rnatish, yuzaga keladigan muammolarni birgalikda hal qilish, tushunishga tayyorlikda namoyon bo'ladi.

• hukmronlik: - manfaatlari hisobga olinmagan narsaga yoki maqsadlarga erishish vositasi sifatida sherigiga munosabat; - ustunlikka ega bo'lish, uni boshqarish istagi; - bir tomonlama qarash, sherigi haqida stereotipik fikrlarning mavjudligi; - buyruq, talab qilish (zo'ravonlik, tazyiq va ishontirish).

• Manipulyatsiya: - sherigiga "alohida turdagi narsa" sifatida munosabat, uning manfaatlari va niyatlarini e'tiborsiz qoldirish; - ustunlikka ega bo'lish istagi; - bevosita emas, balki bilvosita bosim (ig'vo, aldash, fitna) bilan bog'liq yashirin ta'sirning mavjudligi.

• Raqobat: - sherigiga xavfli obyekt sifatida qarash; - undan ustun bo'lish istagi, - ham yashirin, ham ochiq ta'sirdan foydalanish ("nozik" manipulyatsiyaning ayrim turlari, taktik kelishuvlar).

• hamkorlik: -sherigiga teng xuquqli munosabatda bo'lish; - boshqa odamlarning manfaatlarini buzmasdan, o'ziga zarar etkazilishining oldini olish istagi; - o'zaro ta'sir usullaridan foydalanish [3].

• Do'stlik: - sherigiga o'zini o'zi qadrlaydigan shaxs sifatida munosabat; - yaqin yoki mos keladigan maqsadlarga erishish uchun birlashishga, birgalikdagi faoliyatga intilish; - o'zaro munosabatlarning asosiy usuli sifatida kelishuvdan (konsensusdan) foydalanish [3].

Yuqorida keltirilgan manipulyativ munosabatlarning xar bir turi qaysi maqsadni ko'zlashidan qat'iy nazar undan ko'zlangan asosiy maqsad sherigiga ta'sir o'tkazish, uni boshqarishdan iborat. Ammo bizning tadqiqotimizda oilada destruktiv xulqli shaxsning manipulyativ munosabatini o'rganish asosiy maqsad bo'lganligi bois aynan nizoli o'zbek oilalardagi er-xotinlarning manipulyativ munosabatga moyilligini o'rganish uchun Manipulyativ munosabat diagnostikasi Bant shkalasi [14] bo'yicha manipulyativ munosabat darajasini o'rganildi. Ko'rsatma. Anketani diqqat bilan o'qing (tinglang). Barcha hukmlar uchun javob variantlari maxsus shaklda berilgan. Agar siz hukm haqiqat deb hisoblasangiz o'zingiz va boshqa odamlar haqidagi fikringizga mos keladi deb hisoblasangiz, javoblar varag'ida hukm soniga qarama-qarshi bo'lib, taklif qilingan shkaladan foydalanib, u bilan roziligingizni ko'rsating. Ushbu shkala 20 ta tasdiqlardan iborat bo'lib, sinaluvchilar ularga munosabatini 5- deyarli har doim: 4 – ko'pincha: 3 – ba'zida: 2- tasodifiy: 1 – kamdan kam xollarda deb bildiradi.

Tasdiqlar:

1. Ko'pchilik qo'pollikka qo'pollik bilan javob beradi.
2. Ko'pchilik yangi narsaga o'zlari boshdan kechirmaguncha ishonmaydi.
3. Boshqa odamlarga to'liq ishongan kishi ko'pincha qiyin vaziyatda bo'ladi.
4. Aksariyat odamlar majbur bo'lgandagina to'liq quvvat bilan ishlaydilar.
5. Hatto eng jirkanch jinoyatchilar ham biroz odobga ega.
6. Har bir oddiy odam o'zi uchun muhim bo'lgan narsa uchun kurashadi, garchi bu uning ishiga qimmatga tushsa ham (oqibati haqida o'ylamasdan).
7. Ko'pchilik o'zi uchun nima yomon, nima yaxshi ekanini o'ylamaydi.
8. Eng zo'r odamlarning ba'zilari eng jirkanch illatlarga ega.
9. Ko'pchilik ota-onasining o'limini mol-mulkini yo'qotishdan ko'ra osonroq unutadi.
10. Ko'pchilik buning uchun asosli sabab bo'lmasa, maqtanishni yaxshi ko'radi
11. Ko'pchilik qiyin vaziyatlarni yengib o'tishni yoqtiradi
12. Ko'pchilik jasur
13. Tabiat insonni shunday yaratganki, u o'zi xohlaganidan kamroq narsaga erisha oladi
14. Jinoyatchilarning boshqa odamlardan eng katta farqi shundaki, ahmoqliklari tufayli, ular qo'lga tushishlariga imkon yaratishgan.
15. Odamlar bilan til topishishning eng yaxshi usuli - ular eshitishni xohlayotgan narsalar haqida gapirishdir.
16. Odamlarda eng kutilmagan vaziyatlarda o'zini namoyon qiladigan illatlar borligini eslash xavfsizroqdir.
17. Tabiatan odamlar mehribon.
18. Dunyoda har daqiqada yomon odamlar tug'iladi, deb o'ylash noto'g'ri.
19. Inson tabiatiga faqat o'z manfaati uchun harakat qilish xosdir.
20. Ko'pchilik haqiqatga o'xshagan narsadan qoniqadi, lekin u to'g'ri emas.

Natijalarni qayta ishlash va talqin qilish.

Sinaluvchilarning to'plagan ballai umumlashtiriladi

80 ball va undan ko'p - yuqori ko'rsatkich;

60-80 ball - yuqori tendensiya bilan o'rtacha;

40-60 ball - pastlikka moyil bo'lgan o'rtacha ko'rsatkich;

40 ball yoki undan kam ball past ball hisoblanadi:


Sinaluvchi to’plagan ballari asosida manipulyativ munosabatga moyilligi darajasi aniqlanadi. Tadqiqot ishimizda jami 86 nafar respondentlar ishtirok etdilar. Natija quyidagicha bo’ldi.

(1-jadval)

Bant shkalasi bo’yicha manipulyativ munosabat darajasi (n=86)

	Yuqori daraja (80 ball)	O’rtachadan yuqori daraja (60-80 ball)	O’rtachadan past daraja (40-60 ball)	Past daraja (40 balldan kam)
Soni	17	29	24	16
%	20%	34%	28%	18%

1-расм



Xulosa. Tadqiqot ishimizning asosiy g’oyalariidan biri oilaviy munosabatlardagi nizo, kelishmovchilik va ziddiyatlarda shu oiladagi destruktiv shaxsning mavjud bo’lishi muhim sabablardan sanaladi. Destruktiv xulqli kishida manipulyatsion munosabat ustunlik qilishi mumkin. Darhaqiqat, bizning nizoli oilalar bilan olib borgan tadqiqotimizda respondentlarning 54 % da manipulyatsion munosabat yuqori va o’rtachadan yuqori darajada ekanligi namoyon bo’ldi.

Adabiyotlar:

1. Bursten B. Manipulator: A Psychoanalytic View, 1973.
2. Выготский Л.С. История развития высших психических функций // Выготский Л.С. Собр.соч. М., 1983. Т. 3. С. 5-328.
3. Доценко Е. Л. Психология манипуляции: феномены, механизмы и защита / Е. Л. Доценко. — М.: ЧеРо — Издательство МГУ, 1997. — 344 с.
4. Злоказов К. В. Деструктивность и идентичность личности // Научный ежегодник Ин-та философии и права Урал. отд-ния Рос. акад. наук. 2014. № 1.
5. Клейберг Ю. А. Типология деструктивного поведения // Вестн. Краснодар. ун-та МВД России. 2008. № 1.
6. Клейберг Ю.А. Психология девиантного поведения. - М.: Изд-во Наука, 2001. - 399 с.
7. Пиз А., Пиз Б. Язык взаимоотношений: мужчина-женщина. – М.2005.
8. Берн Э. Введение в психиатрию и психоанализ для непосвящённых. СПб.: МФИН, 1992. С.36
9. Sharafutdinova X.G. Destruktion of family pelations psychoprorkophylaxis family – neighborhood educational institution. South Asian Academic Research Journals South Asian Academic Research Journals, 10 Issue 11, November 2020
10. Sharafutdinova X.G. International Scientific Journal Theoretical & Applied Science, № 08 (100) 2021210
11. Қодиров У. Шахснинг ижтимоий-психологик тузилмасига оид айрим мулоҳазалар. //Таълим муаммолари, 2012 йил, -№2.
12. Куликов Л.В. Руководство к методикам диагностики психических состояний, настроений и сферы чувств. Описание методик, инструкции по применению. - СПб.: СПГУ, 2003.
13. Crawford C. The Politics of Life: 25 Rules for Survival in a Brutal and Manipulative World, 2007.
14. <https://psylist.net/praktikum/dmoban.htm>

UBAYDULLAYEV Alisher Nematilloevich

Buxoro davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

E-mail: alisherubaydullayev2022@gmail.com

TALABALARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VOSITASIDA RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI

Ushbu maqolada bugungi kunda talabalarning kasbiy kompetentligini raqamli texnologiyalar asosida rivojlantirish muammolari tahlil qilingan bo'lib, muammoning Respublikamizdagi bugungi holati tahlillari keltirilgan. Bundan tashqari maqolada talabalarning kasbiy kompetentligini raqamli texnologiyalar asosida rivojlantirishda kerak bo'ladigan metod, usul va ularning shakllari keltirilgan.

Kalit so'zlar: raqamli texnologiyalar, kompetentlik, kompyuter, tizim, metod, vosita, axborot, kommunikatsiya, bilim, pedagog, iqtisod, oliy ta'lim, model, internet, g'oya, vertual, innovatsiya.

ПРОБЛЕМЫ РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ СТУДЕНТОВ ПОСРЕДСТВОМ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

В данной статье анализируются проблемы развития профессиональной компетентности студентов на основе цифровых технологий на сегодняшний день, а также анализируется современное состояние проблемы в нашей республике. Кроме того, в статье представлены методы, приёмы и их формы, необходимые для развития профессиональной компетентности студентов на основе цифровых технологий.

Ключевые слова: цифровые технологии, компетентность, компьютер, система, метод, инструмент, информация, коммуникация, знание, педагог, экономика, высшее образование, модель, интернет, идея, виртуальный, инновация.

PROBLEMS OF PROFESSIONAL COMPETENCE DEVELOPMENT OF STUDENTS THROUGH DIGITAL TECHNOLOGIES

This article analyzes the problems of developing the professional competence of students based on digital technologies today, and also analyzes the current state of the problem in our republic. In addition, the article presents the methods, techniques and their forms necessary for the development of students' professional competence based on digital technologies.

Keywords: digital technologies, competence, computer, system, method, tool, information, communication, knowledge, teacher, economics, higher education, model, internet, idea, virtual, innovation.

Kirish. Bugungi kunda raqamli texnologiyalar hayotning barcha sohalarida faol qo'llanilmoqda. Jumladan iqtisodiyot, qishloq xo'jaligi, bank tizimlari va shuningdek, Oliy ta'lim tizimida ham ta'lim jarayonini tez sur'atlarda rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Mamlakatda yashayotgan barcha fuqarolar, jumladan yosh bolalardan tortib nafaqaxo'rlarning ham ongida raqamli texnologiyalar orqali jamiyatdagi barcha muammolarni hal qilish mumkin degan fikrni shakllantirmoqda.

Shu jihatdan, mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek “Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo'ldan borish imkoniyatini beradi. Zero, bugun dunyoda barcha sohalariga axborot texnologiyalari chuqur kirib bormoqda. Albatta, raqamli iqtisodiyotni shakllantirish kerakli infratuzilma, ko'p mablag' va mehnat resurslarini talab etishini juda yaxshi bilamiz. Biroq, qanchalik qiyin bo'lmasin, bu ishga bugun kirishmasak, qachon kirishamiz?! Ertaga juda kech bo'ladi” degan muhim g'oyalari bunga yaqqol misol bo'la oladi.

Respublikamizda oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini keng miqyosda joriy etishga qaratilgan qator maqsadli dasturlar ishlab chiqilib, ta'lim muassasalarini to'liq internet tizimiga ulash, chet davlatlarning nufuzli oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda professor o'qituvchilar darslarini onlayn tinglash, ta'limiy saytlarini takomillashtirish talabalarni raqamli texnologiyalardan keng ko'lamda foydalanishlari borasida salmoqli ishlar olib borilmoqda. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida “Uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq yuqori malakali mutaxassis

kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish” ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Shu bois oliy ta’lim muassasalarida talabalarni raqamli texnologiyalari vositasida kasbiy kompetentligini rivojlantirish metodlarini tanqidiy tahlil qilish, umumlashtirish va o’qitish metodlarining maqbul variantlarini tanlash o’qitishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo’llash, xususan, kompyuterli loyihalashga o’rgatish muhim pedagogik vazifalardan hisoblanadi.

Davlat va jamiyat boshqaruvi, ijtimoiy sohada ham raqamli texnologiyalarni keng joriy etib, natijadorlikni oshirish, bir so’z bilan aytganda, odamlar turmushini keskin yaxshilash mumkin. Raqamli iqtisodiyot bu birgina faoliyat turi emas, balki, ishbilarmonlik, sanoat ob’ektlari, sifatli ta’lim va xizmatlar deganidir. “Raqamli” atamasi barcha sohalarda axborot texnologiyalaridan faol foydalanishni anglatadi. Raqamli iqtisodiyot bu raqamli texnologiyalarga asoslangan iqtisodiy faoliyat bo’lib, iqtisodiyot tarmoqlarida raqamli texnologiyalarni rivojlantirish hisobiga mehnat unumdorligi va mahsulotning raqobatbardoshligiga, ishlab chiqarish xarajatlarini pasayishi, yangi ish o’rinlari yaratilishiga olib keladi.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 iyundagi PF-5099-sonli “Respublikada axborot texnologiyalari sohasini rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to’g’risida”gi 2020 yil 2 martdagi PF-5953-sonli “2017 — 2021-yillarda o’zbekiston respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo’nalishi bo’yicha harakatlar strategiyasini “ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to’g’risida”gi Farmonlari hamda 2020 yil 27 fevraldagi PQ-4623-sonli “Pedagogik ta’lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi qarori mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarning ijrosini ta’minlashda raqamli texnologiyalar muayyan darajada xizmat qiladi.

Yurtimizdagi ta’lim muassasalarida ham zamon talabidan kelib chiqqan holda onlayn ta’limni yo’lga qo’yildi. Bu jarayonning o’zi ham mamlakatimiz ta’lim tizimida yangi bosqich boshlanganidan dalolat. Sababi, shu kungacha hali hech bir ta’lim muassasasi bunday tartibga o’ta olmayotgan edi. Ta’lim tizimi bugungi kunda raqamli texnologiyalarga singib ketayotgani shunchaki hayratlanarli emas, chunki, bugungi kunda axborot makonida taklif etilayotgan ko’plab narsalarni tahlil qilish va pedagogik asoslash mumkin. So’nggi yillarda ta’limni «raqamlashtirish» muammolari, uning shakllanishiga ta’siri bo’yicha biror-bir davlat loyihasi yoki so’rovnoma asosida tadqiqotlar o’tkazilmaganligi ham muhimdir. Shu bilan birga, Internet tizimidagi muhitning yoshlar ongiga ta’sirining ahamiyati hukumatning, zamonaviy ommaviy axborot vositalarining ma’ruzalarida, pedagogik jamoatchilik muhokamalarida, magistrant va tadqiqotchilarning, shuningdek deputatlarning izlanishlarida ham ko’rishimiz mumkin.

Shu bilan birga, ta’lim jarayonida tadqiqotga asoslangan yondashuvdan faol foydalanish lozim va bu bilan ilmiy tadqiqotda talabalarning ko’nikmalarini rivojlantirish va IT- kompetensiyaga asoslangan ijodiy qobiliyatlarini va ijodiy fikrlashlarini shakllantirish mumkin. Axborot va kommunikatsiya texnologiyalari – ta’lim tizimidagi barcha muammolarga echim emas, balki raqamli avlod uchun ma’ruzalar va seminarlarni ma’lumotlarga boy va interaktiv qilib amalga oshirish vositasidir. Shuni ham ta’kidlab o’tish lozimki, o’qituvchilar talabalarning ehtiyojlariga yo’naltirilgan interfaol o’quv jarayonida asosiy rol ni saqlab qoladi. Boshqacha qilib aytganda, raqamli asrda ta’lim qayta ko’rib chiqilishi va ta’lim paradigmasi o’zgartirilishi shart, chunki talabalar ortiq an’anaviy uslubda o’qishni xohlamaydilar va o’qituvchilar ham bu kabi odatiy usulda o’qitishni davom ettirishlari kerak emas.

O’qitishning zamonaviy axborot texnologiyalari o’quvchi-talabani emas, u eng avvalo, o’qituvchi(pedagog)ning texnologiyasidir. O’quvchi-talaba zamonaviy axborot texnologiyasini o’rganmaydi, balki uning mahsulotidan o’qitishning texnik vositasi sifatida foydalanadi. O’qituvchi (pedagog) zamonaviy texnologiyalarni qo’llab darsga tayyorlanadi, darsni tashkil qiladi, o’quvchi- talabalar bilimni nazorat qiladi va uning vazifasi ta’lim mazmunini takomillashtirish uchun kompyuterlashtirishning eng yuqori darajasidagi axborot texnologiyalarini ta’lim jarayoniga olib kirishdan iborat bo’ladi. Ta’limning kompyuterli (yangi axborot) texnologiyalari – bu axborotni tayyorlash va uni ta’lim oluvchiga uzatish jarayoni bo’lib, uning amalga oshirish vositasi kompyuterdir, ya’ni:

- o’quvchi-talabalarda axborot bilan ishlash mahoratini shakllantirish, ularning kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirish;
- «axborotli jamiyat» shaxsini tayyorlash;
- ta’lim oluvchilarning o’zlashtirish imkoni darajasidagi va etarli miqdorda axborot bilan ta’minlash;
- o’quvchi-talabalarda tadqiqotchilik mahoratini, optimal qarorlar qabul qilish qobiliyatini shakllantirish va rivojlantirish.

Kompyuterli texnologiya mazmuni bir qancha shakllantirilgan modelni qo’llashga asoslangan bo’lib, bu model kompyuter xotirasiga yozib qo’yilgan pedagogik dasturli vositalar va telekommunikatsiya tarmog’ining imkoniyatlari orqali namoyon bo’ladi. Rivojlangan mamlakatlarda axborot texnologiyalarini ta’limga joriy etishda ularning texnik vositalarini integratsiyalash asosiy yo’nalish bo’lmoqda. Shu

munosabat bilan, hatto «multimedia» tushunchasi paydo bo‘ldiki, u o‘qitishda ko‘pchilik texnik vositalardan kompleks foydalanishni bildiradi. Multimediani qo‘llagan holda eng muhim narsa o‘quvchi-talabalarni kerakli axborotni tanlab olishga o‘rgatishdan iborat bo‘ladi. O‘qituvchi(pedagog)ning vazifasi axborotni berishdan iborat emas, balki uni topishda yordam berishdan iborat bo‘ladi, o‘qituvchi (pedagog) bilimlar sohasida yo‘l ko‘rsatuvchi hamdir. Bu kabi o‘qitish vositalari kompleksidan foydalanilgan holda o‘quvchi-talabaga ta‘sir ko‘rsatish birgina axborot kanallari (ko‘rish, eshitish va h.k.) orqali amalga oshiriladi. Bu esa ta‘lim samaradorligini oshiradi. Shuningdek, ta‘lim jarayoniga axborot texnologiyalarining joriy etilishi o‘qituvchi (pedagog) vazifasining o‘zgarishiga sabab bo‘ladi, ya‘ni pedagog ta‘lim-tarbiya berishdan ko‘ra ko‘proq tadqiqotchi, tashkilotchi, maslahatchi va dasturlovchiga aylana boradi.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Ma‘lumki, o‘qituvchi(pedagog)larning an‘anaviy o‘qitish usulida laboratoriya va amaliy ishlar o‘tkazilishiga ko‘p vaqt ajratiladi. Bu mutaxassis tayyorlashning juda muhim tarkibiy qismidir. U nafaqat o‘quvchitalabani nazariy bilimlarini mustahkamlashga, o‘quv materialini o‘zlashtirish samarasini oshirishga, balki muayyan sohada amaliy ko‘nikmalarni hosil qilishga ham ko‘mak beradi. Biroq bunday mashg‘ulotlar to‘laqonli natija beradi, deya olmaymiz. Sababi – laboratoriya jihozlari etarli darajada emasligi hamda ko‘pgina laboratoriya va o‘quv xonalari zamonaviy moslama va uskunalardan mahrumligi, mavjudlarining ham aksariyati ma‘naviy eskirib qolganligi va bugungi kun talablariga to‘liq javob bera olmasligidadir.

Texnologiyalar tez sur‘atda rivojlanayotgan hozirgi vaqtda amaliy mashg‘ulotlar uchun laboratoriya va stendlarni har bir o‘quv yilida takomillashtirish talab etiladi. Buning uchun esa qo‘shimcha sarf xarajatlar qilish kerak. Boshqa yana bir muhim omil shundaki, ba‘zi laboratoriya tadqiqotlaridagi ish yoki jarayonlarning sustligi sababli ajratilgan vaqt ichida ta‘lim oluvchilar takror tahlil yoxud sinovlar o‘tkazishga qiynalishadi, holbuki, ma‘lum bir sohada etarlicha ish ko‘nikmalari va tajriba orttirish uchun amaliy mashg‘ulotlarni qayta-qayta takrorlash zarur.

Bugungi zamonda raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalari taraqqiyotga erishishning muhim shartlaridan biridir. Raqamli texnologiyalar nafaqat davlat va jamiyat boshqaruvini takomillashtiradi va ijtimoiy sohada odamlarga katta qulayliklar yaratadi. Bundan tashqari raqamli texnologiyalar ijobiy iqtisodiy o‘zgarishga zamin yaratadi: mahsulot va xizmatlar sifatini oshiradi, va ortiqcha xarajatlarni kamaytiradi.

Bugungi kunda kasbiy kompetentlikni raqamli texnologiyalar asosida rivojlantirish, o‘qitishning yangi pedagogik texnologiyalaridan biri pedagogikaning asosiy qonunlariga bo‘ysunadi va ta‘limning an‘anaviy didaktik tamoyillarini o‘z ichiga oladi va o‘quv muhitining yangi shartlari va mezonlari bilan to‘ldiriladi. Bu o‘quv materiallarining yanada xilma-xil va aniqroq ishlab chiqilganligiga ishonish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Maxsus fanlarni o‘qitishning eng istiqbolli vositasi raqamli ta‘lim resurslari degan xulosaga kelish mumkin.

Ta‘limda raqamli texnologiyalarni o‘qitish sifatini saqlab qolgan holda samarali qo‘llash uchun quyidagi olti jihatga e‘tibor qaratish lozim:

Birinchidan, albatta mamlakatimizda Internet infratuzilmasini yaxshilashimiz, mobil operatorlar tomonidan ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirishimiz va eng muhimi aholining, ayniqsa talaba yoshlarni zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining so‘ng yutuqlarini o‘zlashtirishga shart-sharoitlar hamda imtiyozlar yaratib berishimiz kerak.

Ikkinchidan, o‘quv jarayonini tashkil etishda raqamli texnologiyalardan foydalanish ko‘lamini kengaytirish va axborot resurslari, o‘qitish vositalari va masofaviy o‘qitish texnologiyalarini rivojlantirish, yuqori samaradorlikka ega raqamli qurilmalar bilan jihozlangan tuzilmalar, o‘quv xonalari, laboratoriyalar, mediastudiyalar va boshqalarni o‘z ichiga olgan markazlarni tashkil etish hamda unda orttirilgan tajribani O‘zbekistonning barcha oliy ta‘lim muassasalarida qo‘llash.

Uchinchidan, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ta‘lim texnologiyalarining mustahkam integratsiyasini ta‘minlash, bu borada pedagog kadrlarning kasbiy mahoratini uzluksiz rivojlantirib borish uchun qo‘shimcha sharoitlar yaratish.

To‘rtinchidan, interfaol taqdimot tizimlaridan foydalanish, ma‘ruza va seminar darslari uchun internet bilan bog‘liq holda interfaol va multimediali taqdimotlarni ishlab chiqish kabi mavzular bo‘yicha o‘qituvchilarning malakasini oshirish uchun kurslarni tashkil qilish va o‘tkazish.

Beshinchidan, real vaqt rejimida interfaol taqdimot tizimlari, video-konferensiya aloqa tizimlari, virtual zallar, elektron resurslardan foydalanib istalgan vaqtda masofaviy o‘qitish jarayonini amalga oshirish.

Oltinchidan, bulutli texnologiyalar, virtual voqelik, kengaytirilgan voqelikdan foydalanish hamda didaktik materiallar va tajriba dizaynlarini ishlab chiqishda 3D printerini qo‘llash, raqamli didaktika va raqamli ta‘lim modellarini qo‘llash, o‘qituvchilar va talabalar uchun loyihalar, diplom ishlari, ilmiy izlanishlar va boshqalarini muhokama qilish uchun ilmiy veb-saytlar ishlab chiqish lozim. Shundaygina, biz

raqamli texnologiyalardan foydalanib ta’lim sifatini tushirmagan holda talaba-yoshlarga bugungi kun talabi darajasida bilim olishlariga erishamiz.

Biz ta’lim sifatini oshirish va rivojlantirish uchun texnologiyalardan manfaatli foydalanish imkoniyatini yaratishni istadik. Qachonki, planshet ta’lim olishning bir elementiga aylansa, bolalar o’qish jarayoniga katta qiziqish bilan kirishadi. Natijada o’qish jarayoni yaxshilanadi, o’zlashtirish, ta’lim darajasi va kadrlarni tayyorlash samaradorligi oshadi.

Raqamli texnologiyalarni yanada rivojlantirish uchun innovatsion g’oyalar, texnologiyalar va ishlanmalarni joriy etish sohasida davlat organlari va tadbirkorlik sub’ektlarining yaqin hamkorligini ta’minlash. Kriptoaktivlar bo’yicha faoliyat va blokcheyn texnologiyalari sohasida xalqaro va xorijiy tashkilotlar bilan hamkorlikni har tomonlama rivojlantirish va ishlab chiqarish sohasida faoliyat ko’rsatadigan yuqori malakali horijlik mutaxassislarni jalb qilish. Investitsiya va tadbirkorlikni diversifikatsiya qilish uchun kriptoaktivlar aylanmasi sohasidagi faoliyatni, jumladan, mayining, smart kontrakt, konsalting, emissiya, ayriboshlash, saqlash, taqsimlash, boshqarish, sug’urtalash, kraud-funding (jamoaviy moliyalashtirish), shuningdek, blokcheyn texnologiyalarni joriy etish va rivojlantirish. Blokcheyn texnologiyalarni ishlab chiqarish va ulardan foydalanish sohasida amaliy ish ko’nikmalariga ega bo’lgan malakali kadrlarni tayyorlash. Xorij tajribasini hisobga olgan holda blokcheyn texnologiyalarini joriy etish uchun huquqiy baza yaratish. Yuqorida ko’rsatib o’tilgan farmon va qarorlarning muvaffaqiyatli bajarilishi uchun raqamli texnologiyalarning ma’no-mohiyati nima va uning asosiy tushunchalari nimalardan iboratligi yaxshi bilib olish talab qilinadi.

Raqamli texnologiyalar sohasiga oid fikrlarni tahlil qilishdan oldin, axborotlashgan jamiyat va u bilan uzviy bog’liq bo’lgan bir qancha asosiy tushunchalar bilan yaqindan tanishib chiqishga harakat qilamiz. Chunki shundagina ushbu jumalalarda aks ettirilgan masala, muammo va kontseptsiyalarni to’g’ri tushunish mumkin bo’ladi. Qisqa va lo’nda qilib aytganda, raqamli texnologiya – bu jamiyat ne’matlarini ishlab chiqarish, taqsimlash va iste’mol qilish jarayonlarida elektron hamda axborot-kommunikatsion texnologiyalarini keng joriy etishni ko’zda tutadigan insonning kundalik faoliyatini tadqiq etuvchi fandır. Raqamli texnologiya atamasi ikki xil turli tushunchalarni ifodalash uchun ishlatiladi. Birinchidan, raqamli texnologiya – bu rivojlanishning zamonaviy bosqichi hisoblanib, u ijodiy mehnat va axborot ne’matlarining ustuvor o’rni bilan tavsiflanadi. Ikkinchidan, raqamli texnologiya – bu o’ziga xos nazariya bo’lib, uning o’rganish obyekti, axborotlashgan jamiyat hisoblanadi.

Xulosa. Xulosa sifatida aytish mumkinki, bugungi kunda raqamli texnologiyalar barcha sohalarga kirib bordi. Shu nuqtayi nazardan ta’lim tizimida talabalarining kasbiy kompetentligini raqamli texnologiyalar asosida rivojlantirish ta’limning sifati hamda samaradorligini oshiradi.

Ta’limda raqamli texnologiyalardan foydalanib bo’lajak mutaxassislarning yetuk kadr bo’lib yetishishida muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki ta’lim muassasalaridagi auditoriyalari o’n yil avvalgilaridan juda katta farq qiladi va sinf xonalari kompyuterlar, iPad, planshetlar, smart-doskalar va boshqa turdagi raqamli ta’lim texnologiyalari bilan jihozlangan.

Dunyoda bo’lgani kabi O’zbekistonda ham raqamli avlodning yetti ekranli avlodi - televizor, kompyuter, planshet, tablet, fablet, smartfon va smartsoatlari paydo bo’lmoqda. Bunday zich raqamli muhitga ega bo’lish va u bilan doimiy o’zaro munosabat natijasida bugungi kun talabalarining fikrlashi va axborotlarga ishlov berish jarayonlari oldingi fikr yuritish va axborot jarayonlaridan tubdan farq qilmoqda. Raqamli avlod ota-onalarimiz o’rgangan uslubda o’qitilishi mumkin emas va bo’lmazligi ham kerak.

Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan innovatsion ta’lim texnologiyalari va didaktik modellarni ommaviy va samarali qo’llash orqali ta’lim tizimini raqamli avlodga moslashtirish zarur.

Adabiyotlar:

1. Бем, Н.А. Применение электронных образовательных ресурсов в условиях перехода на новые ФГОС общего образования // Информатика и образование. – 2013. – №7. – С. 20 – 23.
2. Босова, Л.Л. Программа по учебному предмету «Информатика» для 7 – 9 классов. Босова Л.Л., Босова А.Ю.– Москва: БИНОМ. Лаборатория знаний, 2013.
3. Bulutli texnologiya // Wikipedia [https://ru.wikipedia.org/wiki/ Облачные_вычисления/](https://ru.wikipedia.org/wiki/Облачные_вычисления/) Tuesday, 12 Dec 2018 14:21:44.
4. Зверева Ю. С. Информатизация высшего образования // Проблемы и перспективы. 2016. № 6-2 (85). С. 63–66.
5. Суарес М. Опыт применения отечественных ERP-систем в строительстве // Системы автоматизации предприятия, 11.02.2008

6. Juraev Kh. Ways of using educational materials on alternative energy sources at natural lessons// European science review. – Austria, 2018. № 1-2. –Pp. 177-180.
7. Jo'rayev H.O., Quliyeva Sh.H. va boshq. Texnik ijodkorlik va dizayn. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Turon Zamin Ziyo, 2015. – 240 b.
8. Qahhorov S.Q., Juraev H.O. Modeling of heat-physical processes in solar dryers//Journal of Critical reviews. –Kuala Lumpur, 2020. № 7. – Pp. 9–15.
9. Khazratov F., Juraev Kh. Methods of creation and organization of work, technology for creating auto-navigation maps [Электронный ресурс]: URL: <http://www.jcreview.com/?mno=9704>.
10. Xodjiyev S,Ubaydulloyev.A Jurayeva N.O. Funksiya grafigi yordamida uning xossalari o'rganish bo'yicha ayrim metodik tavsiyalar ERUS Scientific Journal №4 2022/4, -106-116 bet.

SALEEM Tabassum

PhD student, International Islamic
University Islamabad, Pakistan

**RASULOV
To‘lqin Khusenovich**

Professor, Department of
Mathematical Analysis, Bukhara
State University
E-mail: t.h.rasulov@buxdu.uz

**UMAROVA
Umida Umarovna**

Senior Lecturer, Department
of Mathematical Analysis,
Bukhara State University
E-mail: u.u.umarovabuxdu.uz

UDC:37.11

DIDACTIC APPROACH AND INNOVATIVE METHODS IN DISTANCE LEARNING

The article explores the didactic approach and innovative methods in distance learning. The use of innovative methods with the use of didactic tools in distance learning is discussed. Dependence of learning technologies on the goals of education, principles that allow us to consider the methodology as innovative, comparative characteristics of traditional and innovative learning technologies, comparison of the characteristics of innovative learning models have also been studied.

Key words: didactic approach, information and educational environment, distance learning, interactive methods, learning technologies, education.

ДИДАКТИЧЕСКИЙ ПОДХОД И ИННОВАЦИОННЫЕ МЕТОДЫ В ДИСТАНЦИОННОМ ОБУЧЕНИИ

В статье исследуются дидактический подход и инновационные методы в дистанционном обучении. Обсуждается использование инновационных методов с применением дидактических средств в дистанционном обучении. Также изучены зависимость технологий обучения от целей образования, принципы, позволяющие рассматривать методiku как инновационную, сравнительная характеристика традиционных и инновационных технологий обучения, сравнение характеристик инновационных моделей обучения.

Ключевые слова: дидактический подход, информационно-образовательная среда, дистанционное обучение, интерактивные методы, технологии обучения, образование.

MASOFAVIY TA'LIMDAGI DIDAKTIK YONDASHUV VA INNOVATSION USULLAR

Maqolada masofaviy ta'limda didaktik yondashuv va innovatsion usullar haqida sòz boradi. Shuningdek, masofaviy ta'limda didaktik vositalardan foydalangan holda innovatsion usullardan foydalanish masalalari muhokama qilinadi. Ta'lim texnologiyalarining ta'lim maqsadlariga bog'liqligi, metodologiyani innovatsion deb hisoblash imkonini beruvchi tamoyillar, an'anaviy va innovatsion ta'lim texnologiyalarining qiyosiy tavsiflari, innovatsion ta'lim modellari xususiyatlarini qiyoslash haqida ham aytib o'tilgan.

Kalit so'zlar: didaktik yondashuv, axborot-ta'lim muhiti, masofaviy ta'lim, interfaol usullar, o'qitish texnologiyalari, ta'lim.

Introduction. A didactic approach to teaching refers to a manner of instruction in which information is presented directly from the teacher to the pupil, in which the teacher selects the topic of instruction, controls instructional stimuli, obligates a response from the child, evaluates the child's responses, and provides reinforcement for correct responses and feedback for incorrect ones.

In many countries of the world didactic approach has been used to enhance the teaching-learning process. In the late 60s distance learning was facilitating the students through books and assignment systems were common in which students had to complete the assignments to their respective teachers in hard copies. At that time learning in distance mode entailed studying by correspondence. There was no technology involved and learners worked in isolation with occasional correspondence with tutors/advisors. Learning materials consisted of printed matter and books, and assessment was normally unseen examinations at the end of the study period [1].

But with the passage of time, new technologies were also added in distance learning like Television, Radio and video tapes, etc. Now distance learning is more systematic and fuller of different modes.

The present age made distance learning no more an example of isolated learning. The unprecedented developments in Information and Communications Technologies brought a revolution in education. From the late 80s, throughout the 90s, and at the beginning of the 21st century, we have seen Videoconferencing, Virtual Learning Environments, Multimedia, and Interactive Environments. These technologies have in turn demanded a re-thinking of pedagogic principles and frameworks. The student is now able to study in Distance Mode yet also be part of a community.

Main part. The didactic approach now has new horizons. In many countries of the world, this approach has been in practice but with new grounds.

The Middlesex Global campus learning environment uses the in-house SCATE model which stands for Scope, Content, Activity, Think, Extra. Each learning unit.

Scope. The scope provides the context, learning outcomes, required study time, details of equipment/software required, and reading materials.

Content. The content gives textual and pictorial information and introduces new concepts and knowledge.

Activity. This section requires the learner to engage in problem-solving aiming to develop in-depth knowledge and understanding of the issues introduced under content. Discussion and a solution to the activity follow.

Think. This section includes review questions, group discussion topics, a learning journal, and an end-of-unit self-assessment.

Extra. The students have opportunities to tackle further activities and further reading, and generally, they can explore areas out of interest and not necessarily because they will be examined down the line. In addition to the online materials, students have a reader or core textbook as well as a module handbook that contains general information, assignment specifications, and case studies.

The majority of teachers at Russian Universities have chosen popular telecommunication platforms while teaching students in a distance mode. For example, Zoom, Google Meet, Skype, and Discord platforms were used by the language teachers of the Don State Technical University and the Russian Customs Academy; True Conf as a didactic platform was chosen by the Rostov Institute (branch) of All-Russian State University of Justice (RLA of the Ministry of Justice of Russia) teaching staff, the Kuban State University teachers implemented the Microsoft Teams system and Moodle platform. In addition, we noted that the electronic information and educational system of a higher education institution that was created in advance played a significant role in a correct organization of a distance learning process. The formation of the existing electronic.

Educational database including lectures, practical workshops, test blocks, and PowerPoint presentations during the pandemic was significantly boosted: for instance, the general amount of educational courses worked out by the teachers of the Don State Technical University was increased from a couple of hundred to about a thousand without any loss of an educational value. The significant electronic resource that couldn't be overestimated is the distance electronic learning portal Skif, created by the teaching staff of the Don State Technical University on the basis of the Moodle platform and supplemented during the distance learning period [2, 3].

Innovative methods can be implemented both in traditional and distance learning technologies. At the same time, the use of module-credit and module-rating systems of training and knowledge control, as a rule, also contributes to the development of independence and responsibility of future specialists. “The implementation of the competency-based approach should provide for the widespread use of active and interactive forms of conducting classes in the educational process:

- computer simulations,
- business and role-playing games,
- analysis of specific situations,
- psychological and other trainings in combination with extracurricular work in order to form and develop the professional skills of students.

New requirements for the results of the development of educational programs (the results of education) determine the improvement of the content and development [4]

- new methods and technologies of educational activities (teaching / learning)
- forms of control of its results (monitoring of the quality of education).

Results.

The dependence of learning technologies on the goals of education

Goals of education	Types of training sessions
Not exceeding the level of assimilation	<ol style="list-style-type: none"> 1. listening to the teacher's explanations, 2. work with the tutorial, 3. observation of the objects of study, 4. performing practical actions according to the instructions.
Focused on the assimilation of the basic algorithms of activity	<ol style="list-style-type: none"> 1. Note-taking and summarizing educational material, 2. Making a presentation in the discussion, 3. Solution of typical tasks, 4. Participation in didactic games.
Aimed at the formation of the experience of search activities	<ol style="list-style-type: none"> 1. Problem based learning, 2. Game learning, 3. Real design, 4. Analysis of atypical production situations.
Aimed at the training of scientific personnel	<ol style="list-style-type: none"> 1. Discussions on problem setting, 2. Preparation and conduction of specific studies, 3. Analysis of their results, 4. A set of methods for developing the experience of creative activity.

Principles allowing to consider the technique as innovative [5]:

■ it is assumed that in these pedagogical conditions it was not applied. It is considered acceptable to adapt an already existing effective methodology to specific pedagogical conditions.

■ there is reason to judge that the innovation will increase the efficiency of processes and will positively affect the quality of the learning outcome.

Innovative educational technology is a form of organization of the educational process, described at the level of a normative document, which guarantees the reproduction of similar results in certain pedagogical conditions, including some innovation in methodological, organizational, technical, etc. character [6].

Comparative characteristics of traditional and innovative learning technologies		
Main characteristics	Traditional learning model	Innovative learning model
Target emphasis	The result of training (assimilation of the amount of information established by the program)	Learning process (teach to learn)
The role of the teacher	Host (source of knowledge)	Advisory (manager, director)
Forms of presentation Knowledge	In "finished form", according to the model, with a predominance of verbal methods and textual forms	Active forms (game, problem, initiation of independent work, search, etc.)
- ўзгарувчан шарт-шароитларга мослашувчанлик кўникмаси, турли-туман вазиятларда ўзини йўқотмаслик, турли жамоаларда фаолият кўрсата олиш,
- масъулиятли танловни амалга ошириш қобилияти.

Ижтимоий компетентлик компонентлари:

- жамиятдаги ижтимоий институтларнинг тузилиши ва фаолият олиб боришига доир билимлар;
- ижтимоий рольга қўйилган талаблар ва кутишларга оид билимлар;
- ижтимоий рольга хос бўлган хулқни эгаллаш малакаси;
- умуминсоний нормалар ва қадриятларга оид билимлар;
- кишининг ўзи ҳақидаги тасаввурлари, ўзини ижтимоий субъект сифатида идрок этиш;
- самарали ижтимоий ҳамкорлик кўникмалари ва малакалари.

Ижтимоий хулқ малакалари:

- ўзаро биргаликдаги ҳаракат малакалари;
- стресс(зўриқиш)ли вазиятлардаги адекват хулқ малакалари;
- ижобий мулоқот малакалари;
- бошқаларни тушуниш ва ўз-ўзини баҳолаш малакалари;
- ўз хулқини идора этиш малакалари;
- ҳиссий ҳолатлар ва эмоцияларни бошқариш;
- муаммоли вазиятни ҳал этиш малакаси;
- ўз шахсига нисбатан ижобий муносабат, ўз қадрини билиш малакаси.

Боладаги шахсий тузилмаларнинг шаклланганлик даражаси ижтимоий адаптация (мослашиш)га қўмаклашади ва бу ижтимоий кўникмани ҳосил қилади.Ижтимоий компетентликка замин яратиб берадиган шахсий тузилмалар:

Биринчидан, мактабда ижтимоий фойдали фаолият мотивацияси ривожланади ва мустаҳкамланади. Жумладан, у иккита кутбдан бирига жойлашган бўлади:

- муваффақиятга эришишга интилиш;
- муваффақиятсизликдан хавотирланиш(қочиш).

Агар ўқувчи ўз фаолияти давомида муваффақиятсизликка дуч келса, унинг мотивация соҳасида

“муваффақиятсизликдан қочиш” мотиви устунлик қила бошлайди. Психологик тадқиқотларда аниқланишича, “муваффақиятга эришишга интилиш” мотиви ижтимоий адаптация(мослашиш)га қулайлик яратиб беради.

Фаолиятнинг ушбу мотивацияси амалий, ижобий натижаларга эришишга йўналтирилган бўлади ва шахс фаоллигини белгилаб беради.

Муваффақиятсизликдан хавотирланиш мотивацияси ижтимоий компетентликка эришишга тўқинлик қиладиган, салбий ҳолат ҳисобланади. Мотивациянинг ушбу типига ўқувчи хатолар, муваффақиятсизликлар, танбеҳ ва жазодан қочишга ҳаракат қилади, барча интилишларидан салбий натижани кута бошлайди ва бу унинг жамиятдаги ҳулқига таъсир кўрсатади.

Ҳали фаолият бошламасдан олдин, у ўзининг муваффақиятсизлигини башорат қила бошлайди ва фаолиятдан воз кечади.

Ижтимоий компетентликни эгаллаш учун, “муваффақиятга эришишга интилиш” мотивининг аҳамияти катта бўлади.

Иккинчидан, билиш соҳасининг интенсив ривожланиши ва ундаги сифат ўзгаришлари туфайли бола, ўз билиш жараёнларини идора этишни ўрганади, улар билвоситалик касб этиб, ихтиёрий ва англандан шаклда ифодаланади. Бу эса, ҳулқ-атворни ихтиёрий бошқариш қобилиятига замин яратади.

Ҳулқ-атворни ихтиёрий тарзда идора этиш (ўз ҳулқини онгли бошқариш, ижтимоий меъёрлар ва қоидаларга риоя этиш, ўз-ўзини бошқариш қобилияти), ижтимоий компетентликнинг тараққий этиши учун аҳамиятли бўлган муҳим янгиланишлардан бири саналади.

Учинчидан, ўсмир ўзига бошқалар назари билан қарашга ўрганади, унда ўзига ва бошқаларга нисбатан танқидий муносабат пайдо бўлади, ҳамда ўзига-ўзи баҳо бера бошлайди. Ўз-ўзига баҳо беришнинг юзага келиши, шахс тузилмасидаги энг муҳим бўғин ҳисобланиб, кўп ҳолларда шахснинг ижтимоий мослашувини таъминлаб беради ва ўқувчи ҳулқини идора этади.

Ўз шахсидан қониқиш ҳисси ва ўз-ўзига берилган баҳо, ижтимоий компетентликнинг муҳим таркибий қисмидир.

Тўртинчидан, ўқув жараёнида болаларда теварак атрофдаги кишилар билан муносабатларнинг янги типи шаклланади. Болалар ижтимоий нормаларни ўзлаштирадиган, шахслараро муносабатларда “нима яхши – нима ёмон” эканлигини фарқлайдилар, катталардан кўра ўз тенгдошларига яқинлаша бошлайдилар.

Ушбу ҳолатда ижтимоий мослашиш учун ўзаро ҳамкорликдаги фаолият ижобий таъсир кўрсатади, ўқувчи ўз тенгдошлари ва катталар билан биргаликда фаолият олиб боради. Ўз фикрини бошқаларникидан ажрата олиш туфайли ўқувчи ўз шахсий “Мен”ининг имкониятларини чамалай олади, кўпгина ҳаётий вазиятлар унинг ҳулқ-атвори, ўзини тутишига боғлиқ эканлигини тушуниб этади, шу аснода муаммоли вазиятларни ҳал этиш кўникмаларини эгаллайди.

Шундай қилиб, ижтимоий компетентлик - шахс установакалари ва маънавий қадриятлари, шахсий психологик хусусиятлар тизимида асосланувчи, ўзаро бир-бирига яқин ижтимоий компетенциялар мажмуаси бўлиб, индивидга жамиятга қўшилишга ва турли ижтимоий ролларни самарали бажаришга имконият беради.

Ижтимоий компетенциялар қаторига қуйидагиларни киритиш мумкин:

- шахсий;
- психологик;
- ижтимоий-психологик;
- ҳуқуқий;
- вербал;
- коммуникатив;
- иқтисодий;
- касбий компетенция.

Шахснинг маънавий-ахлоқий қадриятлари тизимида толерантлик, бошқа кишига нисбатан ҳурмат ва уни қабул қилиш, ўз-ўзини ҳурмат қилиш ва бошқаларни фарқлаш мумкин.

Шахснинг асосий психологик тузилмалари сифатида мослашувчанлик, муваффақиятга йўналганлик, креативлик қабиларга эътибор қаратилади.

Адабиётлар:

1. Shure, M. B. Social Competence as a Problemsolving Skill / M. B. Shure // Social competence / edited by Jeri Dawn Wine & Marti Diane Smye. - New York, London : The Guilford Press, 1981. - P. 158 - 185.
2. Гончаров, С. З. Социальная компетентность личности: сущность, структура, критерии и значение [Текст] / С. Гончаров // Образование и наука. - 2004. - №2 (26). - С. 3 - 18.
3. Белицкая, Г. Э. Субъект и социальная компетентность личности: М.: ИП РАН, 1995. 245.
4. Хинш, Р. Социальная компетенция; пер. с нем. [Текст] / Р. Хинш, С. Виттманн. - Харьков: Гуманитарный Центр, 2005. - 192 с.

САДУЛЛОЕВА Махфуза Гайбуллоевна

Бухоро давлат университети
Бошланғич таълим методикаси
кафедраси ўқитувчиси
m.g.sadulloeva@buxdu.uz

ЎЗЛУКСИЗ АМАЛИЁТ – ТАЛАБАЛАРНИНГ КАСБИЙ МАҲОРАТИНИ ОШИРИШ ВОСИТАСИ

Ушбу мақолада Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг фармони ва Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг қарорлари муносабати билан таълим соҳасидаги янги ислохотлар туфайли педагогик амалиётни ташиқил этиши йўллари муҳокама қилинади. Ўзлуксиз амалиёт талабаларнинг касбий маҳоратини ошириши соҳасида самарали шакл бўлиб, назарий ва амалий билимларни интеграция қилиш, малака компетенциясини такомиллаштиришида муҳим босқич саналади. Талабаларнинг амалиёт давомида мактаб ўқувчилари билан синф ва синфдан ташқари ишларни олиб боришида касбий ва педагогик кўникмаларини шакллантиришни таъминлашга қаратилган ўқув фаолияти истиқболда бўлажак ўқитувчиларнинг касбий компетенциясини талаб даражасида эгаллашда муҳим аҳамият касб этиши ушбу мақолада ёритилган.

Калит сўзлар: педагогик амалиёт, касбий малака, кўникма, ўқитувчи позицияси, дарс ва дарсдан ташқари машгулотлар, ўқитувчилик касби, ўқув фаолияти, тасаввур.

НЕПРЕРЫВНАЯ ПРАКТИКА – СРЕДСТВО ПОВЫШЕНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ НАВЫКОВ СТУДЕНТОВ

В данной статье рассматриваются пути организации педагогической практики в связи с новыми реформами в сфере образования в связи с Указом Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева и Постановлениями Кабинета Министров Республики Узбекистан. Непрерывная практика является эффективной формой в сфере совершенствования профессиональных навыков студентов и считается важным этапом интеграции теоретических и практических знаний, повышения профессиональной компетентности. Непрерывная практика является эффективной формой в сфере совершенствования профессиональных навыков студентов и считается важным этапом интеграции теоретических и практических знаний, повышения профессиональной компетентности. В данной статье подчёркивается, что воспитательная деятельность, направленная на обеспечение формирования профессионально-педагогических умений студентов в период практики при проведении аудиторных и внеаудиторных занятий со школьниками, имеет важное значение в приобретении профессиональной компетентности будущих педагогов на необходимом уровне в будущем.

Ключевые слова: педагогическая практика, профессиональная компетентность, умения, педагогическая позиция, учебная и внеучебная деятельность, педагогическая профессия, учебная деятельность, воображение.

CONTINUOUS PRACTICE IS A MEANS OF INCREASING PROFESSIONAL SKILLS OF STUDENTS

This article discusses ways to organize teaching practice in connection with new reforms in the field of education in connection with the decree of the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev and the decisions of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan. Continuous practice is an effective form in the field of improving the professional skills of students and is considered an important stage in the integration of theoretical and practical knowledge, increasing professional competence. Continuous practice is an effective form in the field of improving the professional skills of students and is considered an important stage in the integration of theoretical and practical knowledge, increasing professional competence. This article emphasizes that educational activities aimed at ensuring the formation of professional and pedagogical skills of students during the period of practice when conducting classroom and extracurricular classes with schoolchildren is important in acquiring the professional competence of future teachers at the required level in the future..

Keywords: *pedagogical practice, professional competence, skills, pedagogical position, educational and extracurricular activities, pedagogical profession, educational activity, imagination.*

Кириш. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг 2023 йил учун Мурожаатномасида “Нажот – таълимда, нажот – тарбияда, нажот – билимда. Чунки, барча эзгу мақсадларга билим ва тарбия туфайли эришилади” – деб таълимнинг қанчалик муҳим эканлигини таъкидлади. Ҳақиқатдан ҳам “Таълим сифатини ошириш – Янги Ўзбекистон тараққиётининг яққо ягона тўғри йўлидир”.

Таълимни янада ривожлантиришда олий таълим муассасаларида таҳсил олаётган талабаларни тайёрлашда янги методика асосида ўқитиш юқори самарадорликка олиб келади. Шундай янги методикалардан бири “4+2” дастури асосидаги педагогик амалиётдир.

Асосий қисм. Педагогик амалиёт – бу талабаларнинг ўқув фаолияти натижаси бўлиб, назария ва амалиёт уйғунлигини таъминлайдиган жараён ҳисобланади. Чунки ўқув жараёнидаги назарий билим ва кўникмаларнинг амалий жиҳатлари тажрибалар асосида ўрганилади. Ўқитувчининг педагогик малакаси унинг бўлғуси амалий тажриба орттиришига қаратилади.

Амалиёт бу – талабанинг таълим муассасасидаги мустақил фаолияти бўлиб, олий таълимда олган билим, кўникма ва малакаларини реал вазиятларда қўллаш жараёнидир. Шундай экан, педагогик амалиёт шунга мос равишда ташкил этилиши лозим. Методист ўқитувчи талабаларга амалиёт жараёнида ўқитувчи позицияси орқали ўқитиш ва тарбиялашдаги дарс ва дарсдан ташқари машғулотларни ташкил этишда зарур бўлган методик тавсиялар асосида ўз фаолиятини олиб боради.

Педагогик амалиёт талабаларнинг касбий маҳоратини эгаллашдаги самарали шакли сифатида мактаб ўқувчилари билан синф ва синфдан ташқари ишларни олиб боришга қаратилган жараён ҳисобланади. Бунда амалиётнинг умумий вазифалари қуйидагилардан иборат: университетдаги назарий фанларни мактаб иши билан алоқадорлигини таъминлаш; ўқувчиларнинг ўқиш жараёнида олган билимларини кенгайтириш, мустаҳкамлаш ва текшириш; ўқитувчининг малака тавсифлари талабаларидан келиб чиққан ҳолда фан ўқитувчиси ва синф раҳбари сифатида педагогик ишларни олиб боришда асосий касбий-педагогик кўникмаларни шакллантириш; мактаб ўқувчиларини таълим ва тарбиялашнинг долзарб масалаларини ўрганишга талабаларнинг қизиқишини ривожлантириш; ўз фаолиятида илғор тажрибаларни қўллаш; педагогик олий таълим битирувчиларини ўқитувчилик вазифаларини ижодий амалга оширишга тайёрлаш ва ҳк.

Олий таълимни замонавий ислоҳ қилиш доирасида Ўзбекистон таълим муассасалари педагогика институтлари ва тегишли мутахассисликлар мавжуд бўлган олий ўқув юртлиги талабалари учун педагогик амалиётни ташкил этишнинг янги турларига ўтади. Бунга сабаб Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармонида ушбу масалага принципиал жиҳатдан янги ёндашув белгилаб берилган, яъни университет ўқув жараёнини шундай қилишга мажбурдирки, талабалар асосий таълим билан банд бўлсин. Ҳафтада тўрт кун жараён, мактабгача ва мактаб муассасаларида икки кун педагогик амалиётга бағишланган. Қарор мамлакатимизнинг ўнта педагогика олий ўқув юртлиги фаолиятига қаратилган.

Маъмурий иқтисодиётнинг меҳнат бозорига ўтиши ва таълим тизими - ажратишдан трансформацияларга - педагогик мутахассисликлар бўйича олий таълимнинг долзарб муаммоларини шундай ҳал қилишнинг асосий мақсадларини таъминлайди.

Педагогик жамоатчилик бундай янгиликдан нимани кутмоқда? Бу, умуман олганда, талабаларнинг таълим сифатини ошириш бўйича қўлланма, бу синфда олинган билимларни репродуктив такрорлаш, бу ҳақиқий касбий муаммоларни амалий қўллаш ва ижодий ҳал етиш, бу талабаларга катта мустақилликни таъминлаш, бу келажакдаги касбий мартаба учун муваффақият шароитларини мақсадли яратиш.

Талабалар ўзларининг касбий компетенциясини ривожлантириш юзасидан малакавий ёки педагогик амалиёт ўтайдилар. Педагогик амалиёт қуйидагиларга ёрдам беради:

1. Талабанинг назарий билимларини чуқурлаштириш ва мустаҳкамлаш.
2. Реал касбий фаолиятга яқин шароитларни яратиш.
3. Келажакдаги касбий-педагогик фаолият кўникмаларини эгаллаш.
4. Муайян соҳада келажакдаги касбий фаолият кўникмаларини ривожлантириш.
5. Ўқитувчилик касбининг моҳиятини тушуниш.
6. Ўқитувчи ишининг мазмунини англаш.

60110500-Бошланғич таълим йўналишида талабалар педагогик амалиёт даврида ўқувчилар билан ишлашда касбий кўникмаларни шакллантиришга қаратилган машғулотлар ташкил этади. Ушбу жараёнда талабалар мактаблардаги ўқув-тарбия машғулотларининг қандай ташкил этилиши, синф

рахбари фаолияти, синфдан ташқари ишларни ташкил этиш методикаси, бўш ўзлаштирувчи ўқувчилар ишлаш, ота-оналар билан ишлаш, мактаб ва оила ҳамкорлигини тўғри ташкил этиш каби малакаларни эгаллайди. Бундан ташқари, амалиёт даврида талаба ўқитувчи бўлиб шаклланишида ўзини англаш, танлаган касбига бўлган иштиёқ, касбий маҳоратини оширишга бўлган мотивация каби хусусиятларни ривожлантиришга ҳаракат қилади.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 21 июндаги “Педагогик таълим сифатини ошириш ва педагог кадрлар тайёрловчи олий таълим муассасалари фаолиятини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида” ПҚ-289-сонли қарорида 2022-2023 ўқув йилида педагог кадрлар тайёрловчи олий таълим муассасалари кундузги таълим шаклида таҳсил олаётган 2-4-босқич талабалари учун ҳафталик ўқув машғулоти “4+2” тартибда, шу жумладан, дарсларнинг 4 кунли олий таълим муассасасида, 2 кунли мактабгача ва умумий ўрта таълим муассасаларида амалиёт ўташ тартибда олиб борилиши қайд қилинган [1].

Педагогик йўналишдаги талабалар “4+2”и учун ўқув режасига педагогик амалиёт киритилган. Ундан олдин талабаларни бошланғич синф ўқувчилари билан мулоқот қилишга тайёрлашга қаратилган турли машғулоти ўтказилади. Масалан, бу бошланғич синф ўқувчиларининг ривожланиш психологияси, бошланғич синфларда она тили ва ўқиш саводхонлиги дарслари, математика, табиий фанлар, технология фанларини ташкил этиш методикаси.

Педагогик ва малакавий амалиётни ташкил этишнинг бир қанча шакллари мавжуд. Жумладан, концентрланган шакл - узлуксиз амалиёт, талаба маълум вақт давомида бошланғич синф ўқитувчиси лавозимини эгаллайди.

Тарқалган шакл - ҳафта ва ой кунларида назарияни ўрганиш билан алмашинадиган қисман амалиёт.

Комбинацияланган шакл - амалиёт узлуксизлик ва қисманлик элементларини бирлаштиради. Уларнинг уйғун комбинацияси энг яхши амалий натижа беради.

Барча таълим даражаларида касбий педагогик таълим педагогик амалиётни ташкил этиш ва мазмуни тўғрисидаги низомда назарда тутилган педагогик амалиётнинг барча турларининг умумий маданий ва касбий компетенциялар билан ўзаро боғлиқлигини, яхлит, яхлит моделини, қатъий тузилишини, мазмунини яратишни талаб қилади. 4+2 университет талабалари. Ўзбекистон Республикаси. Таълим муассасаларида педагогик амалиётдан ўтиш жараёнини ёритган ўқитувчи-муаллифларнинг фикрича, Ўзбекистон олий ўқув юрғларида педагогик амалиёт турлари, вазифалари ва мазмуни ривожланишининг қисқача тарихий кўриниши педагогик амалиётнинг ривожланиш босқичларини тўлиқроқ кўрсатиш имконини беради. Бўлажак ўқитувчини касбий фаолиятга тайёрлаш, қарама-қаршиликлар ва истикболли йўналишларни аниқлаш воситаси сифатида ўқитувчи таълимнинг ҳозирги ҳолатини аниқлади. Мустақиллик йилларида педагог кадрлар малакасини ошириш тизимини барпо этиш муҳим вазифалардан бири бўлди. Ўқитувчилар малакасини ошириш бўйича янги таълим дастурларини ишлаб чиқиш ва амалга ошириш жараёни бошланди. Аммо шунга қарамай, ўқитувчилар тайёрлаш соҳасида талабаларнинг касбий амалиётга алоҳида ўрин берилди. Раҳбар бўлажак ўқитувчиларнинг амалий машғулоти алоҳида эътибор қаратди, талабаларнинг кўчма кутубхоналарда, ахборот столларида қатнашишини (сиёсий, умуммаданий мавзуларда суҳбатлар) ташкил этишни таклиф қилди, талабаларни ўқитишдаги мақсадларни кўрсатувчи босқичларни белгилаб берди: кичик ёшдаги - педагогика назарияси билан танишиш, ИИИ курс - педагогик амалиёт жараёнида "педагогик фаолият санъати"ни ўргатиш.

Муҳокамалар ва натижалар. Бошланғич таълим йўналиши талабалари педагогик амалиётни ўтказиш босқичлари:

1. Кириш босқичи. Талаба педагогик амалиёт ва унинг хусусиятлари билан таништирилади. Амалиёт раҳбари амалиётчи-талабанинг маълум давр учун фаолияти режасини тузади, бажарилиши керак бўлган аниқ тадбирларни тайёрлайди. Талаба ўқув машғулоти ўтиш лойиҳаси билан таништирилади. Талабага амалиётдан кўзланган мақсад ҳақида тушунча ва амалиётни ўташ бўйича кўрсатмалар берилади ҳамда уни юритиладиган ҳужжатларни тўлдириш қоидалари билан таништирилади.

2. Фаолият босқичи. Бунда талаба амалиёт давомида фаолият олиб боради. У бу жараёнда бошланғич синф ўқитувчиларининг дарсларида қатнашади, уларнинг ишини таҳлил қилади, ўқувчилар билан мулоқоти ва ўқитишнинг айрим усуллари ўзлаштирилади, синфдан ташқари ишларни ташкил қилишни ўрганади ва амалий фаолиятини синфдан ташқари ишлар билан давом эттиради. Бу эса талабага ўқувчиларни яхшироқ билиш, улар билан алоқа ўрнатиш имконини беради. Шундан кейин талаба ўз машғулоти режалаштиради ва уни ташкил этади.

Талаба ўқувчилар учун уй вазифасини тайёрлайди ва уни текширади, уларнинг дарсдаги ишини текшириш учун дафтарларни йиғади, ҳар бир ўқувчининг индивидуал эҳтиёжларини таҳлил қилади ва дарсдан кейин кўшимча дарслар, маслаҳатлар, суҳбатлар ташкил этади. Бундан ташқари, иш куни давомида ўз синфидаги ўқувчиларни кузатиш ва уларга ёрдам бериш учун мактабдан ташқари гуруҳларга ташриф буюриш керак бўлади.

3. Якуний босқич. Ушбу босқичда талаба амалиёт ҳисоботини тайёрлаши, амалиёт кундалигини тўлдириши, барча ҳужжатларни имзолаши ва тасдиқлаши керак. Талаба мактабда ва мактабдан ташқари машғулотларни таҳлил қилади, текшириш учун дарслари тўғрисида эслатма беради, оналар йиғилиши ва унинг натижалари тўғрисида баённома тузади. Амалиётнинг охирида эса якуний конференция ўтказилиб, унда амалий фаолият натижалари сарҳисоб қилинади.

Педагогик кундаликнинг тахминий диаграммаси.

Кундалик

Талаба ____ курс ____ факультет

Педагогик амалиёт ўрта мактабнинг _____ синфида ўтказилади

№ _____ шаҳар _____ 2022-2023 ўқув йили

Гуруҳ амалиёт раҳбари _____

Методист _____

Мактаб директори _____

Синф раҳбари

Педагогик кундаликнинг тахминий схемаси.

1. Тарбиявий иш олиб борилган синф ҳақида қисқача объектив маълумотлар.
2. Педагогик амалиёт жараёнида жамоат ва тарбиявий тадбирларда иштирок этиш.
3. Жисмоний маданият дарсларининг миқдори ва қисқача таҳлили.
4. Ўқув куни давомида маънавий-ахлоқий тадбирларнинг миқдори ва турлари.
5. Мактабнинг дам олиш фаолиятини амалга оширишга тайёрлиги ҳақида ўз фикрингизни асосланг.

6. Бириктирилган синфдаги бошқа умумий ўрта таълим фанлари бўйича ўтилган дарсларнинг миқдори ва қисқача шарҳи.

7. Оммавий спорт тадбирлари мустақил равишда ва тингловчилар учун гуруҳ таркибида тайёрланади ва ўтказилади.

8. Бириктирилган синфдаги таълим фаолиятининг қисқача мазмуни.

Малакавий ва педагогик амалиётнинг ташкил этилишига кўра бўлажак бошланғич синф ўқитувчисининг амалиёти иккита асосий қисмдан иборат:

1. Назарий қисм. Бу талабанинг назарий олган билимини амалиётга қўллаш жараёни. Талабанинг амалиёти даврида ишнинг мазмуни унинг олиб бораётган фаолияти билан боғлиқ бўлиши ва у ҳақида маълумот тўплашга қаратилган бўлиши керак. Яъни талаба ўз ишида амалиёт маълумотларидан фойдаланиши керак. Масалан, у ёки бу таълим муассасасининг бошланғич синф ўқувчиларининг муайян фан бўйича кўрсаткичлари тўғрисида статистик маълумотларни тақдим этиш, қандайдир таҳлиллар ўтказиши лозим.

2. Амалий қисм. Унда талаба ўқув машғулотларини ташкил қилишни ўрганади. Энг муҳими, бошланғич синфларда у дидактик материалларни ишлаб чиқишни, давлат стандартларининг замонавий талабларини ҳисобга олган ҳолда дарсларни ўтказиш усулини танлашни ўрганади. Талабанинг иши тажрибали профессор-ўқитувчилар раҳбарлигида мустақиллиги тўлиқ таъминлаган ҳолда амалга оширилиши керак.

Педагогик жамоатчилик бундай янгиликдан нимани кутмоқда?

Бу, умуман олганда, талабаларнинг таълим сифатини ошириш бўйича қўлланма;

- бу синфда олинган билимларни репродуктив такрорлаш;

- бу ҳақиқий касбий муаммоларни амалий қўллаш ва ижодий ҳал этиш;

- бу талабаларга катта мустақилликни таъминлаш;

- бу келажакдаги касбий мартаба учун муваффақият шароитларини мақсадли яратиш.

Хулоса. Бошланғич таълим йўналишида талабаларнинг малакавий ва педагогик амалиётини ташкил этиш мазмуни қуйидагиларни ўз ичига олади:

1. Бошланғич синфларда ўқитиш жараёни билан таништириш.

2. Муайян фан бўйича давлат стандартлари ва ўқув дастури билан танишиш.

3. Ўқув предметининг мазмуни билан танишиш.

4. Бошланғич синфларда дарсларни ўтказиш шакллари ва ўқитиш методикаси билан таништириш.

5. Ўз машғулотларини ўтказиш учун ўқув қуролларини танлаш.
6. Йўриқномаларни ишлаб чиқиш.
7. Алоҳида ўқув машғулоти ва синфдан ташқари ишларни амалга ошириш бўйича амалий кўникмаларни шакллантириш.
8. Бошланғич синфларда ўқувчилар ўз-ўзини бошқариш жараёни.
9. Амалиёт бўйича таҳлилий иш: ўз фаолиятини таҳлил қилиш ва умумлаштириш.

Адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2023 йил учун Мурожаатномаси. <https://review.uz/uz/post/ozbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoyevning-2023-yil-uchun-murojaatnomasi-toliq-matn>
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 27 июлда қабул қилинган “Олий маълумотли мутахассислар тайёрлаш сифатини оширишда иқтисодий соҳалари ва тармоқларининг иштирокини янада кенгайтириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-3151-сонли Қарори. - Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 йил. 71-бет.
3. “Педагогик таълим сифатини ошириш ва педагог кадрлар тайёрловчи олий таълим муассасалари фаолиятини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Қарори // Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарори, 21.06.2022 йилдаги ПҚ-289-сонли Қарори.
4. Садуллоева М. Г. Гуманизация отношений в системе «Учитель-учащийся»-установление связей сотрудничества // Достижения науки и образования. – 2019. – №. 8-3 (49). – С. 103-104.
5. The use of modern technologies in the lessons of the russian language and literature in the context of student-centered. European journal of modern medicine and practice.



САМИЕВА Шахноз Хикматовна

Бухоро давлат университети доценти,
педагогика фанлари номзоди
sh.x.samieva-1978@buxdu.uz

ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОННИНГ ТАРАҚҚИЁТ СТРАТЕГИЯСИДА ОЛИЙ ТАЪЛИМ СИЁСАТИ ВА УНИНГ АСОСИЙ ЙЎНАЛИШЛАРИ

Янги Ўзбекистонни иқтисодий ривожлантириши биринчи навбатда олий таълимда тайёрланаётган кадрлар сифатига боғлиқ бўлиб, сўнгги йилларда амалга оширилаётган ислохотлар ушбу масалани долзарблигини яна бир бор исботлади. Олий таълим муассасаларида замонавий таълимни талаб даражасига тараққий этиши учун билимли ва юқори салоҳиятли профессор-ўқитувчилардан ташқари моддий-техник базанинг таъминланганлиги, рақамли технологияларни таълим жараёнига қўллаш муҳим омиллардан биридир.

Калит сўзлар: олий таълим, инновацион таълим, замонавий кадр, бошқарув, стратегик режалаштириши.

ПОЛИТИКА ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ И ЕЁ ОСНОВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ В СТРАТЕГИИ РАЗВИТИЯ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА

Экономическое развитие нового Узбекистана зависит, в первую очередь, от качества кадров, подготовленных в системе высшего образования, и реформы, проведенные в последние годы, ещё раз доказали актуальность этого вопроса. Для того чтобы современное образование в высших учебных заведениях развивалось на требуемом уровне, обеспечение материально-технической базы в дополнение к образованным и высокопотенциальным профессорам и преподавателям, применение цифровых технологий в образовательном процессе является одним из важных факторов.

Ключевые слова: высшее образование, инновационное образование, современные кадры, менеджмент, стратегическое планирование.

HIGHER EDUCATION POLICY AND ITS MAIN DIRECTIONS IN THE DEVELOPMENT STRATEGY OF THE NEW UZBEKISTAN

The economic development of the new Uzbekistan depends primarily on the quality of personnel trained in the higher education system, and the reforms carried out in recent years have once again proved the relevance of this issue. In order for modern education in higher education institutions to develop at the required level, the provision of a material and technical base in addition to educated and high-potential professors and teachers, the use of digital technologies in the educational process is one of the important factors.

Keywords: higher education, innovative education, modern personnel, management, strategic planning

Кириш. Ўзбекистоннинг келажаги ва унинг равнақи даставвал илм-фан тараққиёти ҳамда таълим-тарбиянинг ривожланиши ва такомиллашиши билан белгиланади, шу боис мустақилликнинг дастлабки йиллариданоқ илм-фан, таълим-тарбия ҳамда замонавий кадрлар тайёрлаш масалаларига давлатимиз сиёсатининг устувор йўналиши сифатида эътибор қаратилди.

Жаҳондаги ривожланган давлатлар ўз фаолиятининг турли соҳаларини, шу жумладан, таълим-тарбия соҳасини ривожлантиришни ҳам тегишли миллий моделлар асосида ташкил қилишган. Дунёда мустақил таълим олиш сифатини ошириш, ёшларнинг жамиятда муваффақиятли ўз ўрнини топишида муҳим хусусиятларидан бири ҳисобланади. Жумладан, 2030 йилгача қабул қилинган умумжаҳон таълим Концепциясида “Бутун ҳаёт давомида сифатли таълим олишга имконият яратиш” гоёси ёшларнинг замонавий таълим олишлари, мустақил ишлаш малакаларини узлуксиз ошириш

орқали зарурий компетенцияларни, ижодий яратувчанлик, тадқиқотчилик, мантикий тафаккурини ривожлантиришга алоҳида эътибор қаратилган.

Стратегик режалаштириш ҳар қандай ижтимоий-иқтисодий соҳани ривожлантиришнинг асоси бўлиб, бугунги кунда инновацион иқтисодиётни шакллантиришнинг зарур шарт, мамлакат фаровонлиги ва хавфсизлиги омили бўлган олий таълим тизимини модернизация қилиш, глобал рақобатнинг вужудга келиши натижасида инновацияларни таълим жараёнига жорий қилиш, таълим технологияларини мунтазам янгилаш, динамик ўзгарувчан дунё талабларига тез мослашишни талаб қилади.

Асосий қисм. Бугунги кунда Янги Ўзбекистон “Инсон қадрлари устувор бўлган жамият ва халқпарвар давлат” тамойили негизида барпо этилмоқда. Жумладан, 2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегиясида белгиланган вазифаларни амалга ошириш, жамиятнинг сифат жиҳатидан ривожланиш даражаси унинг интеллектуал, маданий ва маънавий салоҳиятининг ўсишига боғлиқ бўлиб, бу жараёнда таълимнинг ўрни бекиёсдир.

XXI аср Янги Ўзбекистондаги соғлом дунёқарашга эга бўлган иймонли, диёнатли ёшларга фикрлаш ва ҳалол меҳнат қилиш даври эканлигини сездириб бормоқда. Айниқса, аждодларимиздан бизгача мерос бўлиб келган юксак инсоний сифат ва фазилатларнинг ёшлар тарбиясига сингиб, уларнинг маънавий етук, салоҳиятли, зукко ва баркамол бўлиб шаклланишидаги хизмати бекиёслигига шубҳа йўқ.

Бутун дунё мамлакатларида кузатилаётган глобал инқирозлар даврида ҳар бир шахс энг аввало вазиятни тўғри таҳлил қилиш ва ундан чиқиш йўллари ҳам виждонан ҳаракат қилиши лозим. Шу жумладан, қайси касб эгаси бўлишидан қатъий назар ҳамжиҳатликда ҳаракат қилмоқлари лозим. Бу борада ҳам, айниқса биз педагогларнинг ҳам роли каттадир. Шаклланиб келаётган янги авлодга бундай вазиятларни тўғри талқин қилган ҳолда, уларда букилмас ирода ва маданиятни шакллантириш лозим.

Мамлакат тараққиётини малакали мутахассислар белгилайди, замон талабларига жавоб берадиган, илғор фан - техника, технология ютуқларини эгаллаб олган кадрларни етиштиришдан жамиятни юксалтириб бўлмайди. 2020 йилда қабул қилинган “Таълим тўғрисида”ги қонун ва Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепцияси асосида ташкил этилган узлуксиз таълим тизими, ҳар томонлама билимли, интеллектуал салоҳияти, маънавияти юксак, баркамол авлодни шакллантириш механизми мамлакатимизда кучли демократик давлат барпо этиш ва ривожлантиришнинг муҳим омили бўлиб хизмат қилмоқда. Маълумки, таълим соҳасидаги ислохотлар мамлакатимизда олиб борилаётган ижтимоий-иқтисодий ислохотларнинг узвий ва ҳал қилувчи йўналишларидан бири ҳисобланади. “Олий таълим - илм-фан - ишлаб чиқариш ўртасида узилишлар мавжуд, интеграция таъминланмаган, илмий-тадқиқот институтлари олий таълимда кадрлар тайёрлаш жараёнига зарур даражада жалб этилмаган, уларда илмий изланишлар иқтисодиёт соҳаларининг реал эҳтиёжларидан келиб чиқмасдан амалга оширилмоқда. Олий малакали илмий ва илмий-педагог кадрларнинг тизимли тайёрланмаслиги олий таълим муассасаларининг илмий салоҳиятининг пасайишига олиб келмоқда” [2].

Янги Ўзбекистон ҳуқуқий демократик жамият қуриш йўлидан борар экан, ўз фуқароларининг, айниқса, янги жамият барпо этишга бел боғлаган, ўсиб келаётган авлоднинг маънавий-ахлоқий шаклланишига алоҳида эътибор қаратмоқда. Баркамол шахс тарбиясини ташкил этиш барча даврларда ҳам ижтимоий жамиятнинг муҳим талаби ва асосий мақсади бўлиб келган.

Жамиятнинг прогрессив ривожланишида олий таълим ва педагоглар юқори даражада аҳамиятли бўлиб, таълим, фан ва маданиятнинг келажагини шакллантирувчи шахс сифатида унинг жамият ҳаётидаги мавқеини юқори баҳолаш лозим. Ҳозирги кунда илм-фан ва жамият ривожланишининг янги босқичига ўтиши билан замонавий жамиятнинг ўқитувчига бўлган талаблари ўсиб бораётганини англаш жуда муҳимдир, шу билан бирга, унинг ушбу жамият ривожига қўшган ҳиссаси ҳам ортиб бормоқда.

Бугунги кунда жаҳон микёсида, жумладан, мамлакатимизда ҳам олий таълим тизимини рақамлаштириш ва ривожлантириш масаласи давлат даражасига кўтарилган бўлиб, бу борада кенг кўламли чора-тадбирлар амалга оширилмоқда. Ўзбекистон шароитида рақамли иқтисодиётни ривожлантиришнинг қонуниятлари, тенденциялари ва имкониятларини, хусусан, ахборот технологияларининг иқтисодиётнинг турли соҳаларига кириб бориш даражаларини илмий асосда ўрганиш ниҳоятда долзарб аҳамият касб этади.

“Рақамли Ўзбекистон – 2030” стратегияси доирасида Ўзбекистон Республикаси ижтимоий-иқтисодий тараққиётининг барқарорлигини таъминлаш, жаҳон тажрибасига суянган ҳолда миллий

иқтисодиётни жадал суръатларда рақамлаштириш учун қуйидаги ишларни бажариш лозимлиги кўрсатиб ўтилган:

- рақамли иқтисодиётни ривожлантиришнинг меъёрий-ҳуқуқий базасини шакллантириш;
- миллий иқтисодиётнинг барча тармоқ ва соҳаларини модернизациялашда имкон қадар энг сўнгги рақамли технологияларни жорий этиш;
- энг сўнгги рақамли технологияларга асосланган коммуникацион воситалар, машина ва ускуналарни сотиб олиш, ўрнатиш ва маҳаллий кадрларнинг уларда ишлаш малакаларини ошириш;
- мактабгача таълим тизимидан бошлаб, то олий таълимдан кейинги таълим тизимигача рақамли иқтисодиётни ривожлантиришга қаратилган кадрлар сиёсатини ишлаб чиқиш ва юритиш.

Рақамли технологияларнинг жадал ривожланиши нафақат иқтисодиётда, балки жамиятда ҳам туб ўзгаришларга олиб келади.

Иқтисодиёт тармоқлари ва таълимнинг қайси тури ва босқичи бўлмасин, унинг бозор иқтисоди шароитида яшаши ва амал қилишида сифат мезони асосига таянади, шунинг учун олий таълим соҳасида сифатнинг таъминланиши пировардда етук кадрлар тайёрлашга сабаб бўлади. Бу борада мамлакатимизда жаҳон тажрибалари ҳам ўрганилмоқдаки, бу ўз навбатида Ўзбекистондаги олий таълимнинг жаҳон олий таълимининг таркибий қисми сифатида глобаллашув жараёнларида ўз ўрнини топиб олаётганлигидан далолат бермоқда. Бизнингча, бу каби жараёнлар илмий жамоатчилик томонидан янада ўрганилиши лозим, бинобарин, сифатнинг моҳиятини тўлиқ англаш ва талқин этиш эҳтиёжлари пайдо бўлди. Бунда жаҳон тажрибасини танқидий таҳлил этиш мақсадга мувофиқдир[6].

Мамлакатимизда олий таълим соҳасидаги давлат сиёсатининг стратегик мақсади инновацион иқтисодиётни ривожлантириш, жамият ва ёшларнинг замонавий эҳтиёжларига жавоб берадиган юқори сифатли таълим тизимини амалга оширишдан иборат.

Олий таълимнинг стратегик мақсади



Ушбу стратегик мақсадни амалга оширишнинг муҳим шартларидан бири олий таълим тизимида талабалар ва ўқитувчиларни фундаментал ва амалий тадқиқотларга жалб қилиш, таълимга молиявий инвестицияларни жорий этишдан иборат бўлиб, ушбу жараён замонавий иқтисодиётга йўналтирилган янги авлод тадқиқотчиларини етиштиришга имкон беради ва қуйидаги устувор вазифаларни ҳал қилишни назарда тутаяди:

- таълимнинг инновацион тизимини йўлга қўйиш, жумладан, олий таълим муассасаларида тармоқларо тадқиқот марказларини шакллантириш;
- компетенцияга асосланган ёндашувни, академик билим ва амалий кўникмаларнинг ўзаро боғлиқлигини, таълимни ишлаб чиқариш билан узвийлигини таъминлаш;
- олий таълим муассасаларида илмий тадқиқотларни молиялаштиришга ажратиладиган маблағлар миқдорини ошириш;

- иқтидорли ёшларни аниқлаш, уларни илмий тадқиқотларга жалб этиш ва қўллаб-қувватлаш тизимини такомиллаштириш;
- узлуксиз профессионал кадрларни малакасини ошириш ва қайта тайёрлаш бўйича ишлаб чиқариш корхоналари билан ҳамкорликда корпоратив дастурлар ишлаб чиқиш ва таълимга жорий қилиш;
- ишлаб чиқариш корхоналари билан ҳамкорликда олий таълим сифати ва талабини баҳолаш механизмларини шакллантириш орқали халқаро тадқиқотларда иштирок этиш механизминини ишлаб чиқиш;
- олий таълим сифатининг мониторинг қилиш ва баҳолашда истеъмолчилар ва давлат ташкилотларининг иштирокини таъминлаш;
- илғор илмий тадқиқот ва таълим дастурлари, инновацион лойиҳалар ишлаб чиқувчи, илмий-тадқиқот вазифаларининг ҳал қилувчи жаҳон даражасидаги илмий ва ўқув марказлари тармоғини шакллантириш;
- таълим, фан ва ишлаб чиқариш фаолиятининг интеграцияси асосида иқтисодий ривожлантириш учун инновацион дастурлар ишлаб чиқишдан иборат[4].

Мамлакатимиз олий таълим тизимида юқори малакали ва рақобатбардош кадрларни тайёрлаш бу тизимнинг энг муҳим вазифаларидан ҳисобланади. Мазкур вазифанинг нечоғлик самарали ҳал этилиши мамлакатимизда амалга ошириб борилаётган ижтимоий-иқтисодий ислохотлар ва жамиятимиз ҳаётини тубдан қайта қуриш борасидаги мақсадларга эришишни таъминлашга катта таъсирини кўрсатмасдан қолмайди. Чунки, амалиётдан маълумки, ҳар қандай ижтимоий-иқтисодий ўзгаришларнинг самарадорлиги бу борада белгиланган вазифаларни бажаришга сафарбар қилинадиган мутахассисларнинг касбий етуқлигига тўғридан-тўғри боғлиқдир[3].



Замонавий билим, кўникма ва малакаларга эга бўлган ёшлар баркамол жамият қуришлари мумкин, шунинг учун ҳозирги кунда ёшларга жамиятнинг таркибий қисми ва ўзига хос гуруҳи сифатида қараб, уларнинг ҳар томонлама ривожланиши ва шаклланиш ҳолатини шу жамият доирасида, унинг ички хусусиятларидан келиб чиқиб таҳлил қилиш даркор. Ёшлар ижтимоий маънода ҳам кучли, ҳам заиф жиҳатларни ўзида мужассамлаштиргани учун уларга, бир томондан, ижтимоий фаоллик, юқори даражада таъсирчанлик ва янгиликларга интилувчанлик, идеалларга бўлган эҳтиёж, оламни, борлиқни ижодий қайта қуришга ташналик, қизиққонлик хос бўлса, иккинчи томондан сабрсизлик, бемулоҳаза танқид қилувчанлик, барча нарсани инкор этиш жиҳатлари кўзга ташланади.

Ҳар бир ёш мутахассисни пухта илмий – назарий билимлар билан қуроллантириш, эгаллаган илмий билимларни амалий фаолиятда қўллаш, кўникма ва малакаларга эга қилиш, тарбиялаш албатта осон иш эмас. Ўқишга илмий, онгли муносабат билан қарайдиган, мустақил фикрлайдиган, мукамал маълумотларни эгаллашга эҳтиёжли, билиш фаоллиги ва ақлий меҳнат маданиятини ўзида мужассамлаштирган ёшларни вояга етказиш - муҳим ва давлат аҳамиятидаги вазифадир.

Жамият таракқиётининг барча даврларида ҳам ривожланишнинг моҳияти, унинг суръатлари инсонларнинг маънавий камолоти даражасига боғлиқ булган. Маънавиятли шахс халқнинг,

жамиятнинг, давлатнинг куч қудрати ҳисобланиб, унинг ички оламини бойитадиган, унинг иймон-иродасини, эътиқодини мустаҳкамлайдиган, виждонини уйғотадиган қудратли куч сифатида таърифланди. Хўш, бу сеҳрли қудрат, бу ботиний куч қандай бунёдга келади?

Қайси ерда маънавий камолот юксак бўлса шу даргоҳда жамият ривожланади, Янги Ўзбекистон олдида турган иқтисодий, ижтимоий, сиёсий жараён таълим ва тарбия ишини такомиллаштириш билан чамбарчас боғлиқ.

Янги Ўзбекистонни маънавий баркамол, эзгу ғоялар ҳаётий эътиқоди бўлган инсонларгина унёд эта олади. Шунинг учун янгиланаётган жамиятимизда соғлом авлодни тарбиялаш, эркин фуқаролик маънавиятини шакллантириш, маънавий – маърифий ишларни юксак даражага кўтариш орқали баркамол инсонларни вояга етказишга муҳим эътибор берилмоқда. Мамлакатимизда ёш авлодни маънавиятини шакллантириб, таълиб-тарбия тизимининг тубдан ислоҳ этилаётгани ҳам ана шу улуғвор мақсадни амалга ошириш йўлидаги муҳим қадамлардир.

Мамлакатимизда таълим тизимининг модернизация қилиниши, уни таркибий жиҳатдан ривожлантириш, таълим, фан, техника ва технологиянинг, иқтисодиёт ва маданиятнинг жаҳон миқёсидаги замонавий ютуқларини ҳисобга олган ҳолда таълим дастурларда инновацияларни жорий этишни кўзда тутди. Таълимда илғор технологияларнинг кенг ўзлаштирилиши, узлуксиз таълимнинг фан ва ишлаб чиқариш билан интеграциялашуви, ёшларнинг қобилиятлари ва имкониятларига мувофиқ равишда таълимга табақалаштирилган ёндашувнинг жорий этилиши ҳамда ўқитишнинг илғор педагогик технологиялари, ўқув-тарбия жараёнининг дидактик жиҳатдан таъминланиши таълимни бошқариш тизимини такомиллаштиришни талаб қилади[7].

Сўнги йилларда кескин ўзгарган ҳаёт шароитлари ва олий таълим тизими, унинг мақсади турлари ҳамда мазмуни орасидаги узилиш кўзга ташланиб, замонавий кадр тайёрлаш жараёнида ҳам ҳал этилиши зарур бўлган ижтимоий муаммолар кўндаланг бўлиб қолди. Булар:

- ёшларнинг ижодий ва интеллектуал қобилиятига муносабатнинг ўзгарганлиги;
- замонавий таълимга бўлган талабларнинг ўсиши;
- замонавий кадрларнинг талабга мос келмаслиги, жамият талабларининг ўзгариши сабабли, таълимнинг ўзгарувчанлиги ва меҳнат шароитларга мослашуви,
- ёшларнинг ҳар томонлама ривожланган ва шахсий мустақил фикрга эга эмаслиги, касбий маҳоратнинг етишмаслиги каби муаммоларидир.

Олий таълим тизимида сифатли таълимни йўлга қўймай, илмий-техника ютуқларини муваффақиятли ўзлаштиришмай туриб, иқтисодиётни жадал ривожлантириш йўлига ўтиш мумкин эмас. Айниқса, технологияларнинг доимий ва шиддат билан ўзгариши, ахборот, шунингдек, ижтимоий-иқтисодий соҳадаги инновациялар дунё бўйича таълим тизимининг босқичма-босқич ўзгаришини юзага келтирмоқда. Дунёдаги ижтимоий-иқтисодий жараёнларнинг ноаниқлиги ва ўзгарувчанлиги замонавий таълимда ёшларнинг билим олишдан ташқари, тез ўзгарувчан муҳитда иложи борича самарали ишлашига имкон берадиган кўникма ва малакаларини ривожлантиришни талаб этмоқда.

Олий таълим тизимида ўқитиш жараёнини такомиллаштиришда, уларни малакали кадр даражасида тайёргарлигига қўйилган талабларни ишлаб чиқиш, олий таълим муассасаларида талабаларнинг илмий-ижодий тайёргарлигини таркиб топтириш ва ривожлантириш мазкур таълим муассасаларининг асосий вазифалардан бири ҳисобланади[4].

Олий таълим соҳаси миллий иқтисодиётнинг асосий ва ҳал қилувчи тармоғидир, шунинг учун мамлакатимизда замонавий таълимни муваффақиятли ривожлантириш ва ёшларни илм-фан, тадқиқотчилик қобилиятини ривожлантириш учун қуйидагилар зарур кўрсаткич ҳисобланади:

- истеъдодли ёшларни илмий-тадқиқот ишларини оммалаштириш ва қўллаб-қувватлаш,
- олий таълим муассасалари ҳудуддаги ва соҳалардаги инновацион марказ сифатида тараккий этишининг самарали механизмининг йўлга қўйиш;
- олий таълим тизимида мавжуд йўналиш ва мутахассисликларни ишлаб чиқаришнинг янги эҳтиёжлари билан мувофиқлаштириш;
- таълим тизимини модернизация қилиш, шу жумладан адаптив, амалиётга йўналтирилган ва мослашувчан таълим дастурларини жорий этиш;
- талаба-ёшларнинг касбий билимларини муназам янгилаб туриш ва касбий кўникмаларни эгаллаш учун шарт-шароитлар яратиш.

Хулоса. Замонавий таълимнинг мақсади талаба-ёшларни стратегик вазифаларни белгилаш ва ҳал қилишга ўргатиш, бунинг учун замонавий таълим-тарбия олиш, ижодий фикрлаш, илмий-тадқиқот фаолиятини самарали йўлга қўйиш, ахборот маконида мунтазам ҳаракатда бўлишни талаб этади. Юқорида айтиб ўтилган барча йўналишлар таълим тизимини модернизация қилиш билан

чамбарчас боғлиқ бўлиб, таълим йўналиши ва мутахассислиги бўйича фанларнинг аҳамиятини мустаҳкамлаш, иқтисодиёт тармоқлари учун малакали кадрлар тайёрлаш, илмий салоҳиятли кадрларни етиштиришга хизмат қилади.

Адабиётлар:

1. Янги Ўзбекистоннинг 2022-2026 йилларга мўлжалланган тараққиёт Стратегияси.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 27 июлдаги “Олий маълумотли мутахассислар тайёрлаш сифатини оширишда иқтисодиёт соҳалари ва тармоқларининг иштирокини янада кенгайтириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ- 3151-сон қарори.
3. Парпиева Малика Мухамаджоновна Таълим тизими сифатини оширишда инновацион фаолият // Academic research in educational sciences. 2021. №1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/talim-tizimi-sifatini-oshirishda-innovatsion-faoliyat> (дата обращения: 19.12.2022).
4. Samieva Shakhnoz Hikmatovna, et al. "Professional Development of the Teacher's Personality in the System of Secondary Special Vocational Education." Annals of the Romanian Society for Cell Biology (2021): 2946-2949.
5. Евразийская экономическая комиссия: Департамент промышленной политики. “Анализ мирового опыта развития промышленности и подходов к цифровой трансформации промышленности государств-членов Евразийского экономического союза”. Москва. —2017.
6. Кешелава А.В. (2017) Введение в «Цифровую» экономику/ А.В. Кешелава В.Г. Буданов, В.Ю. Румянцев и др.; под общ. ред. А.В. Кешелава; гл. «цифр.» коне. И.А. Зимненко. - ВНИИГеосистем, 2017. - 28 с
7. Куприяновский В.П., Намиот Д.Е., Синягов С.А ва бошқалар “Оптимизация использования ресурсов в цифровой экономике”. International Journal of Open Information Technologies ISSN илмий журнали. —2016.



ТУРСУНОВ Лутфулло Сайфуллаевич

Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети Психология кафедраси доцент в.б., п.ф.н.

ЁШЛАР ДУНЁҚАРАШИДАГИ ДЕСТРУКТИВ ХУЛҚНИ КОГНИТИВ ИЖТИМОЙ – ПСИХОЛОГИК ИНДИКАТОРИ

Ёшлар дунёқарашиларини давр талабида шакллантириши билан бир қаторда, ёшларнинг хулқида юзага келадиган оғишларни илмий асосда мунтазам таҳлил этиб бориши лозим бўлади. Ёшларнинг дунё қараши ва хулқ-атворларидаги ўзгаришни аниқлаб берувчи индикатор ўз ичига нималарни қамраб олади ва ундан қандай фойдаланиши мумкинлиги ҳақида мазкур мақолада танишишингиз мумкин.

Калит сўзлар: шаклланаётган феъл – атвор, одоб – ахлоқ мезонлари, миллий ва диний қадриятлар, ўзлаштираётган ва ўзлаштирган билимлар, атрофдагилар билан муносабатлар, ташқи имиджи ва қуриш турган предметлар, руҳий ҳолати ва руҳиятини йўналтира олиши.

КОГНИТИВНЫЙ СОЦИАЛЬНО - ПСИХОЛОГИЧЕСКИЙ ПОКАЗАТЕЛЬ ДЕСТРУКТИВНОГО ПОВЕДЕНИЯ В МИРОВОЗЗРЕНИИ МОЛОДЁЖИ

Чтобы молодёжь успешно выполнила свою миссию, поколение, действующее как социальный мост, должно не только формировать мировоззрение у молодёжи, но и должно знать и осознавать отклонения в их мировоззрении. В этой статье можно узнать, что включено в качестве индикаторной активности, которая определяет изменения в отношении и поведении молодых людей.

Ключевые слова: Формирующееся поведение, моральные аспекты, национальные и религиозные ценности, усвоенные и усваивающиеся знания, отношения с другими людьми, внешний имидж и окружающие предметы, психологическое состояние и направление психики.

COGNITIVE DESTRUCTIVE BEHAVIOR IN THE WORLD VIEW OF YOUTH SOCIAL - PSYCHOLOGICAL INDICATOR.

Each nation naturally worries about how society will use its values that have been stored for centuries and passed on from generation to generation. For young people to successfully fulfill this mission, a generation acting as a social bridge must not only shape the worldview of young people, but must also know and be aware of deviations in their worldview. In this article, you can find out what is included as an indicator activity that determines changes in the attitude and behavior of young people.

Key words: The formed ghost, moral aspects, national and religious values, acquired and assimilated knowledge, relations with other people, external image and surrounding objects, psychological state and direction of the psyche.

Кириш. Инсоният ўзлигини англаган кунидан бошлаб ўзини қуриш турган барча нарса ва ходисаларни маълум бир ўлчовлар билан ўлчаб келади. Дастлабки кўрсаткич ҳолати билан кейинги ҳолатларини қиёслаб ўзгаришларга ижобий ёки сальбий баҳолаб ўз билимини кенгайтириб боради.

Индикатор – турли ўлчов асбобларни умумий номи, у бир нечта мақсадларда фойдаланилади. Мисол учун; созлаш индикатори, қувват индикатори, реакциялар индикатори ва ҳоказо индикаторлар. Индикаторни шундай хусусияти бор – ки у бирор мезонни ва меъёрни аниқ кўрсатиб бериш билан бир қаторда, мезонни меъёрдан ортиб ёки меъёрдан тушиб кетганлик даражаси ҳақидаги огоҳлантириш хусусиятига ҳам эга.

Асосий қисм. Юқорида таърифи келтирилган индикаторга ўхшаш, “инсон феъл-атвори ва дунё қарашидаги ўзгаришлар мезонни кўрсатиб берадиган индикатор вазифасини бажарувчи нима бор?” деган саволга руҳиятшунослик фанида жавоб борми?

Ҳеч кимга сир эмас-ки одам фарзанди дунёга келганда бирор миллатга ёки динга мансублигини билмайди. Ижтимоий жамият тарбияси таъсирида у Ватанини таниди, ўзини қайси миллатга ва қайси динга мансублигини англаб етади. Чунки шахс ижтимоий жамиятни махсули сифатида ўсиб улғайган ижтимоий муҳитни билвосита ва бевосита онгли акс эттиради. Демак шахсда индикатор вазифасини бажарувчи ёзилган ва ёзилмаган қонунларга қандай даражада амал қилиши жамият аъзоларига боғлиқ эканлигини унутмаслигимиз лозим. Давлат қонунлари ҳамда миллий қадриятлар йўналишида ёки диний эътиқодлар кўринишида борингки маҳаллий этикет тизимида бўлишдан қатъий назар жамиятни аъзолари унга амал қилишлари лозим, ана шу қонунлардан бузиш, умум ижтимоий мезондан оғиш деб ҳисобланади. Мазкур қонуниятдан кўринади-ки энг биринчи индикатор вазифасини болага берилаётган дастлабки йўриқнома (базивий установка) ҳисобланади.

Болани ривожланиши жараёнида энг мураккаб даврий босқич “Мен кимман?” ва “Нима учун?” деган даври бўлиб, унда бола ўзини жинсини, номини билиш билан бир қаторда атроф-муҳит билан танишув жараёнини амалга оширади. Айнан мазкур даврда катталар томонидан берилаётган таълим тарбияни бола қандай бажараётганлиги қаттиқ назоратга олиниб, бола қандай салом бермоқда, нонни қайси қўлида ушламоқда, қошиқдан қандай фойдаланмоқда умуман барча фаолияти берилган йўриқномага мос келиши назорат қилинади. Бола улғайган сари ана шу назорат сусайиб бориши билан бир қаторда индикаторнинг саълбий кўрсаткичлари ортиб бораверади. Баъзан оила раҳбарлари бола феъл - атворидаги нуқсонни, ҳатти – ҳаракатидаги хатоларини ҳамда муомаласида номутаносибликни кўриб туриб кўрмасликка оладилар. Ана шу йўл қўйилган лоқайдлик асосида бир неча йил давомида шакллантилган тарбия мезони бузилаётганлигини аниқлаш учун оила раҳбарлари берган йўл-йўриқлари (тарбия) ва бола унга қандай амал қилаётганлигини қиёслаш орқали деструктив хулқни аниқлаб уни бартараф этилиши индикатор ишлаётганидан дарак беради.

Демак, ёшларда деструктив хулқни олдини олишга когнитив ижтимоий - психологик индикаторни муваффақиятли ишлаши болани қуршаб турган муҳитга боғлиқ экан. Жамоатчилик ва оила раҳбарлари томонидан одоб - ахлоқ мезонлари ёшларга сингдирилади, бола унга қандай амал қилаётганлигини қиёсланиши индикаторлик вазифасини бажаради.

Ёш авлодни когнитив ижтимоий – психологик индикатор қуйидагиларда билвосита ва бевосита акс этади:

- Шаклланаётган феъл - атворида.
- Одоб – ахлоқ мезонларига амал қилишида.
- Миллий ва диний қадриятларга муносабатида.
- Ижтимоий жамиятдаги ўзгариш ва янгиликларни акс этиришида.
- Ўзлаштираётган ва ўзлаштирган билимларини намоён этишида.
- Атрофдагилар билан муносабатларида.
- Ташқи имиджи ва қуршаб турган предметларга муносабатида.
- Руҳий ҳолати ва руҳиятини йўналтира олишида.

Юқорида санаб ўтилган ижтимоий муҳит томонидан сингдириладиган билимлар асосида шаклланидиган шахслик хусусиятлари орқали жамият орзу қилган “комил инсонни” когнитив индикаторини асосий омиллар ҳисобланади. Ана шу омилларнинг ҳар бири ўз ичига яна ўнглаб омилларни қамраб олишини ҳисобга олган ҳолда, улар ҳақида қуйида қисқача тўхталиб ўтишни лозим топдик.

Шаклланаётган ёш авлодни феъл - атворидаги когнитив ижтимоий – психологик индикатор ёшлар хулқида пайдо бўлган деструктив ўзгаришларни жамият томонидан қабул қилинган этнопсихологик ва менталитетга хос ҳатти – ҳаракатлари билан солиштирганда намоён бўлади. Мазкур ҳолатни ёшлар билан мунтазам мулоқотга киришиб, ёнма – ён яшовчи яқинлари тезда англаб етишлари табиий. Ёшларда мавжуд бўлмаган ҳатти – ҳаракат ёки феъл - атворидаги мутлоқ янги унсурлар ва дунё қарашини ўзгариб бораётганлиги оддий кузатиш орқали баҳо бериб, аниқлаш қийин эмас.

Ҳар бир миллатни ўзига хос бўлган одоб – ахлоқ мезонларига амал қилиш ҳамда ҳатти – ҳаракатлари, мулоқот ва муносабатларининг амалий ёзилган ва ёзилмаган мажмуалари мавжуд бўлади. Ана шу мажмуадаги қоидадан четга чиқиш одоб - ахлоқ меъёрини бузиш дегани. Аксари ёшлар ўзларини бошқалардан ажралиб туришларини хоҳлаганликлари учун жамоада қабул қилинган одоб меъёрини бузиш ҳолати юзага келади. Одоб - ахлоқ меъёрлари миллий қадрият ва миллий анъаналарда бевосита намоён бўлиши жамиятшунослик фанларида ўз исботини топган. Демак, мазкур йўналишда когнитив индикатор вазифасини жамиятимиздаги қадрият ва ананаларга бўлган муносабатлар орқали баҳолаш мумкин. Шу сабабли ҳам;

“Ҳар йигитни аслин билай десангиз,

Маъракада ўтириб – туришин кўринг.”

деган ибратли иборани бежиз ҳалқимиз урғу бериб, тез – тез такрорлаб турмайди.

Бизнинг фикримизча, замонавий ўқитувчининг касбий педагогик малакаси етарли даражада эмаслигининг навбатдаги муҳим ва умумий сабаби - бу педагогик билим ва тажрибанинг етишмаслиги. Қоида тариқасида, махсус фанлар ўқитувчилари кейинчалик ўқитувчилик фаолиятини олиб борадиган университетларни битирадилар ва бир томондан, бу ажойиб, чунки улар ўз соҳаларида малакали мутахассислардир. Бошқа томондан, уларнинг педагогик маълумотга эга эмаслиги уларнинг амалий фаолиятига салбий таъсир кўрсатмоқда, услубий тажрибанинг етарли эмаслиги эса университет дидактикаси даражасини ва бўлажак мутахассисларни тайёрлаш сифатини пасайтиради.

Педагог фаолиятида ижтимоий Рефлексиянинг намоён бўлишини белгиловчи асосий кўрсаткичлар сифатида қуйидагиларни ажратиш мумкин:

ўқитувчининг мулоқотда ўзини таҳлил қилиш;

мулоқот жараёни билан боғлиқ қийинчиликларни бартараф этиш;

ўқувчиларнинг шахсияти ва фаолиятининг хусусиятлари тўғрисидаги ғояларига эътибор қаратиш;

шахслараро ўзаро таъсир контекстида ўзларига нисбатан ижобий танқидий позициянинг мавжудлиги;

мулоқотда турли қийинчиликлардан қутулиш ва ўзаро таъсирнинг янги усуллари ва моделларини излаш.

Ўқитувчининг қаттиққўллиги ва педагогик маълумотнинг етишмаслиги унинг малакаси даражасини сезиларли даражада пасайтиради, бу вазиятда замонавий жамият талабларига жавоб бермайди. Маҳаллий ва хорижий муаллифлар ўз тадқиқотларида олий касбий таълимни ислоҳ қилишнинг стратегик вектори бўлган компетенцияга асосланган ёндашув, биринчидан, мутахассисни касбий тайёрлаш мақсади сифатида компетенцияни белгилашга асосланишини таъкидлайдилар. иккинчидан, компетенцияга асосланган ёндашувнинг мазмунли урғулари олий таълим таълим дастурларининг амалий йўналтирилганлигини белгилайди [8, 11-бет].

Ўқитувчининг ижтимоий Рефлексияси, яъни ўзини “ўқувчилар нигоҳи билан” акс эттиришга интилиши, ўз хатти-ҳаракати, қилмиши, шахсий фазилатларини ўқувчиларнинг ўзини қандай идрок этиши ҳақидаги фикрларини ҳисобга олган ҳолда таҳлил қилиш ва идрок этишга интилиши самарали шахсий ва касбий ривожланишда, ўз-ўзини ривожлантиришда омил бўлади. Ўқувчи билан ўз муносабатларини тенг ҳуқуқли ҳамкор сифатида қуришга интиладиган ўқитувчи ўқувчи билан ўзаро

муносабатлар жараёнига рефлексли позицияда муносабатда бўлиб, бу ўқувчиларнинг хатти-харакатлари ва ҳаракатларини кузатиш, таҳлил қилиш ва ўз фаолиятини таҳлил қилиш имконини беради. Бундай позиция ўқитувчининг ўз-ўзини ривожлантириш манбаи бўлиб, унга бошқа шахснинг ички дунёсини англашга, ишдаги турли қийинчиликларни бартараф этишга, ўқувчи позициясидан фикр юритишга имкон беради.

Шуни таъкидлаш керакки, ўқитувчиларнинг аксариятида рефлексив кўникмалари йўқ, бу ўзларининг кучли ва заиф томонларини аниқлаш жараёнини сезиларли даражада мураккаблаштиради, уларнинг хабардорлиги касбий такомиллаштириш, ўқув жараёни сифатини ошириш учун зарурдир. ташкил қилиш. Кўпгина ўқитувчилар нафақат ушбу педагогик тоифани яхши билишмайди, балки улар акс эттириш кўникма ва малакаларини ривожлантириш ва уларни ўз касбий фаолиятида қўллаш зарурлигини ҳам кўрмайдилар. Бу фактларни турли таълим муассасалари, ҳам умумий, ҳам касб-хунар таълими ўқитувчилари билан ҳамкорликда ишлаганимизда аниқладик. Бу сабаблар ўқитувчиларнинг ўз педагогик фаолияти ҳақида фикр юритишга ўргатиш тамойиллари, усуллари ва технологиясини ишлаб чиқиш учун асос бўлиб хизмат қилди.

Ўқитувчиларни Рефлексияни амалга оширишга жалб қилишнинг дастлабки босқичида биз ўқитувчиларнинг рефлекснинг ўзи, шунингдек, унинг таълим жараёнидаги роли ҳақидаги билимларини очиб бериш учун турли диагностика материалларидан фойдаландик. Сўровимиз натижалари шуни кўрсатадики, тингловчиларимизнинг 68 фоизи Рефлексияни “тананинг ташқи стимулларга бўлган муносабати” билан боғлайди, 32 фоизи Рефлексияни интроспекция ва ўз-ўзини кузатиш билан боғлиқ деб ҳисоблайди. Шунингдек, биз ўқитувчиларнинг "когнитив фаолиятни ташкил этиш" сўровномаси блокида муаммоларга дуч келганини аниқладик; дизайн ва конструктив (ахборотни ифодалаш)даги қийинчиликлар сезиларли даражада камроқ, "алоқа ўрнатиш" блокида эса арзимас сонли қийинчиликлар мавжуд.

Диагностикадан сўнг биз Рефлексия элементлари билан амалиётга йўналтирилган назарий дарслар блокинни ўтказдик. Барча дарсларда биз ўқув жараёнининг субъектлари бўйича Рефлексияни ривожлантириш учун турли машқлардан фаол ва тизимли фойдаландик ва аста-секин рефлексив муҳит яратдик. Иложи борича эҳтиёткорлик билан ва бепарволик билан ташкил этилган ўзаро таъсирнинг бундай усули ўқитувчига акс эттириш масаласи бўйича ўз позициясини қайта кўриб чиқишга ва унинг ўз педагогик фаолиятидаги аҳамияти ҳақида ўз фикрини шакллантиришга имкон беради. Олий ўқув юрглари ўқитувчилари билан ўзаро ҳамкорликни ташкил этишнинг муҳим жиҳати, бизнингча, ўз педагогик фаолиятини рефлексив идрок этишга ижобий муносабатни шакллантиришдир. Ўқув жараёни сифатини ўрганиш бўйича ишда биз ўқитувчининг ўзи ва талабаларнинг фаолиятдаги муаммоли соҳалар ҳақидаги фикрларини аниқлашга имкон берадиган "жуфтланган" анкеталардан фойдаландик. Бу олинган натижаларни солиштириш имконини берди.

Талабаларнинг фикрига кўра, ўқитувчилар ўзларининг иш фаолиятини сезиларли даражада ошириб юборишади. Бу, айниқса, ҳар қандай ўқитувчи учун анъанавий равишда энг муҳим деб ҳисобланган алоқаларни ташкил этиш ва маълумотларни тақдим этиш каби педагогик фаолиятнинг таркибий қисмларида сезилади. Ўқитувчиларга ёрдам бериш учун ўзаро таъсир иштирокчиларига ўзларининг педагогик фаолияти ва ўқув жараёнининг ташкилотчилари сифатида шахсий позицияси ҳақида фикр юритиш қобилиятини ривожлантиришга имкон берадиган услубий материаллар ишлаб чиқилган. Иш жараёнида ўқитувчилар акс эттириш муҳитини яратишда фаол иштирок этдилар, ўзларини ва ўз фаолиятини рефлексив тушуниш кўникмаларини эгалладилар, шунингдек, турли хил рефлексив вазифаларни мустақил равишда бажардилар.

Ўқитувчининг муҳим фазилатлари яна бири бу кузатувчанлик ва диққатлилиқ бўлиб, улар фикрлаш билан биргаликда талабалар аудиториясидаги ўзгаришларни тезда сезиш ва фаолиятингизни тузатиш имконини беради. Мулоқотда зукколик инсоннинг жозибадор фазилатларидан бири ҳисобланади, педагогик мулоқотда зукколик индивидуал йўналтирилган дидактик жараённинг, айниқса, мураккаб дидактик вазиятларда зарурий шартдир. Кузатиш ўқитувчига тегишли ҳолларда педагогик таъсирни кучайтиришга, маълумотни тақдим этиш усулини ўзгартиришга ва тингловчиларнинг диққатини камайтиришга ёки чарчокнинг намоён бўлишига ёрдам беради.

Ўқитувчининг юқори даражадаги психологик компетенцияси, шу жумладан ривожланган акс эттириш, самарали педагогик ҳамкорликни таъминлайди ва ўқув жараёни сифатини оширади. Замонавий дунёнинг тобора мураккаблашиб бораётган воқеликлари шароитида нафақат фан ўқитувчиси, балки профессионал рақобатбардош шахс учун ижтимоий масъулиятнинг тўлиқ даражасини тушунадиган ўқитувчи-психолог талабга эга. Ўқитувчиларни ўз педагогик фаолияти тўғрисида мулоҳаза юритишга ўргатиш жараёнида олиб борилган тадқиқотлар шуни айтишга имкон

берадики, акс эттиришни "қабул қилиш" ва ўзлаштиришда ўқитувчиларнинг онги ва фаолиятидаги ўзгаришлар шахсий маънога айланади. Ушбу тадқиқотларнинг умумлаштирилган натижалари 1-жадвалда келтирилган.

Ўқитувчининг рефлексив ҳақидаги олдинги ва янги ғояларининг қиёсий хусусиятлари (кўпинча дуч келадиган / керакли)

Олдинги ҳукмлар	Янги ҳукмлар
Рефлексия нима эканлигини жуда яхши билмайман	Ўқитувчи фаолиятида мулоҳаза юритиш зарур
Мен кўп йиллардан бери дарс бердим ва рефлексияга эҳтиёж сезмаяпман	Бунинг учун мен баъзи рефлексив машқларни ўрганишга тайёрман
Менимча, рефлексия шахсий фазилятдир	Биламанки, ҳар бир инсон рефлексия фазилятларни ривожлантиришга қодир
Менга бошқаларни тушуниш қийин	Фикрлашни ўзлаштириш турли хил позицияларни тушунишга ёрдам беради,
Менимча, талабларга жавоб бериш керак тарқоқ бўлса ҳам етакчилик	Мен ўз фаолиятимни замонавий стандартларга бўйсундиришга ҳаракат қиламан, уларни кузатиб бораман ва тузатаман
Мен ўзимнинг қийинчиликларимни кучли ва заиф томонларимни интуитив даражада таҳлил қила оламан	Мен ўзимни мақсадли таҳлил қила оламан
Мен янги меъёрларни топишга ҳожат йўқ. рефлексия машқ қилиш учун туртки эмас	Менда доимий равишда фаолиятни тавсифловчи таълимдаги янги нормалар топиш ва ўрганишим керак
Қандай қилиб билмайман, таҳлил қилишни шарт деб билмайман бошқалар	Қабул қилинган меъёрлар асосида ҳамкасбларимнинг фаолиятини таҳлил қила оламан
Мен ўз қийинчиликларимни кам баҳолайман	Мен педагогикадаги қийинчиликларни ўз-ўзини адекват баҳолайман
Мен ўзимни ривожлантириш йўллари ва имкониятларини кўрмайпман	Мен ўз-ўзини ривожлантириш ва ўз-ўзини такомиллаштириш режасини туза оламан
Менинг фаолиятим педагогик фаолиятнинг мажбурий компонентларини ўз ичига олади.	Мен муаммоларни олдиндан била оладиган муаммолардан узоқлаша оламан.

Бугунги кунда ўқитувчи нафақат маълум бир вазиятда мавжуд бўлган хилма-хиллик орасидан у ёки бу ўқитиш усули ёки техникасини танлаш, балки уларни яратиш учун ҳам ажойиб имкониятга эга бўла олади.

Хулоса. Ўқитувчининг касбий фаолиятидаги ижтимоий рефлексив ўқувчилар билан тўғридан-тўғри ўзаро муносабатда бўлган вазиятда ҳам, ўқув фаолиятини лойиҳалаш ва ташкил этиш жараёнида, шунингдек, ўз фаолиятини ўз-ўзини текшириш ва ўзини ўзи баҳолаш босқичида намоён бўлади.

Ўқитувчи томонидан рефлексив фаолиятни тизимли равишда амалга ошириш унинг касбий компетенциясини ва "ишнинг талабларига мувофиқ мақсадга мувофиқ ҳаракат қилишга тайёрлигини" шакллантиришга ёрдам беради. Фақатгина ривожланаётган субъект ёш авлодда такомиллаштиришга, илмий фаолият билан шуғулланишга, ўзини ва атрофдаги дунёни ўзгартиришга интилишни "уйғотиши" мумкин ва энг муҳими, ўқитувчи шахсининг ривожланиш даражаси ўқитувчига караганда анча юқори бошқа соҳа унинг касбий фаолиятининг муваффақиятини олдиндан белгилаб беради.

Адабиётлар:

1. Азбукина, Е.Ю. Рефлексивная контрольно–самооценочная деятельность будущего учителя как ресурс качества педагогической подготовки: дис. ... канд. пед. наук. – Томск: Изд-во Томск гос. пед. ун-та, 2005.

2. Ismoilova N., Abdullayeva D. Ijtimoiy psixologiya. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan 5110900 — Pedagogika va psixologiya bakalavriyat ta'lim yo'nalishi talabalari uchun o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan. O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. Toshkent — 2013
3. G'oziyev E. Umumiy psixologiya. Psixologiya mutaxassisligi uchun darslik I -kitob Toshkent - "Universitet" – 2002
4. Смышляева, Л.Г. Педагогические технологии активизации обучения в высшей школе: учебное пособие / Л.Г. Смышляева, Л.А. Сивицкая. – Томск: Изд-во Томского политех. ун-та, 2007.
5. Блумер Г. Общество как символическая интеракция/Г.Блумер // Современная зарубежная социальная психология: Тексты. – М., 1984. – С.173&179.
6. Гоффман Э. Представление себя другим /Э.Гоффман //Современная зарубежная социальная психология: Тексты. –М., 1984. – С.188&196
7. Гуткина Н.И. Личностная рефлексия в подростковом возрасте: автореф. дис.... канд. психол. наук /Н.И.Гуткина. – М., 1983.
8. Емельянов Е.Н. Процессы взаимопонимания в первичном научном коллективе / П.Г. Белкин, Е.Н. Емельянов, М.А. Иванов// Социальная психология научного коллектива. – М., 1987. – С. 16&80.
9. Лушпаева Е.В. Развитие рефлексии в общении средствами социально-психологического тренинга: автореф. дис. ... канд. психол. наук /Е.В.Лушпаева. – М., 1989.
10. Сподаренко Е.В. Педагогические условия формирования социальной рефлексии младших школьников: диссертация ... кандидата педагогических наук : 13.00.01 /Е.В.Сподаренко–Москва, 2008. – 216 с.

ЧИНИЕВА Сайёра Абдимуминовна

Доцент кафедры узбекского языка и
классической восточной литературы
Международной исламской академии
Узбекистана, кандидат педагогических наук

ЗНАЧИМОСТЬ САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ РАБОТЫ СТУДЕНТОВ В УЧЕБНОМ ПРОЦЕССЕ

В данной статье анализируется значение самостоятельной работы в работе со студентами в учебном процессе. Ведь значение самостоятельной работы в развитии знаний, умений и навыков студентов велико.

Ключевые слова: самостоятельная работа, учебный процесс, воспитание, развитие, становление, педагогика.

ТАЛАБАЛАР МУСТАҚИЛ ИШИНИНГ ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИДАГИ АҲАМИЯТИ

Мазкур мақола ўқув жараёнида талабалар билан ишлашда мустақил ишининг аҳамиятини таҳлил қилинади. Зеро, талабаларнинг билим, кўникма ва малакасини ривожлантиришида мустақил ишининг аҳамияти катта ҳисобланади.

Калит сўзлар: мустақил иш, ўқув жараёни, таълим, ривожланиш, шаклланиш, педагогика.

THE ROLE OF INDEPENDENT WORK OF STUDENTS IN THE EDUCATIONAL PROCESS

In this article the role of independent work of students in educational process is analyzed. Necessity-motivation sphere, mental, physical and morally volitional efforts create students' independence .

Key words: independent work, educational process, education, development, formation, pedagogy.

Введение. Всем известно, что повышение качества профессиональной подготовки специалистов прежде всего предусматривает повышение доли самостоятельной работы студентов в учебном процессе.

Самостоятельная работа является основой современного профессионального образования. Любая активная деятельность студентов, организованная преподавателем - направлена на поиск ими знаний, их осмысление, закрепление и развитие умений и навыков, обобщение и систематизацию знаний.

Данная проблема познавательной самостоятельности уходит своими корнями глубоко в античность. Выдающийся чешский педагог, автор классно-урочной системы обучения Ян Амос Коменский отмечал, что «природное начало в человеке обладает самостоятельной и самодвижущей силой». Однако в массовой школе вплоть до середины XX века преобладало объяснительно-иллюстративное обучение.

Основная часть. Начиная с 50-х годов, вновь возрастает интерес к вопросам развития самостоятельности студентов. На рубеже XXI века интерес к данному вопросу опять возрос, так как значительно изменились условия жизни, произошла информационная революция, и во всем мире идет переход к непрерывному образованию.

Направление «обучения на всю жизнь» меняется на «обучение через всю жизнь», закрытая учебная архитектура постепенно уступает место открытой, что невозможно без формирования навыков самостоятельной работы у студентов на высоком уровне.

Информационные технологии предоставляют возможность дать большую самостоятельность, как в успешном освоении учебной программы, так и в углубленном изучении отдельных предметов, реализуя внутренние творческие запросы учащихся.

Философия образования вновь поднимает проблему значимости для общества формирования самостоятельной личности. Обоснована концепция лично ориентированной педагогической деятельности на основе изучения глубинных процессов, лежащих в основе саморазвития и самоопределения человека [1].

Согласно исследованиям Г.М. Коджаспировой, в научной литературе существует свыше десятка определений термина «самообразование». Многие из них страдают излишней краткостью, неопределенностью или недостаточным количеством признаков. Самообразование (англ. self-education) - образование, получаемое самостоятельно, вне стен какого-либо учебного заведения, без помощи обучающего; неформальная индивидуальная форма учебной деятельности 2.

Самообразование, по мнению Г.Е. Зборовского и Е.А. Щуклиной - вид свободной деятельности личности (социальной группы), характеризующейся свободным выбором и направленной на удовлетворение потребностей в социализации и самореализации, на повышение культурного, образовательного, профессионального и научного уровней развития личности, на получение личностью удовлетворения от реализации ее духовных потребностей.

Самообразование - непрерывное продолжение общего и профессионального образования, благодаря которому актуализируются и расширяются знания и восполняются пробелы в духовном развитии человека. Это неотъемлемый компонент систематического обучения в стационарных учебных заведениях. Самообразование неотделимо от самовоспитания, которое рассматривается педагогикой как составная часть и результат воспитания и всего процесса развития личности 3.

По мнению В.И. Андреева, приоритетом современного образования является обучение, ориентированное на саморазвитие личности [2]. Эта новая педагогическая парадигма строится на следующих базовых постулатах:

- осознании самооценности каждой личности, ее уникальности;
- неисчерпаемости возможностей развития каждой личности, в том числе ее творческого саморазвития;
- приоритете внутренней свободы - свободы для творческого саморазвития в отличие от свободы внешней;
- понимании природы творческого саморазвития как интегральной характеристики «самости», системообразующими компонентами которой являются самопознание, творческое самоопределение, самоуправление, творческая самореализация личности и самосовершенствование.

Он же отмечает, что любой вид занятий учащихся, создающий условия для появления самостоятельной мысли или идеи, познавательной активности студента связан с самостоятельной работой. В более широком смысле под самостоятельной работой следует понимать совокупность всей самостоятельной деятельности учащихся, как в учебной аудитории, так и за её пределами, в непосредственном контакте с преподавателем и в его отсутствии [3].

Помимо этого, каждая самостоятельная работа учащегося является одной из главных составляющих учебного процесса, в ходе которого происходит формирование кругозора, самостоятельного мышления, помимо этого умений, навыков и знаний, а также в дальнейшем обеспечивается усвоение студентом приемов познавательной деятельности, интерес к творческой работе и, в конечном итоге, способность решать учебные, научные и жизненные задачи [4].

Более того, «только такое образование можно считать образованием гарантированного качества, которое переходит в самообразование. При этом обучение переходит в самообучение, воспитание - в самовоспитание, а личность из состояния развития - в состояние творческого саморазвития» [2].

Целью СРС является - сформировать у студентов умение самостоятельно решать задачи по дисциплине. цель самостоятельной работы студента - это развитие такой черты личности, как самостоятельность, т.е. способности организовывать и реализовывать свою деятельность без постороннего руководства и помощи. [1]

Основная задача организации самостоятельной работы студентов (СРС) заключается в создании психолого-дидактических условий развития интеллектуальной инициативы и мышления на занятиях любой формы. Основным принципом организации СРС должен стать перевод всех студентов на индивидуальную работу с переходом от формального выполнения определенных заданий при пассивной роли студента к познавательной активности с формированием собственного мнения при решении поставленных проблемных вопросов и задач[4].

Кроме этого, активная самостоятельная работа учащихся возможна только при наличии грамотной, серьезной и устойчивой мотивации. Самым сильным мотивирующим фактором является дальнейшая подготовка к эффективной профессиональной деятельности.

Рассмотрим внутренние факторы, которые способствуют для активизации самостоятельной работы: осознание полезности выполняемой работы; участие студентов в творческой деятельности; внедрение современных методов интенсивной педагогики, которая предполагает введение в учебный процесс интерактивных методов, прежде всего ролевых игр, игрового тренинга.

Всем известно, что в основе которых лежат инновационные и организационно-деятельностные игры; участие в олимпиадах по учебным дисциплинам, конкурсах научно-исследовательских или прикладных работ и т.д.; А также, использование видов контроля получаемых знаний, как накопительные оценки, рейтинг, тесты, нестандартный подход к экзаменационным процедурам.

В зарубежных исследованиях не принимается трактовка самостоятельности, если обучающемуся дается возможность учиться, используя в режиме самостоятельного доступа подготовленную преподавателем или экспертом информацию, так как обучающемуся в этом случае якобы отводится роль «пассивного наблюдателя», у него создается впечатление, что самостоятельное изучение возможно только при наличии материала, подготовленного экспертом.

Учащийся должен иметь возможность самостоятельно выбирать учебные материалы, опираясь не только на те, которые посоветовал преподаватель. Данный подход подразумевает свободу выбора и использование аутентичных материалов [3].

Внешними признаками самостоятельности студентов являются планирование ими своей деятельности, выполнение задания без непосредственного участия педагога, систематический контроль за ходом и результатом выполняемой работы, ее последующее корректирование и совершенствование, то есть самостоятельное осуществление деятельности.

Внутреннюю сторону самостоятельности образуют потребностно-мотивационная сфера, умственные, физические и нравственно-волевые усилия учеников, направленные на достижение цели без посторонней помощи [4].

Основным принципом теории поэтапного формирования умственных действий является то, что получить существенно новые элементы психической практической деятельности сразу в форме внутреннего, психического человек не может. Н.Ф. Талызина делает следующий вывод: знания, накопленные человечеством, представленные системой научных понятий, законов, невозможно усвоить лишь с помощью собственной деятельности, эффективность передачи опыта зависит от характера действий учащихся и от качества управления со стороны обучающегося [5].

Основная задача высшего образования заключается в формировании творческой личности специалиста, способного к саморазвитию, самообразованию, инновационной деятельности. Решение этой задачи вряд ли возможно только путем передачи знаний в готовом виде от преподавателя к студенту. Необходимо перевести студента из пассивного потребителя знаний в активного их творца, умеющего сформулировать проблему, проанализировать пути ее решения, найти оптимальный результат и доказать его правильность.

Как показывает практика, что заинтересованность, самостоятельная деятельность, сознательный подход и активность учащихся в значительной степени зависят от характера и организованности их деятельности, от форм и предлагаемых методов контроля, самоконтроля, а порой и взаимоконтроля, и самое главное, от их отношения к своим результатам.

Кроме этого, чем лучше сконструирована и систематизирована общая совокупность знаний, которые подлежат усвоению, тем в большей степени учащимся ясны цели освоения и изучения, а также тем лучше и прочнее эти знания усваиваются.

Более того, самостоятельная работа учащихся, играет важную роль в организации учебно-воспитательного процесса в вузе, который должен строиться так, чтобы формировать и развивать умение, а также желание учиться, формировать у студента способности к самостоятельному развитию, творческому применению приобретенных знаний, способам адаптации к будущей профессиональной деятельности в современном мире.

Происходящая реформа высшего образования связана с переходом от парадигмы обучения к парадигме образования. В этом плане следует признать, что самостоятельная работа студентов является не просто важной формой образовательного процесса, должна стать его основой.

Это предполагает ориентацию на активные методы овладения знаниями, развитие творческих способностей студентов, переход от поточного к индивидуальному обучению с учетом потребностей и возможностей личности. Речь идет не просто об увеличении числа часов на самостоятельную работу.

Усиление роли самостоятельной работы студентов означает принципиальный пересмотр организации учебно-воспитательного процесса в вузе, который должен строиться так, чтобы развивать умение учиться, формировать у студента способности к саморазвитию, творческому применению полученных знаний, способам адаптации к профессиональной деятельности в современном мире [6].

Целью самостоятельной работы студентов является организация систематического изучения дисциплин в течение семестра, закрепление и углубление полученных знаний и навыков, подготовка

к предстоящим занятиям, а также формирование культуры умственного труда и самостоятельности в поиске и приобретении новых знаний.

Задачи самостоятельной работы можно определить следующие:

- ✓ качественное усвоение учебного материала;
- ✓ выработка умений и навыков учебной деятельности;
- ✓ формирование познавательных способностей студентов и интереса к изучаемому материалу;
- ✓ формирование готовности к самообразованию;
- ✓ формирование самостоятельности как качества личности.

В первую очередь необходимо дать определение самостоятельной работы студентов. В общем случае это любая деятельность, связанная с воспитанием мышления будущего профессионала. Любой вид занятий, создающий условия для зарождения самостоятельной мысли, познавательной активности студента связан с самостоятельной работой.

Таким образом под самостоятельной работой следует понимать совокупность всей самостоятельной деятельности студентов как в учебной аудитории, так и вне ее, в контакте с преподавателем и в его отсутствие.

Результаты учебной деятельности напрямую зависят от уровня самостоятельной работы студента, который определяется личной подготовленностью к этому труду, желанием заниматься самостоятельно и возможностями реализации этого желания.

А. Беляева предлагает своеобразную формулу самостоятельной работы студентов: информация – знание – информация, суть которой заключается в создании новой информации из уже имеющейся, что формирует у учащихся готовность и потребность к управлению своей познавательной деятельностью.

Более высокой формой проявления самостоятельности следует считать *самообразование* или *самообразовательную деятельность*, под которой понимают цель и результаты деятельности, а под самостоятельной работой – средство достижения данного результата.

Самообразование студента – это добровольная деятельность, нацеленная на получение знаний в процессе самостоятельной работы без помощи преподавателя, которая невозможна, если у студентов не сформированы первоначальный опыт познавательной деятельности, потребность к ней и эмоционально-волевые качества.

Таким образом, самостоятельная работа учащихся активизирует различные формы восприятия и усвоения учебного материала. Кроме этого, оптимальное использование всех её форм поможет успешно решить те задачи, которые ставятся перед образовательными учреждениями.

В целом же самостоятельная работа студентов является педагогическим обеспечением развития целевой готовности к профессиональному самообразованию и представляет собой дидактическое средство образовательного процесса, искусственную педагогическую конструкцию организации и управления деятельностью обучающихся. самостоятельная работа является необходимым этапом, формирующим умения самообразования и, как следствие, развитие самостоятельности.

Поскольку, выполнение студентами самостоятельных работ способствует более глубокому усвоению теоретического материала, полученного ими на практических занятиях, а, следовательно, повышает уровень подготовки студентов по различным дисциплинам.

Литература:

1. Коджаспирова Г.М., Коджаспиров А.Ю. Словарь по педагогике. М., ИКЦ «Март», 2005. 448 с.
2. Большой Психологический словарь. Сост. Мещеряков Б., Зинченко В. Олма-Пресс. 2004, с. 436-437.
3. Коджаспирова Г.М., Коджаспиров А.Ю. Словарь по педагогике. М., ИКЦ «Март», 2005. 448 с.
2. Гарунов М.Г. Самостоятельная работа студентов. М.: Знание, 1998г.
3. Жиркова З.С. Основы педагогического проектирования. Учебно-методический комплекс Тип ЭВМ: Pentium IV; тип и версия ОС: Windows XP / ГОУ ВПО «Якутский государственный университет им. М.К. Аммосова».- Якутск: сайт <http://moodle.y-su.ru>. Номер государственной регистрации: 50200801257, 03 июля 2008 года
4. Кукушкин В.С. Введение в педагогическую деятельность: Учеб. пособие / - Ростов н/Д: МарТ, 2002. - 217 с.
5. Пидкасистый П.И., Фридман Л.М., Гарунов М.Г. Психолого-дидактический справочник преподавателя высшей школы. М.: Педагогическое общество России, 1999. 354 с

6. Алексеев Н.А. Педагогические основы проектирования личностно ориентированного обучения. - Дис... д-ра пед. наук. - Тюмень, 1997. - 310 с.
7. Андреев В. И. Педагогика творчества саморазвития. – М., 2003.
8. Педагогические технологии / под общей редакцией В.С. Кукушкина.- М.: ИКЦ “МарТ”: - Ростов н/Д: изд. центр “МарТ”, 2006. – 336с.
9. Семушина Л.Г., Ярошенко Н.Г.Содержание и технологии обучения в средних специальных учебных заведениях: учебное пособие для преп. учреждений сред. проф. образования. –М.: Мастерство, 2001. – 272с.
10. Беспалько В. П. Педагогика и прогрессивные технологии обучения. -М., 1995. -414 с.
11. Семенова С. Л., Печеркина А. А. Общая психология: Конспект лекций. Екатеринбург: Издательство Педагогического университета, 2003. 165с.

ШИРИНОВ Отабек Тувалович

Сирдарё вилоят педагогларни янги
методикаларга ўргатиш миллий маркази
ўқитувчиси

ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА ЁШЛАРНИ ЭТНОМАДАНИЯТГА ҚАДРИЯТЛИ МУНОСАБАТНИ ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ АҲАМИЯТИ

Мақолада таълимий ва тарбиявий фаолият масаласи тарихий-илмий ва замонавий-илмий аҳамият касб этиб, тарихий-илмий аҳамиятини тарихий даврларда дунёнинг турли ҳудудида яшаб ижод этган буюк мутафаккирлар, олиму фузалолар томонидан комил инсон (баркамол инсон) намунаси ҳақида ўз қарашларини баён этаганликларини, уни тарбиялашда таъсир кўрсатадиган омиллар (масалан, йога ва тасаввуфда психотехника) ҳақида муносабат билдирганликлари кўрсатиб ўтилган.

Калит сўзлар: таълим ва тарбия, тараққиёт, жамият, қадрият, урф-одат, жамият, ижтимоий тараққиёт.

THE SIGNIFICANCE OF FORMING YOUTH'S VALUABLE ATTITUDE TO ETHNO- CULTURE IN THE EDUCATIONAL SYSTEM

In the article, the problem of educational and upbringing activities has acquired historical and scientific and the latest scientific significance, great thinkers, scientists and philosophers who created ideas about the ideal of a perfect person (harmoniously developed person) expressed their opinion on the historical and scientific significance of education in its formation. The factors influencing its upbringing (for example, yoga and psychotechnics in Sufism) are indicated.

Key words: Upbringing and education, development, society, value, tradition, society, social development.

ЗНАЧЕНИЕ ФОРМИРОВАНИЯ ЦЕННОСТНОГО ОТНОШЕНИЯ МОЛОДЁЖИ К ЭТНОКУЛЬТУРЕ В СИСТЕМЕ ОБРАЗОВАНИЯ

В статье проблема воспитательной и воспитательной деятельности приобрела историко-научную и новейшую научную значимость, великие мыслители, учёные и философы, создававшие представления об идеале совершенного человека (гармонично развитого человека), выразили своё мнение об историко-научной значимости воспитания в его формировании. Указаны факторы, воздействующие на его воспитание (например, йога и психотехники в суфизме).

Ключевые слова: Воспитание и образование, развитие, общество, ценность, традиция, общество, социальное развитие.

Кириш. Таълим – тарбия қадимдан жамият тараққиётининг муҳим вазифалардан ҳисобланиб, ишлаб чиқариш, фан ва техника ютуқларини амалиётга жорий этилиши натижасида такомиллаштиришни тақозо этади. Масалани замонавий-илмий аҳамиятини эса, ижтимоий муносабатларда “акметехнология”, “инновациявий тараққиёт”, “интеллектуаллашув”, “интеллектуал таъминот”, “интеллектуал ресурс”, “инновациявий фаолият”, “хизмат кўрсатишда мижозцентрлаштирилган ёндашув”, “тахлилий фаолият”, “технологиялашув”, “замонавий тўқнашув”, “ахборот хуружи”, “ишлаб чиқаришнинг антропоцентристиклашуви”, “алфа тренинг”, “бета тренинг”, “биотренинг”, “истеъмолчи ва ишлаб чиқарувчининг манфаатлари”, “тармоқдаги мураббий”, ёши кексаларга нисбатан қўлланилгандагина “учинчи ёш” каби тушунчаларни шиддат билан фойдаланилишида, яъни билимлар тизими такомиллашиб, инсон ва унинг ҳаёт тарзига оид бўлган стереотипларни ўзгартириб борилаётганлиги билан изоҳлаш мумкин. Ҳар иккала ёндашувнинг замирида инсон психологиясига тааллуқли бўлган ғоялар методология тариқасида мужассамлашган бўлиб, натижада нафақат инсонга (инсоншуносликка), балки бизни ихота этган муҳитга (ноосферага) оид бўлган билимларга талаб ортиб бормоқдаки, психологик билимлар бундан мустасно эмас.

Таълим-тарбия тараққиётни таъминловчи муҳим омил ҳисобланиб, жамият ҳаётини таъминлаш ва ислохотларни амалга оширишда даражаларда (соҳавийлиги, тарихийлиги каби белгилари бўйича)

иштирок этади. Бу ўз навбатида таълимий-тарбиявий фаолият такомиллашув хусусиятига эга эканлигини кўрсатади ва унда ижтимоий институт сифатида таълим доминантлик қилади. Таълим, жамиятнинг ҳар бир соҳасини тизим тарзида амал қилиши ва ривожланиш динамикасини таъминлаш учун амал қилиб, янги технологияларни яратиш ва жорий этиш, такомиллаштириш, уларни диагностикасини амалга ошириш, прогноз қилиш, соҳага қаратилган таҳдидларни ўз вақтида аниқлаш, уларни зарарлантиришнинг усул ва воситаларидан фойдаланиш тартибини аниқлаб беради. Тарбия эса, уларни амалиётда қўллаш давомида қайси меъёрий тамойилларга амал қилиш алоҳида инсон ва жамоа (гурух) аъзолари учун мақбул эканлигини таъминлайди.

АДАБИЁТЛАР ТАХЛИЛИ ВА МЕТОДОЛОГИЯ

Агарда, таълимнинг ўтмишдаги (юз йилликдаги) муаммоси – таълимни ҳаммабоплигини (барча учун баробарлигини) таъминлаш лозим эканлигини назарда тутсак, бугунги кун таълимнинг муаммоси – таълим сифатини барча учун таъминлашдан (барчага сифатли таълим беришдан) иборатлигини англаш қийин эмас. Бу ўз навбатида таълим тизимининг олдида навбатдаги вазифани, яъни ҳар бир таълим олувчига (индивидуал) таълим тури ва ихтиссослиги бўйича сифатли таълим бериш масаласини долзарблаштиради.

Шарқ ва Ғарб таълим моделидаги умумийлик:

таълим олувчи шахсига билим ва ахборот истеъмолчиси тарзида эътибор қаратилади;
таълим, институтционallasган тарзда амал қилиши ҳақидаги ғояга амал қилинади;
таълим олувчиларга жараёнларни лойиҳалаштириш ва бошқаришни ўргатади;
таълим олувчиларга ахборот узатиш тарзида таълим бериш кузатилади;
таълим олувчиларга базавий маданиятни шакллантиришга урғу берилади;
таълим жараёнини ташкил этиш ва бошқаришда мутахассис (педагог, мураббий) етакчи рол тутиши белгилаб қўйилган.

Шарқ таълим моделидаги хусусийлик:

таълим мазмунини белгилашда ворисийликка таянилади;
таълим тизими идеал таълим тизимининг моделига йўналтирилган;
таълим услубларини белгилашда кадрятли тарзда ёндашилади;
педагогнинг (устоз ва мураббийнинг) маънавий ваколати юкаслиги билан ажралиб туради;
таълим жараёни социоцентристик мазмун касб этади;
таълим жараёнида маънавийли инсон шахсини шакллантиришга эътибор қаратилади;
таълим жараёнига эътибор қаратилади;
таълимий ахборотлар диний таълимот билан узвий боғланган тарзда етказилади;
гурухий ўқишни таъминлаш тарзида таълим берилади.

Ғарб таълим моделидаги хусусийлик:

таълим мазмунини белгилашда саноат ва ишлаб чиқариш натижаларига таянилади;
таълим тизими жорий таълим тизимининг моделига йўналтирилган;
таълим услубларини белгилашда функционал ёндашилади;
таълим олувчилар учун педагог (устоз, мураббий) йўлбошчи ҳисобланади;
таълим жараёни антропоцентристик мазмун касб этади;
таълим жараёнининг натижасига (мутахассисни тарбиялашга) эътибор қаратилади;
таълим мазмунини белгилашда буюртмачининг (иш берувчининг) таклифларига қатъий амал қилинади;
таълим олувчиларга маърифий ахборотлар иқтисодий кўрсаткичлар билан узвий боғланган тарзда етказилади;
индивидуал ўқишни таъминлаш тарзида таълим берилади.

Таълимга оид бўлган ҳар қандай таълимотга суянишдан қатъий назар, таълим жараёнида ахборот, таълим берувчи ва таълим олувчиларнинг фаолиятини таъминловчи кўпфункционал омил сифатида иштирок этади. Унинг моҳиятини англаш учун таълим-тарбиянинг вазифадорлиги жиҳатидан алоқадорлигини тизимли тарзда кўриб чиқамиз. Тизим сифатида асосий эътибор чиқишга (натижага) қаратилган (1 – чизма) бўлиб, касбий билимга эга бўлишни таъминлаш, ҳаётий-касбий муаммоларни ҳал этиш усулини ўзлаштиришни таъминлаш, касбий кўникма ва малакага эга бўлишга эришишни таъминлаш, маиший ва ижтимоий жараёнларни юзага келиши ҳамда кечишининг сабаб-оқибат алоқадорлигини англай олиш тажрибасини шакллантириш каби функционал таркибларга алоҳида эътибор қаратилганлигини кузатиш мумкин.

Бу ўз навбатида таълим берувчи ва таълим олувчининг ҳамкорликда фаолият юритиши мақсадга мувофиқлигини кўрсатади. Ваҳоланки, айрим манбаларда таълим бериш услуги, таълимда янги технологияларни қўллаш, педагогик маҳоратга эга бўлиш, педагогик фаолият мониторингини

амалга ошириш, таълим бериш жараёнида компьютер технологияларини қўллаш каби масалаларга урғу берилиб, таълим олувчининг шахсига таълим жараёнининг иштирокчиси сифатида ёндашилмоқда [1]. Бизнингча, таълим тизимида педагог ўз функцияларини маромига етказиб бажаришида таълим олувчиларнинг роли, аниқроғи уларнинг таълим муассасасига, эгаллаётган ихтиссослигига, профессор-ўқитувчиларга, ўрганилаётган мавзуга бўлган муносабати педагогик жараёни самарали кечишини таъминловчи асос ҳисобланади. Бунда уларни ўқув мотиви, таълим жараёнидан кутишлари, кадриятлари, таянч маданияти, мақсадини тўғри шаклланганлиги, маънавиятлилик даражаси каби шахсий хоссалари таълим олиш ва таълим бериш жараёнини мақсадли кечишини таъминлашда иштирок этади. Чизмадан кўриниб турибдики, таълим бериш жараёни ижтимоий тизим тарзида кечади. Бу ўринда профессор-ўқитувчилар ва талабаларнинг ҳамкорлиги, таълимни ташкил этишга иштирок этаётганларнинг лаёқатмандлиги (компетентлиги), жамиятда таълим олишга бўлган эҳтиёжнинг намоён бўлиши, илмий тадқиқотлар натижасини амалиётга жорий этиш тезлиги, ишлаб чиқариш ва фан-техниканинг алоқадорлиги кабиларнинг таъсири муҳим ҳисобланишини кўрсатиб ўтиш лозим.

ТАҲЛИЛ ВА НАТИЖАЛАР

Унинг замирида эса, янгича тафаккур тарзи мужассамлашган бўлиб, у инсон ақлий фаолиятининг ўзига хос бир тарзида иқтисодий ва маданий жараёнлар, маиший ёки ижтимоий, хусусий-касбий муаммоларга доир муносабатда бўлишда илм-фан ва техника ютуқлари ҳамда шахсий тажрибага таянган ҳолда йўл тутишида ўз аксини топади. Бу ўзига хос ақлий операция ҳисобланиб, мутахассисдан идрок, тасаввур, хотира ва диққат даражаларини ривожланганлигига, уларнинг фаолияти натижасига таянишни тақозо этади. Чунки ҳар қандай кўринишдаги муаммо (вазият, жараён) ҳақида, уни вужудга келиш сабаби ва оқибатининг алоқадорлигини белгилаб олиш учун мутахассис мантикий занжир тарзида мушоҳада юритиши лозим бўлади. Вазифадорлиги (функционаллиги) жиҳатидан янги тафаккур тарзи ўз моҳиятига кўра турли касбий фаолиятларнинг (меҳнат турининг) самарадорлигини таъминлаш учун шарт ҳисобланади. Масалан, педагогик фаолиятда ёки тиббиёт (аниқроғи тиббий-диагностикавий) ва амалий психологик ёрдам кўрсатиш (аниқроғи ижтимоий-психологик диагностика қўйиш) фаолиятида ўзлаштирилган касбий ва махсус билимлар, жамланган ахборот ва касбий мулоқотда қўлланиладиган тушунчалар тизимидан фойдаланишда аҳамиятли ҳисобланади. Бунда таълим фалсафаси ва таълим психологияси жиҳатлари бўйича янгича тафаккур қуйидаги даражалари билан амалий мазмун касб этади:

а) белгиловчи (детерминанлаштирувчи) ва феноменологик (вазият белгиларини шарҳловчи, тавсифловчи) даражалари билан;

б) вужудга келган муаммонинг (вазифани) ечилишини (бартараф этишини) назарий-амалий тузилишини яратиш даражалари билан.

Фан ижтимоий институт сифатида, нафақат ўтмиш ёки юзага келган жараёнларни тушунтира олади, балки истиқболда юзага келадиган ижтимоий жараёнларнинг турини ҳам белгилаб беради. Ўтмиш ва истиқбол ўзида фундаментал (табiiй-тарихий) ва технологик (лойиҳалаштирилган) жиҳатларни қамраб олиб, уни илмий билиш “худуди”да тўртта интеграция шакли кечаётганини кўрсатади, булар:

табiiй ва ижтимоий ҳодиса-воқеаларни пайдо бўлиши, кечиши (ривожланиши) ва сўниш механизмини белгилаб бериш учун амал қиладиган фундаментал интеграция;

табiiй ва ижтимоий ҳодиса-воқеаларни лойиҳалаш механизмини белгилаб бериш учун амал қиладиган технологик интеграция;

табiiй ва сунъий жараёнларни истиқболдаги ҳолатини тасвирлаш механизмини белгилаб бериш учун амал қиладиган прогностик интеграция;

бирон бир табiiй ва сунъий жараёнларни вужудга келиши, ривожланиши ва поёнига етиш босқичларининг тарихий механизмини белгилаб бериш учун хизмат қиладиган тарихий интеграция.

Боз устида, бу масалага ойдинлик киритиш мақсадида, яъни ижтимоий-психологик жараёнларни бошқаришнинг чегарасини белгилаб олиш учун мутахассис бир қатор вазифаларни амалга ошириши лозим бўлади:

а) жараён тушунчасини аниқ сатҳда (соҳада, тармоқда) амал қилиши бўйича мазмун ва моҳиятини;

б) жараёнларнинг вужудга келишига туртки бўлган ичк ва ташқи омилларни;

в) жараёнларни тузилиши ва кечиш босқичларини (динамикасини);

д) жараёнларнинг характерини белгилаб олиши лозим бўлади.

Бунинг учун мутахассис касбий фаолияти доирасида бошқа фан ютуқларидан ҳам фойдаланиши лозим бўлади. Натижада жараёнларни ўрганишга тааллуқли бўлган назарий ёндашувларни такомиллаштириш эҳтиёж сифатида (касбий вазифа кўринишида) ифодаланади.

Таълим – тарбия тараққиёт пойдевори ҳисобланиб, ишлаб чиқариш, фан ва техника ютуқларини амалиётга жорий этилиши натижасида такомиллаштиришни тақозо этади. Такومиллаштириш механизмини эса илмий тадқиқотларнинг натижаси белгилаб беради. Чунки “индивид – дунё” муносабатлар тизимини инсон организмнинг эҳтиёжлари ташкил этиб, турли муносабатларда хулқ-атвор кўринишида ифодаланади [4]. Бу ўз навбатида умумметодологик асосни белгилаб берувчи фалсафа, аниқроғи таълим фалсафаси доирасида бажариладиган тадқиқотларнинг натижасидан фойдаланишни талаб этади. Таълим жараёнининг иштирокчилари ва таълим жараёнини режалаштириб, уни бошқариладиганларнинг фаолияти тизимида етакчи фаолиятни ажратиб, уларни мотивациясини таъминлаш учун таълим психологияси доирасида бажарилган тадқиқотларнинг хулосаларидан фойдаланиб педагогик чора-тадбирларни ишлаб чиқишни тақозо этади. Таълимга буюртма берадиган корхона, турли муассасалар, умуман жамият таълим институтидан нималарни кутишини, қандай соҳа мутахассисини тайёрлаб беришни аниқлаш учун таълим социологияси ҳамда таълим ҳуқуқи каби фан соҳаларининг ютуқларидан фойдаланишни талаб этади. Кўрииб турибдики, бу йўналишда олиб бориладиган тадқиқотлар бошқа бир ижтимоий маконда эмас, балки муаммо вужудга келган, тадқиқот натижалари жорий ҳолатни ўрганиш натижасида қўлга киритган бўлиши лозим. Шунинг учун, таълим-тарбия масаласига бағишланган илмий тадқиқотлар мавзусини белгилашда уларнинг узвийлигига, яъни бир фан соҳасида бажарилиши мўлжалланган илмий тадқиқот, иккинчи фан соҳасида бажариладиган тадқиқотни соҳавий тўлдириб, яхлит мажмуани вужудга келтириши учун хизмат қилишига алоҳида эътибор қаратиш лозим бўлади. Шу тариқа биз таълим-тарбияни ижтимоий институт сифатида миллий тараққиётни таъминлашга тўлиқ йўналтира оламиз.

Таълим тизими жамият равнақини сакловчи муҳим омил ҳисобланиб, бунда этномаданият омилнинг мавжудлигини инобатга олиш жамият тараққиётини таъминлашни базавий кўрсаткичи саналади. Таълим жамиятнинг ҳар бир соҳасини тизим тарзида амал қилиши ва ривожланиш динамикасини таъминлаш учун хизмат қилади.

Адабиётлар :

12. Малянов Е.А. Социально-культурная инноватика: методология, теория и практика // Дис. ... докт. пед. наук. – Тамбов: ТГУ им. Г.Р. Державина, 2011. – С. 2. Шемончук Д.С. Макромедиа в образовании. - М.: МИРЭА, 2012. – 168 с. электронное издание, номер государственной регистрации 0321203514 от 24.10.2012 - ISBN 978;5;7339;1.,
13. Иванников А.Д., Кулагин В.П., Мордвинов В.А, и др. Получение знаний для формирования информационных образовательных ресурсов. - М.: ФГУ ГНИИ ИТТ «Информика», 2008. - 440 с.
14. Нюттен Ж. Мотивация, действие и перспектива будущего. - М.: Смысл, 2004. –С.45-46.
15. Концепция “духовного человека” (Ж.Нюттен) / В кн.: Горностай П.,
16. Титаренко Т. (ред.) Психология личности: словарь-справочник. - К.: Рута, 2001.
17. Бенедикт Р. Хризантема и меч: Модели японской культуры / Пер. с англ.
18. М.Н. Корнилова, Е.М. Лазаревой и В.Г. Николаева. - М.: Российская политическая энциклопедия (РОССПЭН), 2004. – 256 с.,
19. История психологии в лицах. Персоналии / Под ред. Л.А. Карпенко // Психологический лексикон.
20. Энциклопедический словарь в шести томах / Ред.-сост. Л. А. Карпенко. Под общ. ред. А. В. Петровского. – М.: ПЕР СЭ, 2005. – С.48-49.
21. Коркмазов А.Ю. Проблема этноса и этничности в науке: в поисках парадигмы (недоступная ссылка) // Сборник научных трудов. Выпуск 1 (11). Серия «Гуманитарные науки» // Северо-Кавказский государственный технический университет. - Ставрополь, 2004.
22. Родионова Е.А. Общение как условие развития личности // Психология формирования и развития личности. – М.: Наука, 1981. - С.194.
23. De Jager P. Resistance to change: a new view of an old problem // The Futurist, 2001. May/June. -P. 24–27.

ЭШҚУВВАТОВ Улугбек Абдулла ўғли

Термиз муҳандислик – технология институти
“Йўл муҳандислиги” кафедраси ўқитувчиси
eshkuvvatov.ulugbek@mail.ru

ТАЛАБАЛАРНИ МУҲАНДИСЛИК КАСБИГА ЙЎНАЛТИРИШНИНГ ДОЛЗАРБЛИГИ

Мақолада ёшларни касбга йўналтиришида учрайдиган муаммолар, қизиқиши ва истаклар асосида амалга ошириш механизмлари келтириб ўтилган. Касбга йўналтиришига таъсир кўрсатувчи омиллар ва уларни бартараф этиш усуллари бўйича таклиф ва тавсиялар ишлаб чиқилган.

Калит сўзлар: талаба, муҳандис, инновация, технология, натижа, самародорлик.

АКТУАЛЬНОСТЬ ОРИЕНТАЦИИ СТУДЕНТОВ В ИНЖЕНЕРНОЙ ПРОФЕССИИ

В статье представлены механизмы реализации, основанные на проблемах, интересах и желаниях, возникающих при ориентации молодых людей к профессии. Разработаны предложения и рекомендации по факторам, влияющим на профессиональную ориентацию, и методам их устранения.

Ключевые слова: студент, инженер, инновации, технология, результат, эффективность.

RELEVANCE OF STUDENT ORIENTATION IN THE ENGINEERING PROFESSION

The article presents the mechanisms of implementation based on the problems, interests and desires encountered in the orientation of young people in the profession. Proposals and recommendations have been developed on the factors affecting professional orientation and methods of their elimination.

Keywords: student, engineer, innovation, technology, result, efficiency.

Кириш. Бугун фан ва техника соҳасининг шиддат билан ривожланиши жамиятимизда малакали, билимли кадрларга бўлган талабнинг ортиб боришига сабаб бўлмоқда. Жаҳондаги кўпгина давлатлар ривожланишнинг юқори чўққисига чиқишнинг асосий мезонларидан бири бўлган таълим сифатига эътибор беришни ўзларининг асосий вазифаларидан этиб белгилаб олган. Ушбу вазифани ҳал этишда асосий эътибор ёшларга қаритилган бўлиб, уларнинг юқори малакали кадрлар бўлиб етишиши орқали амалга оширилади.

Мамлакатимизда замонавий фан, техника ва технологияларни ривожлантиришга йўналтирилган бозор иқтисодиёти механизмларини ишлаб чиқиш ва уларни мақсадли амалга ошириш борасида салмоқли ишлар олиб борилди. Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегиясида[1] белгиланган “Илмий-тадқиқот ва инновация фаолиятини рағбатлантириш, илмий ва инновация ютуқларини амалиётга жорий этишнинг самарали механизмларини яратиш” ҳамда Инновацион ривожланиш вазирлигининг асосий фаолият йўналишларидан таълим тизимида инновацияларни ишлаб чиқишни таъминлаш[2] каби белгиланган устувор вазифалари олий таълим тизимида рақобатбардош муҳандис кадрларни инновацион фаолиятига тайёрлаш заруриятини тақозо этмоқда.

Асосий қисм. Ёшлар ҳар қандай миллатнинг келажакдир. Улар мамлакатнинг таянчи ва шу билан биргаликда уларнинг жамиятдаги роли аҳамиятли ҳисобланади. Бирлашган Миллатлар Ташкилоти маълумотларига кўра, 15-24 ёшгача бўлган одамлар ёшлар деб таснифланади. Яна шуни такидлаш керакки, дунёнинг бошқа мамлакатларида ёшларга бериладиган турли таърифларини учратиш мумкин. Бугунги кунда ёшларнинг жамиятдаги роли ҳақида гапирадиган бўлсак, аввало улар ўзлари туғилган юртнинг муносиб фарзанди бўлишдир. Шу боисдан ҳам улар ўз мамлакатининг турмуш тарзини яхшилаш ва жамиятдаги инсонларга ёрдам беришни ўз мақсадига айлантириши лозим.

Ҳар қайси соҳада бўлгани каби, муҳандислик соҳасида ҳам ёшларнинг ўрни мавжуд. Жамиятдаги ҳар қандай бўғинларида, яъни таълим, спорт, соғлиқни сақлаш, медицина, қурилиш, транспорт каби соҳаларда муҳандисларнинг роли мавжуд. Муҳандислар томонидан турли хил махсулотлар ва дастурларни лойиҳалаштириш, ишлаб чиқиш, ўрнатиш, текшириш ва техник хизмат кўрсатиш ишлари амалга оширилади. Бунга мисол тариқасида шуни айтишимиз мумкинки, бугун

инсоният ер юзининг қайси нуктасида бўлмасин, бир зумда бир - бирлари билан мулоқот қилиши, бир манзилдан бошқа бир манзилга тезда етиб бориши имконияти мавжуд. Бундан келиб чиқадики, замонавий жамиятда яхши келажак учун зарур бўлган ўзгаришларни ёш муҳандислар амалга оширади. Улар инновациялар, ижодкорлик ва креатив ёндашув асосида бошқа соҳа вакилларига нисбатан фарқли равишда дунёга таъсир ўтказмоқда. Дунёнинг ўзгариши ва шиддат билан ривожланиши ортида муҳандислар турибди. Муҳандислар танқидий шу билан бирга ижодий фикрлай олиши, қизиқувчан ва қобилиятли бўлиши зарур. Жаҳонда илғор технологик ғояларни амалга ошириш учун муҳандислар зарур. Математик ва фан тамойилларини қўллаш орқали муҳандислар дунёдаги энг катта техник муаммоларга ечимларни ишлаб чиқади.

Мамалкатнинг тараққий этиши, албатта, инфратузилмани ривожлантириш, ақлли шаҳарлар сари қадам ташлаш, яшил муҳитни жорий этиш, янгиланадиган энергия манбалари билан ресурсларни қайта тақсимлаш, мамлакатни энергия самарадорлигини ошириш ва бошқа кўплаб нарсаларни англатади[5]. Ривожланаётган мамлакатларда муҳандислар учун кенг имкониятлар мавжуд:

1. Транспорт соҳасини ривожлантириш. Бунда магистрал йўлларни таъмирлаш, эскиларини янгилаш, шаҳар ва шаҳардан ташқаридаги йўлларни лойиҳалаш ва эксплуатация қилиш, темир йўл йўналишларининг ривожланиши ва янги йўналишларни жорий қилиш, ҳаво тарнспорти, сув транспорти ва қувур транспортини ҳам лойиҳалаш ва такомиллаштириш;

2. Энергетика соҳасини ривожлантириш. Бу йўналиш, яъни яшил муҳит – бу бинолар ва шаҳарлар атрофида энергия тежамкор ресурсларни жорий қилиш ҳамда атроф-муҳитни муҳофаза қилиш;

3. Сув ресурсларини тежаш ва бошқариш. Бу тизим бутун мамлакат учун муҳим рол ўйнайди. Бу ерда сув тармоғини режалаштириш ва сув хўжалигини амалга ошириш ва асосан шаҳарларда ва унинг атрофидаги чиқиндиларни қайта ишлаш заводлари фаолиятини такомиллаштириш;

Юқоридаги ишларни амалга оширишда техник-иқтисодий ва бошқарув бўйича муҳандислар, лойиҳалаш бўйича конструктив муҳандислар, геотехник муҳандислар, биноиншоотлари қурилиш муҳандислар, йўл қурилиши муҳандисларининг ўрни ва роли аҳамиятлидир.

Bolalar bilan psixo-korrektiv ish asoslarini tahlil qilgan ko'plab olimlar maktabgacha yoshda bolaning psixikasi juda moslashuvchan va plastik bo'lganligi sababli badiiy terapiyaning eng samarali usullari musiqa terapiyasi va ertak terapiyasi ekanligini ta'kidlaydilar. Chunki, musiqa terapiyasi hissiy og'ishlar, qo'rquvlar, nutq buzilishlari, xatti-harakatlardagi og'ishlar va muloqotdagi qiyinchiliklarni tuzatish vositasi sifatida musiqadan foydalanadigan usuldir. Musiqa ijobiy his-tuyg'ularni uyg'otishga yordam beradi, ammo psixo-gimnastikada bo'lgani kabi, maktabgacha yoshdagi bolalarga nisbatan, ushbu vositani musiqiy mashqlar sifatida tashkil etishning o'yin shakli haqida gapirish kerak, chunki maktabgacha yoshdagi bolaning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda, faoliyatning o'yin shaklidan foydalanish yaxshiroqdir.

Ertak terapiyasi bizga ma'lum hayotiy vaziyatlarni metaforik tarzda ifodalash imkonini beruvchi tasavvurni ochadigan ertaklarning imkoniyatlaridan foydalanishga imkon beradi.

Ertak terapiyasi jarayonida bola asarning asosiy g'oyasini ajratib ko'rsatishni, harakatlarini baholashni va bosh qahramonlarga hamdard bo'lishni o'rganadi, buning natijasida bolalar o'z yaqinlari va yaqinlarining hissiy holatini sezishni boshlaydilar. Bola har qanday san'at asarini tinglaganida, uning o'zi ham turli xil his-tuyg'ularni boshdan kechirish imkoniyatiga ega bo'ladi va shu orqali u o'zining hissiy holatini farqlashni o'rganadi.

O.V.Xuxlaevaning ta'kidlashicha, ertak obrazlari va rollari, ayniqsa bolalar tomonidan ijro etilgan obrazlar o'zlarining qiyinchiliklarini, sabablarini va ularni bartaraf etish yo'llarini anglash imkoniyatini beradi. Ertak qahramonlari duch keladigan vaziyatlar bola tomonidan hayotiy vaziyatlarga prognoz qilinadi va unga tashqi tomondan qarash, qahramonning qiyinchiliklarini o'zi bilan aniqlash imkoniyatini beradi. Shunday qilib, bolalar asta-sekin o'zlarining his-tuyg'ularini va boshqalarning his-tuyg'ularini tahlil qilishga o'rganadilar.

O'yin faoliyati emotsional intellektni rivojlantirishning eng samarali vositasidir, chunki o'yin maktabgacha yosh davridagi bolalarning yetakchi faoliyat turi bo'lib, unda munosabatlar shakllanadi va modellanadi, bolalarning umumiy va o'ziga xos qobiliyatlari rivojlanadi (L.A.Venger, A.N.Leont'yev, V.S.Muxina, K.D.Ushinskiy, D.B.Elkonin va boshqalar). Aynan o'yin faoliyatida bola faoliyat va boshqalar bilan o'zaro munosabatlarning dastlabki me'yor va qoidalarini o'zlashtiradi. O'yin ishlab chiqarish faoliyati emas, balki protsessual bo'lganligi sababli, bola atrof-muhitni o'ziga xos tarzda o'zgartiradi [10]. Afzallik shundaki, bolalarning o'zlari o'yinlarning qahramoniga aylanadi. O'yin davomida bolalar nafaqat atrofda dunyo haqidagi bilimlardan zavqlanishadi, balki ayni paytda o'zlarini nazorat qilishni o'rganadilar. Maxsus o'yin sharoitida maktabgacha yoshdagi bolalar ijtimoiy munosabatlar tizimini vizual va samarali shaklda modellashtirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

O'yinda kognitiv va shaxsiy egosentrizmni izchil ravishda engib o'tish mavjud bo'lib, shu munosabat bilan bolalarda o'z-o'zini anglash rivojlanadi, muammoli vaziyatlarni hal qilishda tajriba to'planadi. O'yinda bola tomonidan yaratilgan tasvirlar unga ta'sir qiladi, yorqin hissiy reaksiyaga sabab bo'ladi, birgalikdagi faoliyatga va uning ishtirokchilariga qiziqishni oshiradi. O'yin orqali ichki tajribalarni anglash va og'zaki bayon qilish asosida maktabgacha yoshdagi bolalar hissiy jihatdan muhim vaziyatlarning ma'nosini tushunish va ularga munosabatni o'zgartirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Sensorli o'yinlar bolalarning hissiy reaksiyasi mexanizmlarini, umuman hissiy sohani bilvosita faollashtiradi.

Emotsional ekspressiv o'yinlarni amalga oshirish yuz, pantomimik, nutq motorikasini, imo-ishora ekspressivligini - ya'ni "hissiyotlar tilini" rivojlantirishga imkon beradi, shuningdek, hissiy sezgirlikni rivojlantirish uchun qulay fon yaratadi [5]. Shunday qilib, maxsus tashkil etilgan o'yinlar, o'yin elementlari, o'yin vaziyatlari va umuman maktabgacha yoshdagi bolalarning uyushtirilgan o'yin faoliyati emotsional intellektni rivojlantirishning eng samarali vositasi bo'lib, emotsional intellektning barcha tarkibiy qismlarini maqsadli ravishda rivojlantirishga imkon beradi

Xulosa. Maktabgacha yoshdagi bolaning emotsional intellekti - bu qobiliyatlarning kombinatsiyasi: o'z his-tuyg'ularini va boshqalarning his-tuyg'ularini aniqlash, tushunish, o'z his-tuyg'ularini yetarli darajada ifoda etish va nazorat qilish, ularni ifodalash uchun nutqdan foydalanish va o'z faoliyatida boshqalarning qiziqishlari hamda his-tuyg'ularini hisobga olish qobiliyatidir. O'z his-tuyg'ularini va boshqalarning his-tuyg'ularini tushuna olmaslik, boshqalarning reaksiyalarini to'g'ri baholay olmaslik, shuningdek, qaror qabul qilishda o'z his-tuyg'ularini tartibga sola olmaslik hayotda ko'plab muvaffaqiyatsizliklarga olib keladi. Emotsional intellekt shaxsning ruhiy salomatligi va psixikasining muvaffaqiyatli shakllanishini belgilovchi hal qiluvchi ichki omillardan biridir.

Emotsional rivojlanish bolaning tug'ilishidanoq sodir bo'ladi, ammo emotsional intellektning rivojlanishi maktabgacha yosh davrida dolzarb bo'lib qoladi, chunki bolalarning faol hissiy rivojlanishi aynan shu davrlarda sodir bo'ladi. Shuningdek, bu yosh davri bola shaxsining poydevori qo'yilgan eng muhim davr bo'lib, emotsional intellektning rivojlanishi o'sib borayotgan shaxsning shaxsiyatini shakllantirishning muhim bosqichi va uning kelajakda, keyingi yosh bosqichlarida rivojlanishini belgilaydigan omil bo'lib xizmat qiladi. Hozirgi vaqtda maktabgacha yoshdagi bolalarda emotsional intellektni rivojlantirish dasturlari yosh davrining o'ziga xosligini va rivojlanish imkoniyatlarini hisobga olgan holda, biz ko'rib chiqqan va buni asosan o'yin faoliyati orqali tashkil etgan vositalar asosida qurilgan. Ko'pgina hollarda, dasturlarni tengdoshlar guruhida amalga oshiriladi, chunki bu ta'lim muassasalarida emotsional intellektni rivojlantirishning eng qulay usulidir.

Yana shuni ham aytib o'tish kerakki, bolada emotsional intellektni rivojlanishida ota-ona va tarbiyachilarning o'рни alohida ahamiyatga ega, chunki ular bolalar tomonidan hissiy aloqa, ifoda etish va hissiy holatlarni boshqarish usullarining standarti sifatida qabul qilinadi. Boshqacha qilib aytganda, bolalarning emotsional intellektini boyitishning eng muhim sharti - bu bola va kattalar o'rtasidagi hissiy holatlar va hissiy vaziyatlarni o'z ichiga olgan shaxslararo muloqot, shu bilan birga bolalar o'rtasidagi muloqotdir. Yuqorida keltirilgan vositalardan o'rinli foydalanish orqali bola shaxsini shakllantirishda muhim bo'lgan emotsional intellektni rivojlantirish mumkin.

Adabiyotlar:

1. Алешина А. В. Эмоциональный интеллект. Российская практика / А. В. Алешина, С.Т. Шабанов. – Москва: «Манн, Иванов и Фербер». – 2014 – 429 с.
2. Андреева И. Н. Эмоциональный интеллект как феномен современной психологии / И. Н. Андреева. - Новополюцк : ПГУ, 2011. - 388 с.
3. Гром Н. А. Особенности развития эмоциональной сферы детей старшего дошкольного возраста / Н. А. Гром // Научно-методический электронный журнал «Концепт». – 2016. – Т. 10. – С. 86–90
4. Изотова Е. И., Никифорова Е. В. Эмоциональная сфера ребенка: теория и практика. – М.: Академия, 2004.
5. Котова Е. В. В мире друзей: программа эмоционально-личностного развития детей. – М.: ТЦ Сфера, 2007.
6. Кряжева Н. Л. Развитие эмоционального мира детей / Н. Л. Кряжева. – Ярославль : «Академия развития», 2016 – 208 с.
7. Куражева Н. Ю. Программа психолого-педагогических занятий для дошкольников 5-6 лет, Речь, 2014.
8. Леонтьев А. Н. Лекции по общей психологии // А. Н. Леонтьев, под ред. Д. А. Леонтьева, Е. Е. Соколовой. – М.: Смысл, 2016. – 506 с.
9. Прусакова О. А., Сергиенко Е. А. Понимание эмоций детьми дошкольного возраста. // Вопросы психологии, 2006, -№ 4. – С.24-35.
10. Спиваковская А. С. Психотерапия: игра, детство, семья: в 2 т. М.: Апрель-Пресс: Эксмо-Пресс, 2000. -Т. 2.

МАХМУДОВА Нодира Алишеровна

Наманган давлат институти, мактабгача ва
бошланғич таълим методикаси кафедраси
ўқитувчиси
nodiramaxmudova9@gmail.com.

БОШЛАНҒИЧ СИНФ ЎҚУВЧИЛАРИДА ЎЗИНИ –ЎЗИ БАҲОЛАШ ОРҚАЛИ МУСТАҚИЛ БИЛИШ ФАОЛЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ МЕХАНИЗМИ

Бошланғич синф ўқувчиларида ўзини-ўзи баҳолаш орқали мустақил билиш фаоллигини ривожлантириш механизмини такомиллаштириш ривожлантириш бўйича методлар, тавсиялар кўрсатилган.

Тадқиқот доирасида ўқувчиларнинг ўзини-ўзи баҳолаш орқали мустақил билиш фаоллигини ривожлантириш механизмини илмий адабиётлар таҳлили, педагогик-психологик кузатишлар асосида мазмунли компонентлари қуйидагича тавсифланган: дарс жараёнида ҳар бир ўқувчининг онгли когнитив фаолиятига ва мустақиллигига эришиши, ўқувчининг ўз фаолиятига ва ўзгалар фаолиятига ҳиссий алоқадорлигини таъминлаш, ўқувчи мустақил билиш фаоллигини мотивлаштириши, ўқувчиларнинг рефлексия ва ўзини-ўзи баҳолаш ҳамда назорат қилишини таъминлаш, дарсда мустақил иш ёки ижодий топшириқнинг бўлиши, дарс мақсадига эришиши каби масалалар ёритилган.

Калит сўзлар: ўзини-ўзи баҳолаш, компетенция, мотивация, когнитив фаолият, баҳолашнинг инновацион воситалари, ўзини-ўзи баҳолаш варақаси, рефлексия.

МЕХАНИЗМ РАЗВИТИЯ САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ ПОЗНАВАТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ ПОСРЕДСТВОМ САМООЦЕНКИ

Показаны методы и рекомендации по совершенствованию и развитию механизма развития самостоятельной познавательной деятельности учащихся начальных классов через самооценку.

В рамках исследования механизм развития самостоятельной познавательной деятельности учащихся посредством самооценки, основанной на анализе научной литературы, педагогических и психологических наблюдений, содержательные компоненты описаны следующим образом: в ходе урока, достижение осознанной познавательной активности и самостоятельности каждого учащегося, обеспечение эмоциональной связи учащегося с собственной деятельностью и деятельностью других, мотивирование учащегося самостоятельной познавательной деятельности, обеспечение рефлексии и самооценки и контроля учащихся, наличие самостоятельной рабочей или творческие задачи на уроке, достижение цели урока.

Ключевые слова: самооценка, компетентность, мотивация, познавательная деятельность, инновационные средства оценивания, лист самооценки, рефлексия.

THE MECHANISM OF THE DEVELOPMENT OF INDEPENDENT COGNITIVE ACTIVITY IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS THROUGH SELF-ASSESSMENT

Methods and recommendations for improvement and development of the mechanism of development of independent cognitive activity in elementary school students through self-assessment are shown.

Within the framework of the research, the mechanism of the development of independent cognitive activity of students through self-assessment, based on the analysis of scientific literature, pedagogical-psychological observations, the meaningful components are described as follows: in the course of the lesson, the achievement of conscious cognitive activity and independence of each student, ensuring the emotional connection of the student to his own activities and the activities of others, the student motivating independent cognitive activity, ensuring reflection and self-assessment and control of students, having independent work or creative tasks in the lesson, achieving the lesson goal.

Key words. *Self-assessment, competence, motivation, cognitive activity, innovative means of assessment, self-assessment sheet, reflection.*

Кириш. Ўрганилаётган муаммо бўйича илмий адабиётларни таҳлил қилиш шуни кўрсатадики, Олима Г.Алимова ўқувчиларда баҳолаш жараёни қандай кечиши хусусида тадқиқот олиб борган. Тадқиқот ишида ҳар бир киши ўз-ўзига яхши, объектив баҳо беришни истагани, лекин ўз шахсий фазилатларини қандай англаб тан олишни кўпчилик тушунмаслигини таъкидлаб ўтган. Ўз-ўзига баҳо бериш инсоннинг яшаб ўтган йилларида тўпланган барча тушунчаларни ҳаёлан тасаввур этиш орқали шаклланади. Болалиқда инсон баҳоси мияга жойланаётганда, ўзи ҳақида атрофдагилардан маълумот тўплайди. Агар бола ота-онасидан муҳаббат, рағбат кўрса, улғайганда ўз-ўзига яхши муносабатда бўлади. Шахс ўзини англашни ташкил қилиш таркиблари (маънавий кадриятлар, назорат йўналиши, ўзини баҳолаш, мулоҳазалари, ҳиссий ҳолат баҳоси, ижтимоий қоида) бир-бирини тўлдиради ва уларнинг сифатли моҳияти инсоннинг ижтимоий фаоллик нуқтаи назарини тубдан ўзгартиришни белгилаш баробарида ўзини англашнинг амалдаги функцияларининг шаклланишини таъминлайди.¹

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ. Илмий тадқиқотлар базасида мамлакатимизда умумий ўрта таълим тизимининг асосий бўғини бўлган бошланғич таълимда ўқитиш сифати, баҳолаш тизими, ўзини-ўзи баҳолаш, мустақил билиш фаоллиги ривожлантириш муаммоси Б.С.Абдуллаева, Б.Р.Адизов, М.М.Вахобов, Э.Сейтхалилов, Р.Х.Джураев, С.Т.Турғунов, У.И.Иноятов, Р.А.Мавлонова, Н.Х.Рахмонқулова, Г.Акрамова, М.Донияров, Д.Абдурахмонова, С.Мамаюсупова, З.А.Пулатова, Ф.Юлдашев, Б.Джураева, О.Х.Тухтаев, М.Кочкарова, Г.Боймуродова, Н.Тошева, А.Нурманов, Д.Охунова, Г.Б.Амирова томонидан тадқиқ этилган.

ТАДҚИҚОТ МЕТОДОЛОГИЯСИ. Ўзини-ўзи баҳолаш синфда ўқувчини баҳолашга параллел равишда амалга оширилиши, қолаверса ўқувчиларнинг шахсий ривожланиши учун ҳам муҳим компетенция сифатида қаралади. Бу орқали ўқувчилар ўз фаолиятини назорат қилиш, рефлексив муносабат билдириш, ўзини-ўзи ривожлантиришни режалаштириш ва ўрганишни “узукни ўйлаб” (sustainability) барқорорлаштиришни ўз ичига олади. Синфда ўқувчини баҳолаш, яъни анъанавий баҳолаш жараёнининг ижтимоий-психологик нуқтаи назардан таҳлил қилинишга муҳтожлигидир. Синфда барча ўқувчилар олдида ўқитувчи томонидан ўқувчилар баҳоларининг ошқора маълум қилиниши, ўқувчилар томонидан фақат яхши баҳо учун ўқиши ўз навбатида давлат таълим стандартларида келтирилган компетенциявий ёндашувли ўқитиш концепциясига тўлақонли мос келмайди. Қониқарсиз баҳо олувчи ўқувчиларни фанларга бўлган қизиқишининг сусайиши, ўқувчининг руҳиятига салбий кўрсатиши педагогик амалиётда учраб туради. Ўқув жараёнида баҳолаш биринчи даражали фаолиятга айланиши ўқув мақсадларининг амалга ошишига тўсқинлик қилади. Ўсмирлик давридаги бу каби тез-тез баҳолашнинг бир қанча салбий жиҳатлари бор. Ўқувчининг авваламбор ўзига ва ўзининг муваффақиятига ишончи сусаяди. Қониқарсиз баҳо олган ўқувчига нисбатан яхши ва аъло баҳоларга ўқийдиган ўқувчилар ўртасида айнан баҳо юзасидан муаммоли вазиятлар вужудга келади.

Ўзини-ўзи баҳолаш ўзини реалистик таҳлил қила олиш кўникмасидир. Ўзини-ўзи баҳолаш ўқувчиларнинг ўз ўқув фаолияти, ундаги иштироки, ўқиб-ўрганишининг самарадорлиги, ўрганишнинг талаб даражасида ривожланиши, “вақт – ўрганиш материаллари – мазмун” кесимидаги муносабати, ўз фаолиятини баҳолаш, таҳлил қилиш, ўзининг кучли ва кучсиз томонларини баҳолаш ва кейинги ўрганиш жараёнларида самарали стратегия танлаш учун муҳимдир. Ўзини-ўзи баҳолаш ўқувчиларнинг таълим натижаларини мўлжал қилса-да, таълимнинг мақсади ва мезонлари асосида амалга оширилади. Ўзини-ўзи баҳолаш субъектив тарзда амалга оширилиши туфайли, асли натижани юқори ёки паст баҳолаш хавфини туғдиради. Ўзини-ўзи баҳолаш шахсий ривожланиш, мотивация ва мактаб натижаларини ижобийлашувини қўллаб-қувватлайди.

Ўқувчилар ўзини-ўзи баҳолаш орқали ўзларида ўзини-ўзи ҳурмат қилиш ва ўз қобилиятларига ишонч туйғуси ривожланади. Ўқишда ижобий натижаларга эришиш ва шахсий ривожланиш давомий бўлишлиги учун тўсиқларни, маълум талабларни етарли даражада бажариш зарур эканлигини англаш муҳим, бу эса ўзини-ўзи баҳолашнинг муҳим функцияларидан биридир. Ўзини-ўзи баҳолашнинг педагогик аҳамиятини англаган ҳолда, бошланғич синф ўқитувчиларининг ўқув жараёнида ўзини-ўзи баҳолаш технологияларидан унумли ва мақсадли фойдаланиши давлат таълим стандартларида келтирилган, эгалланиши лозим бўлган фанга доир ва таянч компетенцияларни эгалланишига эришилади. Ўзини-ўзи баҳолаш давлат таълим стандартларида келтирилган компетенциялар

¹ Амирова Г.Б. Ўқувчи-ёшларда ҳаётий стратегик ўзини-ўзи англашнинг психологик асослари // Замонавий таълим / Современное образование, 2016. 2-42 б.

(“зарурий ҳолат”) ва ўқувчиларнинг “мавжуд ҳолати”ни аниқлашда, ўзини-ўзи баҳолаш функционал вазифа бажариб, пировардида ўқув жараёнининг самарадорлигини ошишига хизмат қилади. Ўзини-ўзи баҳолаш нафақат педагогик амалиётда, балки бир қатор соҳаларда кенг қўлланилади. Жумладан, психология, бошқарув, ижтимоий соҳаларда қўлланилиб, шахснинг потенциалини, шахсий муносабати, мавжуд ҳолати, шахсий позициясини аниқлашда кенг қўлланилади. Ўзини-ўзи баҳолаш шахсий-мотивационал характерга эга бўлиб, ўқувчиларнинг шахсий қарор қабул қилиш, касб танлаш, ўз келажагини режалаштира олиш, ўз имкониятларини баҳолаш каби кўникмаларини ривожлантиради.

Тадқиқот доирасида ўқувчиларнинг ўзини-ўзи баҳолаш орқали мустақил билиш фаоллигини ривожлантириш механизмининг илмий адабиётлар таҳлили, педагогик-психологик кузатишлар асосида мазмунли компонентлари қуйидагича тавсифланади:

1. Дарс жараёнида ҳар бир ўқувчининг онгли когнитив фаолиятига ва мустақиллигига эришиш. Дарс жараёнидаги янги материал баёни, мустақамлаш топшириқлари, мустақил ишлар ўқувчиларнинг билиш фаоллигига механик тарзда киритилади. Бу жараённинг табиий тарзда амалга ошишига эришиш мустақил билиш фаоллигини ривожлантиради. Бунда ўқитувчининг профессионал касбий қобилияти ўқувчиларнинг табиий ўрганишга бўлган тайёргарлигида намоён бўлади. Синфдаги ўқувчиларда янги мавзу ёки топшириқ “илиқ”, кизиқиш ва мотивация билан қабул қилинса, дарснинг самарадорлиги юқори бўлади. Дарс мазмунини дидактик жиҳатдан режалаштиришда ўқувчиларнинг онгли когнитив фаолиятига ва мустақиллигига эришишни ҳисобга олиш лозим. Агар ўқитувчи томонидан фақат белгиланган мавзунини ўқувчиларга етказиш, стандарт талабларни бажаришга эришиш мақсад қилинса, барча ўқувчиларда фанга ва ундаги мавзуларга нисбатан табиий кизиқиш уйғонмайди, когнитив фаолият онгли равишда амалга оширилмайди ҳамда когнитив мустақилликни таъминлашга эришилмайди. Когнитив мустақилликни таъминлаш деганда фан ва унинг мавзуларидан келиб чиққан ҳолда ўқувчиларга чексиз фикрлаш, янги ғоялар топиш, бошқа фанлар ва ҳаётининг амалий билимларга боғлаш, реал воқеа ва ҳодисаларга боғлашга йўналтириш тушунилади. Дарс мавзусидан келиб чиққан ҳолда ҳар бир мавзу учун когнитив мустақилликни таъминлашга доир топшириқлар ва саволларни шакллантириш – фан ва унинг мавзулари жозибдорлигини оширади, ўқувчиларнинг мустақил билиш фаоллигини ривожлантиради ва уларнинг ҳаётда кузатувчанлиги, илмий мулоқот қилишини қўллаб-қувватлайди.

Математика фани мисолида қуйидаги топшириқни келтириш мумкин. “Дунёда 7,7 миллиард инсон яшайди. Шундан 42 фоизини 25 ёшдан кичик ёшлар ташкил этади. Агар 25 ёшгача бўлган ёшларнинг туғилган йили кесимида тенг миқдорда эканлигини ҳисобга олсак, дунёдаги ўз тенгдошларининг сонини топ”. Бу каби топшириқлар маълумотга бой, реал ҳолатни ўз мазмунинида акс эттиради, бошқа фанлар (география) билан алоқадорлиги, ўрганишга йўналтирувчи жиҳатлари мавжуд.

Ўзини-ўзи баҳолаш варақаларида онгли когнитив фаолият ва мустақилликка эришишга доир саволлар (4-синф ўқувчилари учун) Математика фанидан “Миқдорлар” мавзуси мисолида қуйидагича ифода этилиши мумкин:

- “Мен маҳсулот нархи ҳақида кўплаб маълумотларга эга бўлдим”;
- “Мен миқдор ва унинг бирликларини турли вазиятларда қўллаш оламан”;
- “Мен маҳсулот қиймати ҳақида маълумотга эга бўлдим”;
- “Мен оғирлик, вақт, тезликка доир амалий масалаларни қийинчиликсиз ишлай оламан”.

2. Ўқувчининг ўз фаолиятига ва ўзгалар фаолиятига ҳиссий алоқадорлигини таъминлаш. Ҳиссий алоқадорлик ҳаракатлантирувчи кучга эга. Ўқувчиларга ўз муваффақияти, унга эришиш бўйича ёш ва ривожланишига мос равишда таҳлил қилиш, англаб етиш ва “ташвишланиши” учун мотивлаштириш. Бу орқали ўқувчиларда ўз фаолиятини, хатти-ҳаракатларини бошқариш ва назорат қилиш жараёнини кўзга туширишга эришилади. Шунингдек, синфдаги ҳар бир ўқувчининг фикри, креатив ғояси барча ўқувчиларнинг билишга, ўрганишга бўлган мотивациясини кучайтиришга таъсир кўрсатади. Натижада ўқувчиларда ўз фаолиятини назорат қилиш, рефлексия қилиш кучайтирилади ва ўзгалар фаолиятини устувор жиҳатларини ўрганишга, ўзи учун ўзлаштиришга, “ичкилаштиришга” эришилади.

Ўзини-ўзи баҳолаш варақалари орқали ўз фаолиятига ва ўзгалар фаолиятига ҳиссий алоқадорликни таъминлашга доир муносабатларини қуйидагича талқин қилиниши мумкин:

- “Мен дарсда янги ғоя, фикрлар билан ҳар доим фаол иштирок этаман”;
- “Менинг фикрларим, дарсда фаол иштирок этишим синфдошларим томонидан ижобий эътироф этилади”;
- “Мен бошқаларнинг дарсдаги фаол иштирокини ҳар доим эътироф этаман”;

– “Бошқа синфдошларим каби креатив фикр ва ғоялар излашга ҳар доим ҳаракат қиламан”.

3. Ўқувчи мустақил билиш фаоллигини мотивлаштириш. Бунда дарс жараёнида ҳар бир ўқувчига ўз билими, қобилиятини намойиш қилиш имконияти, дарсда яққа, жуфт ва гуруҳларда ишлаш орқали “ўзаро ижтимоий таъсир” этиш орқали ривожланади ва билиш фаолиятига нисбатан табиий мотивлаштириш содир бўлади. Ўзини-ўзи баҳолаш варақаларида, масалан она тили фани учун “Мен юқори натижаларга эришимиз учун “Мустақил сўз туркумлари” мавзусини ўрганишда қуйидагиларга риоя қиламан” деган мазмунда ўқувчилар ўзлари учун қоидалар ва стратегиялар ишлаб чиқиш учун жой ажратилса, уларда нафақат дарс жараёнида ўқитувчи томонидан қўлланилган ёки тавсия қилинган ўрганиш стратегиялари, балки ўқувчилар томонидан янгидан-янги қоидалар ишлаб чиқилишига эришилади. Бу эса ҳар бир индивидуал ўқувчининг ўз билиш фаолиятини ички мотивлаштиришга олиб келади. Бир синф ўқувчилари ичида турли ўрганиш стратегияларининг ривожланганлигини ижобий натижа сифатида қайд қилиш лозим.

Юқоридаги ўзини-ўзи баҳолаш мисолида, ўқувчиларда қуйидаги қоидалар эътироф этилган бўлиши мумкин:

1. Барча мустақил сўз туркумларига оид қоидаларни ўзим учун алоҳида дафтарга ёзиб оламан.
2. Жадвал ишлаб чиқаман.
3. Турли рангли ручкаларда мисоллар билан ёзиб оламан.
4. Ўрганиш карталарига ихчамлаштириб ёзиб қўяман.
5. “Мустақил сўз туркумлари”га доир савол-жавобларни ишлаб чиқаман.
6. “Мустақил сўз туркумлари”га доир тестлар тузаман.
7. “Мустақил сўз туркумлари”га доир плакат ишлаб чиқаман.
8. Ўртоғим билан “Мустақил сўз туркумлари”га доир барча мавзулар бўйича бир-биримизнинг билимимизни текшириш учун савол-жавоб қиламиз, биргаликда натижаларимизни таҳлил қилиб чиқамиз.

4. Ўқувчиларнинг рефлексия ва ўзини-ўзи баҳолаш ҳамда назорат қилишини таъминлаш. Дарснинг ҳар бир босқичида ўқувчи ўз фаолияти натижаларини жамлаб, баҳолайди. Дарснинг мазмуни бўйича оралиқ рефлексия ўқитувчининг дарснинг кейинги босқичи натижадорлигини оширади. Бунда ўқитувчи ўқувчилардан мазмунга доир савол эмас, балки етказилаётган дарснинг дидактик жиҳатдан тушунарли бўлаётгани, қўлланилаётган ёндашувнинг ўқувчилар ўзлаштиришига мослигини сўрайди. Маълумки, дарсдаги мавзулар маълум қисмларга бўлинади. Бир қисм иккинчи қисмни мазмунан тўлдирди, биринчи қисмнинг мазмуни, моҳиятини тушунмасдан туриб, кейинги қисм мазмунига боғлаб олиш мураккаблик туғдиради. Ўз вақтида ўқувчиларнинг муносабатини билиш дарснинг стратегик йўналганлигини таъминлайди. Ўқитувчи томонидан муайян ўқувчиларнинг муносабатини билдириш имкониятларидан фойдаланиш мумкин. Масалан, синфдаги ҳар икки ўқувчига яшил, кизил, сариқ рангдаги карточкалар берилди. Аввал ҳар иккала ўқувчи ўз фикрларини билдириб, дарс мавзусининг маълум қисми қай даражада тушунарли бўлгани ҳақида фикр алмашади ва берилган 3 хил рангдаги карточкаларни кўтаради. Бунда яшил карточка – тўлиқ тушунарли, сариқ карточка – айрим жиҳатлари тушунарсиз, қизил карточка – тушунарсиз. Умумий натижага кўра ўқитувчи қизил ва сариқ карточка кўтарган ўқувчилар жуфтликка қайси жиҳатлар тушунарсиз бўлса тушунтириб ўтади. Бу усул ўқувчиларнинг сергакликка, тушуниш ва ўзлаштириш ҳолатини ижобий томонга ўзгаришига хизмат қилади. Синфдаги бошқа ўқувчилар учун ўқитувчининг қайта такрорлаши билимларнинг мустаҳкамланишига ёрдам беради. Бу дидактик жиҳатдан дарсдан кутилаётган натижага эришиш учун самарали усул ҳисобланади.

5. Дарсда мустақил иш ёки ижодий топшириқнинг бўлиши. Ўқувчиларнинг ўзини-ўзи баҳолай олишида дарсда мустақил иш ёки ижодий топшириқлар қўлланилиши лозим. Бу дарс мавзусининг мазмунига нисбатан ўқувчиларнинг муносабатини шакллантиришда қўл келади. Ўқувчилар ишни бажариб, табиий ҳолда дарҳол унинг натижаларини муҳокама қилишда қандай хатолар қилгани ва уларнинг сабаби ҳақида ўйлайдилар. Шунингдек, натижаларга ҳиссий муносабат ҳеч қимни лоқайд қолдирмайди.

Мустақил иш муайян мавзуни ўрганишдаги ўқув жараёнининг муҳим босқичи бўлиб, назорат ишидан олдин туради. Мустақил иш ўқувчилар томонидан фан мавзуси ёки бўлимни ўрганишдаги муваффақиятини аниқлаш мақсадида ўтказилади. Мустақил иш – ижодий характерга эга бўлиб, нафақат маълум билим ва кўникмаларни синаб кўриш, балки ўқувчиларнинг ижодий қобилиятларини ривожлантиришга имкон берди.

6. Дарс мақсадига эришиш. Ўзини-ўзи баҳолаш орқали ўқувчилар ўзининг дарсда иштироки, билимларнинг мустаҳкамланиши, ижобий феъл-атворни қарор топиши, кейинги билимларга

мотивация уйғонганлигини баҳолайди. Мунтазам равишда амалга оширилган ўзини-ўзи баҳолаш ўқувчида мустақил билиш фаоллигини оширади, мустақкамлайди ва интеллектуал ривожланишининг ички ҳаракатлантирувчи кучи бўлиб қолади.

Дарс мақсадига эришганлигига доир ўзини-ўзи баҳолаш мезонларига қуйидагиларни намуна қилиб келтирамиз:

1. Мен дарсда янги билимларни эгалладим.
2. Янги мавзу қизиқарли, тушунарли деб ҳисоблайман.
3. Мен мавзуга оид мустақил ўрганишим учун тасаввурга, билимга эгаман.
4. Мен бугунги дарс бўйича дарсдан ташқарида ҳам ўртоқларим билан суҳбатлашаман.

Ўқитувчиларнинг ўзини-ўзи баҳолаш технологияларидан фойдаланиши ўқув фани, мақсади, мазмунидан келиб чиққан ҳолда танланади.

Тадқиқот доирасида мустақил билиш фаоллигини ривожлантириш мақсадида ўзини-ўзи баҳолашнинг қуйидаги вариатив усуллари ишлаб чиқилди ва тажриба-синов объектларида татбиқ этилди:

I. Ўзини-ўзи баҳолаш варақаси (смайлик тизими). Ушбу усул педагогик амалиётда мураккаб бўлмаган ўзини-ўзи баҳолаш усули ҳисобланади. Турли смайликлар орқали ўқувчилар ўзларининг кучли ва кучсиз тарафларини, маълум фан ёки мавзуга ўз муносабатларини, рефлексив ёндашувларини билдириш имконини беради. Баҳолаш варақаси орқали ўқувчиларнинг қандай кўникма, малакаларни ўзлаштиргани, мазкур кўникма ва малакалар қай даражада ўзлаштирилганини кўриш мумкин бўлади. Ўқитувчилар ва ўқувчиларнинг ота-оналар бу орқали ўқувчини қандай қўллаб-қувватлаши, шунингдек унинг эҳтиёжларини билиш имконига эга бўладилар. Ўзини-ўзи баҳолаш варақаси (смайлик тизими)да қуйидаги смайликлар кенг қўлланилади.



1-расм. Ўзини-ўзи баҳолаш варақаси (смайлик тизими).

Тадқиқот доирасида қўлланилган “Ўзини-ўзи баҳолаш варақаси (смайлик тизими)” самарали деб топилди. Чорак якунларига кўра ўқувчилар маълум фанлардаги иштирокини баҳолашди. Жумладан, ўзининг дарсда иштироки, дарсдаги фаоллиги, синфдаги муҳит, синфдошларига муносабат, синфдаги ижодий муҳитга ўзининг таъсири ва ҳиссаси ҳақидаги баҳолаш мезонларига ўз муносабатларини билдирди.

Ўқитувчилар томонидан мазкур баҳолаш варақаси синфдаги умумий таълим муҳити ҳақидаги атрофлича тасаввурни шаклланишига хизмат қилиши таъкидлаб ўтилди. Шунингдек, баҳолаш варақасидаги мезонлар ўқувчиларнинг ўқув-билув фаоллигига, ижодий, танқидий фикрлашга, ўз устида ишлаш учун йўналиш белгилаб олишга кўмак бериши қайд қилиб ўтилди.

ТАҲЛИЛ ВА НАТИЖАЛАР. Тадқиқот доирасида ўзини-ўзи баҳолаш варақасидан якунида қўлланилди. Ўқитувчилар томонидан натижалар умумлаштирилди. Мазкур ўзини-ўзи баҳолаш варақаси ўқитувчи, ўқувчи ва ота-она иштирокида йил якунларига бағишланган суҳбат учун қўл келиши, ўқувчи ва ўқитувчи баҳоларини таққослаш, шу асосида суҳбат ташкил этиш, суҳбат барча иштирокчилар учун мазмунли, конструктив ва мақсадга йўналтирилган, деб эътироф этилди.

Фикримизча, ўзини-ўзи баҳолаш ва ўқитувчи баҳоси ўртасидаги тавофут бўлиши табиий. Бу эса педагогик жиҳатдан ўқитувчи-ўқувчи суҳбати учун асос вазифасини ўтайди. Бу орқали ўқитувчи ва ўқувчи баҳолаш мезонларининг мазмуни, талқини, даражаси хусусида маълумотлар алмашиш имкониятига эга бўлади.

Тадқиқот доирасида мустақил билиш фаоллигини ривожлантириш мақсадида ишлаб чиқилган ўзини-ўзи баҳолашнинг вариатив усуллари самарадорлигини баҳолаш мақсадида ўқитувчи ва ўқувчилар учун сўровнома ўтказилди.

Ўзини-ўзи баҳолаш усуллари ўқитувчи педагогик фаолияти учун катта аҳамиятга эга. Бу ўз навбатида педагогик ташхис масаласини бажаради. Ўқитувчи ўзини-ўзи баҳолаш натижаларига

асосан дарс мавзуларининг мақсади, мазмуни қўлланилаётган методлар ва кутилаётган натижаларга мувофиқлиги, ўқувчилар томонидан фанга доир ва таянч компетенцияларни ривожланиши давлат таълим стандартлари талаблари асосида шаклланаётганини билиш учун муҳим восита ҳисобланади. Мазкур усуллар ўқувчининг ўқув натижалари юзасидан ота-оналари билан суҳбат учун деталлашган, тизимли маълумотлар манбаси вазифасини ўтайди. Психологик жиҳатдан ўзини-ўзи баҳолаш тўрт ўзаро боғлиқ томонларни: ўзини-ўзи билиши, ўз-ўзига муносабат, ўзини-ўзи хис қилиш, ўз-ўзига таъсирни ифода этади. Мисол тариқасида, топширикни бажарган ўқувчи бевосита топширикка алоқадор бўлган ўзини-ўзи баҳолаш варақаси тўлдириш орқали ўз қобилиятини, имкониятини билади, ўзига нисбатан талабчанлик муносабати ривожланади, ўз имкониятларини, хоҳишларини, интилишларини ҳис қилади ва шу орқали ўз-ўзига таъсир қилиш жараёни бошланади. Ўқувчи янги ўрганиш стратегияларини ўзлаштиради ва ўз хатолари устида ишлайди.

Умумтаълим мактабларида таълим ва тарбиянинг узвийлигини таъминлаш орқали пировард мақсад ўқувчиларда комил инсон хусусиятлари шаклланиши, ўзлигини англаши, жамият учун ижтимоий фаол фуқаро бўлиб етишидир. Бошланғич синф ўқувчиларида ўзини-ўзи билиш, ўзини-ўзи кузатиш, ўз-ўзига муносабат, ўзини-ўзи хис қилиш ҳамда ўз-ўзига таъсир ўтказиш каби ижтимоий-педагогик методларнинг тадбиқ қилиниши уларнинг шахсий ривожланишини таъминлайди.

Ўзини-ўзи билиш ўқувчининг ўзини яхлит шахс сифатида тушуниш билан боғлиқ бўлиб, унинг таркибига ўзини-ўзи кузатиш, ўзини-ўзи таҳлил, ўзини-ўзи танқид, ўзини-ўзи назорат ва баҳолаш киради. Буларнинг барчасига биргаликда кишининг ўзига шахс сифатида объектив, холис тавсиф беришга ёрдам берадиган ўзига хос усуллар сифатида қаралади.¹

Ўзини-ўзи баҳолаш – ўзини-ўзи билишнинг муҳим воситаси сифатида ўқувчиларнинг ўз хатти-ҳаракатларини мустақил йўналтириш ва назорат қилишга, ўзида маънавий сифатларни тарбиялашга, камчиликларни енгиб ўтишга йўналтиради. Ўзини-ўзи баҳолаш ўзини-ўзи кузатиш бўлганда, объектив, холис ўзини-ўзи баҳолаш эса ўз навбатда, ўзини-ўзи таҳлил қилиш, назорат, танқид бўлгандагина мумкин бўлади. Шу сабабли ўзини-ўзи билишнинг ўзини-ўзи баҳолашга бўлган тўғридан-тўғри, бевосита йўли йўқ, бунда айниқса, ўзига нисбатан талабчан муносабат зарур. Ўзини-ўзи билиш ўқувчиларда тарбияланаётган тегишли мақсадлар, идеалларга эришиш йўлини кўрсатади.²

Ўз-ўзига муносабат ҳаминша ўзини-ўзи ҳис қилиш билан боғлиқ, ўзини-ўзи ҳис қилиш эса ўз навбатида ўзини-ўзи ифода қилиш, ўзини тасдиқлаш билан боғлиқ. Ўзидан қониқиш ёки қониқмаслик билан ифодаланадиган шахснинг рухий ҳолати ўзининг хулқи билан ички муҳитни яратади, ички муҳит эса ўз навбатида инсон “Мен”ининг барча кўринишларига ўз таъсирини кўрсатади.³

Ўзини-ўзи хис қилиш ва ўз-ўзига таъсир ўтказиш ўзликни англашнинг ҳиссий-эмоционал томони сифатида намоён бўлади. Ўзликни англашнинг ҳиссий-эмоционал томони қизиқишлар, истаклар, кайфият, уларни бошқара билиш каби компонентлар, таркибий қисмларни ўз ичига олади.⁴

Бошланғич синф ўқувчиларида ўзини-ўзи баҳолаш мустақил билиш фаоллигини ривожлантириш билан биргаликда уларда ижтимоий компетенцияларни ривожлантириш мақсадида ҳам қўллаш тавсия қилинади. Ўқувчиларда ижтимоий компетенцияларни ривожлантириш мақсадида ўзини-ўзи баҳолаш варақалари намуналари иловада келтирилган.

Тадқиқот доирасида “Менинг қизиқишларим”, “Мен вақтимни қандай ўтказаман?”, “Ким бўлсам экан?”, “Менинг бўш вақтим ва саёҳатим”, “Мен синфда” каби ўзини-ўзи баҳолаш варақаларидан фойдаланилди.

Тадқиқотда иштирок этган ўқувчилар мазкур баҳолаш варақаларини умумий ҳисобда қизиқарли, лекин мураккаб деб ҳисоблашди. Сабаб сифатида бундай баҳолаш варақаларидан илк бора фойдаланиши деб тушунишди. Айрим ўқувчилар ўзини-ўзи баҳолаш варақаларини тўлдиришда иккиланиш бўлганлигини таъкидлаб ўтишди. Бунинг сабаби сифатида шахсий муносабатларнинг ҳар доим ҳам ифодалаш имкони бўлмаганлиги билан асослаб ўтишди.

Ўқувчилар ўзини-ўзи баҳолаш варақаси мазмунига муносабатларини билдириб, ўзларининг шахсий муносабатларини ривожлантиришга туртки бўлганлиги, бунинг учун доимий шуғулланиш кераклиги, жавоблар учун стандарт вариантнинг йўқлиги улар учун ҳам қизиқ ҳам “дастлабки

¹ Elder Anastasia D. “Children's self-assessment of their school work in elementary school”. Education 3-13 38.1, 2010. – P. 5-11.

² Ryan T.G., Telfer L. A review of (elementary) school self-assessment processes: Ontario and beyond. International Electronic Journal of Elementary Education, 3(3), 2011. – P. 171-191.

³ Andrade H.L., Du Y., Wang X. Putting rubrics to the test: The effect of a model, criteria generation, and rubricreferenced self-assessment on elementary school students' writing. Educational Measurement: Issues and Practice, 27 (2), 2008. – P. 3-13.

⁴ Brown Gavin TL., Heidi L. Andrade, and Fei Chen. “Accuracy in student self-assessment: directions and cautions for research”. Assessment in Education: Principles, Policy & Practice 22.4 (2015): 444-457.

тажрибадаги ҳаяжон” сифатида баҳоланди.

Ўқитувчилар томонидан ўзини-ўзи баҳолаш варақалари “мақсадга мувофиқ” эканлиги таъкидланиб ўтилди. Қўлланилиш имкониятлари ҳақидаги саволга эса, асосан “Тарбия”, “Табиий фанларни” фанлари ҳамда тарбиявий соатлар учун қўл келиши санаб ўтилди. Ўзини-ўзи баҳолаш варақалари ўқувчиларга уй вазифаси ёки мустақил иш сифатида берилиши ҳам ўқувчиларнинг ижтимоий компетенцияларини ривожлантиришга, шахсий “Мен”ининг кўплаб қирралари намоён бўлишига хизмат қилиши таъкидлаб ўтилди.

Хулосалар. Олиб борилган илмий-педагогик тадқиқот натижалари таҳлили ва яқунларига асосланган ҳолда қуйидаги хулосаларга келинди:

1. Баҳолаш тизими – давлат таълим стандарти бўйича умумий ўрта таълимнинг малака талабларини ўқувчилар томонидан ўзлаштирилиш даражасини ҳамда умумий ўрта таълим муассасасининг фаолияти самарадорлигини аниқлайдиган мезонлар мажмуидан иборат.

2. Ўзини-ўзи баҳолаш – ўқувчиларнинг келгусидаги таълим фаолияти самарадорлигини башоратлаш, мустақил билиш фаоллигини ривожлантирувчи, ўрганишнинг “ички эҳтиёж” сифатида шакллантирувчи, имкониятлар ва тўсиқларни аниқлаш учун диагностика қилиш имконини берувчи баҳолаш усули бўлиб, ўқувчиларнинг ўрганиш стратегиясини юксалтиришга, шахсий фазилатларини ривожлантиришга ва натижада таълим олиш фаолияти натижавийлигини таъминлашга хизмат қилиши асосланди.

3. Мустақил билиш фаоллиги ўқувчи томонидан нафақат ўқув материални идрок қилишга, балки ўқувчининг билиш фаолиятига муносабатини шакллантиришга қаратилади. Ўқувчининг мустақил билиш фаоллиги фаолиятнинг қайта ишлаш характери билан доимий боғлиқликка эга. Билимни тайёр ҳолда қабул қилиш ўқувчига хамиша қийинчилик туғдиради. Таълимий тажриба-тадқиқот ишлари давомида ўқувчиларнинг мустақил билиш фаоллигини ривожлантириш, ўз шахсий ривожланишини муваффақиятли амалга ошириши учун ўрганиш стратегияларини мустақил қўллаш олиши, ўз таълимий натижаларини баҳолаш олиши устувор аҳамият касб этиши тадқиқ этилди.

4. Илмий адабиётлар таҳлили ва кузатишлар асосида ўқувчиларнинг ўзини-ўзи баҳолаш орқали мустақил билиш фаоллигини ривожлантириш механизмининг мазмунли компонентлари қуйидагича тавсифланди: дарс жараёнида ҳар бир ўқувчининг онгли когнитив фаолиятига ва мустақиллигига эришиш; ўқувчининг ўз ва ўзгалар фаолиятига ҳиссий алоқадорлигини таъминлаш; ўқувчининг мустақил билиш фаоллигини ошириш; ўқувчиларнинг рефлексия ва ўзини-ўзи баҳолаш ҳамда назорат қилишини таъминлаш; дарсда мустақил иш ёки ижодий топшириқларнинг бўлиши; дарс мақсадига эришиш.

5. Изланишлар давомида ўзини-ўзи баҳолашнинг кенг тарқалган турларидан бири – ўзлаштиришни ташхислаш варақалари эканлиги асосланди. Ўзлаштиришни ташхислаш варақалари таълимда “қайта алоқа маданияти”ни ошириб, демократик тамойилларга таянади. Бу варақалар ўқувчиларга мунтазам равишда ўқув жараёнининг мақсади, кутилаётган натижалар ва шу орқали эришиши лозим бўлган таянч компетенциялар тўғрисида маълумотлар беради. Бу эса ўқувчиларнинг мотивациясини оширишга ёрдам беради.

6. Тадқиқот доирасида мустақил билиш фаоллигини ривожлантириш мақсадида ўзини-ўзи баҳолашнинг қуйидаги вариатив усуллари ишлаб чиқилди ва тажриба-синов объектларида тадбиқ этилди: ўзини-ўзи баҳолаш варақаси (смайлик тизими); ўрганиш харитаси – саргузаштларни “забт этиш” орқали ўзини-ўзи баҳолаш; блиц чироқ усули: тезкор тест орқали ўзини-ўзи баҳолаш; баҳолаш мулоқоти; ўзаро баҳолаш; тақдимотни баҳолаш; ўқув кундалиги; ўзини-ўзи баҳолашнинг классик усули.

Адабиётлар :

1. Мавлонова Р., Тўраева О., Холикбердиев К. Педагогика. – Т.: Ўқитувчи, 2001. – 175 б. (510)
2. Салимова С.Ф. Таълим натижаларини баҳолашга компетентли ёндашув моҳияти. – Т.: ТДПУ Илмий ахборотлари, 2020/11. – 191-, 196-б.
3. Сиддиков Б.С., Джалалов Б.Б. Педагогик тренинглари ёрдамида ёшларнинг фаоллигини ошириш масалалари. Ученый XXI века, 2016 No 6-2 (18). – 42 ст.
4. Алимов Б. Компетенциявий ёндашув ўқувчиларнинг математик саводхонлиги ва маданиятини ошириш воситаси сифатида // Academic research in educational sciences volume 1, Issue 4, Scientific Journal, 2020. – 364-372.
5. Компетентность. Профессионализм. Мастерство / А.С.Белкин. – Челябинск: Южно-Уральское кн. изд-во, 2004. – 171 с.

6. Ryan T.G., Telfer L. A review of (elementary) school self-assessment processes: Ontario and beyond. *International Electronic Journal of Elementary Education*, 3(3), 2011. – P. 171-191.

7. Andrade H.L., Du Y., Wang X. Putting rubrics to the test: The effect of a model, criteria generation, and rubric-referenced self-assessment on elementary school students' writing. *Educational Measurement: Issues and Practice*, 27 (2), 2008. – P. 3-13.

8. Brown Gavin TL., Heidi L. Andrade, and Fei Chen. “Accuracy in student self-assessment: directions and cautions for research”. *Assessment in Education: Principles, Policy & Practice* 22.4 (2015): 444-457.



TO'XTAEV Hasan Toshpo'latovich

Termiz davlat universiteti Pedagogika va ijtimoiy ish kafedrasida o'qituvchisi, stajyor-tadqiqotchi
hasan19860430@mail.ru

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA MILLIY QADRIYATLAR TIZIMIGA NISBATAN HURMAT HISSINI SHAKLLANTIRISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI

Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida milliy qadriyatlarga nisbatan hurmat hissini shakllantirish jarayoni mazmuni, bu jarayonning o'ziga xos jihatlari yoritilgan. “Qadriyatli aniqlovchi”, “ijtimoiy-madaniy qadriyat”, “afzal qadriyat” kabi psixologik-pedagogik tushunchalar mazmuni tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: qadriyat, ta'lim, “milliy meros”, “an'ana”, “norma” “madaniyat”, “ijtimoiy-madaniy qadriyat”, dunyoqarash, boshlang'ich ta'lim, qadriyatlarni shakllantirish.

ОСОБЕННОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ ЧУВСТВА УВАЖЕНИЯ К СИСТЕМЕ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ У ШКОЛЬНИКОВ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

В статье освещается содержание процесса формирования у младших школьников чувства уважения к национальным ценностям, специфика этого процесса. Проанализировано содержание таких психолого-педагогических понятий, как “ценностный детерминант”, “социокультурная ценность”, “предпочтительная ценность”

Ключевые слова: ценности, образование, “национальное наследие”, “традиция”, “норма” “культура”, “социокультурная ценность”, мировоззрение, начальное образование, формирование ценностей

SPECIFIC ASPECTS OF FORMING A SENSE OF RESPECT FOR THE SYSTEM OF NATIONAL VALUES IN PRIMARY CLASS STUDENTS

The article highlights the content of the process of formation of a sense of respect for national values among younger schoolchildren, the specifics of this process. The content of such psychological and pedagogical concepts as “value determinant”, “socio-cultural value”, “preferred value” is analyzed.

Key words: values, education “national heritage”, “tradition”, “norm”, “culture”, “socio-cultural value”, worldview, primary education, formation of values

Kirish. Shu davrgacha mamlakatimizda turli xil yosh guruhlarida milliy madaniyatimiz, an'analarimiz va milliy merosimizga hurmat hissini tarbiyalashni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan bir qator ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Bu tadqiqotlarda qadriyatlar, milliy meros, an'analarimizni asrash, yoshlarda ularga nisbatan hurmat, ishonch, e'zozlash hissi va xulqini shakllantirish masalalari falsafiy, psixologik, pedagogik, sotsiologik jihatdan tadqiq qilingan bo'lsa ham bevosita “qadriyat” tushunchasi mazmuni to'laqonli yoritilmagan, izohlanmagan deya hisoblaymiz. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida milliy qadriyatlarga nisbatan hurmat hissini shakllantirish yo'llarini tanlab olish uchun, avvalo, qadriyatlar va milliy qadriyatlar tushunchasiga nisbatan eng zamonaviy yondashuvlar, nazariyalarni o'rganish, ularni keng ilmiy jamoatchilik muhokamasiga taqdim etish maqsadga muvofiq.

Asosiy qism. Yurtimiz olimlari tomonidan “qadriyat”, “milliy meros” tushunchalari, ularga nisbatan hurmat hissini shakllantirish muammosi keng miqyosda tadqiq etilgan muammolardan biri bo'lib, turli mualliflar tomonidan turlicha talqin etiladi. Jumladan, falsafa fanlari doktori, professor E.Yusupov “qadriyat” tushunchasini quyidagicha ta'riflaydi: “Qadriyat - bu inson yoki jamiyatning u yoki bu ehtiyojini qondiradigan va ular manfaatiga xizmat qiladigan moddiy va ma'naviy ehtiyoj hamda manfaatdir. Umuman, qadriyatlar jamiyat hayotining tarixiy taraqqiyoti jarayonida shakllangan va rivojlangan o'tmishda, hozirgi

kunda va kelajakda ham ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy taraqqiyotga ta'sir etadigan, kishilar ongiga singib, ijtimoiy ahamiyat kasb etadigan moddiy va ma'naviy boylikdir [2]”.

Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, qadriyat ijtimoiy-tarixiy hodisa va jarayon bo'lsa ham, uning ahamiyati va mohiyati jamiyat a'zolarining unga bo'lgan munosabati asosida belgilanadi. Shunga ko'ra, oddiy ma'noda qadriyat degan tushunchaning o'zi ham qadr-qimmat degan ma'noni bildiradi. Uning mohiyatini belgilashda kishilarning umumiy madaniy saviyasi, ma'naviy kamolotining darajasi, ijtimoiy ongi, shuningdek, milliy ongi va milliy o'z-o'zini anglashining yetukligi muhim ahamiyatga molikdir. Ma'naviy yetuk millat qadriyatlarni to'g'ri baholashga va uni yanada rivojlantirish imkoniga ega bo'ladi. Demak, jamiyat ma'naviyatining o'sishi qadriyatlardan keng foydalanish uchun shart-sharoitlarni yaratib beribgina qolmasdan, balki qadriyatlarni yanada rivojlantirish uchun imkoniyatlar yaratadi, uning ijtimoiy va tarbiyaviy qiymatini oshiruvchi omilga aylanadi.

Masalani yana bir muhim tomoni borki, u ham bo'lsa qadriyat va meros tushunchalarining o'zaro munosabatidir. Ma'lumki, qadriyat va meros tushunchalari bir-biriga yaqin bo'lsa ham, ammo ular aynan bir ma'noni bildirmaydi. Qadriyat va meros tushunchalari bir-biriga uzviy bog'liq bo'lishiga qaramay, har qanday meros qadriyat bo'la olmaydi. «Meros» tushunchasining mohiyati qadriyatga nisbatan kengroqdir. Meros hozirgi kun va kelajak taraqqiyotga ijobiy ta'sir etgandagina qadriyat bo'la oladi. Shu bilan birga, hozirgi kun talablari, yangi sharoit va imkoniyatlar asosida shakllanayotgan ijtimoiy va ma'naviy hodisalar ham qadriyat hisoblanadi. Masalan, O'zbekistan mustaqilligi meros emas, balki hozirgi kunda voqelikka aylangan zaruriy qadriyatdir.

Pedagog olimi M.Inomova qadriyat haqidagi ta'rifdan kelib chiqqan holda «ma'naviy qadriyatlar» tushunchasini quyidagicha tavsiflaydi: “Ma'naviy qadriyatlar - bu falsafiy va sotsiologik tushunchalar bo'lib, jamiyat ma'naviy hayotidagi hodisalarning sifatli xossalarini belgilab, muayyan tartibga tushirilgan bilimlar shaklida o'zini namoyon qiladi va ijtimoiy ishlab chiqarish asosida insonni o'rab olgan atrof-muhitni amaliy jihatdan o'zlashtirish natijasi o'laroq vujudga keladi” [9].

Ta'lim-tarbiya jarayoni ham ma'naviy qadriyat bo'lib, inson shaxsining ma'naviy kamolotiga xizmat qiladigan ijtimoiy-tarixiy hodisani ifodalaydi. Shunga ko'ra, qadriyatlardan ta'lim-tarbiyaviy ishlarda, xususan oilaviy tarbiyada foydalanishning o'ziga xos xususiyati mavjud.

Qadriyatlar, ularning mohiyati va jamiyat taraqqiyoti uchun ahamiyati, shuningdek, o'quvchi ma'naviyatini shakllantirishdagi o'rni tarbiyashunos olimi O.Musurmonovning tadqiqotlarida ham o'z aksini topgan. «Pedagogik nuqtayi nazardan qadriyatlar,- deb yozadi muallif, - shaxs ongi va faoliyatini rivojlantirishga, uni bir butun shaxs sifatida shakllanishiga ta'sir etuvchi madaniy-ma'rifiy vositadir» [1]. Har qanday tarbiya kishilar faoliyatining ongli, bir maqsadga qaratilgan jarayoni hisoblanadi. Bu jarayon natijasida shaxs qadriyatlarni o'zlashtiribgina qolmasdan, uni yanada rivojlantirish uchun ma'naviy ehtiyojni keltirib chiqaradi. Ma'naviy ehtiyojlar esa shaxsiy va ijtimoiy manfaatlarni qondirishga xizmat qiladi.

“Qadriyat”, “milliy qadriyat” tushunchalarini tadqiq qilgan, bu borada maxsus konseptual yondashuv yaratgan tadqiqotchi Sh.Shvarts hisoblanib, bu olimning

Qadriyat tushunchasi quyidagi olti asosiy belgi bilan farqlanib turadi [3,4]:

1. Qadriyat — bu hissiyotlar, tuyg'ular bilan chambarchas aloqador bo'lgan fikrlar hamda ishonch. Misol uchun, qadriyat faollashgan vaqtida u tuyg'ular bilan aralashib ketadi. Masalan, mustaqillik, erkinlik muhim qadriyati bo'lgan insonlar agar ularning mustaqilligi yoki erkinligi xavf ostida qolsa, bezovtalanishadi, uni himoya qila olishmasa, chuqur tushkunlikka tushishadi va undan foydalana olishsa, baxtli bo'lishadi.

2. Qadriyat inson tomonidan istalayotgan, ko'zlanayotgan, uning harakatlariga sabab bo'lib xizmat qilayotgan maqsadni anglatadi. Ijtimoiy tartib, adolat, mehr-shafqat muhim qadriyati bo'lgan insonlar ushbu maqsadlarga erishishga intilishadi.

3. Qadriyatlar transendet, ya'ni muayyan harakat va vaziyatlar bilan chegaralanmaydi. Misol uchun, odob va rostgo'ylik qadriyatlari ham ta'limga, ham ishga, ham sportga, ham siyosatga, oilaga, do'stlarga va begona insonlarga birday taalluqli bo'ladi. Bu xususiyat qadriyatni muayyan aniq harakat, obyekt yoki vaziyatlarga nisbatan taalluqli bo'lgan torroq tushunchalar norma va munosabat (attitude-nimadir yoki kimdir haqida fikr yo tuyg'ular, hislar yoki shulardan rag'bat oladigan xulq, harakat usuli)dan farqlab turadi.

4. Qadriyatlar standart sifatida xizmat qiladi. Ular tanlovni yoki harakatlar, hodisalar, insonlarga nisbatan bahoni (shu jumladan, insonning o'ziga nisbatan ham) boshqarib turadi. Qadriyatlar insonning o'z o'zini baholashida asos hisoblanadi [3].

Insonlar nima yaxshi yoki yomon ekanligi, nima adolatlilik, nima esa unday emasligini, nima qilish ma'no, maqsadga ega, nimadan qochish, uzoqroq yurish kerakligini, o'sha (o'shalar) o'zlarining qadriyatlariga mos, muvofiqligi yoki nomuvofiqligidan kelib hal etishadi.

5. Qadriyatlar ahamiyati jihatidan tartiblanadi, iyerarxiya yaratadi va nisbatan barqaror afzalliklar tizimini hosil qiladi. Bu iyerarxiyaviylik qadriyatlarni norma hamda munosabatlardan farqlab turadi.

6. Turli xil qadriyatlarining nisbiy afzalligi inson harakatlarini boshqarib turadi. Har qanday ichki, xulqni sabablovchi munosabat yoki xulqda ikki yoki bir necha qadriyatlar aksi bo‘ladi. Misol uchun, insonning diniy muassasalarga tashrifi an‘analarga, konformizmga va xavfsizlikka mos kelsa, ko‘p hollarda, gedonizm va stimulyatsiya kabi qadriyatlariga putur yetkazadi [4].

Raqobatlashayotgan qadriyatlar orasidagi murosa munosabatlar va harakatlarni boshqarib turadi [4].

Qadriyatlarni tadqiq qilish ikki aspektida: individual (qadriyatlarining individual farqlari) va madaniyat darajasi sohasida (ijtimoiy madaniy qadriyatlardagi farqlar) sohasida amalga oshirilishi mumkin.

Xulosa. Alohida shaxs sohasida (qadriyatlarining individual farqlari) qadriyatlar tahlili. Ushbu holatda analiz birligi sifatida alohida shaxs tanlanadi. Alohida individlar uchun qadriyatlar ularning hayotida rahbariy tamoyil (boshqaruvchi qoida) bo‘lib xizmat qiluvchi motivatsion maqsad sifatida xizmat qiladi [8]. Turli xil qadriyatlar orasidagi munosabatlar nizolarning psixologik dinamikasi va qadriyatlarining kundalik hayotidagi amalida (rioya etilishida) aks etadi. Misol uchun, insonlar bir vaqtning o‘zida o‘zi uchun obro‘ (hurmat, avtoritet) olishga hamda shu paytning o‘zida kamtar bo‘lishda intilmasligi mumkin, ammo ular bir vaqtning o‘zida obro‘ga va moddiy farovonlikka intilishi mumkin. Qadriyatli aniqlovchilarni aks ettiruvchi (ifodalovchi) qadriyatlar baholari orasidagi korrelyatsiya, ularga muvofiq keluvchi o‘lchov o‘qlari (dimensions)da aks etadi.

Adabiyotlar:

1. O. Musurmonova. O‘quvchilarning ma‘naviy madaniyatini shakllantirish. T. «Fan», 1993, 54-bet.
2. E.Yusupov. Qadriyatlar va ularning jamiyat hayotidagi o‘rni. T. «Universitet», 1996,6-bet.
3. Schwartz S.H. Culture matters: National value cultures, sources and consequences // Chiu C._Y. et al. (eds). Understanding culture: Theory, research and application. N.Y.: Psychology Press.
4. Schwartz S.H. Value orientations: Measurement, antecedents and consequences across nations// Jowell R. et al. (eds). Measuring attitudes cross_nationally: Lessons from the European Social Survey. L.: Sage, 2007. P. 161—193.
5. Schwartz S.H., Bardi A. Influences of adaptation to communist rule on value priorities in Eastern Europe // Political Psychol. 1997. V. 18. P. 385—410.
6. Schwartz S.H. Cultural and individual value correlates of capitalism: A comparative analysis // Psychological Inquiry. 2007. V. 18. P. 52—57.
7. Schwartz S.H., Ros M. Values in the West: A theoretical and empirical challenge to the Individualism_Collectivism cultural dimension // World Psychol. 1995. V. 1. P. 99—122.
8. Schwartz S.H. Value orientations: Measurement, antecedents and consequences across nations// Jowell R. et al. (eds). Measuring attitudes cross_nationally: Lessons from the European Social Survey. L.: Sage, 2007. P. 161—193.
9. M.Inomova. Oilada bolalarni ma‘naviy-axloqiy tarbiyalash.(o‘quv qo‘llanma)T.: “Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti” 1999.

NOSIROVA Dilnoza Sobirovna

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
o'qituvchisi

MAKTABGACHA TA'LIMDA HARAKATLI O'YINLARNI TASHKIL ETISH VA ULARNI O'TKAZISHNING BA'ZI JIHATLARI

Maqolada maktabgacha ta'limda harakatli o'yinlarni tashkil etish va ularni o'tkazishning ba'zi jihatlari batafsil yoritilgan. Harakatli o'yinlarning bog'chalarda kichik, o'rta va katta guruhlarda tashkil etilishida farqlar mavjudligi ta'kidlangan. Harakatli o'yinlarning mazmuni va qoidalarini tushuntirish tarbiyachidan puxta tayyorgarlikni talab etadi. Mazkur o'yinlar orqali bolalarning tasavvurlari aniqlashadi, o'yin obrazlarga nisbatan munosabat tarkib topadi, asosan dunyoqarashi kengayadi.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, jismoniy tarbiya, harakatli o'yin, faoliyat, his-tuyg'u, jismoniy mashq, sog'lomlashtirish, milliy qadryat, jismoniy tarbiya.

ОРГАНИЗАЦИЯ ПОДВИЖНЫХ ИГР В ДОШКОЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ И НЕКОТОРЫЕ АСПЕКТЫ ИХ ПРОВЕДЕНИЯ

В статье подробно описаны некоторые аспекты организации и проведения подвижных игр в дошкольном образовании. Отмечено, что существуют различия в организации подвижных игр в детских садах в младших, средних и больших группах. Объяснение содержания и правил активных игр требует от воспитателя тщательной подготовки. Посредством этих игр определяется детское воображение, формируется отношение к персонажам игры, в основном расширяется мировоззрение.

Ключевые слова: дошкольное воспитание, физическое воспитание, подвижная игра, деятельность, эмоция, физические упражнения, здоровье, национальная ценность, физическое воспитание.

ORGANIZATION OF MOBILE GAMES IN PRESCHOOL EDUCATION AND SOME ASPECTS OF THEIR CARRYING OUT

The article describes in detail some aspects of the organization and conduct of outdoor games in preschool education. It is noted that there are differences in the organization of outdoor games in kindergartens in junior, medium and large groups. Explanation of the content and rules of active games requires careful preparation from the educator. Through these games, children's imagination is determined, attitudes towards the characters of the game are formed, and the worldview is mainly expanded.

Key words: preschool education, physical education, outdoor game, activity, emotion, exercise, health, national value, physical education.

Kirish. Tarbiyachining o'yin jarayoniga rahbarlik qilishi metodikasini egallagan bo'lishi o'yinlarni muvaffaqiyatli o'tkazishning asosiy sharti hisoblanadi. Harakatli o'yinlarni tanlash va rejalashtirish dasturga muvofiq amalga oshiriladi. Bunga har bir yosh guruhning ish sharoiti hisobga olinadi, chunonchi, bolalarni jismoniy va aqliy rivojlanishining umumiy darajasi harakat ko'nikmalarining rivojlanishi, har bir bola sog'lig'ining ahvoli, o'ziga xos xususiyatlar, yil fasli, kun tartibi, o'yinni o'tkazish o'rni, shuningdek, bolalar qiziqishlarining o'ziga xos xususiyatlari. Harakatli o'yinlar dastur talablariga muvofiq asta-sekin murakkablashtirib boriladi, bolalar ongini o'sishi, ular to'plagan harakat tajribasini, maktabga tayyorlash zaruriyatini hisobga olgan holda o'zgartirib turiladi.

Asosiy qism. Kichik guruhda mazmuni va qoidasiga ko'ra sodda bo'lgan mazmunli va mazmunsiz harakatli o'yinlar tashkil etiladi. Bu o'yinlarda barcha bolalar bir xil rol yoki harakat topshirig'ini tarbiyachining bevosita ishtirokida (barcha bolalar – qushchalar, tarbiyachi – ona qush bo'ladi...) bajaradilar.

3 yoshli bolalar asta-sekin yakka holda rollarni bajarishga o'rgatib boriladi (barcha bolalar qushlar, bitta yoki ikkita bola avtomobil bo'ladi).

O'rta guruhda eng oddiy musobaqa usulidagi o'yinlarni yakka tarzda ham, jamoa tarzda ham o'tkazish mumkin.

Katta guruhda bolalar uchun harakatli o‘yinlar o‘z mazmuni, qoidalari, rollarning miqdori, topshirishni jamoa musobaqasiga joriy etishga ko‘ra murakkablashtiriladi.

Maktabga tayyorlov guruhi bolalari birmuncha murakkab harakatli o‘yinlar, shuningdek, jamoa musobaqalaridan iborat jamoa o‘yinlarni, o‘yin estafetasi, sport o‘yinlarini o‘ynaydilar. Bularning hammasi chaqqonlik, tezkorlik, chidamlilikni rivojlanishi, harakat ko‘nikmalarining takomillashuviga, axloqiy-irodaviy sifatlarni tarbiyalashga yordam beradi.

Bolalarni yangi o‘yin bilan tanishtirish. Uning mazmuni va qoidalarini tushuntirishi tarbiyachidan puxta tayyorgarligini talab etadi. Ayrim o‘yinlarning mazmuni oldindan bo‘ladigan suhbatlar asosida bolalarni bilimlarini oydinlashtirish mumkin. Ularning tasavvurlari aniqlashadi, o‘yin obrazlarga nisbatan munosabat tarkib topadi, asosiy dunyoqarash o‘sadi.

O‘yinlarni tushuntirish ularning turlariga ko‘ra har-xil o‘tishi mumkin, biroq bu tadbir doimo emotsional jihatdan qiziqarli, bolalarni quvnoq o‘yin faoliyatiga tayyorlaydigan, o‘yinni tezroq boshlash istagini tug‘diradigan va o‘yin topshiriqlarini ishtiyoq bilan bajarishga undaydigan bo‘lishi kerak.

Mazmunsiz o‘yinni tushuntirish qisqa, aniq va ifodali ohangda bo‘lishi lozim. Tarbiyachi o‘yin harakat izchilligini tushuntiradi, bolalar va o‘yin atributlarining joylashish o‘rni (kichik va o‘rta guruhda buyumlarni mo‘ljallab, katta guruhlarda esa mo‘ljalga olmay ko‘rsatadi) fazo iborasidan foydalangan holda ko‘rsatadi va qoidalarni aniqlashtiradi. Shundan so‘ng tarbiyachi bolalarga bir nechta savollar beradi.

O‘yinning qoidasi bolalarga tushunarli bo‘lsagina o‘yin quvnoqlik va uyushqoqlik bilan bilan o‘tadi.

Musobaqa elementlari mavjud o‘yinlarni o‘tkazishda tarbiyachi o‘yinni tushuntirayotib qoidalarni, o‘yin usullarini, musobaqa shartlarini aniqlashtiradi, bolalarni topshiriqlarni yaxshi bajarishga harakat qilishlar va yaxshi uddalashga ishonch bildirgan holda rag‘batlantiradi. Tarbiyachi bolalarning jismoniy komoloti va yakka o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda musobaqalashayotgan kuchlari teng guruhlar – komandalarni birlashtiradi; o‘ziga ishonchsiz, tortinchoq bolalarni faollashtirish maqsadida ularni jasur, faol bolalar bilan qo‘shib qo‘yadi.

Ba‘zan o‘yinga sport ko‘rinishini berish uchun komanda sardorlari, hakam va uning yordamchilarini saylash mumkin.

Mazmunli o‘yinlarni tushuntirish. Tarbiyachining vazifasi bolalar ko‘z o‘ngida o‘yin vaziyatining ko‘rgazmali manzarasini gavdalanitirishdan, o‘yin obrazlarini yorqin tasvirlashdan, bolalar tasavvuri va hislariga ta‘sir etishdan, ularning ijodiy tashabbusni faollashtirishdan iboratdir. Buning uchun kichik guruhlarda o‘yinchoq va hikoyadan foydalanishi mumkin.

O‘rta guruhlarda – tanish o‘yinni taklif etib, qoidalarini eslatib o‘tish bilan cheklanishi kifoya.

Katta guruhlarda o‘yin mazmuni eslashni bolalarning o‘zlariga taklif etish maqsadga muvofiqdir. Ulardan biri o‘yin harakatlarining borishini bayon qiladi, ikkinchisi qoidalarni sanab beradi. Keyinchalik bolalar o‘zlari tarbiyachining yordamisiz o‘yinni tashkil eta boshlaydilar.

O‘yinda rollarni taqsimlash. Tarbiyachi pedagogik vazifalarga amal qilib (yangi kelgan bolani rag‘batlantirish yoki aksincha, faol bola misolida botir bo‘lish qanchalik muhim ekanligini isbotlash yoki o‘ziga ishongan bola iltimosini rad etib, bu rolni qo‘rqib turgan tortinchoq bolaga topshirish) boshlovchi tayin etishi yoki bolalarni hursand qilgan holda o‘yinga o‘zi kirishib o‘z zimmasiga boshlovchi yoki oddiy ishtirokchi rolini oladi.

Shuningdek, boshlovchi saylashni bolalarni o‘ziga havola etishi va ulardan bu rolni mazkur bolaga nima uchun topshirganlarini tushuntirib berishlarini so‘rashi mumkin.

Kichik guruhda boshlovchi rolini tarbiyachining o‘zi bajaradi. O‘yin jarayonida tarbiyachi bolalar harakati va o‘zaro munosabatlari, qoidalarini bajarilishini kuzatib boradi, qisqacha ko‘rsatmalar beradi, bolalarning hissiy holatlarini boshqarib boradi. Qoidaning ayrim bolalar tomonidan buzilishi haqida o‘yinni qayta o‘tkazishdan oldin gapiradi.

O‘yinni yakunlash. Harakatli o‘yin jismoniy yuklamani kamaytiradigan holga keltiradigan umumiy yurish bilan tugallanadi. Yurishni ahamiyatiga ko‘ra bir xil bo‘lgan kam harakatli o‘yin bilan almashtirish ham mumkin.

O‘yin tugagan zahoti uning yakunini chiqarish kerak emas, bolaning tez harakatdan dam olishga asta-sekin o‘tmasligi yurak faoliyatini va butun organizmiga noxush ta‘sir etadi. Tarbiyachi o‘yinni baholashida uning ijobiy tomonlarini ta‘kidlaydi, o‘z rollarini muvaffaqiyatli bajargan, jasurlik, chidamlilik, o‘zaro o‘rtoqlik yordamini ko‘rsatgan bolalar nomini aytadi va qoidalarning buzilishi hamda bolalarning shu bilan bog‘liq harakatini kuyinib ko‘rsatib o‘tadi.

Katta guruhlarda tarbiyachi bolalarni harakatli o‘yinlarni mustaqil tashkil etishga tayyorlaydi, bunda o‘yinlarning borishini va ayniqsa, qoidalarni bajarilishini hamda bolalar o‘rtasidagi munosabatlarni kuzatib boradi. U bolalarga harakatli o‘yin variantlarini uning mazmuni, qoidasini, o‘yin harakatlarini o‘zgartirgan holda o‘ylab topish, keyinchalik yangi o‘zi o‘ylab o‘yin topish kabi topshiriqlar beradi.

Katta guruh bolalarida mustaqillik, tashkilotchilik malakasini tarbiyalash maqsadida tarbiyachi ularga kichik guruh bolalari bilan o‘yin tashkil etishini taklif etadi. O‘yin kichik guruh tarbiyachisi kuzatuv ostida o‘tkaziladi.

Harakatli o‘yinlar bolalarni har tomonlama tarbiyalashda muhim ahamiyatga egadir. O‘yin faoliyati qaysi shaklda ifodalanmasin bolani quvontiradi, ularda ijobiy hislarni uyg‘otadi. Harakatli o‘yinlar bola dunyoqarashini kengaytiradi, atrof-muhitni bilishida o‘ziga xos vosita hisoblanadi.

Harakatli o‘yinlardagi qoidalar o‘yinning borishini belgilaydi, bolalar harakat faoliyatini, o‘zaro munosabatlarini yo‘lga soladi, axloqiy irodaviy sifatlarni tarbiyalashga yordam beradi.

Har bir bolaning o‘yin qoidasini anglashi va unga rioya qilishda kattalarning rahbarligi katta ahamiyatga egadir. O‘yinlar orqali bolalarda halollik, adolatlilik, do‘stlik, botirlik, o‘zini tuta bilish, qat’iyatlik kabi axloqiy sifatlarni tarbiyalanadi.

O‘yin faoliyatida diqqatni, idrokni rivojlantirish, tafakkur, tushuncha va mo‘ljall olishni aniqlashtirish uchun qulay sharoit yaratiladi, o‘yinlar ijodiy xayol, xotira, topqirlik, fikr yuritish faolligini rivojlantirishga yordam beradi. Shunday qilib harakatli o‘yinlar bolaning aqliy rivojlanishiga yordam beradi.

Bola o‘yin faoliyati tufayli fazo va buyum voqeligini amalda o‘zlashtiradi, shu bilan birga fazoni idrok etish mexanizmini o‘zi ham juda takomillashadi.

Masalan, bola tomonidan harakat yo‘nalishini mustaqil tanlash va harakatini o‘yin qoidasida qat’iy belgilangan yo‘nalishda bajarishi bir tomondan o‘yin vaziyatini (bevosita idrok qilinadigan) va ko‘rish-motor reaksiyasini (o‘yin harakatlarini) darhol baholashni, ikkinchi tomondan, o‘z harakatlarini fazo-o‘yin muhitida anglash va tasavvur qilishni talab etadi.

Harakatli o‘yinlar bolalarda oddiy vaqt mo‘ljallini shakllantiradi. Ular quyidagilarda ifodalaniladi: o‘yin harakatlarining izchilligini tushunib olishda avval, so‘ng, bundan keyin, bundan oldin, barini bir vaqtda kabi o‘yin topshiriqlarini signalga ko‘ra, bolalar uchun belgilangan muddat doirasida tez bajarishda ko‘rinadi. Bu o‘yinlarga bolalar fazoda mo‘ljall olishni, harakatlar izchilligi va ularga vaqt davomida amal qilishni mashq qiladi.

O‘yinlar mazmunini, butun o‘yin vaziyatini, uning qoidalarini, personajlar harakatini mustaqil tushuntirish, bolalarning joylashish o‘rnini, o‘yin atributlarini va harakat yo‘nalishlarini fazoviy iboralarni ishlatgan holda ko‘rsatish, o‘tkazilgan o‘yinga baho berish bolalarning aqliy rivojlanishiga xizmat qiladi.

Harakatli o‘yinlar katta yoshidagi bolalarda ijodiylikni rivojlanishi uchun qulaylik yaratadi. Bunda bolalar eshitgan ertaklari mazmuni asosida kichik o‘yinlar o‘ylab topishlari mumkin, harakatli o‘yinlar o‘z mazmuni va shakliga ko‘ra estetik faoliyat hisoblanadi. O‘yin harakatlarining rang-barangligini ularni bolalar aniq chaqqonlik bilan, o‘ziga xos ifodali bajarishlarida ifodalanadi. Harakatli o‘yinlarda musiqani qo‘llash katta estetik ahamiyatga egadir.

Harakatli o‘yinlarni o‘tkazishda harakatlar go‘zalligini va madaniyatini unutmaslik kerak: diqqatni harakatlari birmuncha ifodali bolalarga qaratish, obrazlarni ifodali, muvaffaqiyatli bera olganlarni rag‘batlantirish kerak.

Bu turli emotsional harakatlardan iborat murakkab faoliyatdir. Bu faoliyat belgilangan qoidalar asosida to‘satdan o‘zgaradigan sharoit va vaziyatlarda bajariladi. Harakatli o‘yin shug‘ullanuvchilar faoliyatini tashkil etish va boshqarish xususiyatlari bilan farqlanadi.

O‘yin davomida to‘satdan o‘zgaradigan vaziyatlarda harakat qilish va tezkorlik, chaqqonlik (chalg‘itish, «tuzoq» dan qochish kabi jismoniy fazilatlar namoyon bo‘ladi.

O‘yin paytida bolalar faoliyati obrazli syujet yoki o‘yin vazifalari asosida tashkil etiladi va bu bolaning jismoniy mashqlarni ishtiyoq bilan va uzoq muddat bajarishi uchun ijobiy hislar uyg‘otadi. Bu o‘z navbatida ularning organizmga ta‘sirini kuchaytiradi, chidamlilikni rivojlantirishga yordam beradi.

O‘yinlardan ayniqsa maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar bilan olib boriladigan ishda foydalanish yaxshi natijalarni beradi.

Harakatli o‘yinlar muhim ahamiyatga ega bo‘lgan kompleks ta‘lim-tarbiya jarayonidir. Bu jarayonning asosini tashkil etuvchi bolalarning harakat faoliyati jismoniy rivojlanishga, harakat ko‘nikmalari va jismoniy sifatlarning shakllanishiga, organizmning funksional faoliyatini oshirgan va emotsional quvnoqlik tuyg‘ularini kuchaytirgan holda salomatlikni mustahkamlashga ijobiy ta‘sir etadi. Harakatli o‘yinlar jismoniy tarbiyaning asosiy vositalari va metodlaridan biri sifatida yuqorida sanab o‘tilgan vazifalarni samarali hal etishga yordam beradi.

Harakatli o‘yinlarni o‘tkazishda erishiladigan sog‘lomlashtirish samarasi bolalarning o‘yin faoliyati jarayonida yuzaga keladigan va bola psixikasiga yaxshi ta‘sir etadigan ijobiy emotsiyalar bilan uzviy bog‘liqdir. Emotsional ko‘tarinkilik bolalarda barcha uchun umumiy bo‘lgan maqsadga erishishga intilish uyg‘otada va u vazifalarni aniq tushunishda, harakatlarning o‘zaro mosligida, fazoda va o‘yin sharoitlarida aniq mo‘ljall olishda, topshiriqlarni tezlashtirilgan sur‘atda bajarilishida ifodalanadi. Bolalarning maqsadga

erishishga nisbatan kuchli ishtiyoqi va zavqli intilishi asnosida turli to‘siqlarni yengib o‘tishga yordam beruvchi irodaning roli oshadi.

Harakatli o‘yinlar bolalar tomonidan avval egallangan harakat ko‘nikmalarini takomillashtirish va jismoniy sifatlarni tarbiyalash metodi bo‘lib xizmat qiladi. O‘yin jarayonida bola o‘z e‘tiborini harakatni bajarish usuliga emas, balki maqsadga erishishga qaratadi. U o‘yin shartlariga muvofiq harakat qiladi, bunda chaqqonlik ko‘rsatadi va shu asnoda harakatlarni takomillashtiradi. Shuning uchun, masalan, «Bo‘ri jarlikda» o‘yini bolalar yugurib kelib uzunlikka sakrashni bilib olganlaridan keyin beriladi.

Harakat faoliyati sifatida harakatli o‘yin muayyan maxsus xususiyatlarga ega: u boladan signal va o‘yinda to‘satdan bo‘ladigan o‘zgarishlarga tezda javob berishni talab qiladi. O‘yinda yuz beradigan turli vaziyatlar, harakatlar muskul tarangligi darajasining o‘zgarishi zaruratini keltirib chiqaradi. Masalan «Tuzoq» o‘yinida har bir bola boshlovchi harakatini diqqat bilan kuzatib borishi lozim: boshlovchi unga yaqinlashganda qarama-qarshi tomonga shitob bilan qochib o‘tadi; o‘zini xavfsiz sezgach, sekin harakat qilib, to‘xtab turadi; boshlovchi yaqinlashganda yana harakatini tezlashtiradi.

Deyarli har bir harakatli o‘yinda harakatlar va bolalar harakatiga oid signallar mavjud. Bunday aktiv harakat faoliyati bola qo‘zg‘olish va tormozlanish jarayonlarini takomillashtirgan va muvozanatlashtirgan holda nerv tizimni mashq qildiradi, shuningdek kuzatuvchanlik, topqirlik, o‘zgaruvchan atrof-muhitda mo‘ljal olish qobiliyati, yuz bergan mushkul holatdan qutilish yo‘lini topish, tezda qaror qabul qilish va uni amalga oshirish, botirlik, chaqqonlik tashabbus ko‘rsatish, maqsadga erishishning mustaqil usulini tanlashni tarbiyalaydi.

Harakatli o‘yinlarning kelib chiqishi qadim xalq pedagogikasiga borib taqaladi. Ilk yoshli bolalar oilalarda bolaning dastlabki harakati bilan bog‘liq ovunmashoqlar, ermak o‘yinlar yordamida tarbiyalanganlar. Undan kattaroq yoshdagi bolalar hayotida rang-barang harakat mazmuniga ega bo‘lgan (o‘z ichiga bolalarni rom qiluvchi o‘yin boshlanmalari, xirgoyilari, sanashmashoqlarni oluvchi) xalq o‘yinlari katta o‘rin olgan. Bularning hammasi hozirga qadar badiiy jozibadorligini, tarbiyaviy ahamiyatini saqlab kelmoqda va qimmatli o‘yin folklorini tashkil etadi.

Xulosa. Harakatli o‘yinlarni tanlash va rejalashtirish dasturga muvofiq amalga oshiriladi. Bunga har bir yosh guruhning ish sharoiti hisobga olinadi, chunonchi, bolalarni jismoniy va aqliy rivojlanishining umumiy darajasi harakat ko‘nikmalarining rivojlanishi, har bir bola sog‘lig‘ining ahvoli, o‘ziga xos xususiyatlar, yil fasli, kun tartibi, o‘yinni o‘tkazish o‘rni, shuningdek, bolalar qiziqishlarini o‘ziga xos xususiyatlari. Harakatli o‘yinlar dastur talablariga muvofiq asta-sekin murakkablashtirib boriladi, bolalar ongini o‘sishi, ular to‘plagan harakat tajribasini, maktabga tayyorlash zaruriyatini hisobga olgan holda o‘zgartirib turiladi.

Katta guruhda bolalar uchun harakatli o‘yinlar o‘z mazmuni, qoidalari, rollarning miqdori, topshirishni jamoa musobaqasiga joriy etishga ko‘ra murakkablashtiriladi.

Ushbu tadqiqotdan shunday xulosaga kelindiki, Maktabda tayyorlov guruhi bolalari birmuncha murakkab harakatli o‘yinlar, shuningdek, jamoa musobaqalaridan iborat jamoa o‘yinlarni, o‘yin estafetasi, sport o‘yinlarini o‘ynaydilar. Bularning hammasi chaqqonlik, tezkorlik, chidamlilikni rivojlanishi, harakat ko‘nikmalarining takomillashuviga, axloqiy-irodaviy sifatlarni tarbiyalashga yordam beradi.

Adabiyotlar:

1. Usmonxo‘jaev T.S. “Harakatli o‘yinlar” O‘quv qo‘llanma T.: O‘qituvchi 1992.
2. Maxkamdjanov K.M., Nurmatov F.A, Inozemseva L.A, Rustamov L “Sport bayramlarini tashkil qilish va o‘tkazish metodikasi” Darslik T.: 2008.
3. Xojayev P, Raximqulov K.D, Nigmanov B.B. «Harakatli o‘yinlar va uni o‘qitish metodikasi» Cho‘lpon nashriyoti T.: 2010 y.
4. Azizova R.I “Sport va harakatli o‘yinlarni o‘qitish metodikasi” O‘quv qo‘llanma T.: 2010.
5. Raximqulov K.D “Milliy harakatli o‘yinlari” O‘quv qo‘llanma T.: 2012.
6. Жуков М.Н. - М.: Подвижные игры: Учеб. для студ. пед. вузов. Издательский центр «Академия» 2000. - 160 с.
7. Xo‘jaev F, Murodov M, Mirsolixov.S. «Xalq milliy o‘yinlari 1-qism. Toshken - 2001 y.
8. Rahimqulov K.D., Usmonxo‘jayev T.S. «Jismoniy tarbiyadan bolalar va o‘smirlar uchun 1000 mashq hamda harakatli o‘yinlar. 2001y.



JUMANOVA Nasiba Sherbaevna

Jizzax davlat pedagogika universiteti
katta o'qituvchisi

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA IJODIY QOBILIYATLARNI SHAKLLANTIRISHDA O'YINLAR VA O'QITISH USULLARINING ROLI

Ushbu maqolada o'yin maktabgacha yoshdagi bolalarning yetakchi faoliyati sifatida ekanligi, o'yin faoliyatlari asosida ularning ijodkorligi rivojlanishi, bolalarning kattalar bilan munosabati, o'yin turlari va uning xususiyatlari, bilish jarayonlarini, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda shart-sharoitlarni yaratish masalasi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

***Kalit so'zlar:** o'yin, faollik, maqsad, qobiliyat, ijodkorlik, ijtimoiy, syujet, bilish jarayonlari, jamoa, didaktik o'yinlar, motiv.*

РОЛЬ ИГР И МЕТОДОВ ОБУЧЕНИЯ В ФОРМИРОВАНИИ ТВОРЧЕСКИХ НАВЫКОВ У ДОШКОЛЬНИКОВ

В данной статье рассматривается вопрос об игре как ведущей деятельности дошкольников, развитии их творчества на основе игровой деятельности, взаимоотношениях детей со взрослыми, видах игр и их характеристиках, вопрос о создании условий для развития познавательных процессов и творческих способностей.

***Ключевые слова:** игра, деятельность, цель, умение, творчество, социальный, сюжет, познавательные процессы, коллектив, дидактические игры, мотивация.*

THE ROLE OF GAMES AND TEACHING METHODS IN FORMING CREATIVE SKILLS IN PRESCHOOL CHILDREN

This article discusses the question of the game as the leading activity of preschoolers, the development of their creativity based on game activities, the relationship of children with adults, the types of games and their characteristics, the question of creating conditions for the development of cognitive processes and creative abilities.

***Keywords:** game, activity, goal, skill, creativity, social, plot, cognitive processes, team, didactic games, motivation.*

*Bolalar go'zallik, o'yinlar, ertaklar, musiqa, rasm chizish, fantaziya, ijodkorlik dunyosida yashashlari kerak.
(V.A. Suxomlinskiy)*

Kirish. Mamlakatimizda so'nggi yillar mobaynida maktabgacha ta'lim tizimini isloh qilish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Sog'lom va har tomonlama rivojlangan avlodning shakllanishini ta'minlashga qaratilgan samarali maktabgacha ta'lim tizimini tashkil qilish bo'yicha qabul qilingan tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar bunga yaqqol misol bo'la oladi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 9-sentabrdagi «Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-3261-son qarorida maktabgacha yoshdagi bolalarni uyg'un rivojlantirish hamda sifatli maktabgacha ta'limni tashkil etish bo'yicha vazifalar belgilangan. Shuningdek, globallashuv davrida maktabgacha ta'lim sohasidagi muhim vazifalarni quyidagicha talqin qilish mumkin: – rivojlangan davlatlar darajasidagi ta'limni joriy etish; – ta'lim muassasalari va ta'limiy xizmat iste'molchilari o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish; – iste'molchi va ta'lim muassasasi o'rtasidagi raqobatbardoshlikni yanada kuchaytirish; – bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashning samarali yo'llarini aniqlash; – bola tarbiyasiga ijtimoiy jamoatchilikni jalb etish. Yuqorida keltirilgan vazifalarning mantiqiy davomi sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-sonli qarori bilan tasdiqlangan «O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim

tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi»da maktabgacha ta’lim muassasalari faoliyatini, shuningdek, bolaning rivojlanishi va uning umumiy boshlang’ich ta’limga tayyorligini kompleks baholashning yangi mexanizmlarini ishlab chiqish va joriy etish nazarda tutilgan. Maktabgacha ta’limni modernizatsiyalash yo’lida jadal ravishda amaliy faoliyat olib borilmoqda. Binobarin, maktabgacha yoshdagi bolalar ta’lim-tarbiyasiga oid ilmiy-metodik asoslar ishlab chiqildi, jahon standarti darajasida yangi mazmun va yo’nalishda faoliyat yurituvchi maktabgacha ta’lim tizimi takomillashtirildi.

Asosiy qism. Bolalar aqliy rivojlanishining eng muhim birinchi bosqichi maktabgacha yosh davri bo’lib, unda bola shaxsining barcha aqliy xususiyatlari va fazilatlarini shakllanadi. Aynan shu yoshda kattalar bola bilan eng yaqin munosabatda bo’ladilar va uning rivojlanishida eng faol ishtirok etadilar. Bola atrofidagi dunyoni faol ravishda o’rganayotganligi sababli, biz kattalar bolaning yosh xususiyatlarini hisobga olishimiz kerak.

O’yin inson o’zligining namoyon bo’lishi, uning takomillashuv usulidir. O’yin qadim zamonlardan beri pedagog, psixolog, faylasuf olimlar diqqatini o’ziga tortib kelgan. Jumladan, rus pedagogi A.S. Makarenko “Bola o’yinda qanday bo’lsa, o’sib ulg’aygach, ishda ham ko’pincha, ko’p jihatdan shunday bo’ladi” –deb to’g’ri aytgan edi. Bolalar o’yinlari— bolalarni aqliy, axloqiy, jismoniy va estetik tarbiyalash vositalaridan biri. Bolalar o’yinlari bolalarning har tomonlama kamol topishiga katta ta’sir qiladi. O’yin vaqtida sezgi, idrok, tafakkur, xayol, xotira, diqqat, iroda, hissiyot va ruhiy jarayonlar ishtirok etadi. Bolalar o’yinlarining 3 asosiy xususiyati bor:

1. Bola o’yin faoliyatini erkin, o’z xohishi bilan bajaradi.

2. Mazkur faoliyatning ijodiy va faolligidir.

3. O’yin harakatlarining jo’shqinligi: bola o’yinga qiziqib ketadi, zavqlanadi, unda o’rtoqlik hissi kuchayadi.

Atoqli pedagog va shifokor Ye.A. Arkin “O’yinni ruhiy vitamin! deb, bekorga aytmagan. Bola o’ynayotib, o’z bilimidan foydalanishga, uni har xil sharoitda ishlata bilishga o’rganadi. Ijodiy o’yinlarda bolalarning fantaziyasi, his-tuyg’ulari orqali sezishga, qoidali, rivojlantiruvchi, harakatli o’yin bolaning sensor rivojlanishini, tafakkur va nutqini, ixtiyorsiz diqqatini, har xil harakatlarini muntazam ravishda mashq qildirib borish imkonini beradi.

Syujetli rollarda bo’lib o’ynaladigan o’yinlar maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda o’ta xos o’yinlar bo’lib, ular hayotida muhim o’rin egallaydi. Syujetli rollarda bo’lib o’ynaladigan o’yinlarning xususiyati shundan iboratki, uni bolalarning o’zlari yaratadilar, ularning o’yin faoliyati esa aniq ifodangan mustaqil va ijodiy xarakterda bo’ladi. Bu o’yinlar qisqa vaqtli va uzoq davom etadigan bo’lishi mumkin. Bolalar o’yin faoliyatining mustaqillik xarakteri shundan iboratki, ular u yoki bu hodisalarni, ishlami, munosabatlarni faol va o’ziga xos ravishda qayta takrorlaydilar. O’ziga xoslik bolalarning idrok qilish, ma’lum bir fakt, hodisa, bog’lanishlarni tushunish va fahmlash xususiyatlari, tajribaning bor yoki yo’qligi, tuyg’ularini soddaligi bilan bog’langan.

Bolalarning mustaqilligini, tevarak-atrofdagi hayot faktlari va hodisalarni ijodiy ravishda qayta takrorlash hamda aks ettirish malakasini rivojlantirish va boyitishda xayol katta rol o’ynaydi.

Bolalarning o’yinlarida Vatanga muhabbat va boshqa xalqlarga hurmat aks etadi. Bolalarning o’yinlarida kishilar o’rtasidagi insoniy munosabatlar namoyon bo’ladi. Ular o’z o’yinlarida janjallashmaydi, tortishmaydi degan gap emas, lekin ularning xatti -harakat motivlari haqqoniylikni tiklash, o’rtog’ini, o’yinga xalaqit berayotgan narsani bartaraf etish istagi bilan belgilanadi. Syujetli rollarga bo’lib o’ynaladigan o’yinlarda optimistik, hayotbaxsh xarakter aniq ko’rinib turadi, ulardagi eng qiyin ishlar doimo muvaffaqiyat bilan tugaydi.

Ijodiy syujetli rollarga bo’lib o’ynaladigan o’yinda real hayot hodisalarini bola faol ravishda takrorlaydi, yaratadi, ularni boshdan kechiradi, bu esa uning hayotini boy mazmun bilan to’ldiradi, uzoq yillarga iz qoldiradi. Har bir ana shunday o’yin ma’lum didaktik maqsadga ega bo’lib, bolani umumiy rivojlantirishga qaratilgan bo’ladi. O’yin bu bola faoliyatining yetakchi turi. Bola o’yindagi maqsadiga erishishi uchun o’ziga sheriklar tanlaydi, zarur o’yinchoqlarni topadi, o’yin davomida muayyan harakat va qiliqlar qiladi. Boshqa faoliyat turlarida bo’lgani singari o’yin jarayoniga bolaning butun shaxsiyati, uning psixik bilish jarayonlari, irodasi, hissiyoti va ta’sirchanligi, ehtiyoj va qiziqishlari jalb etiladi, o’yinda bola faol harakat qiladi, gapiradi, o’z bilimlarini qo’llaydi. Ijodiy o’yinlarda bolalarning tevarak-atrofdan olgan taassurotlarini aks ettiradilar. Ijodiy o’yinlarda bolalar erkinligi, mustaqilligi, tashkilotchilik va ijodkorlik qobiliyatlari to’laligicha namoyon bo’ladi. Ijodiy o’yinlarni bolalarning o’zlari ixtiro etadilar. Bunda avvaldan belgilangan qoidalar bo’lmaydi, o’yin qoidasini bolalarning o’zlari o’yin jarayonida belgilab olishadi. Ijodiy o’yinlar turlariga dramalashgan o’yinlar, qurilish o’yinlari, tabiiy materiallar bilan o’ynaladigan o’yinlar kiradi. Ijodiy va syujetli o’yinlarda bolalarning barcha psixik jarayonlari bilan birgalikda individual xislatlari ham shakllanadi. Mana shu nuqtayi nazardan o’yin maktabgacha ta’lim

tashkilotidagi ta’lim – tarbiya ishlari orasida eng asosiy, markaziy o’rinda turadi. Demak, maktabgacha ta’lim tashkilotidagi ta’lim–tarbiya ishlarini muvaffaqiyati ko’p jihatdan bolalarning o’yin faoliyatlarini maqsadga muvofiq tashkil qila bilishga bog’liqdir.

O’yin jarayonidagi bolalar faol faoliyatining psixik taraqqiyot uchun ahamiyati shundaki, bolalarning turli sifat va fazilatlarini o’yin jarayonida faqat namoyon bo’libgina qolmasdan, bunda sifat va fazilatlar mustahkamlanadi, o’zlashtiriladi. Shuning uchun psixologiya nuqtayi nazardan oqilona, ya’ni to’g’ri tashkil qilingan o’yin bola shaxsini har tomonlama o’stiradi va shuning bilan birga bolaning butun psixik jarayonlarida –sezish, idrok, diqqat, xotira, tafakkur, xayol va irodani ildam rivojlanishiga yordam beradi. O’yin o’z mohiyati jihatidan katta kishilarning xatti–harakatlari va xulq-atvorlariga faol taqlid qilishdan iborat bo’lishi tufayli bolalarda ma’naviy sifatlarning mustahkamlanishi uchun va odob–axloq qoidalarini bilib olishlari uchun keng imkoniyatlar beradi. Bolalar uchun o’yin mazmunining hech bir chegarasi yo’q. Maktabgacha yoshdagi bolalar kattalar hayotini hamma tomonlarini o’z o’yinlarida aks ettira oladilar. O’yinning ahamiyati bola shaxsining o’sib kamolotga etishiga ta’sir ko’rsatishdan iboratdir. O’yin har bir yosh bosqichda bolaning tevarak-atrofdagi dunyoni va kishilar o’rtasidagi munosabatlarni bilib olishni ifodalaydi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda harakatning o’sishiga o’yinning ta’siri haqida gap borganda avvalo shuni aytish kerakki, birinchidan, o’yinni tashkil qilishning o’ziyoq mazkur yoshdagi bolaning harakatini o’stirish va takomillashtirish uchun eng qulay shart-sharoit yaratadi.

Ikkinchidan, o’yinning bola harakatiga ta’sir etishining sababi va xususiyati shuki, harakatning murakkab ko’nikmalarini subyekt aynan o’yin paytida emas, balki bevosita mashg’ulot orqali o’zlashtiradi. Uchinchidan, o’yinning keyinchalik takomillashuvi barcha jarayonlar uchun eng qulay shart-sharoitlarni vujudga keltiradi. Shu boisdan o’yin faoliyati xatti-harakatni amalga oshirish vositasidan bolaning faolligini ta’minlovchi mustaqil maqsadga aylanadi.

Shunday ekan, o’yin mazkur bola uchun eng zarur faoliyatga aylana boradi va yangi shakldagi harakatlarni, takomillashtirish, ularni anglagan holda esga tushirish ehtimoli yaqqol voqelikka aylana boshlaydi. Mazkur harakatlarni egallash bolada jismoniy mashqlarni ongli ravishda bajarish imkoniyatini vujudga keltiradi.

Syujetli rolli o’yin o’z xususiyatiga ko’ra aks ettiruvchi faoliyatdir. Tevarak-atrofdagi kattalar va tengdoshlarining hayoti va faoliyati bu o’yin mazmuni uchun manba bo’lib xizmat qiladi. O’yinning syujeti o’z harakati, munosabatlari bilan bog’langan voqea, hodisalar va ularning harakatlari xursandchilik hissini paydo qiladi, shuning uchun bolani qiziqtirib, unda yaxshi kayfiyat uyg’otadi, bola organizmdagi faoliyatni yaxshilaydi. O’yin bolaning aqliy rivojlanishida ham muhim hamiyat kasb etadi. Bolalar o’ynashlari uchun ma’lum vositalar ham kerak. Sahnalashtirilgan o’yinlarda tarbiyachi rahbarlik qiladi. Ertak yoki hikoyadagi mazmun bolalarga yaqin, ularning yoshi va qiziqishiga mos, tushunarli bo’lib bola unga kirishib keta olsagina, asardagi obraz va harakatlar to’g’ri aks ettiriladi. Sahnalashtirilgan o’yinga tayyorlanish uchun ma’lum vaqt ajratiladi va har bir mashg’ulotda aniq bir masalalar hal etib boriladi.

Didaktik o’yin bu maktabgacha yoshidagi bolalarning yosh va imkoniyatlariga mos keladigan ta’lim berish metodidir. Maktabgacha ta’lim tashkilotidagi pedagog o’z tajribasiga tayanib, bu o’yindan faol bo’lmagan bolalarni jamoaga aralashtirish, har xil rejalar, vazifalarni qo’rqmasdan bajarishlari uchun foydalanadi. Didaktik o’yinlar bolalarning birgalikda o’ynab, o’z manfaatlarini jamoa manfaatlarini bilan uyg’unlashtira olishi bir-biriga ko’maklashish va uyg’otishning muvaffaqiyatidan xursand bo’lish kabi yaxshi munosabatlarni tarkib topishiga yordam beradi. O’yinlar nafaqat bolaning ijodiy qobiliyatini, balki shaxsning sofdillik, rostgo’ylik kabi ijobiy xislatlari shakllanishiga imkon beradi.

Didaktik o’yinlar bolalarning amaliy faoliyati sanaladi. Chunki unda bolalar mashg’ulotlarda olgan bilimlaridan foydalanadilar. Shuning uchun ham didaktik o’yinlar bolalarning aqliy faoliyatlarini kuchaytiradi, olgan bilimlaridan har xil usulda foydalanishlari uchun hayotiy sharoit yaratib beradi.

Ijodiy o’yinlarda xatti-harakatlarni, qoidalarini egallash asosida, rolda mujassamlashtirilgan axloqiy qoidalar ham o’zlashtiriladi. O’yinda bolalar turmushiga, ishlariga, jamiyatdagi xulq-atvor me’yor va qoidalariga ijobiy munosabat, muomala madaniyati shakllantiriladi. Xuddi shu jarayonda o’yin mavjud bilimlarni mustahkamlash vositasi sifatida ham yuzaga kelib, unda bola atrof-muhitdagi voqea va hodisalarni aks ettirib, xayolan ayni paytgacha olgan bilimlarini qayta tiklaydi hamda o’yinning ana shu xayoliy vaziyati bolaning aqliy faoliyatining rivojlanishiga muntazam ta’sir ko’rsatadi. Bolalar o’yin jarayonida ba’zi bir narsalarni xohlagan narsalarining nomi bilan atab, xuddi o’sha narsalarini faraz qilib juda yaxshi o’ynaydilar. Masalan, qumni, “shakar”, o’rindiqni “mashina” deb atashi mumkin. O’yin ijtimoiy faoliyat sifatida jamiyatda muayyan vazifalarni bajaradi. Bola shaxsini rivojlanishiga katta hissa qo’shadi.

Bolaning o’yinlar shart-sharoitidan kelib chiquvchi ongli maqsadi harakatlarni bajarish negizida o’z ifodasini topadi va uning o’z oldiga qo’ygan maqsadi esda olib qolish va esga tushirish jarayonlariga aylanadi. Ijodiy o’yinlar ta’limiy o’yin sifatida bolalarning yosh xususiyatlariga mos keladigan o’yinlar

sirasiga kiradi. Ijodiy o'yinlarning muhim belgisi undagi qoidalarning mavjudligidir. O'yinda o'yin niyati, o'yin qoidalari, o'yin harakatlari o'rtasida uzviy aloqa mavjud. O'yin maqsadi o'yin harakatlarining tabiatini belgilasa, o'yin qoidasi harakatlar, xususan, vazifani hal etishga qaratilgan harakatlarni amalga oshirishga yordam beradi.

O'yin ijtimoiy tajribalarni o'zlashtirish va qayta yaratishga yo'nalgan vaziyatlarda, faoliyat turi sifatida belgilanadi va unda shaxsning o'z xulqini boshqarishi shakllanadi va takomillashadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotining bola shaxsini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'limni amalga oshirish faoliyatida bolalarning kognitiv (aqliy), kommunikativ (nutq), ijtimoiy- hissiy va jismoniy-motor rivojlanishiga sharoit yaratish, tarbiyachi va tarbiyalanuvchi o'rtasida ishonch munosabatlarini shakllantirish, ruhiy-emotsional hamda jismoniy zo'riqishni bartaraf etish juda muhimdir.

Shuningdek, bolalar ijodiyotini rivojlantirish uchun quyidagi o'qitish usullarini qo'llash mumkin:

1) o'qituvchi modelini tekshirish va ko'rsatish usullarini o'z ichiga olgan axborot-reseptiv usul;

2) bolalarning bilim va ko'nikmalarini mustahkamlashga qaratilgan reproduktiv usul. Bu ko'nikmalarni avtomatizmga olib keladigan mashq usuli. U takrorlashni qabul qilishni, qoralama ustida ishlashni, qo'l bilan shakllantirish harakatlarini bajarishni o'z ichiga oladi;

3) sinfdagi ishning har qanday daqiqasida mustaqillikni namoyon etishga qaratilgan everistik usul, ya'ni o'qituvchi bolani ishning bir qismini mustaqil ravishda bajarishga taklif qiladi;

4) bolalarda nafaqat mustaqillik, balki tasavvur va ijodkorlikni rivojlantiradigan tadqiqot usuli. O'qituvchi mustaqil ravishda biron bir qismini emas, balki butun ishni bajarishni taklif qiladi.

Ammo shuni ta'kidlash kerakki, bolaning ishining natijasi ko'p jihatdan uning qiziqishiga bog'liq, shuning uchun darsda maktabgacha yoshdagi bolaning e'tiborini faollashtirish, uni qo'shimcha rag'batlantirish yordamida ishlashga undash muhimdir. Bunday imtiyozlar quyidagilar bo'lishi mumkin:

- bolalarning asosiy faoliyati bo'lgan o'yin;
- ajablanadigan lahza - ertak yoki multfilmning sevimli qahramoni tashrif buyurishga keladi va bolani sayohatga taklif qiladi;
- yordam so'rovi, chunki bolalar hech qachon zaiflarga yordam berishdan bosh tortmaydilar, ular o'zlarini muhim his qilishlari muhimdir;
- tarbiyachining jonli, hissiyotli nutqi.

Bolaga turli xil chizish usullarini o'rganishga, turli xil tasvir texnikasi haqida tushuncha berishga yordam berish kerak.

Keyinchalik, biz o'qituvchilarning bolalar bilan ijodiy faoliyatini kengaytiradigan, rivojlanayotgan muhitni, dizayn guruhlarini va bolalar bog'chasini diversifikatsiya qiladigan noan'anaviy materiallardan arzon foydalanishni ta'minlaydigan turli xil chizish usullarini ko'rib chiqishga murojaat qilamiz.

Ushbu texnikalarning har biri kichik o'yin. Ulardan foydalanish bolalarga o'zlarini erkinroq, jasurroq, to'g'ridan-to'g'ri his qilishlariga imkon beradi, tasavvurni rivojlantiradi, o'zini ifoda etish uchun to'liq erkinlik beradi.

Har bir yosh uchun biz oddiydan boshlab va asta-sekin murakkabroqlarga o'tadigan noan'anaviy chizish texnikasining turli xil variantlariga rioya qilamiz.

Shunday qilib, kichik maktabgacha yoshdagi bolalar uchun barmoq bilan bo'yash mos keladi. Ilmiy nuqtayi nazardan, bu noan'anaviy chizish texnikasining turlaridan biri bo'lib, barmoqlar (bir yoki bir nechta) yoki butun kaft yordamida bo'yoqlar bilan bo'yashdir.

Yoshi, jinsi, kasbi va ijtimoiy mavqeyidan qat'i nazar, har qanday shaxs rasm muallifiga aylanishi mumkin. Ijodiy qobiliyatlarining ochilishi inson ongini qisqa yo'l bo'ylab - "yurak - barmoq uchlari" bo'ylab o'tadi.

Barmoqlarni bo'yashning terapevtik ta'siri borligini fan isbotladi. Bu, albatta, haqiqatdir, ijodiy odamlar kamroq kasal bo'lishadi, stressli vaziyatlarni osonroq yengishadi, chunki ijodiy harakat paytida salbiy fikrlar va his-tuyg'ular rasmda moddiy timsolni topadigan ijodiy tuyg'ularga aylanadi. Terapevtik ta'sir nafaqat tuvalni yaratish vaqtida (puls va qon bosimini normallashtirish, stressga qarshi ta'sir, ichki holatni uyg'unlashtirish), balki kelajakda ham kuchli ijobiy dominant bo'lib kuzatiladi.

Psixologlarning ta'kidlashicha, bu jarayon bolada fikr va tasavvur erkinligini rivojlantirishni rag'batlantiradi. Bolalar o'zlarini ifoda etishga, boshqalarga o'z "men" ni ko'rsatishga, to'siqlarni engib o'tishga va turli muammolarni hal qilishga intiladilar.

Mehnat jarayonida aqliy jarayonlarning rivojlanishi faollashadi, vosita ko'nikmalari yaxshilanadi (barmoqlar va qo'llarning nozik harakatlari farqlanadi), vizual-motor muvofiqlashtirish, bolalarning ijodiy salohiyati ochib beriladi.

Barmoqlarni bo'yash texnikasida chizishning bir necha usullari mavjud: kaft, barmoq chetida chizish.

O'rta maktabgacha yoshdagi bolalarni murakkabroq usullar bilan tanishtirish mumkin.

Bu yoshda ular chizish bilan osongina yengishadi.

Buning uchun har qanday mos obyekt, masalan, paxta sumkasini olish, uni bo'yoqqa botirish va yuqoridan pastgacha aniq harakat bilan, mo'ljallangan naqshga muvofiq, landshaft varag'i bo'ylab teshilishi kifoya.

Ajablanish va zavq bilan bolalar bunday texnikani paydo bo'lgan rasm sifatida qabul qilishadi. Bu aralash media bo'yash texnikasi. Asosiy maqsad - materiallarning xususiyatlari va xususiyatlari bilan tanishish.

O'ylab topilgan fitna mumli qalamlar (qalamlar) bilan amalga oshiriladi. Keyin chizilgan ustiga akvarel qo'llaniladi. Akvarel bo'yoqlari chizmadan dumalab tushadi va u paydo bo'ladi.

Kuzda, parkda bola bilan yurish, siz shakli, o'lchami va rangi bilan farq qiladigan turli xil daraxtlardan barglarni to'plashingiz mumkin. Barglarni chop etish texnikasidan foydalanib, siz butun rasmlarni yaratishingiz mumkin - barglar, daraxtlar, hasharotlar va hayvonlarning guldastalari va boshqalar.

Ijodiy qobiliyatlarning tarkibiy qismlari masalasi bo'yicha yuqorida keltirilgan nuqtai nazarlarni tahlil qilib, shuni xulosa qilishimiz mumkinki, ularni aniqlashga yondashuvlardagi farqlarga qaramay, tadqiqotchilar bir ovozdan ijodiy tasavvur va ijodiy fikrlash sifatini ijodiy qobiliyatlarning muhim tarkibiy qismlari sifatida ajratib ko'rsatishadi.

Shunga asosanib, bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini aniqlash mumkin:

1. Tasavvurni rivojlantirish.
2. Ijodkorlikni shakllantiruvchi tafakkur sifatlarini rivojlantirish.

Psixologik-pedagogik adabiyotlarda ijodkorlik tushunchasi ko'pincha ijodkorlik tushunchasi bilan bog'lanadi, shaxsiy xususiyat sifatida qaraladi. Ko'pgina tadqiqotchilar ijodkorlikni shaxsiy xususiyatlar va qobiliyatlar orqali belgilaydilar.

Ijodiy o'yinlar va o'qitish usullari orqali bolalarga yangi bilimlar, tushunchalar berib boriladi va qayta o'zida takrorlash orqali mustahkamlanadi. Bu o'yinlarda bolaning har tomonlama rivojlanishi, bilim jarayoni, sensor madaniyati, nutq faoliyati, aqliy qobiliyatlari takomillashadi. Shuning uchun ham kattalar tomonidan o'yinni to'g'ri tashkil etish va ishtirokchilarini to'g'ri baholash muhim ahamiyatga ega.

Xulosa. Shunday qilib, pedagogik jarayonga turli xil o'yinlar, o'yin texnikasi yoki o'yin holatlarini kiritish bola uchun shaxsiy ahamiyatga ega bo'lgan o'quv motivatsiyasini maksimal darajada yaratishga, bilimlarni o'zlashtirishga, ko'nikma va qobiliyatlarni egallashga, ijodkorlikni rivojlantirishga yordam beradi. Vizual faoliyat orqali ijodiy qobiliyatlarni shakllantirishga quyidagilar yordam beradi: vaziyatni tashkil etishning o'zgaruvchanligi (uning yangiligi va xilma-xilligi), mavzular, shakllar, vositalar, ish usullari, bolalarga taqdim etilgan materiallarni tanlash, har bir bolaga ehtiyotkorlik bilan xushmuomalalik bilan munosabatda bo'lish, ijodiy jarayonga va uning ijodiy faoliyati natijalariga hurmat, har bir darsda do'stona muhit yaratish, ota-onalar tomonidan bir xil munosabatlarni shakllantirish. Ijodiy faoliyatda kattalarning vazifasi bolalarga tasviriy san'atni o'rgatish emas, balki har bir bolaning madaniy jamiyatda yetarli darajada fikrlash, his qilish va harakat qilish qobiliyatiga ega bo'lgan barkamol shaxs bo'lib rivojlanishi uchun asoslarni yaratishdir.

Adabiyotlar:

1. Qayumova N-Maktabgacha pedagogika-T-2020 yil.
2. Qodirova F.R, Toshpo'latova SH, Kayumova N -Maktabgacha pedagogika.T- 2019yil.
3. Qodirova F.R, Qodirova R.M-Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi T-2006 yil.
4. Psixologik maslahat R. Abdurasulov va G Qarshiboeva O'quv qo'llanma Bayoz-Toshkent 2022y.
5. А.Исаков-“Таълимда ижодий ўйинлар”-Т-2019й.
6. Шодмонова Ш.-Мактабгача талим педагогикаси-Т-2008й.
7. Inomova M. Oilada bolalarning ma'naviy axloqiy tarbiyasi.-T.: TDPU.1999.
8. Jumanova Nasiba, Цели и задачи активации, ускорения педагогических технологий , Журнал Педагогика и психологии в современном образовании: Том 1 № 1 (2021): Zamonaviy ta'limda pedagogika va psixologiya fanlari.
9. Jumanova, N. (2021). Профилактика психологических дефектов в развитии личности. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 1(1). извлечено из <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/1365>.
10. Jumanova, N. (2021). Характеристики пробуждения у детей старшей группы любви к литературе. Журнал Педагогика и психология в современном образовании, 1(1). извлечено из <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/1366>.

11. Jumanova, N. (2020). Актуальные вызовы современной науки. Архив Научных Публикаций JSPI.
12. Obidova, D., & Nasiba, J. Analysis of the activities of health care institutions: prospects for the application of psychological knowledge.
13. Атамуродова, Р. К., Жуманова, Н. Ш., & Алимкулов, С. О. У. (2016). Взгляды учёных средневековья о душе человека. Проблемы педагогики, (8 (19)).
14. Sherboevna, N. J. (2020). The use of integrated technologies in the cultivation of children's speech in preschool education. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 8(2).

RAXIMOVA Nilufar
Egamberganovna

Urganch davlat universiteti
Texnologik talim kafedrası katta
o'qituvchisi

MADAMINOVA Yarkinoy
Saparboyevna

Urganch davlat universiteti
Texnologik talim kafedrası katta
o'qituvchisi

RUZMETOVA Zuxra
Shavkatovna

Urganch davlat universiteti
Texnologik talim kafedrası
katta o'qituvchisi

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA TEXNOLOGIYA DARSLARINING AHAMIYATI

Maqola "Texnologiya" mashg'ulotlari doirasida ta'lim muammolarini hal qilishning zamonaviy yondashuviga bag'ishlangan. Ta'lim vazifalariga ko'ra tanlangan mashqlar va mashg'ulotlarning puxta o'ylangan tizimi orqali mazmunli amalga oshiriladigan metodlar ochib berilgan; ushbu metodlar umumlashtiruvchi xarakterdagi ijodiy topshiriqlarni bajartirish usullari orqali ko'rsatib berilgan. O'quvchilarni mehnatga tarbiyalash va kasbga tayyorlash vazifalari boshlang'ich sinflarda butun ta'lim va tarbiya tizimida hamda barcha o'quv predmetlari yordamida hal etiladi. Bu o'rinda Texnologiya darslari yetakchi rol o'ynaydi. Boshlang'ich sinflarda mehnat ta'limining ilk tushunchalari, malaka va ko'nikmalari mehnat darslarida shakllantiriladi.

Kalit so'zlar: rivojlanish, faollik, texnik va badiiy fikrlash elementlari, loyihalash qobiliyatlari, texnik va texnologik bilim va ko'nikmalar, rejalashtirish, mustaqil amalga oshirish, umumlashtirish, faoliyatni baholash.

ЗНАЧЕНИЕ УРОКОВ ТЕХНОЛОГИИ В НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ

Статья посвящена современному унифицированному подходу к решению образовательных задач в рамках области «Технология». Выявляются приёмы, которые содержательно реализуются через продуманную систему упражнений и продуктов, подобранных согласно учебным задачам; эти способы проявляются через приёмы выполнения творческих заданий общего характера. Задачи подготовки учащихся к труду и подготовки их к профессиям решаются в начальных классах во всей системе воспитания и обучения и с помощью всех учебных предметов. Технологические занятия играют здесь ведущую роль. В начальных классах на трудовых занятиях формируются первые понятия о трудовом воспитании, квалификации и умениях. Автор раскрывает названные линии (направления), которые реализуются содержательно через продуманную систему упражнений и изделий, подобранных соответственно учебным задачам, а также через выполнение творческих заданий обобщающего характера.

Ключевые слова: развитие, развитие, активная деятельность, элементы технического и художественного мышления, конструкторские способности, проектные умения, технические и технологические знания и умения, планирование, самостоятельное выполнение, обобщение, оценка деятельности.

THE IMPORTANCE OF TECHNOLOGY LESSONS IN PRIMARY EDUCATION

The article is devoted to the modern approach to solving educational problems within the framework of "Technology" classes. Methods that are meaningfully implemented through a well-thought-out system of exercises and products selected according to educational tasks are revealed; these methods are shown through methods of performing creative assignments of a general nature. The tasks of educating students for work and preparing them for professions are solved in primary grades in the entire education and training system and with the help of all educational subjects. Technology classes play a leading role here. In elementary grades, the first concepts of labor education, qualifications and skills are formed in labor classes.

Key words: development, activity, elements of technical and artistic thinking, design skills, technical and technological knowledge and skills, planning, independent implementation, generalization, activity evaluation.

Kirish. Texnologiya darslarida o'qituvchi bolaga vazifalarni bajarishga yordam beradi: o'quvchilarda nafosat tuyg'usini rivojlantirish, yuksak didni shakllantirish, haqiqiy san'at asarini past darajadagi asardan ajrata olish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Sinfdan bolalar o'zlarining ijodiy qobiliyatlari va badiiy didini namoyon qiladilar, hissiy madaniyatni oshiradilar, kuzatib tahlil qilish qobiliyatini oshiradilar, rang sezish

tuyg'usini rivojlantiradilar. Shuningdek, o'quvchilar turli materiallardan ish bajarish malakalarini oshiradilar, mustaqil ravishda kundalik hayotda foydali va kerakli buyumlar yasashni, ularni bezashni o'rganadilar. Mehnatga qiziqish va muhabbatni shakllantirish bolalarni o'qitish va tarbiyalashning asosiy vazifalaridan biridir. Mehnat bolaning aqliy rivojlanishiga, tafakkurining rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi.

"Texnologiya" faniga etibor ta'lim sohasidagi muammolarni hal qilishning zamonaviy, muhim yondashuvidir. U quyidagicha amalga oshiriladi: mustaqil faoliyat jarayonida kichik yoshdagi o'quvchilar mehnat faoliyati asoslarini o'zlashtiradilar, mahsulotlarni ayirboshlashning eng oddiy texnologiyalari bilan tanishadilar. Materiallar to'g'risidagi bilimlarni, ijodiy faoliyat tajribasini o'zlashtiradilar.

O'quvchilarning ijodiy faoliyat tajribasini o'zlashtirishlari ularning "yangi" muammolarga yechim topishga va fikrlashni rivojlantirishga zamin bo'ladi. Ijodiy vazifalar tizimini yaratish orqali voqelikni ijodiy o'zgartirishga ma'lum bir tayyorgarlikni shakllantirishni o'z ichiga oladi.

Metodlar. Texnologiya mashg'ulotlarining o'quv vazifalariga muvofiq tanlangan mashqlar va ish usullarning puxta o'ylangan tizimi orqali, umumlashtiruvchi xarakterdagi ijodiy topshiriqlarni bajarish mazmunli amalga oshiriladi. Shu asosga ko'ra barcha vazifalar quyidagi talablarga javob beradi:

1. Vazifani bajarish, shu jumladan mahsulot ishlab chiqarish darsning maqsadi emas, balki faqat aniq ta'lim muammolarini hal qilish vositasidir.

2. Har qanday vazifa uni amalga oshirish uchun qulay bo'lishi kerak, lekin shu bilan birga, u amalga oshirish jarayonida bolalar tomonidan "kashf etilishi" va o'zlashtirilishi mumkin bo'lgan bir yoki ikkitadan ko'p bo'lmagan yangi bilim va yangi ko'nikmalarni o'z ichiga olishi kerak.

Uslubiy jihatdan ikkala talabning g'oyalari o'rganishga faol yondashish, samarali usullarni qo'llash va yangi bilimlarni muammoli tarzda o'rgatish orqali amalga oshiriladi.

Vazifalarni taqdim etish shakli har xil bo'lishi mumkin: bir yoki bir nechta namunalarni namoyish qilish; ish obyektlarning tasvirlari, chizmalar, diagrammalar; turli shakllarda taqdim etilgan o'quv xaritalari (mavzu, grafik); og'zaki topshiriqlar. Har bir amaliy-dars namuna, yashirin dizayn xususiyatlariga ega bo'lgan alohida birliklar, diagrammalar, chizmalar, eskizlar tayyorlashni talab qiladi.

Bu, bir tomondan, o'quvchilarga namunani (o'xshash namunalarni) barcha dizayn xususiyatlari bilan idrok etish imkoniyatini beradi, ikkinchi tomondan, bu dizayn xususiyatlarini muhokama qilish va obyektiv ravishda dizayn va texnologik muammolarni aniqlash imkonini beradi. Har bir aniq ish uchun zarur bo'lgan materiallar, asboblardan va qurilmalar to'g'risidagi barcha ma'lumotlar ma'lum bo'lganda o'quvchi ishga ongli ravishda yondashadi, lekin kerakli ma'lumotni izlashni davom qildiradi, bu esa o'quvchilarda o'z-o'zini nazorat qilish ko'nikmalarini rivojlantirish masalasini hal qiladi.

Ba'zan, agar rasm yetarlicha aniq bo'lsa, u tahlil qilish uchun namunani rasmga almashtirishi mumkin, bu esa fazoviylik va majoziylikni tushunchalarini egallashlariga yordam beradi.

Namunalarning konstruktiv va texnologik xususiyatlarini tahlil qilish og'zaki-suhbat shaklida amalga oshiriladi. O'quvchilar nafaqat kuzatganlarini bayon qiladilar, balki oldingi darslarda o'rganganlari bilan solishtiradilar. Mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha har bir texnologik operatsiyani muhokama qilar ekan, bolalar rejalash, ishlov beriladigan qismdan qismlarni olish, yig'ish va hokazolar uchun allaqachon ma'lum bo'lgan ish usullarni bajara olishadi. Yangi texnologik jarayonlar bilan tanishish o'quvchining har mashg'ulotdagi asosiy o'quv vazifasi bo'ladi.

Dizayn va texnologik xususiyatlarni muhokama qilgandan so'ng, noma'lum narsalarni qidirish, ya'ni yangi bilimlarni kashf qilish tashkil etiladi. Kashfiyotning mustaqilligi kichik tajribalar, izlanish mashqlari o'tkazish, o'qituvchining harakatlarini kuzatish, masalan, origami o'yinchog'ini yoki qutini sinf oldida izohsiz joylashtirish orqali ta'minlanadi. Yasaladigan buyumning dizaynini takomillashtirishning mumkin bo'lgan usullari ham muhokama qilinadi va amaliy sinovdan o'tkaziladi, dizayn va texnologik muammolar hal qilinadi. Bunday ishlar o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun asosdir.

Kelgusi amaliy ishini rejalashtirish mahsulotni ishlab chiqarishning ma'lum bir ketma-ketligini tushinishni o'z ichiga oladi (qisqa rejani tuzish).

O'quvchilar tomonidan amaliy ishlarni mustaqil bajarish o'z navbatida mustaqil fikrlashga, mustaqil xulosalar chiqarishga asos bo'ladi. O'quvchilarning mustaqil topshiriqni tahlil qilishning aniqligi va har tomonlama tekshirilishi, yakuniy natijani taqdim etishning aniqligi, zarur texnologik bilim va amaliy ko'nikmalarga ega bo'lishi ularning dunyoqarashining kengayishini ta'minlaydi.

Umumlashtirish - darsda kashf etilgan yangi bilimlarni, yangi shaxsiy xususiyatlarni anglash va shakllantirish.

O'quvchilarning o'qishini quyidagi mezonlar bo'yicha kuzatish mumkin:

- bajarilayotgan yangi ish faoliyatining to'g'riligi va tayyor mahsulot sifati.
- faoliyatning tabiati (reproduktiv, ijodiy);
- topshiriqlarni bajarishda o'quvchilarning mustaqillik darajasi.

Texnologiya darslarida o'quvchilar, asosan, loyiha faoliyati asoslarini o'zlashtiradilar ish daftarlarida taklif qilingan ijodiy vazifalarni bajarishadi. Bu ish ham individual, ham jamoaviy bo'lishi mumkin. Boshlang'ich maktabda ijodiy loyiha o'qituvchi rahbarligida amalga oshiriladigan g'oyadan tortib, uni amalga oshirishgacha bo'lgan mustaqil ijodiy ish bo'lganligi sababli, loyiha ustida ishlash muayyan asosiy poydevorni talab qiladi.

Bu g'oyani mustaqil ishlab chiqish va amalga oshirish uchun zarur bo'lgan (har bir bosqichda) texnik va texnologik bilim va ko'nikmalarni, ijodiy fikrlash sifatini o'z ichiga oladi. 1-2-sinflarda asosiy dizayn va texnologik ko'nikmalar shakllantiriladi, ijodiy fikrlash rivojlanadi, 3-4 sinflarda loyihalash asosiy dars turi hisoblanadi.

1-jadval

Texnologiya o'quv predmetining mazmuni

1-sinf	2-sinf	3-sinf	4-sinf
Rejalash: - ko'z bilan (erkin rasm); - egilish - shablona muvofiq - trafaret bo'yicha. Zagotovkadan detalni tanlash: - yirtib tashlash; - qaychi bilan kesish shakllantirish, bukish, bukish, g'ijimlash, burish Mahsulotni yig'ish: - yopishtirish Yakunlash: - rang berish; - ariza; -chizish va boshqalar.	Rejalash: - chizmachilik asboblaridan foydalanish (tekis shakllar), - nusxa olish (kalka qog'oz yordamida) Zagotovkadan detalni tanlash. buyumni yig'ish: tikuv (tikish va uning variantlari) Tugatish: - kashta tikish.	Rejalash: Chizmachilik asboblari yordamida, Masshtabli to'r yordamida. Zagotovkadan detalni tanlash: - pichoq bilan kesish Mahsulotni yig'ish: - sim yordamida; -tikuv (qiya choklar, uning variantlari va halqali choklar) Yakunlash: tugmalar, tugmalar va boshqalar.	O'rganilgan texnologiyalar asosida yangi va badiiy texnik texnologiyalarni o'zlashtirish. Turlu xil materiallar bilan ishlash. O'zlashtirilgan texnologiyalardan foydalanish. Mahsulotlarni yig'ish: tikuv ishlari (xalqasimon va iroqisimon choklarni va ularning hosilaviy turlaridan foydalanib tikish)

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, texnologiya o'quv predmeti uchta komponentni o'z ichiga oladi: kichik yoshdagi o'quvchilar uchun materiallarning xususiyatlari haqidagi bilimlar, texnologik bilim va ko'nikmalar asoslari, dizayn bilimlari va ko'nikmalari asoslari. Bundan tashqari, boshlang'ich sinfda o'quvchilar texnika va texnologiya (transport, tashish mashinalari va mexanizmlari, texnologik mashinalar, qurilmalar, axborot texnologiyalari) haqida boshlang'ich bilimlarni oladilar.

Foydalanilgan materiallarning turlari va xususiyatlarini bilish, ularni qayta ishlash texnologiyasini tanlashga yordam beradi, ya'ni texnologik operatsiyalarni tanlash, ishlov beriladigan qismdan qismni ajratish, yig'ish (birlashtirish), pardoqlash.

Mahsulot konstruksiyasini tahlil qilish - qismlarning shakli, ularni biriktirish turi, shuningdek, ma'lum bir texnologik operatsiyani va uni bajarish usulini ko'rsatadi.

Texnologiya darslarida o'quvchilar materiallarni qo'lda qayta ishlashning asosiy texnologik operatsiyalarini o'rganadilar. Shunga ko'ra, texnologik operatsiyalar darslarning asosiy mavzulariga bog'liq. Shu bilan birga, kichik yoshdagi o'quvchilar olingan ko'nikmalarni turli ijodiy topshiriqlar va loyihalarda qo'llashni o'rganadilar. Asosiy bilim va ko'nikmalar (qog'oz, karton, to'qimachilik materiallari) asosida uzatish, kerakli ma'lumotlarni izlash (darslik, ish kitobida va boshqalar) orqali boshqa turli xil mavjud materiallar va badiiy texnik modellashtirish o'zlashtiriladi.

Namunalarni tahlil qilish bo'yicha savollar materiallarni, dizayn xususiyatlarini, mahsulotni ishlab chiqarish texnologiyasini aniqlash maqsadiga asoslanadi. Kuzatish va tahlildan so'ng rejalashtirish texnologik operatsiyalarini-rejalash, kesish, yig'ish ham takrorlaydi. Rejalashtirish jadvali amaliy ishlarni bajarish usullarini ham taklif qiladi.

Munozara. Birinchi sinfdan to to'rtinchi sinfgacha beshta asosiy qo'l choklari (to'g'ri, qiya, ilmoqli, iroqi, xajqasimon) va ularning variantlari o'rganiladi.

Mahsulotlarni loyihalash haqidagi bilimlar qismlarni ulash usullarini (harakatlanuvchi va qo'zg'almas), strukturaning mustahkamligini ta'minlash usullarini o'rganishni o'z ichiga oladi.

O'qituvchiga ishlab chiqarilgan mahsulotlar nomi bilan dars mavzularining an'anaviy talqinidan uzoqlashish qiyin bo'lganligi sababli, texnologiya darslari uchun bir nechta taxminiy mavzular taklif etiladi: Materiallar haqida umumiy tushuncha. Qurilishning umumiy g'oyasi. Qog'oz xususiyatlari. Qog'oz qismlarini yelimplash. Qaychi bilan ishlash texnikasi (ushlash, saqlash, uzatish, kesish).

To'g'ri chiziq bo'ylab, egri kontur bo'ylab qog'ozni kesish, teshikni kesish texnikasi. Qaychi bilan qog'oz to'plamini kesish. Shablon bo'yicha qismlarni rejalash. Bular yanada ijodiy qobilaylatni rivojlantirish uchun muhim hisoblanadi.

Natijalar. Jadvaldan ko'rinib turibdiki, birinchi sinfdagi amaliy foydali yuqori sifatli mahsulotni kafolatlashning yuqori sifatiga olib kelishi kerak bo'lgan muhim texnologiyalar – shablon bilan ishlash, ko'z bilan chamalash, qog'oz bo'laklarini bukish va qatlash, qaychi bilan ishlash usullari (asbobni ushlab turish, kesish), qismlarni yig'ish va olib tashlash (butun sirt uchun, bitta bo'lak uchun) kabilar o'zlashtiriladi.

Ikkinchi sinfning asosiy vazifasi bolalarni chizma asboblari (chizg'ich, sirkul) bilan ishlashga o'rgatish - to'rtburchaklar va yumaloq qismlarni rejalash. Eng oddiy chizma, eskiz, chizma chiziqlari (kontur chizig'i, egilish, kengaytma va o'lchov, markaz) bilan tanishtirish. To'rtburchakni turli usullar bilan rejalashni o'rgatish (ikki to'g'ri burchakdan, bitta to'g'ri burchakdan).

Demak, birinchi va ikkinchi sinflarda ishlab chiqarish mahsuloti haqida bilimlarni va ijodiy ishlarning asosi sifatida asosiy konstruktorlik va texnologik bilim va malakalarni shakllantirish hisoblanadi.

Uchinchi sinfdagi chizma haqidagi bilimlar va murakkabroq chizmalarni - ishlanmalarni o'qish qobiliyati rivojlanadi. O'quvchilar olingan bilim va malakalarning konstruktiv-texnologik bazasi asosida mahsulot ishlab chiqarish va loyihalash ishlarini bajarishni amalga oshiriladi. Bu pape-mashe, somon, kauchuk, plastmassa bilan ishlash, chiqindi materiallardan mahsulotlardan (masalan, qutilar) buyumlar yasash va hokazo bo'lishi mumkin.

To'rtinchi sinf - qog'oz, karton va to'qimachilik materiallari bilan ishlashda olingan bilim va amaliy ko'nikmalarni shakllantirish asosida turli xil badiiy, texnik buyuymalarni ishlab chiqish, Individual tarkibiy jihatdan murakkab mahsulotlarni va kompleks jamoaviy loyihalarni amalga oshirish ishlari bajariladi.

Xulosa. Shunday qilib, texnologiya darslarini zamon talablari asosida tashkil qilinsa, har tomonlama rivojlangan barkamol avlod tarbiyasida katta o'rin egallagan bo'ladi.

Texnologiya o'quv predmeti o'qituvchisi o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini, politexnik savodxonligini, mehnat ko'nikma va malakalarini rivojlantirish uchun juda keng imkoniyatga ega. Turli xil materiallardan o'yinchoqlar tayyorlash paytida o'quvchilarning qulay hissiy kayfiyati, ishdagi muloqot quvonchi, chiroyli asar yaratish jarayonida boshdan kechirgan zavq umumiy rivojlanish uchun juda muhimdir. O'z qo'llari bilan qilingan murakkab hunarmandchilik ishlari bolalarga qanchalik samimiy quvonch va zavq bag'ishlaydi! Texnologiya darslari bolaning shaxsiyatini rivojlantirishga, uning xarakterini tarbiyalashga yordam beradi.

Jamoa bo'lib ishlash bolalarda kollektivizm, do'stona munosabatlar, o'zaro yordam, sheriklik asoslarini shakllantirishga katta ta'sir ko'rsatadi.

Biz, o'qituvchilar bolalarimizga muvaffaqiyatsizliklarni yengishga yordam berishimiz, boshlangan ishni oxirigacha yetkazishga o'rgatishimiz, ularning maqsadli nazoratini shakllantirishimiz va o'z faoliyatini baholashilari, ishlarni bajarishda tirishqoqlik va g'ayratni tarbiyalashimiz kerak. Erishgan natijalari bolalarni ilhomlantirsin va ularni yangi konstruksiyalashtirish -modellastirish ishlarini amalga oshirishga undasin.

Adabiyotlar:

1. Лутцева Е. А. Развитие через открытия // Эксперимент и инновации в школе. – 2010. – № 5.
2. Сборник нормативно-методических материалов по технологии / Авт. сост.: Марченко А. В., Сасова И. А., Гуревич М. И. М.: Вентана-Граф. – 2002.
3. Сиденко Е. А. Универсальные учебные действия: от термина к сущности // Эксперимент и инновации в школе. – 2010. – № 3.
4. Сиденко А. С. Путеводитель по сайту Федерального Государственного Образовательного стандарта второго поколения: основные функции и содержание // Инновационные проекты и программы в образовании. – 2010. – № 2.
5. Sanaqulov X., Xaydarov M. “Boshlang'ich sinflarda qog'ozdan amaliy ishlar” Uslubiy qo'llanma 1996 yil. TDPU.
6. <http://ziyonet.uz> — Ziyonet axborot-ta'lim resurslari portal

СИДДИҚОВА Санобар Хайдаровна

Жиззах давлат педагогика университети
Умумий педагогика кафедраси ўқитувчиси

БОШЛАНГИЧ СИНФ ЎҚУВЧИЛАРИ ИЖОДИЙ САЛОҲИЯТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ПЕДАГОГИК-ПСИХОЛОГИК ОМИЛЛАРИ

Мақолада бошлангич синф ўқувчилари ижодий салоҳиятини ривожлантиришнинг педагогик-психологик омиллари ҳақида сўз юритилиб, баркамол шахс тарбиясига асосий эътибор қаратилган. Чунки, ўз билими, салоҳияти, қобилияти ва имкониятларини жамият тараққиётига тўлиқ сарфлаб, мустақил фикрлай оладиган ижодкор шахсларни шакллантириш, жамиятда туб ўзгаришлар бўлишига замин яратади. Ҳозирги кунда ўқувчиларда ижодий тафаккурни ўстириш, ижодкорлик ва мустақил фикрлаш қобилиятини ривожлантириш борасида кейинги йилларда салмоқли ишлар амалга оширилиб, унинг илмий, ҳуқуқий ва методологик асослари яратилмоқда.

Калит сўзлар: ўқувчилар, ижодий тафаккур, ўстириш, ижодкорлик ва мустақил фикрлаш, қобилият, илмий, ҳуқуқий ва методологик асослар, касб, меҳнат қилиш ҳуқуқи, замонавий таълим, изланишлар, ижодкорлик, ривожланиш.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

В статье говорится о педагогико-психологических факторах развития творческого потенциала учащихся начальных классов, акцентируется внимание на воспитании всесторонне развитой личности, потому что формирование творческих личностей, способных в полной мере использовать свои знания, потенциал, способности и возможности для развития общества и мыслить самостоятельно, создает почву для кардинальных изменений в обществе. В настоящее время в последние годы проделана значительная работа по развитию творческого мышления, творчества и самостоятельности мышления учащихся, создаются её научные, правовые и методические основы.

Ключевые слова: студенты, творческое мышление, развитие, креативность и самостоятельность мышления, способности, научные, правовые и методические основы, профессия, право на труд, современное образование, исследования, творчество, развитие.

PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL FACTORS OF DEVELOPMENT OF CREATIVE COMPETENCE OF PRIMARY CLASS STUDENTS

The article deals with the pedagogical and psychological factors in the development of the creative potential of primary school students, focuses on the education of a comprehensively developed personality, because the formation of creative individuals who are able to fully use their knowledge, potential, abilities and opportunities for the development of society and think independently, creates ground for radical change in society. At present, in recent years, significant work has been done to develop creative thinking, creativity and independence of thinking of students, its scientific, legal and methodological foundations are being created.

Key words: students, creative thinking, development, creativity and independence of thinking, abilities, scientific, legal and methodological foundations, profession, right to work, modern education, research, creativity, development.

Кириш. Дунёда кадрлар тайёрлаш соҳасидаги сиёсат инсонни интеллектуал ва маънавий-ахлоқий жиҳатдан тарбиялаш билан узвий боғлиқ бўлиб, узлуксиз таълим тизими орқали, ҳар томонлама баркамол шахс – фуқарони тарбиялашни назарда тутади. Зеро, фуқаронинг энг асосий конституциявий ҳуқуқларидан бири билим олиш, ижодий қобилиятни намоён этиш, интеллектуал жиҳатдан ривожланиш, касби бўйича меҳнат қилиш ҳуқуқи руёбга чиқади. Шунга кўра, бугунги кунда бутун дунё ва мамлакатимиз замонавий таълим тизимида содир бўлаётган ўзгаришлар, изланишлар ижодкорликни ривожлантиришга эътиборнинг кучайиши билан бирга келадиган ҳаракатлантирувчи куч сифатида қаралмоқда.

Асосий қисм. Жаҳон педагогикаси ва психологияси таълимотларига кўра, таълимнинг асосий вазифаларидан бири ўқитиш жараёнида ўқувчиларнинг ижодий тафаккурини шакллантириш ва ривожлантиришга йўналтирилган таълимни ташкиллаштиришдан иборат. Ижодий таълим ёшларни ижтимоий тажриба билан қуроллантиришнинг алоҳида нуқтаи назари бўлиб, болалар фаолиятига, тафаккурига мўлжалланган таълимдир. У ўздан юқорида турадиган тизимнинг, жамиятнинг ёшларни тарбиялаш соҳасидаги ишлар қобиғида амал қилади, ўздан паски ташкилий тизимларни маълумот мазмунини ижодий ўзлаштириш, болаларда ижодий қобилиятларни тарбиялаш ва бунинг заминида ўқув фаоллигини ошириш муаммоларни ўзида қамраб олди.

Ҳозирги замон тасаввурларига мувофиқ, таълимнинг асосий вазифаларидан бири ўқитиш жараёнида ўқувчиларнинг ижодий тафаккурини шакллантириш ва ривожлантириш учун шароитлар яратишдан иборат. Билиш фаолиятини самарали ташкил этиш бу муаммони ҳал этишда биринчи навбатдаги вазифадир.

Ижодкорлик психологияси илмий кашфиётлар, санъат асарларини яратиш, инсоннинг ижодий салоҳиятини кашф этиш соҳасида психологик тадқиқотларни ўз ичига олади. "Яратгувчи" атамаси муайян шахснинг фаолияти ва у яратган кадрларни назарда тутди ва кейинчалик маданият омилига айланади. Ижодкорлик психологиясининг муаммоли соҳаси инсоннинг ижодий фаоллигини рағбатлантирадиган тасаввур, сезги, фикрлаш ва бошқа омилларни ўз ичига олади.

Фикрлаш - бу дунёдаги билимлардан биридир, ижодкорлик нафақат билишда, балки яратилишда ҳам мумкин. Инсон миясининг имкониятлари кам тушунчага эга ва инсоннинг ижодий фаолиятида индивидуал имкониятларга эга бўлган нарсаларни тасаввур қилишимиз мумкин. Шунинг учун, инсоннинг ижодий қобилиятларини муваффақиятга эришиши учун атроф-муҳит шароитлари қандай бўлиши кераклиги савол туғилади. Еҳтимол, ажойиб ижодкорлар оддий инсонлар бўлиб, улар миясининг захираларини тўлиқ ишлатишади.

Фикрлаш жараёни - бу фикр жараёнларини амалга ошириш инновацияларни кашф этишга олиб келадиган ижодий жараёндир. Фикрлаш психологиясидаги энг муҳим тушунчалар муаммоли вазият тушунчаси бўлиши мумкин. Бунинг сабаби, мазкур вазиятни ҳал қилиш учун мавзунинг шахсий тажрибасида етарли маълумот йўқлиги ва бу маълум психологик реакциялар билан бирга бўлишидир - бу ғазаб, ташвиш, ҳайратланиш ва ҳк. Бу шахснинг қидирув фаолиятини фаоллаштиради ва унга муаммоли вазиятга йечим топишга, номаълум нарсани қидиришга йўналтиради, бу еса янги ижодларга ижодкорликда муваффақият қозониши мумкин. Шу каби фаолият тахминлар, гипотезалар яратишда пайдо бўлиши мумкин. Бу ҳолда, кундалик одамнинг фикрлаши йўқ. Мисол учун, тор оралик орқали катта ҳажмдаги нарсаларни ташламоқчи бўлсангиз, сиз бир нечта гипотезани тақдим этасиз.

Педагогик ижод - педагогик фаолият соҳасидаги янги кашфиёт. Бу инновация - муаммоларни ҳал этишнинг ноанъанавий усули ва инновация - янги шароитда ўқитишнинг ески усулларида фойдаланиш бўлиши мумкин. Кутилмаган педагогик қарорни топиш ва муайян ҳолатларда қўллаш импровизация деб номланади ва тез-тез учрайди.

Ижод ҳодиса сифатида дастлаб тадқиқот мавзусига айланди ХХ аср. 60-80-йилларда бу ҳодисанинг баъзи жиҳатлари мавжуд эди. Файласуфларнинг (М.С.Каган, П.Ф.Кравчук ва бошқалар) ўрганиш предмети, психологларнинг (Д.Б. Богоявленская, Л.Б. Эрмолаева -Томина, Ю.Н. Кулюткин, А.М. Матюшкин, Я.А. Пономарев ва бошқалар), педагогларнинг (Л.А. Даринская, И.П. Волков, Э.А. Глуховская, А.И. Санников ва бошқалар).

Фалсафий нуқтаи назардан, "ижодкорлик" тушунчаси инсоннинг иқтидорини, унинг фаоллик қобилиятини англатади ва олий ахлоқий идеалларни амалга ошириш ва уларга интилиш деб талкин қилинади. Психологик ва педагогик адабиётларда ижодкорлик ҳақида жуда кўп маълумотлар мавжуд бўлиб, унга шахсий-фаоллик сифатлари, кўникмалар, қобилиятлар йиғиндиси, шахснинг ижодий фаолиятни амалга ошириш қобилиятлари, одамлар ва табиат билан мулоқот қилиш қобилияти сифатида характерланади.

Ижодий қобилиятлар муаммосига оид бир неча асосий ёндашувларни ажратиш кўрсатиш мумкин:

- ижодиёт вазиятли рағбатлантирилмаган фаолиятдир ;
- ижодий қобилиятлар деган нарсга йўқ. Ижодий хулқ-атворни детерминациялашда мотивациялар, кадрлар, шахсиятли хислатлар бош роль ўйнайди ;
- ижодий қобилият, интеллектга боғлиқ бўлмаган, мустақил омилдир ;
- интеллектнинг юқори даражаси ижодий қобилиятларнинг юқори даражасини тақозо этади ва, аксинча.

Илмий адабиётда ушбу саволларга бир маъноли жавоблар ҳанузгача йўқ.

– нима учун бир хил одамлар асосан адаптив фаоллик, бошқалари эса ижодий фаоллик кўрсатадилар?

– нима учун бир хил одамларнинг ижодий фаоллиги бошқаларникидан маҳсулотлироқ?

В.Оствальд XX аср бошида ижодиёт типологиясини яратаётганида олимлар ижодиётини оригиналлик критерийси “бирор нарсани мустақил яратиш қобилияти сифатида баҳолаш ҳақида гапирган эди”].

Ж.Гилфорд дивергент тафаккурнинг мавжудлиги умумий ижодий қобилият сифатида креативлик асосидир деб ҳисоблайди. Кўпчилик ҳозирги замон тадқиқотчилари ҳам шу фикрга амал қилмоқдалар. Торренс креативлик деб билимлардаги камчиликлар, бўш жойларни, дисгармонияни ва ҳ.к.ларнинг ўткир идрок қилиш қобилияти деб ҳисоблайди. У ижодий акт муаммони идрок қилиш, ечимни излаш, гипотезаларни яратиш ва ифодалаш, гипотезаларни текшириш, уларни модификациялаш ва натижани топишдан иборат деб ҳисоблайди. Я.А.Понамарев креативлик психологик хусусият сифатида ўз фаолиятини ёнаки маҳсулотларига интеллектуал фаоллик ва сезгирлик (сензитивликка келтирилади деб ҳисоблайди). Ижодкор одам учун фаолиятнинг ёнаки, қушимча натижалари, бирор янги, ноодатийлари энг катта аҳамият касб этади. С.Медник ижодий жараёнда ҳам конвергент, ҳам дивергент ташкил этувчилар иштирок этади деб ҳисоблайди. С.Медника кўра, ижодиётнинг моҳияти операцияларнинг хусусиятида эмас, балки тафаккурий синтезнинг охириги босқичида стереотипларни энгиб ўтиш қобилиятида ассоциациялар майдонининг кенглигидадир.

Манбалардан маълум бўлишича, "Ижодкорлик" тушунчаси Аристотел томонидан умумий илмий муомалага киритилган. Ижодкорликни замонавий фанда бу тушунчани қандайдир ноаниқ талқин қилинганлиги кузатилади. Масалан, айрим манбаларда "имкониятлар даражаси" деб таърифланиб, ижодкорлик бу - муносабат, зарур бўлган воситалар, имкониятлар йиғиндиси дея, характерланади, "Рус тилининг изоҳли луғати"да ижодкорлик мажозий маънода "инсондаги мавжуд бўлиши керак бўлган барча сифат ва фазилатларнинг йиғиндиси" сифатида, баъзи педагогик тадқиқотларда эса "ижодкорлик" атамаси ички кучларни амалга ошириш ва сифатида ишлатилади ва педагогик жараён иштирокчилари учун имкониятлар сифатида намоён бўлади дейилади.

Кузатиш ва таҳлилларимизга кўра, шахс ижодий салоҳиятининг таркибий қисмлари муаллифлар томонидан илгари сўрилган концепциянинг моҳиятини тушунишларига қараб, ишалб чиқилганлиги кузатилади. Яъни, ҳар бир муаллиф ўзининг ижодкорлик бўйича энг кўп ифодаланган компонентларини таклиф қилади ва уларни ижодий фаолият жараёнида муҳим тушунчалар сифатида илгари сурадилар.

Юқоридагилар ва ўзимизнинг қарашларимиздан келиб чиқиб, кичик ёшдаги ўқувчилар ижодий салоҳиятининг куйидаги тузилишини келтириб ўтмоқчимиз (1-расм).



1-расм. Кичик ёшдаги ўқувчилар ижодий салоҳиятининг тузилиши

Ёш ўқувчиларнинг ижодий салоҳияти таркибида қуйидаги ўзаро боғлиқ компонентлар ифодаланади:

1. *Мотивацион компонент.* Ўқувчи иштиёқи билан янги нарсаларни ўрганиш, ўзи учун муҳим кашфиёт қилиш истаги билан ўқиганда ижодкорлик ривожланади.

2. *Когнитив-фаолият компоненти.* Когнитив фаоллик ва когнитив қизиқиш, ўқувчининг фаол ҳаётий позицияси ижодий шахсни шакллантиришга, ижодий салоҳиятни муваффақиятли ривожлантиришга ёрдам беради.

3. *Дивергент фикрлаш ва ижодий характердаги муаммоларни мустақил ҳал қилиш билан тавсифланган ижодий компонент.* Давлат таълим стандарти бўйича таҳсил олаётган кичик мактаб ўқувчиси учун нафақат тайёр алгоритм бўйича топшириқларни бажаришни ўрганиш, балки энг муҳими, ҳал қилишнинг янги усулларини топиш, ностандарт таклифни ўйлаб топиш жуда муҳимдир.

4. *Интеллектуал компонент.* Интеллектуал ривожланишнинг юқори даражаси ижодкорликнинг янги босқичга кўтарилишига ёрдам беради, агар ўқувчи нафақат интуитив равишда янги нарсаларни ихтиро қилиш, балки унинг сезги билим ва кўникмаларнинг яхши базаси билан қўллаб-қувватланади, яъни иррационал тамойил оқилоналик билан рационал тамойилга бирлаштирилади.

Таҷриба-синов жараёнида бошланғич синф ўқувчиларининг ижодий салоҳияти таркибий қисмлари: мотивацион, когнитив фаоллик, ижодий, интеллектуал ривожланиш даражасини диагностика қилиш ишлари олиб борилди. Тадқиқотда Н.Г. Лусканова "Бошланғич синф ўқувчиларида ўқиш мотивацияси даражасини баҳолаш" ва Г.Ю. Ксензованинг "Ўқиш-когнитив қизиқишни аниқлаш" методларидан фойдаланилди. Шунингдек, тадқиқотда ўқувчилар ижодий компонентининг ривожланиш даражасини диагностикаси қилишда дивергент (турлича, ўзига хос фикрлаш) фикрлаш ва мустақил ривожланиш даражасини аниқлаш мақсадида Ф. Вильямс томонидан ишлаб чиқилган "Дивергент (ижодий) фикрлаш" тестининг мослаштирилган ва қисман ўзгартирилган вариантдан фойдаланилди ҳамда тадқиқотимизда кузатиш, ўқувчиларнинг ота-оналари билан суҳбатлар, анкеталар таҳлили, тест, эксперт баҳолаш, ҳужжатлар таҳлили, материалларини қайта ишлашнинг математик статистик усуллари орқали қайта ишланди ҳамда натижалар олинди.

Н.Г. Лусканованинг "Бошланғич синф ўқувчиларининг мактаб мотивациясини баҳолаш" методи ўқувчининг мактабга, ўқиш ва мактаб муҳитига муносабатини ўрганишга йўналтирилган 10 та саволномадан иборат бўлиб, баҳолаш балл асосида амлга оширилади. Боланинг ижобий муносабатини кўрсатадиган жавоби мактабга ва уларнинг ўқув вазиятларни афзал кўриши 3 балл билан баҳоланади, нейтрал жавоб -1 балл. Салбий жавоб 0 балл белгиланади. Умумий баллнинг қийматига қараб, 5 та асосий мактаб мотивациясининг даражалари:

- 25-30 балл - мактаб мотивациясининг юқори даражаси, академик фаолият;

- 20-24 балл – мактабга нисбатан яхши мотивация;

- 16-19 балл – мактабга ижобий муносабат, лекин кўпроқ мактабдан ташқари ишларга ўرғу берилади;

- 10-14 балл - мактабга мотивациянинг пастлиги;

- 10 баллдан паст – мактабга салбий муносабат, мактабга мослашмаганлик.

Олинган натижаларнинг кўрсатишича, ўқувчиларнинг 31,5 % яхши мактаб мотивациясини, 24,2 % юқори даражадаги мотивацияни, 21,6 % паст мотивацияни ва 4,5% салбий даражадаги мотивацияни кўрсатди. Мазкур ҳолат ўрганилган ўқувчиларнинг мактабга ва ўқув машғулотларига бўлган муносабатига қараб, ўқитувчининг ижодий салоҳиятни ривожлантириш бўйича турли ёндошувлар, ўқитиш усуллари билан ўқитиладиган гуруҳларни аниқлаш имконини берди. Қолаверса, айрим тоифа ўқувчиларнинг мактабга ва ўқишга мотивациясининг пастлиги ва салбий даражадаги мотивацияли ўқувчилар учун ижодий турли хил фикрлаш ва ақл-идрокнинг муваффақиятли ривожланишига тўсқинлик қилиб, уларда янги билимларни кашф қилишга интилиш ва ўқув мақсадларига эришиш истагининг пасайишига олиб келади. Шунинг учун бундай ўқувчилар билан синф раҳбари, ота-оналар ва бутун мактаб маъмурияти болаларда мактабга ва ўқишга мотивация даражасини ошириш учун махсус машғулотлар, зарурий чора-тадбирларни олиб боришни тақоза қилади. Бу болаларнинг қизиқувчан бўлиши, ўқув жараёнига жалб қилинишини талаб қилади ва жараёнда барча ўқув машғулотлари уларнинг ижодий салоҳиятини ривожлантиришга йўналтирилган бўлмоғи зарур.

Тадқиқотимизда қўлланилган "Мотивлар зинапоyesi" методининг мақсади ўқувчиларни ўқитишнинг ижтимоий ва когнитив мотивлари нисбатини аниқлашга йўналтирилгандир. Бунда ўқувчи нарвон кўринишидаги ўқув мотивларининг икки тури ажратилади:

Когнитив мотивлар:

- янги билимларни ўзлаштиришга қаратилган когнитив йўналганлик;
- ўқув жараёнига жараёнли йўналганлик;
- ўқитишда натижага асосланган - самарали йўналганлик;
- билим олиш усулини ўзлаштиришга йўналганлик.

1-жадвал

Ўқувчиларда мактабга мотивация даражасининг ифодаланиши

Мотивацияси даражаси	Ўқувчилар сони	Мотивация даражаси % ҳисобида
Юқори даражадаги мотивация	46	24,2
Яхши даражадаги мотивация	96	31,5
Ижобий даражадаги мотивация	34	18,2
Мотивациянинг пастлиги	46	21,6
Салбий даражаги муносабат	16	4,5

Ўқувчиларда когнитив мотивлар даражасини ўрганиш бўйича олинган натижалардан маълум бўлишича, “ўқув жараёнига умумий йўналганлик” шкаласи юқори даражани кўрсатди (37,2%). Мос равишда “янги билимларни ўзлаш-тиришга қаратилган когнитив йўналганлик” (30,0%), “ўқитишда натижага асосланган - самарали йўналганлик” (17,6%) ва “билим олиш усулини ўзлаштиришга йўналганлик” (15,2%) шкалалари кейинги кўрстгичларни намоён қилди (2-жадвал).

2-жадвал

Респондент ўқувчиларда когнитив мотивлар даражаси кўрсаткичи

Мотив шкалалари	Жиззах вилояти	Самарқанд вилояти	Сирдарё вилояти	Ўртача % ҳисобида
Янги билимларни ўзлаштиришга қаратилган когнитив йўналганлик	29,6	30,8	29,3	30,0
Ўқув жараёнига умумий йўналганлик	36,4	37,6	39,8	37,2
Ўқитишда натижага асосланган - самарали йўналганлик	19,8	16,2	15,9	17,6
Билим олиш усулини ўзлаштиришга йўналганлик	14,2	15,4	14,9	15,2

Умуман олганда, ота-оналарнинг фарзандлари ижодий фаолиятини холисона баҳолаганликлари кузатилди. Шунга қарамаздан, айрим ота-оналар фарзандларидаги ижодкорликни ортиқча ёки кам баҳолаганликлари кўзга ташланди. Масалан, кўпгина ота-оналар қуйидаги саволларга "ха" деб жавоб беришганлар: "Сизнингча, бола иқтидорли ёки қобилиятли бўлиши мумкинми?"; “Сизнингча, бола ижодкорлик қобилиятига эгами, ёки унда бу хусусиятни янада ўстириш мумкинми? Бироқ, нима учун бундай деб ўйлашларини ҳамма ота-оналар ҳам изоҳлай олмадилар.

Шунингдек, “Болаларда креативлик қобилиятини ривожлантириш бўйича мактаб ўқув дастуридан нимани кутса бўлади?”, “Ижодкор болалар дастурида иштирок этиш натижасида болангизда креативлик бўйича қандай ўзгаришларни кўришни хоҳлайсиз?” каби саволларга ота-оналар етарлича жавоб бермаганликлари кузатилди. Бу бундай ота-оналарда креативлик қобилияти, унинг хосса ва хусусиятлари бўйича етарлича тасаввур ва тушунчаларнинг мавжуд эмаслигидан далолат беради. Мазкур саволга жавоб ёзган ота-оналар орасидан шундай таклифларни ажратиб кўрсатиш мумкин. “Боланинг тасаввурини, образли тафаккурини шакллантириш орқали болаларнинг индивидуал ижодий қобилиятларини ривожлантиришга эришиш мумкин, ижодий қобилиятларнинг ривожланиши натижасида уларда фаоллик, истеъдод, боланинг ҳар томонлама шаклланишига, ўзини исботлаш истагини уйғотишга, ижодий жараёндан завқ-шавқ олишга олиб келиш мумкин.

Хулоса. Шундай қилиб, оилавий муносабатларнинг кичик ёшдаги ўқувчиларнинг ижодкорлигини ривожлантиришга таъсири ота-оналар, шунингдек, ота-оналар ва болалар ўртасидаги

уйғун муносабатларга боғлиқ; намуна сифатида ота-оналар шахсининг ижодий йўналиши; ота-оналарнинг фарзандидан умидлари, масалан, муваффақият ёки мустақиллик; оила аъзоларининг интеллектуал манфаатлари ҳамжамияти. Шунинг учун, бир томондан, болага эътибор қаратиладиган, иккинчи томондан, унга турли хил, номувофиқ талаблар қўйиладиган, болаларнинг хулқ-атвори устидан ташқи назорат кам бўлган оила муҳити. ижодий оила аъзолари ва стереотипик бўлмаган хатти-харакатлар рағбатлантирилади - бундай муҳит болада ижодкорликнинг ривожланишига олиб келади.

Бутун дунёда психологлар болаларнинг китоб ўқиётганда тасаввур қилишлари керак бўлган нарсаларни "чайналган" шаклда идрок етиб, камроқ ўйнаши ва телевизор томоша қилишга кўпроқ вақт сарфлашидан хавотирда. Компютер ўйинлари инсоннинг уфқларини торайтиради, бундан ташқари, уларнинг деярли барчаси тажовузкор.

Француз тадқиқотчиларининг гувоҳлик беришича, телевидение маданияти бошланғич ва ўрта мактабларда ўқув натижаларига салбий таъсир кўрсатади. Барча бўш вақтларини телевизор кўриш ёки компютер ўйинларини ўйнаш билан ўтказадиган болаларда ихтиёрий эътибор йўқ, уларнинг тасаввурлари ривожланмайди.

Адабиётлар:

1. Адизов Б.Р.Бошланғич таълимни ижодий ташкил этишнинг назарий асослари. Тошкент: Фан, 1997.-182-б.
2. Азизходжаева Н.Н. Педагогические технологии и педагогическое мастерство.-Т. Фан ва ахборот технологиялари, 2006. -167 б.
3. Каримова В. Психология. -Т.: Абдулла Кодирий номидаги халк мероси нашриёти, 2002. -206 б.
4. Каримова В.М. Суннатова Р. ва бошқалар. Мустақил фикрлаш. Академик литцейлар ва касб- уунар коллежлари учун ўқув кулланма.- Т.: Шарк, 2000.- 112 б.
5. Мунавваров А. К. Оила педагогикаси.-Т.: Ўқитувчи,1994.- 127 б.
6. Рубинштейн Л. С. Психология личности.-М.: Просвещение,1991.-237
7. Немов Р.С. Психология: Учебн.пособие для учащихся пед . училищ, студентов пед. ин-ов, и работников системы подготовки, повышения квалификации и переподготовки пед. кадров. - М.: Просвещение, 1990.- 301 с.

FILOLOGIYA VA TILLARNI O‘QITISH

ASHURBAYEVA Ruqiya Qahhorovna

Buxoro davlat tibbiyot instituti,
O‘zbek tili va adabiyoti, rus tili,
pedagogika, psixologiya kafedrası assistenti
ruqiya.qahhorova@mail.ru

UO‘K 371.38

ONA TILI DARSLARIDA INTEGRATSIYALASHGAN TA‘LIM BERISH KONSEPSIYASI

Bugungi kunda O‘zbekiston ta‘limi tizimida olib borilayotgan islohotlarda uzluksiz ta‘limning har bir bosqichlarida talab darajasida bilim va ko‘nikmalari shakllangan, o‘z dunyoqarashi ega, har qanaqa nutqiy sharoitida o‘z fikrini mustaqil va erkin bayon eta oladigan, jahon andozlariga mos, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi. Ana shu maqsadlar ro‘yobi esa bevosita o‘rta umumta‘lim maktablarida ona tili ta‘limi zimmasiga katta mas‘uliyat yuklaydi. Mazkur maqolada ona tili ta‘limi jarayonini sifatli tashkil qilish va integratsiyalashgan ta‘lim berish konsepsiyasining samarasi va uni amalga oshirish tamoyillari haqidagi mulohazalar o‘z aksini topgan. Shuningdek, integrativ ta‘lim mezonlari Sharq olimlari faoliyatida aks etganligi borasida ham fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: sharq olimlari, aloqadorlik, integratsiya, konsepsiya, ona tili, ta‘lim, o‘quvchi, assotsiativlik, intellektual salohiyat, innovatsion texnologiyalar.

КОНЦЕПЦИЯ ИНТЕГРИРОВАННОГО ОБУЧЕНИЯ НА УРОКЕ РОДНОГО ЯЗЫКА

Сегодня в ходе реформ, проводимых в системе образования Узбекистана, знания и умения формируются на необходимом уровне на каждой ступени непрерывного образования, имеют своё мировоззрение, могут самостоятельно и свободно высказывать своё мнение в любой речевой ситуации, является одной из основных целей подготовки конкурентоспособных кадров по мировым стандартам. Реализация этих целей возлагает большую ответственность на обучение родному языку в средних общеобразовательных школах. В данной статье отражены размышления об эффективности концепции качественной организации образования на родном языке и концепции интегрированного образования и принципах её реализации. Обсуждается также, что критерии интегративного образования нашли своё отражение в деятельности восточных учёных.

Ключевые слова: восточные ученые, коммуникация, интеграция, концепт, родной язык, образование, студент, ассоциативность, интеллектуальный потенциал, инновационные технологии.

THE CONCEPT OF INTEGRATED TEACHING IN MOTHER LANGUAGE CLASSES

Today, in the reforms carried out in the education system of Uzbekistan, knowledge and skills are formed at the required level at each stage of continuous education, have their own worldview, and can express their opinion independently and freely in any speech situation. , is one of the main goals of training competitive personnel according to world standards. The realization of these goals places a great responsibility on mother tongue education in secondary general education schools. In this article, reflections on the effectiveness of the concept of quality organization of mother tongue education and the concept of integrated education and the principles of its implementation are reflected. It is also discussed that the criteria of integrative education are reflected in the activities of Eastern scientists.

Key words: Eastern scholars, communication, integration, concept, mother tongue, education, student, associativity, intellectual potential, innovative technologies.

Kirish. Farididdin Attorning: “Bu ro‘yi zaminda mayda narsaning o‘zi yo‘q, hamma narsa bir-biri bilan bog‘liq va bir-birini to‘ldiradi”, degan fikrlari hech bir zamon va makonda o‘z mohiyatini yo‘qotmasligi aniq. O‘zaro aloqadorlik asosida olam mavjudligi, koinotda “bir-birining o‘rnini to‘ldirish”, “bir-biri bilan vobastalik” kabi kategoriyalar mavjudligini sharq mutafakkirlari yaxshi bilishgan. Tabiat qonuniyatlari asosidagi hodisalar va jamiyat bilan bog‘liq tushuncha, voqelik va h.larning o‘zaro uyg‘unligi sharqda garchi to‘g‘ridan-to‘g‘ri “integratsiya” atamasi bilan atalmasa-da, ushbu kategoriya sharq olimlari

tomonidan amalga oshirilgan har bir ishda, ilmiy jarayonda ular uchun dasturlamal bo‘lganligi alohida sharhga muhtoj emas. “Integratsiya” atamasi g‘arb olimlari tomonidan fanga 1980-yillarda kiritilgan bo‘lsa-da, bu atama ildizi sharq olimlarining ijodi va faoliyatida o‘z aksini topgan. Ularning buyuklik siri balkim, shundandir. Vaholanki, butun jahonga tanilgan sharq olimlari birgina fan sohasi bilan shug‘ullanmay ko‘plab fanlardan fundamental bilimga ega bo‘lishgan. Ular har bir fan bir-birini to‘ldirishi, bir-biri bilan aloqadorlikda mukammallik kasb etishini juda teran tushunishgan.

Asosiy qism. Integratsiya haqida gapirilganda mazkur atamaning mazmun-mohiyatini aniq va chuqur anglashimiz uchun ko‘z o‘ngimizda bir necha elementlarning birlashuvidan hosil bo‘lgan butunlik gavdalanishi zarur. Masalan, insonning bir piyolagina choy ichishi uchun choynak, payola, quruq choy, 100 gradusda qaynagan suv, suv qaynatgich kabilar kerak bo‘ladi. Ularning bittasi, aytaylik, suv qaynatgich bo‘lmasa, endi mohiyat o‘zgaradi: choy emas, chanqoqni sovuq suv bilan qondirishga to‘g‘ri keladi va h. Maktabda fanlararo aloqadorlik tushunchasini ham shu zaylda tushunish mumkinki, o‘rta umumta‘limda o‘qitiladigan o‘quv predmetlarini bir-birisiz to‘laqonli o‘zlashtirib bo‘lmaydi [1].

Tarixga nazar solar ekanmiz, sharq qomusiy olimlarining ilmiy-falsafiy qarashlari nafaqat o‘z davriga, o‘z makoniga, balki butun insoniyatga, kelajak avlodlar taqdiriga tegishli ekanligini ko‘ramiz. Demak, integratsiyaga asoslangan ta‘lim ildizlarini sharq tarixidan, innovatsion texnologiyalarni g‘arbning hozirgi kunda taraqqiyot yo‘liga o‘tib olgan o‘qitish usullari va vositalaridan izlash zarur.

Zero, sharq ma‘naviy-ma‘rifiy olamida, ta‘lim tizimida integratsiyaga asoslangan o‘qitish tizimi natijalari sifatida jo‘yali faktlarni keltirish mumkin. Jumladan,

Mutaxassislar tomonidan arab bosqinidan keyingi IX-XII asrlar “sharq renessansi” deb nomlanganligi va bu davr tarixda chuqur iz qoldirganligi ma‘lum. Zero, sharqlik ulug‘lar dunyo tuzilishi haqidagi zamonaviy nazariyalarga aynan shu davrda asos solishdi. Muhammad Muso al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Ahmad al-Farg‘oniy Abu Nasr Forobiy, Yusuf Xos Hojib, Mahmud Koshg‘ariy, Mahmud Zamaxshariy, imom Buxoriy, imom Termiziy, imom Moturudiy, Abul Muin Nasafiy kabi buyuk ajdodlarimiz o‘zlari shug‘ullangan asosiy soha bo‘yicha butun olamda ustozlik maqomiga erishdilar. Mazkur davr dunyo taraqqiyotining yuksalish tamoyillarini belgilab berdi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Buning yorqin isboti – Xorazmda barpo etilgan Ma‘mun akademiyasidir [4].

Mo‘g‘ullar bosqinidan keyingi XIV-XV asrlar sharqda ikkinchi renessans davri sifatida e‘tirof etiladi. Zero, bu davr jahon ilm-faniga–

ulug‘ ulamolar: Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy, Burhoniddin Marg‘inoniy, Abul Mu‘in Nasafiy kabi;

mumtoz shoir va mutafakkirlar: Qozizoda Rumiy, Mirzo Ulug‘bek, G‘iyosiddin Koshiy, Ali Qushchi singari benazir olimlar, Lutfiy, Sakkokiy, Hofiz Xorazmiy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Bobur Mirzo kabi;

tarixchilar: Sharafiddin Ali Yazdiy, Mirxond, Xondamir kabi:

musavvirlar, ko‘plab xattot va sozandalar, musiqashunos va me‘morlar: Mahmud Muzahhib, Kamoliddin Behzod singari iqtidor egalarini yetkazib bera oldiki, ular qadim sharqning shuhratini dunyoga yoydilar [2].

Barcha zamon va makonlarda ham integratsiyaga asoslangan ta‘lim insonning jamiyat uchun ahamiyatli shaxs bo‘lib yetishuvini ta‘minlaydi va ta‘lim oluvchida intellektual salohiyatni tarbiyalaydi, inson zuvalasidagi imkoniyatlar eshigini ochadi, uning bor iqtidorini namoyon etishiga zamin hozirlaydi, dunyo bilimlarining yaxlit kalitini qo‘liga tutadi. Fikrimizni yuqorida nomlari zikr etilgan dunyo ilmi vakillari, qomusiy olimlarning qoldirgan ilmiy meroslari tasdiqlaydi.

Ta‘kidlash joizki, tahlillarimizda ona tili darslarida o‘quvchilarga innovatsion texnologiyalar vositasida integratsiyalashgan ta‘lim berish konsepsiyasi haqida mulohaza yuritganimizda sharq mutafakkirlarining bu boradagi qarashlaridan metodologik asos sifatida foydalanamiz.

Konsepsiya (lotincha “conception” so‘zidan olingan majmua, tizim demakdir) – biror sohaga tegishli qarashlar, tamoyillar tizimi, fakt va hodisalarni tushunish, anglash va izohlashning muayyan usuli, asosiy nuqtai nazar[5]. Maxsus adabiyotlarda konsepsiya atamasining tor va keng ma‘nolarda qo‘llanilishini kuzatdik. Mazkur atama keng ma‘noda olamni bir butun holatda anglashga xizmat qiluvchi dialektik qonuniyatlar borasidagi qarashlar, nuqtai nazarlarni anglatga, tor ma‘noda muayyan soha, masalan, pedagogika sohasining asosiy maqsadidan kelib chiquvchi umumiy mohiyat, qarash, tamoyillar tizimini ifodalaydi.

Ona tili darslarida o‘quvchilarga innovatsion texnologiyalar vositasida integratsiyalashgan ta‘lim berish konsepsiyasini O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta‘limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-

5712-son Farmoni 1-ilovasi hamda XXI asr ta’limining umumiy taraqqiyot konsepsiyasiga muvofiq quyidagicha belgiladik:

maqsadi: o’quvchilarda assotsiativlikka asoslangan intellektual salohiyatni shakllantirish va rivojlantirish asosida barkamol shaxsni tarbiyalash;

(Bu maqsad bolaga tabiat in’om etgan aqliy qobiliyatni yuzaga chiqarish va uni rivojlantirib borish uchun, kelgusida ma’naviy ehtiyojlarini qondirish, turmush tarzini to’laqonli va mukammal bo’lishini ta’minlashga imkon beradigan umumiy va mushtarak bilimlarni berishga asoslanadi. Zero, maktab ta’limining intellektual shaxsni tayyorlab berishidan jamiyat ham, davlat, xalq, millat ham teng barobarda manfaatdordir.)

vazifalari:

o’quvchilarning ijodiy qobiliyati va iqtidorini aniqlash asosida ularni mantiqiy fikrlashga o’rgatish;

o’quvchilarda assotsiativlikka asoslangan intellektual salohiyatni shakllantirish va rivojlantirish;

o’quvchilarda assotsiativlikka asoslangan intellektual salohiyatni rivojlantirish asosida ularni tanqidiy fikrlashga o’rgatish;

o’quvchilarda assotsiativlikka asoslangan intellektual salohiyatni rivojlantirish asosida axborotlarni mustaqil izlash, tahlil qilish va keragini nokeragidan ajrata olish ko’nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish;

o’quvchilarda assotsiativlikka asoslangan intellektual salohiyatni rivojlantirishda ta’lim-tarbiya-shaxs ma’naviyati uyg’unligiga erishish;

yondashuvi: innovatsion texnologiyalar vositasida integrativ yondashuv;

yondashuv munosabati:

o’qituvchi-o’quvchining o’zaro hamkorligi;

subyekt-subyekt;

o’quvchi-o’quvchining o’zaro hamkorligi;

(Bunda o’quv predmetlariaro muayyan birlik, tushuncha yoki voqelik tahlilida, ularning o’zaro o’xshash va farqli belgilarini topishda bir-birlarining fikrlarini hurmat qilish, o’zaro samimiy munosabat, hamkorlik, tenglik munosabatlarining o’rnatilishi, birga qayg’urish, birga izlanish, hamkorlikda ijod qilish, bir-birini to’ldirish kabilar nazarda tutiladi.)

shakli: kichik guruhlarda ishlash;

pedagogik texnologiyasi: o’quvchini mustaqil o’qishga, bilim olishga, fikrlashga o’rgatishni kafolatlaydigan jarayon;

o’quv vositalari: asbob-uskunalar, laboratoriya jihozlari, axborot va texnik vositalar (qurilmalar), ko’rgazmali qurollar, ramziy belgilar, darslik, o’quv qo’llanmalari, komyuter, multimedia ilovalari va h.;

tamoyillari:

tizimlilik tamoyilida ona tili darslarida tanlangan materialning biri keyingisini taqozo etishi yoki har bir keyingi bilim oldingisiga asoslanishi zarur;

(Bunda o’qituvchi ilmiy asoslar mantig’ini bir va bir necha o’quv predmetlari doirasida to’g’ri anglab olishi va ularni o’quvchi yoshiga mos ravishda soddalashtirib qayta ishlab chiqishi kerak bo’ladiki, bu o’ziga xos izchillikni talab etadi.)

izchillik tamoyilida ikki-uch yoki uch-to’rt o’quv predmeti doirasida tanlangan o’zaro aloqador materiallarni ma’lum tartibga solishda o’qituvchi to’planganlarni mohiyatan birlamchi va ikkilamchi mohiyatga ega bo’lganlarga ajrata olishi va ularning zarurlarinigina izchil saralashi nazarda tutiladi;

(Bunda o’qituvchi tomonidan izchillikka asoslanib saralangan mavjud bilimlar oddiydan murakkabga qarab yoki bo’lakdan butunga qarab ketma-ket tizim asosida joylashtiriladi.)

ketma-ketlik tamoyilida ikki-uch yoki uch-to’rt o’quv predmeti doirasida tanlangan o’zaro aloqador materiallarni o’qituvchi tomonidan ma’lum tartibda o’quvchiga taqdim etib borishi tushuniladi;

(Bunda o’quvchiga taqdim etilayotgan o’quv materiali uning ong ostiga qanday singishi inobatga olinadi. Ketma-ketlik tamoyilida shoshqaloqlik yaramaydi. Rus olimlari M.A.Danilov, B.P.Esipov, V.P.Strekozin, A.Ya.Danilyuk ta’kidlaganlaridek: “O’rganishning ketma-ketlik tamoyili asosida jarayon shunday tashkil etilishi kerakki, bunda o’quvchiga taqdim etilayotgan bilimlar qat’iy tizimda bo’lishi, har bir keyingi (muayyan dalil, ta’riflarga tayanuvchi) bilim oldingisidan kelib chiqishi va oldingisi keyingisida rivojlanib takomil topishi muhim. Bularning barchasi o’quvchining keyingi o’zlashtirishlari uchun zamin vazifasini o’tashi zarur. Ya’ni oddiy qilib aytganda: “O’quvchingiz oldingisini o’zlashtirmaguncha keyingisiga o’tmang!” [3])

uyg’unlik tamoyilida ona tili darslarida tanlangan matnning o’quvchi ong osti ma’lumotlariga yaqin bo’lishi nazarda tutiladi;

Shuningdek, bunda ona tili o‘qitishda ta’lim, tarbiya va rivojlanish uyg‘unligi tamoyili, ilmiylik va tushunarlik tamoyili, nazariyaning amaliyot bilan aloqadorligi tamoyili, onglik, faollik va mustaqillik tamoyili; ko‘rsatmalilik tamoyili, bolalarning yosh hamda o‘quv imkoniyatlarini hisobga olish tamoyillari ham amal qiladi. Biz bularga qo‘shimcha qilib o‘quvchilarda assotsiativlikka asoslangan intellektual salohiyatni rivojlantirish tamoyilini ham kiritishni joiz deb topdik.

Xulosa. Sanab o‘tilgan tamoyillarning barchasi ta’limning ona tili ta’limining bosh maqsadi ro‘yobi uchun xizmat qilmog‘i muhim. Zero, o‘qitishning asosiy maqsadi ta’limning muayyan mo‘ljalga yo‘naltirilganligini va shu maqsadga mosligini o‘zida ifodalagan, o‘qitishning ijtimoiylikini, uning jamiyatdagi o‘rnini belgilab beradigan, o‘qitishning mazmuni, yo‘nalishi, usullari hamda shaklini belgilovchi boshlanma hisoblanadi. (Ta’lim maqsadida tarbiyaning maqsadi, ya’ni insonga nisbatan u qanday bo‘lishi kerak, unga qanday ijtimoiy ehtiyojlar uchun ta’lim berish kerak, degan talablar ifodalangan bo‘ladi. Ta’lim jarayonida ta’lim va tarbiya maqsadlarini belgilovchi jamiyat talablari to‘la holda aks etsagina, bola shaxsi har tomonlama kamol topadi. D.Yuldasheva ta’kidlaganidek, bilim berish hamda tarbiyalashning o‘zaro uyg‘un maqsadi o‘qitish tizimini– ta’lim jarayoni, uning mohiyati, mazmuni, vositalari, usuli, ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchi munosabatlari, shuningdek, uning natijasi – jamiyatga qanday mutaxassis(shaxs)ni tayyorlashni belgilaydi.)

Agar e’tibor qaratsak, dunyo tamaddunini harakatlantiruvchi, taraqqiyot g‘ildiragining aylanishini tezlashtiruvchi kuch ilm-ma’rifatli, zamon talablariga javob bera oladigan kadrlar sanaladi. Bunday kadrlarni oliy ta’lim yetishtirib bersa-da, uning poydevorini maktab qo‘yadi. Maktab iqtidor buloqlarining ko‘zini ochsagina, ta’limning keyingi bosqichlari uning o‘zanlarini kengaytiradi, mustahkamlaydi. Zero, millatni buyuk, mamlakatni qudratli va nufuzli etadigan salmoqli kuch ilm-fan, ta’lim-tarbiya ekanligi aksiomadirki, respublikamizda ham bunga alohida e’tibor qaratilishi bejizga emas. Jahon sivilizatsiyasiga erishgan mamlakatlarning taraqqiyot yo‘liga nazar tashlasak, ularda ta’lim sifatini yuksaltirish masalasi ustuvorligini kuzatamiz.

Adabiyotlar:

1. Ashurbayeva R. Ta’lim tizimida integrativ yondashuvning ahamiyati// BuxDU ilmiy axboroti (ISSN 2181-6875).–Buxoro, 2020, № 4 (80).– 293-299-b.
2. Ashurbayeva R. Ta’lim jarayonida integrativ yondashuv (maktab ona tili darslari misolida). Monografiya. – Buxoro: Durdon, 2021. –148 b. –16-b.
3. Данилюк А.Я. Теория интеграции образования. Монография. – Ростов н/Д.: Изд-во Рост. пед. ун-та, 2000. – 440 с.– 316-с.; Данилов М.А., Есипов Б.П. Дидактика. –Москва, 1957.–178-с.
4. <https://hozir.org/1-uygonish-davri-tushunchasi-markaziy-osiyo-rennessansi-va-uni.html>
5. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-k/kontseptsiya-uz/>
6. Ashurbayeva R.K. The concept of integration and its application in education. “International Scientific Journal Theoretical & Applied Science” (ISSN: 2308-4944 (print) e-ISSN: 2409-0085). –Year: 2020 Issue: 02 Volume: 82. –83-86 p. <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=42658976>.
7. Ashurbayeva R.K. Effective methods of teaching the mother tongue in the education system. “International Engineering Journal For Research & Development”. Vol.5 Issue 7E-ISSN NO: -2349-0721. <https://iejrd.com/index.php/%20/article/view/1313>
8. Ashurbayeva R.K. Ways of effective Implementation of Integration. Middle European Scientific Bulletin. Volume 10, March 2021. ISSN 2694-9970. Pag.45-51. <https://cejsr.academicjournal.io/index.php/journal/article/view/308>.
9. Ашурбаева Р.К. Интеграционный подход в системе образования. Colloquium-journal (ISSN 2520-6990 ISSN 2520-2480). (Warszawa, Polska).– №12 (64), 2020 Część 3 (DOI: 10.24411/2520-6990-2020-11799). <https://cyberleninka.ru>.

MO‘MINOVA Go‘zalxon G‘ulamjanovna

Namangan davlat universiteti Boshlang‘ich ta’limda ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitish metodikasi kafedrası o‘qituvchisi
E-mail: mominovagozalxon09 @gmail.com

LINGVISTIK KOMPETENSIYA TURLARI: MOHIYATI VA TUZILISHI

Ona tilini o‘qitishda hozirgi bosqichda o‘rganishning maqsadlari, uning mazmuni, bilim, ko‘nikma va malakalarning darajalari lingvistik va kommunikativ kompetensiyalar, lingvistik kompetentlik orqali aniqlanadi. Mavjud ilmiy-metodik adabiyotlarda "kompetensiya" tushunchasi ko‘pincha "kompetentlik" atamasini izohlash kontekstida ko‘rib chiqiladi. Ba’zi tadqiqotchilar "kompetensiya" va "kompetentlik" tushunchalarini sinonim deb hisoblashsa, boshqalari ularning farqini ta’kidlaydilar. Boshlang‘ich ona tili metodologiyasida bular nisbatan yangi tushuncha bo‘lib, o‘zbek lingvodidaktikasiga endi kirib kelmoqda.

Lingvistik kompetensiya “ona tili qanday ishlaydi, u nima va qanday o‘zgaradi, qaysi jihatlari eng muhimligi haqida”gi g‘oyalarni shakllantirishni, tilning jamiyat va inson hayotidagi o‘rni haqidagi ma’lumotlarni o‘zlashtirishni o‘z ichiga oladi, fanga doimiy qiziqish, ona tiliga hurmat va muhabbat tuyg‘ularini shakllantiradi. Lingvistik kompetensiya ta’lim va tildan muloqot vositasi sifatida foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirishni ham nazarda tutadi. Boshlang‘ich sinf ona tili darslarida lingvistik kompetensiyaning fonetik-fonologik, leksik, grammatik turlarini shakllantirish borasida faoliyat amalga oshiriladi. Taqdim etilgan maqolada ularning mohiyati va tuzilishi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: kompetensiya, mohiyati, tuzilishi, maktab o‘quvchisining lingvistik kompetensiyasi, til bilimining mukammalligi va yetukligi, fonetika, lug‘at, orfoepiya, grammatika, imlo, tarkibiy komponentlar, kompetensiya turlari.

ВИДЫ ЛИНГВИСТИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ: СОДЕРЖАНИЕ И СТРУКТУРА

This article discusses the need and problems of creating textbooks, which is considered one of the urgent issues of the secondary education system of Uzbekistan today. In particular, considerations about the importance of creating explanatory dictionaries of paronymous words for schoolchildren studying in the secondary education system and the principles of compiling such dictionaries in accordance with world standards are also reflected. Samples of explanatory dictionaries of paronyms were given for schoolchildren studying in the secondary education system, and these samples were compiled on the basis of certain principles, and such dictionaries made a significant contribution to the development of Uzbek lexicography.

***Key words:** mother tongue education, independent thinking, educational dictionaries, dictionary of paronyms, principle, Uzbek lexicology*

Kirish. O`rta umumta`lim maktablarida ona tili ta`limi jarayonida o`quvchilarda mustaqil fikr yuritish ko`nikmalarini hosil qilishning asosiy omillaridan biri dars jarayonida ham, darsdan tashqari mustaqil ta`lim jarayonida ham ta`lim oluvchilarni o`quv lug`atlaridan foydalanishga o`rgatishdir. Zero, birgina ona tili ta`limi jarayonida o`quvchi foydalanishi uchun kamida o`ttizdan ortiq o`quv lug`atiga ehtiyojimiz borligiga qaramay bizda o`quv lug`atlarining sanoqli turlarigina mavjud. Afsuski, o`rta umumta`lim maktablarida ulardan ham yetarlicha foydalanilmayapti. Agar dunyoning rivojlangan mamlakatlarida, jumladan, ingliz, nemis, fransuz kabi tillar bo`yicha o`quvchilarning ona tili darslarida foydalanishlari uchun 20-30 turdan ortiq o`quv lug`atlari mavjudligini hisobga olsak, bizda o`quv lug`atchiligiga jiddiy e`tibor qaratilishi zarurligini sezamiz.

Demak, o`zbek tilshunosligi oldida turgan muhim vazifalaridan biri o`quv lug`atlarini tuzish, keng ommalashtirish bo`lsa, o`qituvchi-ustozlar zimmasida o`quvchi, talaba, maorif va madaniyat xodimlarida

ijtimoiy hayot bilan bog‘liq faoliyatlarining birinchi kundan boshlab lug‘atlardan keng va ommaviy ravishda *foydalanish madaniyatini* shakllantirish vazifasi turadi. /10,12/ Shuningdek, o‘qituvchilar oldida ta‘lim oluvchilarda bilimga ehtiyoj ruhini shakllantirishga, ya‘ni lug‘atlardan foydalanishga ehtiyoj ruhini shakllantirishga intilish mas‘uliyati turadi.

Shu o‘rinda yana bir muhim jihatni ta‘kidlash lozim. O‘rta umumta‘lim maktablarida ona tili ta‘limining asosiy-jamiyatga ijodiy tafakkur sohibini yetkazib berish-maqsadini chuqur anglagan mutaxassislar tomonidan qator o‘quv lug‘atlari yaratildi. O.Shukurov va B.Boymatovanning “O‘zbek tilining ma‘nodosh so‘zlar o‘quv lug‘ati”, Yo.Hamrayevaning “O‘zbek tilining o‘zlashma so‘zlar o‘quv lug‘ati”, U.To‘rayeva va D.Shodmonovanning “O‘zbek tilining zid ma‘noli so‘zlar o‘quv lug‘ati”, B.Mengliyev va B.Bahriddinovanning «O‘zbek tilining so‘z tarkibi o‘quv lug‘ati», X.Suvonova va G.Turdiyevaning «O‘zbek tilining shakldosh so‘zlar o‘quv lug‘ati», T.Nafasov va V.Nafasovanning “O‘zbek tilining o‘quv toponimik lug‘ati”, “O‘zbek tilining talaffuzdosh so‘zlar o‘quv lug‘ati”, X.Norxo‘jayevaning “O‘zbek tilining eskirgan so‘zlar o‘quv lug‘ati”, B.Mengliyev, B.Bahriddinova, O‘.Xoliyorov, M.Zaripova va M.Xushvaqto‘vning “O‘zbek tilining so‘z yasalishi o‘quv lug‘ati” kabilar shular jumlasidandir. Lug‘atlarni jamoatchilik iliq kutib oldi. Bu haqda “Ma‘rifat” gazetasida “Beshikdagi Alpomish”, “Beshikdagi Alpomish – lug‘atlar guldastasi”, “Til va adabiyot ta‘limi” jurnalida “Yangi o‘quv lug‘atlari”, “O‘quv lug‘atlarini yaratish – dolzarb vazifa” kabi maqolalar e‘lon qilindi. Hozirda mazkur lug‘atlarning takomillashtirilishi va respublika miqyosida ommaviy ravishda chop etilishi, shuningdek, maktab o‘quvchilarining qo‘llariga yetkazilishi kutilmoqda. Vaholanki, maktab o‘quvchilari uchun zaruriy lug‘atlar yaratish va ommalashtirish ishini o‘z holiga tashlab qo‘yib bo‘lmaydi.

Xuddi shuningdek, maktab o‘quvchilari uchun «Paronimlarning izohli lug‘ati»ni tuzish va ommalashtirish masalasi ham yuqorida ta‘kidlangan «o‘quvchilarda mustaqil fikr yuritish ko‘nikmalarini hosil qilish» ehtiyojidan kelib chiqadi.

Asosiy qism. Maktab o‘quvchilar nutqida *oqlik va oqliq, borlik va borliq, burch va burj, alpoz va alfoz yoki darz va dars, amr va amir, ahl va ahil, bob va bop, tib va tip, tub va tup* kabi birliklar ba‘zan farqlanmasligini bilamiz. O‘quvchilarga ana shu kabi paronimik juftliklarning izohli lug‘atini yangicha tamoyilda berish bolaning til sezgirligini oshirib, muayyan so‘z xususida to‘liq ma‘lumot olish imkonini beradi. /2, 120/

Paronim so‘zlarni sistemali tahlil asosida o‘rganish tilning lug‘at tarkibi semantik maydonlardan tashkil topgan butun bir tizim ekanligini ochib ko‘rsatish va o‘quvchi tafakkurini o‘stirishda yordam beradi. Shunga asoslanadigan bo‘lsak, maktab o‘quvchilari uchun mo‘ljallangan paronim so‘zlarning izohli lug‘atini tuzishda quyidagi tamoyillarga tayanib ish ko‘rish lozim bo‘ladi: /10,141-142/

–**nazariya va amaliyot uyg‘unligi tamoyili.** Paronimlarning izohli lug‘atida berilayotgan materiallar o‘zbek tilshunosligida erishilgan yutuqlarga har tomonlama mos kelishi, xususan, paronimiya nazariyasining amaliyotdagi ko‘rinishi bo‘lmog‘i zarur.

–**alifbo tartibida ifodalash tamoyili.** Lug‘atda tushunchalar, me‘yoriy ko‘rinishda, mazmuniy maydonlar doirasida emas, alifbo tartibi bo‘yicha berilishi lozim. Bu usul o‘quvchilarni tayyor materialdan foydalanishga, shuningdek, mustakil izlanishga, fikr yuritishga, izoh va xulosalar chiqarishga o‘rgatishda qo‘l keladi. Shu yo‘l bilan bugungi kun kishisida yangi turdagi lug‘atdan, shuningdek, internet materiallaridan foydalanish malakasini shakllantirish mumkin.

–**ilmiylik tamoyili.** Yaratilajak paronimlarning izohli lug‘atida keyingi 15-20 yil ichida o‘zbek tilshunosligida keng rivojlanayotgan sistemaviylik yo‘nalishi o‘z aksini topgan bo‘lishi zarur.

–**ta‘limiylik tamoyili.** Paronimlarning izohli lug‘ati ona tilidan amaldagi o‘quv dasturini hamda DTS talablarini nazarda tutgan holda, shuningdek, ta‘lim oluvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olib, o‘quvchilarning o‘rganish maqsadi uchun tuziladi.

–**izohsiz izoh chiqarish tamoyili.** Paronimik izohli lug‘atda berilayotgan leksemalar sodda va tushunarli bo‘lishi talab etiladi. Masalan, lug‘atdan foydalanuvchi **adl** leksemasida «*adolat*», «*to‘g‘rilik*», «*odillik*» semalari borligini oson anglab yetishi zarur /11,45/. Ushbu *kuch, qudrat, peshvo, tarafdor* kabi leksemalar bilan ma‘noviy birikishi natijasida alohida ijobiy tushuncha maydonini hosil qilishi (*adl kuchi, adl qudrati, adl peshvolari, adl tarafdorlari*), ikkinchi tomondan «*haqsizlik*» semasi bilan *jaholat, jahillik, adolatsizlik, bedodlik* ko‘rinishidagi leksemalar bilan zid ma‘noli semantik qatorni hosil qilishini anglab yetishi va shuning yordamida izohsiz izoh chiqara bilishi kerak.

–**umumiylik-xususiylk tamoyili.** Lug‘at tuzishda umumiylik- xususiylk dialektikasiga tayanib ish ko‘rish muhim. Mazkur usulda leksemalar orasidagi ma‘nodoshlik, uyadoshlik, tur-jins, butun-bo‘lak, darajalanish kabi munosabatlar aniqlanadi, bu ifodalanayotgan mohiyatning serqirraligini yoritib berishda yordam beradi.

–**izchillik tamoyili.** Paronimlarning izohli lug‘atida tushuncha maydonlari ichida keltirilayotgan

leksemalar bir-biriga aralashib ketmasligi, aniq bir reja ostida birikishi zarur.

Yuqoridagi talablarga rioya qilingan taqdiridagina o‘zbek tilida paronimlarning izohli lug‘atini tuzishning nazariy hamda amaliy masalalarini to‘g‘ri hal qilish mumkin. /3, 8-21/

Tushuncha maydonidan foydalanib paronimlarning izohli lug‘atini tuzishda paronimik munosabatdagi juftliklarning paradigmatic, sintagmatic va ierarxik xususiyatlarini inobatga olish zarur. Chunki paronimlar ham bu borada rang-barang xususiyatlarga ega. Misol tariqasida ko‘pma’noli **adil** hamda **adl** paronimik juftligiga murojaat etib ko‘ramiz. Ushbu paronimik juftlikda talaffuziy o‘xshashlik mavjud. Ko‘pma’noli **adil** to‘g‘ri, egilmagan, bukilmagan, tika, to‘ppa-to‘g‘ri kabi ma’nolarni anglatuvchi ushbu so‘zlar ma’no jihatidan bir-biriga yaqin tursa-da, sintagmatic xususiyatlariga ko‘ra o‘zaro zidlanadi. Masalan, *adil qomat, adil bosh, adil terak, adil navda* deyish mumkin, ammo *adil ko‘cha, adil yo‘l, adil ketmoq, adil bormoq* birikmalaridagi *ko‘cha, yo‘l, ketmoq, bormoq* bilan aslo almashtirib bo‘lmaydim. Paronimik lug‘atda bu kabi masalalar, shubhasiz, o‘z yechimini topadi. Shuningdek, bunday lug‘atda imkon qadar (agar shunday xususiyatlar mavjud bo‘lsa) paronimik, gipero-giponimik, graduonimik singari munosabatlar ifodalanadi. Shu tariqa paronimlarning izohli lug‘atida olam - ong - til dialektik munosabati /2, 15/ aks etadi.

Shu o‘rinda ta’kidlash lozimki, o‘zbek tilshunosligida paronimlarning chegarasini belgilashdagi har xilliklar mavjud. Bu esa lug‘at tuzish ishiga ancha «soya» soladi. Chunonchi, Shoabdurahmonov Sh. va b.larning «Hozirgi o‘zbek adabiy tili» kitobida «Paronimlar» mavzui ostida quyidagilar qayd etilgan: «Fonetik strukturasi boshqa-boshqa, talaffuzda o‘xshash, yaqin bo‘lib qoladigan so‘zlar **paronimlar** deyiladi. So‘zlarning o‘zaro bunday munosabatda bo‘lish hodisasi **paronimiya** deyiladi. *Fakt– pakt, afzal – abzal, amr – amir* va b. Demak, paronimiya adabiy normada talaffuz etmaslik, adabiy talaffuz normasini, shuningdek, so‘zning fonetik strukturasi to‘g‘ri bilmaslik natijasida sodir bo‘ladi.

Omonim, omofon, omograf va paronimlar haqida aytilganlardan shu narsa ma’lum bo‘ldiki, ularda ikki yoki undan ortiq so‘zning o‘zaro birlik hosil qilishi shakliy munosabatga ko‘ra, talaffuziga ko‘radir. Bunda so‘zlarning ma’no jihati hech qanday ahamiyatga ega emas ». /8, 51/

Tursunov U. va boshqalarning «Hozirgi o‘zbek adabiy tili» kitobida «Leksik paronimiya» mavzusi ostida quyidagilar qayd etilgan: «Leksik paronimiya. Ikki leksemani o‘zaro paronim deyish uchun (yunoncha raga – «yonidagi», opuma – «ism») ular: 1) yasama leksemalar bo‘lishi, 2) ayni bir lekseman yasalgan bo‘lishi, 3) ayni bir turkumga mansub bo‘lishi, 4) yasovchi morfemalarining mazmun planida umumiylik bo‘lishi, 5) yasovchi morfemalari ifoda plani jihatidan o‘xshash bo‘lishi kerak. Rus tilidan o‘zlashgan quyidagi baynalmilal leksemalar yuqorida sanalgan talablarga mos keladi, demak, paronimlar deb qaraladi: *Abonent* («abonement egasi»)– *abonement* («biror narsadan ma’lum muddat foydalanish huquqini beradigan hujjat»); bunda: a) yasash asosi – *abon-*; b) yasovchilar– *-yent, -yement...*

Leksik paronimlar ancha sodda talablar asosida ham belgilanadi: fonemalar tuzumida faqat bir fonemasi bilan farqlanib turadigan ikki leksema o‘zaro paronim deb qaraladi. Shunday talab yetarli deyilsa, *alpoz* («ahvol», «yo‘sin») – *alfoz* (*lafz* leksemasining ko‘pligi), *abzal* (asli *afzor*: «asbob», «egar-jab-duq»)– *afzal* («yaxshi», «ortiq»), *xalos* («ozod»)–*xolos* («faqat»), *tizmoq* («ipga shodalamoq»)– *chizmoq* («chiziq tushirmoq»), *xush* («yaxshi», «yoqimli») — *hush* («kishining sezish, idrok etish, anglash qobiliyati»), *ruh I* (shaxmat donalaridan birining nomi – «to‘ra») – *ruh* («kishining his-tuyg‘ularini aks ettiruvchi kayfiyati») kabi juftlarni paronim deyish mumkin. /7, 49/

Shu o‘rinda keltirilganlardan bir-birini rad etuvchi ba’zi misollarni solishtiraylik:

– «O‘zbek tili leksikologiyasi» kitobida *amr* bilan *amir* so‘zlarining o‘zaro munosabatiga e’tibor beraylik. *Amr* so‘zi *buyruq* leksik ma’nosiga ega bo‘lib, *amir* esa undan yasalgan *buyruq beruvchi* leksik ma’nosiga egadir. Bu so‘zlar arab tiliga oid va shu tilga xos usulda yasalgan. Unda so‘zning undoshlari o‘zgaragan holda, unilarining almashinishi yoki unli ortishi orqali yangi so‘z yasaladi. Yana shunga o‘xshash *vaqf, kofe, tabiat* so‘zlaridan ham *voqif, kafe, tabiiyot* so‘zlari yasab olingan. Bunday o‘zak so‘zlar bilan undan yasalgan so‘zlar o‘rtasida ham paronimik munosabat yo‘q. /9, 255/

– Shoabdurahmonov va b. «Hozirgi o‘zbek adabiy tili» kitobida: Fonetik strukturasi boshqa-boshqa, talaffuzda o‘xshash, yaqin bo‘lib qoladigan so‘zlar **paronimlar** deyiladi. So‘zlarning o‘zaro bunday munosabatda bo‘lish hodisasi **paronimiya** deyiladi. *Fakt– pakt, afzal – abzal, amr – amir* va b. /8, 51/

– «O‘zbek tili leksikologiyasi» kitobida *bod* va *bot, yod* va *yot, mard* va *mart, qayd* va *qayt, sob* va *sop, tub* va *tup, kompaniya* va *kampaniya, ulish* va *ulush* kabi qatorlar ham paronim emas, omofondir. /9, 55/

– Rahmatullayev Sh. «Hozirgi adabiy o‘zbek tili» kitobida: ...*bob-bop, tib-tip, yot-yod, sutxo‘r-sudxo‘r, nufuz-nufus, ... kompaniya – kampaniya..* omofonlardir. /6, 42-44/

– Pinxasov Ya.D. «Hozirgi adabiy o‘zbek tili. Leksikologiya va frazeologiya» kitobida: O‘zbek tilida *tug-tuk, tuz-tus, tub-tup, sudxo‘r-sutxo‘r, tambur-tanbur, she‘r-she‘r* so‘zlari omofonlar sanaladi.

– Shoabdurahmonov va b. «Hozirgi o‘zbek adabiy tili» kitobida: Omofonlardagi o‘zaro farq ular tarkibidagi bir fonemada bo‘ladi. Lekin bu fonemalar ham fonetik xususiyatlari jihatidan bir-biriga juda yaqin turadi. Shu sababli ham bu so‘zlarning talaffuzi bir xil bo‘ladi: *tub–tup, yod- yot, bob-bop, mard-mart, tanbur- tambur, sudxo ‘r-sutxo ‘r, bod- bot, sud - sut* va b.

– Olimov M. «Ilmul-lug‘ot yoki leksikologiya» kitobida: Aytilishi ham, yozilishi ham har xil, lekin shakli bir-biriga nihoyatda yaqin bo‘lgan so‘zlar paronim so‘zlar deb ataladi. Masalan: *asr-asir, tanbur-tambur, nufuz-nufus, ... /5, 72/*

–5-sinf «Ona tili» darsligida: Talaffuzi va yozilishi bir-biriga juda yaqin, lekin ma‘nolari farqli bo‘lgan so‘zlarga so‘zlarga paronimlar deyiladi. *yod – yot, bop – bob, xalos-xolos xiyla - hiyla, ta‘na - tana, aro-oro. /2, 119-120/*

– «O‘zbek tili leksikologiyasi» kitobida: *Paronimlar ... talaffuz jihatidan o‘xshashligi bilan xarakterlanadi.*

– Shoabdurahmonov va b. «Hozirgi o‘zbek adabiy tili» kitobida: ... talaffuzda o‘xshash... so‘zlar **paronimlar** deyiladi... Bunda so‘zlarning ma‘no jihati hech qanday ahamiyatga ega emas.

– Olimov M. «Ilmul-lug‘ot yoki leksikologiya» kitobida: Aytilishi ham, yozilishi ham har xil..... so‘zlar paronim so‘zlar deb ataladi.

– Tursunov U. va b. «Hozirgi o‘zbek adabiy tili» kitobida: Talaffuzdagi o‘ta o‘xshashlik tufayli bunday leksemalarni ishlatishda ham qiyinchiliklar, noo‘rin ishlatishlar voqe bo‘ladi va h.

Yuqoridagi oddiygina solishtirishlardan ko‘rinib turibdiki, paronimlarning ta‘rifida ham, ularning chegarasini belgilashda ham, darsligu o‘quv qo‘llanmalarda keltirilayotgan misollarda ham qator chalkashliklar, har xilliklar mavjud.

Bizningcha, paronimiyaning mohiyati o‘zaro ohangdosh so‘zlarning ikki tomonlama–fonetik hamda semantik munosabatlariga asoslanadi. /7, 55/ Paronimlar lug‘atini tuzishda ham nazariy jihatdan shu tamoyilga tayanish zarur.

Xulosa. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, paronim so‘zlarning ham eng ko‘pi inson va uning xususiyatlari tushunchalariga aloqador, ularni semantik maydonlarga kiritishda har bir paronimik juftlikdagi so‘zning sinonimi, antonimi, graduonimi kabilar ham nazardan chetda qolmasligi kerak. Shundagina maktab o‘quvchisining bugungi ehtiyoj va talablariga javob bera oladigan lug‘at yuzaga keladi. Chunonchi,

abzal– afzal

Abzal – so‘zning kelib chiqishi: *forscha so‘z – «asbob», «ish quroli»*; atash ma‘nosiga ko‘ra: *bir ma‘noli so‘z*; ma‘nodoshlari: *asbob, ish quroli*; zid ma‘nosi: –; uyadoshlari: *qayish, yugan, jabduq, jazliq, egar, qo‘yishqon, uzangi, bo‘yintiriq*; sintaktik aloqa: *abzal majmui, abzal qismi, abzalning qiymati* va hokazo;

Afzal – so‘zning kelib chiqishi: *arabcha so‘z – «eng fozil», «eng fazilatli»*; atash ma‘nosiga ko‘ra: *ko‘p ma‘noli so‘z*; 1. Ma‘nodoshlari: *yaxshi, a‘lo, ortiq*; zid ma‘nolari: *yomon, past, bo‘lmag‘ur, bo‘lmaydigan, bedod*; uyadoshlari: *durust, binoyi, binoyidek, yaxshi, zo‘r, a‘lo, kam emas, ortiq, ziyod, ziyoda* va h.; sintaktik aloqa: *afzal halovat, afzal kun, afzal do‘st, afzal odat, afzal ko‘rmoq, afzal bilmoq, afzal hisoblamoq* va h.; 2. Ma‘nodoshlari: *Ortiq, Ziyod, Ziyoda*; zid ma‘nolari: –; uyadoshlari: *erkaklarga qo‘yiladigan barcha ismlar*; sintaktik aloqa: *Afzalning aqli, Afzal bilan kelmoq, Afzal aka haqida gaplashmoq* va h.;

adib– adip

Adib – so‘zning kelib chiqishi: *arabcha so‘z – «tarbiyali», «ma‘rifatli»*; «yozuvchi»; atash ma‘nosiga ko‘ra: *bir ma‘noli so‘z*; ma‘nodoshlari: *yozuvchi, ijodkor*; zid ma‘nosi: –; uyadoshlari: *yozuvchi, shoir, qalamkash, ijodkor, hikoyanavis, qissanavis, romannavis, epopeyanavis, novellanavis, fardnavis, qit‘anavis, g‘azalnavis, dostonnavis, qasidanavis, muammonavis, lug‘uznavis, chistonnavis, muxammasnavis, masnaviynavis, sonetnavis, dramnavis, tragediyanavis, komediyanavis, ertaknavis, masalnavis, ijodxonona, ilhom, ilhom parisi, ta‘sirlanish, zavqlanish, qalam, ruchka, siyoh* va h.; sintaktik aloqa: *adib asari, adib ilhomi, adib ijodxonasi, adib xayoli* va hokazo

Adip – so‘zning kelib chiqishi: *o‘zbekcha so‘z – «mag‘iz», «gird»*; atash ma‘nosiga ko‘ra: *bir ma‘noli so‘z*; ma‘nodoshlari: *mag‘iz, gird, kant*; zid ma‘nolari: –; uyadoshlari: *mag‘iz, gird, kant, to‘n, chopon, yaktak, dasturxon, gazlama, yoqa, etak* va h.; sintaktik aloqa: *adipning ko‘rinishi, adipning rangi, adipning uyg‘unligi, adip uchun mato.*

Yuqoridagi tahlillardan ko‘rinib turibdiki, maktab o‘quvchilari uchun mo‘ljallangan oddiygina «Paronimlarning izohli lug‘ati» o‘quvchiga paronimik juftlikdagi so‘zning etimologiyasi (qaysi tildan olinganligi), lug‘aviy ma‘no ifodalay olish xususiyati (polisemantik yoki monosemantik xarakterda ekanligi), shakl va ma‘no munosabatiga ko‘ra turi (sinonimi, antonimi, uyadoshlari yoki omonimik xususiyati), sintaktik munosabati (qanday so‘zlar bilan sintaktik aloqaga kirisha olishi) bilan tanishadi. Tabiiyki, bu

o‘quvchiga 6-7 lug‘atga murojaat etib, ortiqcha vaqt sarflashining oldini oladi va tafakkurida til hodisalarini bog‘lanishli tarzda o‘rganishga imkon yaratadi. Bu kabi lug‘atlarni kompyuter xotirasiga joylashtirish o‘quvchi uchun yanada qulaylik tug‘diradi.

Adabiyotlar:

1. Bobojonov Sh. Milliy lug‘atchilik masalalari.–Qarshi: Nasaf, 2004.–32 b.
2. Mahmudov N., Sobirov A., Sattorov Sh., Toshmirzayeva Sh., Mannopova D. Ona tili. Umum o‘rta ta‘lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik. 5-nashri. – T.: G‘.G‘ulom, 2020.–119-120 b.
3. Olimov M. Imul-lug‘ot yoki leksikologiya.– Buxoro. – 2010. 72-73-b.
4. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o‘zbek tili.– T.: Universitet, 2006.– 464 b.
5. Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullayev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. –T.: O‘zbekiston. – 1993. 398 b.
6. Shoabdurahmonov Sh. Asqarova M. va b. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. –T.: O‘qituvchi. – 1980. 448 b.
7. O‘zbek tili leksikologiyasi.(Mas‘ul muharrirlar: Hojiyev A., Ahmedov A.)– Toshkent: Fan, 1981.– 316 b.
8. Hamroyeva Sh. Maktab o‘quvchilariga mo‘ljallangan o‘zbek tili ideografik lug‘ati (hayvonlarni atovchi so‘zlar misolida) tuzish tamoyillari. Magistrlik dissertatsiyasi. Buxoro, 2005. 114 b.
9. Tursunova O.F. The possibilities of using textbooks during mother tongue classes.// *ACADEMICIA An International Multidisciplinary Research Journal*, 2021/5, 410.
10. Tursunova O.F. Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining ona tili darslarida o‘quv lug‘atlaridan foydalanish. //Pedagogik mahorat. Buxoro, 2021 3 son, -140b.
11. Tursunova O.F. Paronimlar izohli lug‘atini tuzish xususida. //O‘zbek tili va adabiyoti, 2021/1, - 45b.
12. Tursunova O.F. Principles of creating the "annotated dictionary of paronyms" for secondary school students //Erasian journal of social sciences, philosophy and culture, 2022/2, -218 p.
13. Madaniyatlararo tafovutlarning glaballashuv sharoitida ijtimoiy–psixologik xususiyatlar. M.M. Zikirayeva таълим ва ривожланиш таҳлили онлайн илмий журнали 2 (3), 240-245, 2022/5/5
14. Ўсмирлар хулқ-атворида ижтимоий кадрятлар шаклланишига таъсир этувчи омилларни методологик асослари. З.М. Мавлоновна, *Psixologiya* 4 (4), 124-128, 4/2020
15. Kurbanova G.N. Pedagogical and psychological bases on developing students’ professional thinking in medical pedagogical education. *International Journal of Psychosocial Rehabilitation*, Vol. 24, Issue 06, 2020. 3059-3067
16. Kurbanova G.N. The role of ancestral heritage in the development of professional thinking of future professionals *International Scientific Journal Theoretical & Applied Science* p-ISSN: 2308-4944 (print) e-ISSN: 2409-0085 (online) Year: 2020 Issue: 01 Volume: 81 Published: 30.01.2020 <http://T-Science.org> . SOI: 1.1/TAS DOI: 10.15863
17. Курбанова Г.Н. Развитие профессионального и оперативного мышления будущих специалистов в образовательном процессе. *Neurodynamics журнал клинической психологии и психиатрии*// Т.2 №1.2020, 50-56. ISSN 2658-7955 Адрес: <https://smu.psychiatr.ru/neurodynamics>
18. Йўлдошева Д.Н. Мактаб ўқувчилари учун «Паронимларнинг изоҳли луғати»ни тузиш тамойиллари хусусида// Бухоро давлат университети Илмий ахбороти, 2014/4, -255б.
19. Tursunova O. F. High human feelings in Rudaki’s work *International Scientific Journal Theoretical & Applied Science* p-ISSN: 2 308-4944 (print) e-ISSN: 2409-0085 (online) Published: 30.04.2020 <http://T-Science.org>

ДЖАЛАЛОВА Сайёра Мирхайдаровна

Старший преподаватель кафедры
Узбекского языка и классической восточной
литературы Международной исламской
академии Узбекистана
E-mail: djalalova.sayyora62

ПРОБЛЕМА ИНТЕНСИФИКАЦИИ ОБУЧЕНИЯ РУССКОМУ ЯЗЫКУ КАК ИНОСТРАННОМУ В СОВРЕМЕННОЙ ЛИНГВОДИДАКТИЧЕСКОЙ ПАРАДИГМЕ

Статья посвящается вопросам разработки и внедрения инновационных методов и средств обучения, проблемам оптимизации и рационализации процесса обучения студентов иностранным языкам, в том числе, русскому в современной лингводидактической парадигме.

Ключевые слова: внедрение инновационных методов и средств обучения; проблемы оптимизации и рационализации процесса обучения; современная лингводидактическая парадигма.

ZAMONAVIY LINGVODIDAKTIK PARADIGMADA RUS TILINI CHET TILI O'QITISHNI INTENSIFIKATSIYA MUAMMOSI

Maqola innovatsion usullar va o'quv qo'llanmalarini ishlab chiqish va joriy etish, talabalarga chet tillarini, shu jumladan rus tilini zamonaviy lingvodidaktik paradigmada o'qitish jarayonini optimallashtirish va ratsionalizatsiya qilish muammolariga bag'ishlangan.

Kalit so'zlar: innovatsion usullar va o'quv qo'llanmalarini joriy etish; o'quv jarayonini optimallashtirish va ratsionalizatsiya qilish muammolari; zamonaviy lingvodidaktik paradigma.

THE PROBLEM OF INTENSIFICATION OF TEACHING RUSSIAN AS A FOREIGN LANGUAGE IN THE MODERN LINGUODIDACTIC PARADIGM

The article is devoted to the development and implementation of innovative methods and teaching aids, the problems of optimization and rationalization of the process of teaching students foreign languages, including Russian in the modern linguodidactic paradigm.

Keywords: introduction of innovative methods and teaching aids; problems of optimization and rationalization of the learning process; modern linguodidactic paradigm.

Введение. Динамично изменяющаяся действительность, процессы глобализации и информатизации всех сфер жизни общества, включая область высшего образования современного Узбекистана, требуют разработки и внедрения инновационных методов и средств обучения. В первую очередь, это касается проблемы оптимизации и рационализации процесса обучения студентов иностранным языкам, в том числе, русскому.

Перед современной лингводидактикой остро стоят вопросы ускорения и дальнейшей оптимизации процесса обучения иностранным языкам учащихся различных контингентов. Это связано с множеством внешних факторов, прежде всего, с ускорением происходящих в мире процессов информатизации и глобализации. Не меньшую значимость имеют те интеграционные процессы, которые происходят в Новом Узбекистане во всех областях культурной, экономической, общественно-политической жизни общества.

Существенное влияние на образовательные процессы оказала пандемия COVID-19, потребовавшая от педагогического сообщества Узбекистана оперативных решений по изменению форм и методов организации учебного процесса. В частности, в исключительно краткие сроки был наработан опыт работы с электронными образовательными платформами типа Hemis, Moodle и Kundalik, а также опыт использования программы-мессенджера Telegram в образовательных целях. Значительную роль в этих процессах сыграла также программа для организации видеоконференций Zoom. Все это потребовало от педагогов, занятых обучением иностранным языкам, в том числе русскому, поиска наиболее компактных, экономичных форм подачи учебного материала.

Наконец, крайне важным фактором на сегодняшний день являются процессы оптимизации учебного времени, отводимого на изучение РКИ в неязыковых вузах. В рамках этой оптимизации, в

частности, происходит сокращение часов аудиторной нагрузки вплоть до минимального, включая изменения графика учебного процесса: большинством учебных планов бакалавриата изучение русского языка предусмотрено в течение лишь одного семестра.

Основная часть. Наряду с этим необходимость в изучении иностранных языков, в том числе русского, не только не сокращается, но напротив, возрастает по мере укрепления международного сотрудничества и активизации международных связей всех уровней, а также по мере увеличения степени востребованности за рубежом специалистов, подготовленных в вузах Узбекистана. Совокупность указанных факторов порождает общественный запрос на интенсификацию обучения РКН и РКИ, вызывая к жизни поиски новых и дальнейшее совершенствование традиционных методик и приемов обучения.

Понятие интенсификации обучения для педагогики в целом не является чем-то абсолютно новым. В самом широком смысле «под интенсификацией обучения понимается повышение производительности учебного труда преподавателя и учащегося в каждую единицу времени». В справочнике В.С. Безруковой предложено следующее определение интенсификации обучения: «Интенсификация – это рационализация структуры системы образования и функций субъектов системы; введение новых, более эффективных образовательных технологий; переход на многоуровневое образование, обеспечивающее удовлетворение разнообразных образовательных потребностей; смена принципов обучения и реализация гуманизации, регионализации и демократизации образования как принципов, стимулирующих развитие системы» [Безрукова, с. 340]. Как видим, в широком смысле интенсификация обучения мыслится как определенное изменение всей образовательной системы в целом. В свете этого можно сказать, что происходящие в Узбекистане реформы системы образования нацелены, в конечном счете, не только на оптимизацию, но и на интенсификацию образовательных процессов. В известной мере это касается и программы действий, заложенной в таких важных документах, как «Концепция развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года» [УП № УП-5847] и «Концепция развития системы народного образования Республики Узбекистан до 2030 года» [Концепция...]. Данные документы разработаны с вполне определенной целью улучшения качества образования, подготовки конкурентоспособных кадров и эффективной организации научной и инновационной деятельности. Очевидно, что интенсификация обучения русскому языку как иностранному органично вписывается в данную парадигму.

По мнению А.Ф. Пантелеева, «интенсификация обучения РКИ предполагает, что на занятиях будут использоваться наиболее эффективные методы обучения даже наиболее сложным темам курса русского языка как иностранного» [Пантелеев, 2021, с. 152]. Тем самым автор предлагает действовать избирательно, используя средства интенсификации обучения применительно лишь к наиболее сложным темам. Безусловно, подобная точка зрения заслуживает и внимания, и поддержки. Однако, как нам представляется, в условиях жесткого ограничения учебного времени, отводимого на изучение РКИ в неязыковых вузах Узбекистана, интенсификации подлежат все изучаемые темы. В пользу этого говорит также и факт существенного увеличения объема учебного времени, отводимого на самообразование студентов. Заметим, что степень эффективности самообразования студентов находится в прямой зависимости от избираемых преподавателем форм и приемов организации самостоятельной учебной деятельности студентов, цель которых заключается в привитии навыков самостоятельного поиска, систематизации и презентации информации. Кроме того, потребность в интенсификации обучения иностранным языкам, в том числе РКИ, обусловлена существующей на сегодняшний день потребностью в личностном росте обучаемых. Е.В. Рыбакова пишет: «В педагогике интенсификация определяется как процесс, направленный на <...> отбор и организацию материала, разработку эффективных методов способов и приемов овладения, развитие коммуникативных умений, активизацию резервов личности и межличностных отношений» [Рыбакова, URL]. Неслучайно, истоки большинства методов и приемов интенсификации обучения языкам находятся в работах по психологии. В их ряду следует отметить, прежде всего, труды А.А. Леонтьева, в которых было теоретически обосновано шесть путей психологической интенсификации обучения иностранным языкам. (рисунок 1.)




Рисунок 1. Пути психологической интенсификации обучения иностранным языкам (по концепции А.А. Леонтьева)

Как видим, А.А. Леонтьевым были предложены психолингвистические основания современной лингводидактики. Все перечисленные «пути» находятся между собой в отношении конъюнкции, т.е. не могут и не должны рассматриваться как альтернативные, а скорее, призваны к взаимному дополнению. Тем не менее, на сегодняшний день наибольшую актуальность приобретают тезисы А.А. Леонтьева о поиске оптимального соотношения сознательных и приспособительных компонентов при формировании иноязычной речевой деятельности (второй «путь») и о необходимости последовательного проведения принципа системности при презентации иноязычного речевого материала (четвертый «путь»). Например, второй «путь» находит свою реализацию в проекте Национальной учебной программы общего среднего образования по русскому языку как иностранному в школах с узбекским языком обучения, где фактически предусмотрено сочетание сознательного подхода и нацеленных на автоматизацию речевых навыков элементов прямых методов обучения иностранным языкам [НУП, URL]. Принцип системности организации изучаемого языкового материала лежит в основе кредитно-модульной технологии, которая, как известно, становится сегодня приоритетной для внедрения в систему высшего образования Республики Узбекистан.

Для нас чрезвычайно важно также и то обстоятельство, что оба указанных тезиса в равной мере актуальны для реализации опорной технологии. Опорная технология, с одной стороны, сочетает в себе опору на символическую зрительную наглядность (неосознанное запоминание) и сознательную опору на текст. С другой же стороны, для нее существенную важность имеет принцип системности подачи языкового материала.

Следует также подчеркнуть, что в современной лингводидактике проблеме интенсификации обучения иностранным языкам посвящено достаточно много научно-исследовательских трудов – диссертационных исследований, научных статей, и тезисов научных конференций.

На наш взгляд, все множество указанных источников можно разделить на три группы. В основе предлагаемой нами классификации точка зрения В.В. Петрусинского, которым к решению задачи интенсификации было выработано три подхода: дидактический, психофизический и кибернетический. (рис. 2):




Рисунок 2. Подходы к решению задачи интенсификации обучения (по концепции В.В. Петрусинского)

Исходя из этого, мы распределяем обнаруженные нами источники по проблеме интенсификации обучения иностранным языкам, в том числе, русскому, по трем категориям: 1) исследования, реализующие дидактический подход; 2) исследования, реализующие психофизический подход; 3) исследования, реализующие кибернетический подход.

Исследования, реализующие дидактический подход к интенсификации обучения

Дидактический подход к интенсификации обучения реализован в серьезной статье М.А. Головановой, посвященной описанию опыта интенсификации процесса обучения РКИ студентов-туркмен на ступени высшей школы. Автор пишет: «Работа с инофонами предполагает реализацию когнитивной схемы, включающей ключевые когнитивные учебные стратегии: повторение, детализацию (подразумевающую действия: конспектирование, подбор примеров, сравнение, установление межпредметных связей и др.), организацию (составление таблиц, схем, написание резюме, планов, опорных схем и т.п.). Выполнение указанных процедур не подвергается нивелированию при интенсификации учебного труда. Напротив, интенсификация вносит в эти операции больший порядок, интенсификация позволяет реализовать методическую политику формирования навыка» [Голованова, URL]. Данный опыт интересен нам с той точки зрения, что достоверно указывает на возможность интенсификации обучения РКИ не за счет введения каких-либо новых приемов и методов, а за счет модернизации традиционных форм ведения работы.

Другим примером реализации дидактического подхода к интенсификации обучения РКИ является диссертация А.О. Звездиной, посвященная разработке способов интенсификации обучения русскому языку иностранных студентов-нефилологов. В данной работе рассматривается взаимосвязанное обучение общению в социально-культурной и учебной сферах. Ключевым фактором интенсификации обучения РКИ в данной работе признается следующее: «Интенсификации обучения русскому языку иностранных студентов 1 курса инженерно-технических специальностей способствует реализация принципов учета сфер общения, актуальных для студентов инженерно-технического профиля; опоры на общие темы социально-культурной и учебной сфер общения и на общий для этих сфер языковой материал» [Звездина, 2016, с. 11]. Вполне очевидно, что в данной работе фактически ведущая роль отводится мотивации студентов, что сближает данную работу с целым рядом иных исследований факторов и средств интенсификации обучения РКИ.

Заключение. Обзор некоторых из существующих приемов интенсификации занятий по РКИ в условиях современного учебного процесса представлен в статье М.С. Юдинцевой. В ряду упоминаемых в статье способов интенсификации обучения РКИ особое внимание уделено обучению в сотрудничестве и дискуссионному методу [Юдинцева, 2016, с. 302]. Отнесение указанных методов к числу способов интенсификации обучения РКИ, на наш взгляд, вполне справедливо. Так, при обучении в сотрудничестве, по определению Г.К. Селевко, преобладающими методами являются проблемно-поисковые, творческие, диалогические, игровые методы. На практике это означает активную мобилизацию учащихся во время занятия, которая, прежде всего, проявляется в продуктивном мышлении учащихся. Учащиеся не просто потребляют готовые знания, а самостоятельно генерируют их. Вполне очевидно, что это способствует прямо и косвенно способствует интенсификации обучения. Касательно дискуссионного метода в статье Н.Г. Карапетян читаем: «К методам интерактивного обучения, которые вовлекают учащихся в активный процесс получения знаний, следует отнести и учебную дискуссию, предполагающую форму сотрудничества преподавателя и студента, более активное взаимодействие студентов не только с преподавателем, но и друг с другом». Тем самым на этот метод распространяются все дифференциальные признаки интерактивной технологии обучения. По этому поводу профессор Л.Т. Ахмедова справедливо отмечает следующее: «В ходе интерактивного взаимодействия происходит активизация познавательной деятельности учеников, повышение их самостоятельности и инициативности. Совместная деятельность обучающихся в процессе познания, освоения учебного материала означает, что каждый вносит в этот процесс свой особый индивидуальный вклад, что идет обмен знаниями, идеями, способами деятельности, ценностями» [Ахмедова, 2016, с. 48-49]. Активизация познавательной деятельности учащихся как раз и подразумевает собой интенсификацию обучения. Именно эти обстоятельства обусловлены возросшим в последние годы интересом к интерактивной технологии со стороны ученых Узбекистана, чьи работы посвящены исследованию теории и практики преподавания иностранных языков.

Литература:

1. Указ Президента Республики Узбекистан № УП-5847 от 8 октября 2019 года «Об утверждении Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года» (Электронный ресурс) URL: <https://lex.uz/ru/docs/4545887>. Дата обращения: 14.03.2022 г.
2. Абдураззакова Д.А. Проблема интенсификации обучения в профессиональных колледжах // Наука и образование сегодня. – Иваново, 2017. – №11 (22). – С. 107-108.
3. Звездина А.О. Взаимосвязанное обучение общению в социально-культурной и учебной сферах как способ интенсификации обучения русскому языку иностранных студентов-нефилологов: Дисс. ... канд. пед. наук. – М., 2016. – С. 11
4. Концепция развития системы народного образования Республики Узбекистан до 2030 года: Приложение № 1 к Указу Президента Республики Узбекистан от 29 апреля 2019 года № УП-5712. (Электронный ресурс) URL: <https://lex.uz/docs/4312783>. Дата обращения: 26.03.2022 г.
5. Леонтьев А.А. Психологические основы наглядности в учебнике иностранного языка // Язык и речевая деятельность в общей и педагогической психологии: Избранные психологические труды. – М.: Московский психолого-социальный институт; Воронеж: НПО «МОДЭК», 2001. – С. 297-299
6. Рыбакова Е.В. Определение понятия интенсификации обучения иностранному языку в вузе как педагогическая проблема // Вестник БГУ. 2010. №15. (Электронный ресурс) URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/opredelenie-ponyatiya-intensifikatsii-obucheniya-inostrannomu-yazyku-v-vuze-kak-pedagogicheskaya-problema>. Дата обращения: 26.03.2022.
7. Петрусинский В.В. Автоматизированные системы интенсивного обучения. (Электронный ресурс) URL: <https://dogmon.org/v-v-petrusinskij.html>. Дата обращения: 26.03.2022 г.

ТУРСУНОВА Муҳаббат Икромовна

Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика
университети 1-босқич таянч докторанти

ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИДА ЧЕТ ТИЛИ ЎҚИТУВЧИЛАРИНИНГ КАСБИЙ ТАЙЁРГАРЛИГИНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ

Ушбу мақолада олий таълим муассасаларида чет тили ўқитувчиларининг касбий тайёргарлиги назарий жиҳатдан таҳлил қилинган. Педагог олимларнинг чет тили ўқитувчиси касбий фаолияти ҳақидаги фикрлари, ёшларга замонавий илм-фанни ўргатишдаги методларнинг, концептуал аҳамияти ёритиб берилган. Муаллиф педагог ходимларнинг, айниқса чет тили ўқитувчиларининг касбий тайёргарлик компетенцияларининг ўзига хос хусусиятларини футурологик жиҳатлари тадқиқ этилган.

Калит сўзлар: Олий таълим, ўқитувчи, касбий тайёргарлик, жамият, таълим муассасаси, ўқувчи - ёшлар, илм-фан, замонавий мактаблар.

ОСОБЕННОСТИ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКИ ПРЕПОДАВАТЕЛЕЙ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ В ВУЗАХ

В данной статье проводится теоретический анализ профессиональной подготовки преподавателей иностранных языков в высших учебных заведениях. Освещены взгляды учёных-педагогов на профессиональную деятельность учителя иностранного языка, концептуальное значение методов обучения молодёжи современным наукам, исследованы футурологические аспекты специфических характеристик профессиональных учебных компетенций педагогических педагогов, в частности, преподавателей иностранных языков.

Ключевые слова: Высшее образование, педагог, профессиональная подготовка, общество, образовательное учреждение, студенческая молодёжь, наука, современная школа.

SPECIFIC CHARACTERISTICS OF PROFESSIONAL TRAINING OF FOREIGN LANGUAGE TEACHERS IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS

This article theoretically analyzes the professional training of foreign language teachers in higher education institutions. The opinions of pedagogic scientists about the professional activity of a foreign language teacher, the conceptual importance of the methods of teaching modern science to young people have been highlighted. The author has researched the futurological aspects of the specific characteristics of the professional training competencies of pedagogical staff, especially foreign language teachers.

Key words: Higher education, teacher, professional training, society, educational institution, student - youth, science, modern schools.

Кириш. Президентимиз Шавкат Мирзиёев бошчилигида мамлакатимизда амалга оширилаётган кенг кўламли янгиланиш ва бунёдкорликлар, ҳар бир соҳада халқнинг розилигига эришиш мақсадида катъият билан давом эттирилаётган ислохотлар, нафақат минтақамиз, балки бутун дунёда юксак эътироф этилмоқда. Янги Ўзбекистонни барпо этиш, Учинчи Ренессанс пойдеворини куриш, ҳар бир ватандошимизнинг азму қарори, ҳаётий мақсадларининг асосига айланмоқда.

Замонавий жамиятда юз бераётган, ахборотлаштириш, глобаллашув жараёнлари билан, инсон ҳаёт фаолияти барча соҳаларининг доимий равишда ўсиб бораётган кўп билим талаб қилувчанлиги билан боғлиқ бўлган ўзгаришлар дунёдаги нафақат сиёсий ва иқтисодий вазиятда акс этади. Ҳозирги даврда ҳамма жойда кузатилаётган мазкур жараёнлар жамиятни очиқ қилиб, муқаррар равишда маданиятларнинг янада яқинроқ диалогига, уларнинг ўзаро фаол таъсирига олиб келади.

Олий касбий таълимни, айниқса, ўқитувчиларни тайёрлаш соҳасини фаол модернизациялашнинг сўнгги йилларида талабаларда ўқитувчи касбига қизиқиш сусайгани сезилди. Ўқитувчиларни тайёрлашга қаратилган олий таълим муассасалари битирувчиларининг аксарият қисми ўз ҳаётини педагогик фаолият соҳаси билан боғламайди, балки касбий билимларига бошқа соҳаларда ўрин топади.

Жамиятда бугун ўқитувчига, шу жумладан нафақат маданиятлараро мулоқот қилишга, балки таълим томонидан кўйилган вазифаларни ижодий ҳал этишда шахсан иштирок этишга қодир бўлган чет тили ўқитувчисига эҳтиёж мавжуд.

Дунёда инглиз тилини ўқитишни сифат жиҳатидан янги даражага кўтаришда таълимий эҳтиёж ва индивидуалликка асосланган малака ошириш тамойили устувор бўлиб, ушбу йўналишда жаҳондаги етакчи тадқиқот марказларида илмий ишлар амалга оширилмоқда.

Ҳозирги пайтда фан томонидан бир қатор нуктаи назарлар ишлаб чиқилганки, улар замонавий жамиятда эҳтиёж бўлган чет тили ўқитувчисининг касбий таълими вазифаларини ҳал этиш учун қўлланиши мумкин.

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ

Олий таълим муассасида чет тили ўқитувчиси касбий тайёргарлигининг ўзига хос хусусиятларини ўрганишда хусусан, хорижий олимлар Г.А. Пирогов, К.Д. Ушинский, Р. Штейнер ва Г.Нолларнинг инсонни ўрганишга қаратилган асарлари инсон индивидуал-шахсий хусусиятлари, ўқитувчи касбий тайёргарлигининг ва шахсини шакллантиришнинг умумий қонуниятлари О.А. Абдуллина, Е.А. Белозерцев, Ф.Н. Гоноволин, Н.В. Кузьмина, К. М. Левитан, А.К. Маркова ва Л.М. Митиналарнинг илмий ишларини, В.А. Слостенин, Е.И. Рогов, Н.В. Кузьмина, Н.Ф. Нехлюдова, В.Д. Шадриков ва бошқаларнинг асарларида касбий педагогик фаолият ҳақидаги кўп қиррали тушунчаси кўриб чиқилган.

ОТМда бўлажак чет тили ўқитувчиси касбий тайёргарлигининг ўзига хос хусусиятлари К. Терентьева, В.М. Тирина ва Е.О. Стоценколар каби олимлар томонидан амалга оширилган. Таъкидлаш лозимки, юқоридаги муаллифлар асосан ўқитувчиларнинг касбий тайёргарлиги, уларнинг назарий-методологик жиҳатларини таҳлил қилганлар. Шунингдек, Ўзбекистонлик педагог олимларидан М.Махмудова, Б.Абдуллаева, Г.Боқиева, И.Тўхтасинов, Ш.Сафаров, Ж.Йўлдошев, М.Юлдашев, Ш.Саидкулов, Н.Рахмонов, Н.Раҳманкулова, М.Мирсолиева, Ф.Х.Раҳимов, М.Нишонов ва бошқаларнинг илмий тадқиқот ишларида чет тили ўқитувчиларнинг касбий тайёргарлиги, профессионализм, хорижий тилни билиш малака ва кўникмаси масалларига бағишланган тадқиқотлари, олий таълим муассасаси ривожига таъсир кўрсатиши, танқидий қарашлари, жамият тараққиётига йўналтирилган концептуал фикрлари мазмуни мустақил ёндошув асосида ўрганилган.

МЕТОДЛАР

Мақолани нашрга тайёрлашда, илмий манбалардан фойдаланишда, материалларни тизимлаштиришда ва хулосаларни умумлаштириш жараёнида тадқиқотнинг тарихийлик, танқидийлик, анализ, синтез методларидан фойдаланилди. Мақоланинг методологик асосини Ўзбекистон Республикаси Президент Ш.М.Мирзиёев асарлари, Фармонлари, давлатимиз раҳбарининг “Янги Ўзбекистон стратегияси” асарида баён қилинган концептуал ғоялар ташкил қилади. Шунингдек олий таълим муассасаларида чет тили ўқитувчиларининг касбий тайёргарлиги масалаларига бағишланган илмий ишлар, манбаларни таҳлил қилиш, мустақил хулосалар чиқариш учун, монографик тадқиқотлар, республика миқёсида ўтказилган илмий -амалий конференциялар материаллари, илмий мақолалар, хорижлик олимлар асарларидан фойдаланилди. Шунингдек жамият тараққиётининг янги даврида оммавий ахборот воситалари, жумладан интернетда эълон қилинаётган, ўзбекистонлик ва хориждаги педагоглар, тилшунос олимларларнинг фикр-мулоҳазаларидан фойдаланилди.

ОЛИНГАН НАТИЖАЛАР

Тадқиқотимиз доирасида чет тили ўқитувчиларининг олий таълим муассасасидаги касбий тайёргарлиги хусусиятларини таҳлил қилаётиб, умуман бўлажак педагогнинг, шунингдек, бўлажак чет тили ўқитувчисининг касбий жиҳатдан аҳамиятли компетенцияларини шакллантириш муаммосига эътибор қаратилди. Чет тили ўқитувчисининг касбий тайёргарлиги жараёнида, хусусан, унинг мазмунида индивидуал-шахсий йўналишга катта ўрин берилади, у олий таълим муассасасидаги таълим олиш жараёнида талабанинг индивидуал-шахсий тажрибасида намоён бўлди.

МУҲОКАМА

Ҳозирги давр кишиси муттасил ўзгариб бораётган яшаш шароитларига мослашишга тўғри келади. Кун сайин у улкан ахборот оқимларини қабул қилиши ва қайта ишлашга мажбур бўлади, бу эса ундан нафақат илм-фанни амалда билишни, балки муттасил ўзгариб бораётган шароитларда мустақил қарор қабул қилиш, атрофдаги олам билан фаол ва ижодий ўзаро муносабатда бўлиш, бунда ўз бетакдорлигини сақлаб қолиш, мустақил фикрлаш ва ҳаракат қилиш қобилиятини талаб қилади. Айнан мана шунинг учун бу ўзгаришлар таълим тизимига ҳам, шу жумладан касбий педагогик таълимга дахл қилди. Замонавий таълимга ўз касбий вазифаларини ҳал этишда индивидуал тартибда, шахсан иштирок эта оладиган ўқитувчи; ўз касбий фаолиятига ўзининг шахсий тажрибаси, ўзининг

кўп қирралиги ва нодирлиги нуқтаи назаридан ёндашадиган; ўқувчилари билан ижодий ўзаро ҳамкорлик қиладиган ўқитувчи зарур бўлиб қолди.

Тадқиқотчи Л.П. Булкин замонавий таълим тизимида юз бераётган ўзгаришларга нисбатан ўз муносабатини ифодалаб, “таълим” тушунчасининг “ривожланиш” ва “шаклланиш” каби муҳим таркибий қисмларини ўз ичига олган асл маъносига эътибор қаратишга чақиради [3]. Олимнинг фикрига кўра, замонавий жамият, энг аввало, индивидуал тимсолларни шакллантиришга, шахснинг ижодий имкониятларини ривожлантиришга қаратилган. Ўқувчиларга фақат билимларни узатишга ва педагогнинг монологик тушунтиришига йўналтирилган ўқув фаолиятини ташкил этиш ақлий сустрликни шакллантириши ва аста-секин талабаларнинг ижодий мустақиллиги йўқолишига олиб келиши аллақачон ўрганилган [3, 123].

Олий таълим муассасасидаги умуман бўлажак ўқитувчиларнинг, шунингдек, чет тили ўқитувчиларининг ҳам касбий тайёргарлигини англашга нисбатан ёндашувларда турли-туманлик пайдо бўлиши айнан шу билан боғлиқ.

Олий таълим муассасасида чет тили ўқитувчиси касбий тайёргарлигининг ўзига хос хусусиятларини ўрганиш учун биз ушбу жараёнга оид бир қатор тушунчаларни тушунишга нисбатан айрим илмий ёндашувларни кўриб чиқишимиз зарур бўлди. Бир вақтнинг ўзиде олий таълим муассасасида ўқитувчи касбий тайёргарлиги жараёнининг ўзининг ҳам кўп қиррали эканини таъкидлаб ўтиш керак.

Ҳозирги даврда психология-педагогика йўналишидаги олимларнинг аксарияти томонидан таълим жараёни доирасида кўпматраб тизимларнинг доимий ўзаро таъсири юз берадиган тизим сифатида таҳлил қилинади (А. М. Новиков, В. А. Сластенин, Е.И. Пассов ва б.). Бундай ёндашув тушунчасига кўра, чет тили ўқитувчисининг олий таълим муассасасидаги касбий тайёргарлиги умуман таълим жараёнининг ост тизимларидан бири бўлиб, ушбу тизимнинг фаолият юритиш ўрни ва бўлажак касбий фаолиятнинг ўзига хос хусусиятлари билан белгиланади. Е.И. Пасовнинг тадқиқотлари буни тасдиқлайди. У бўлажак чет тили ўқитувчиси касбий тайёргарлиги тизимининг фаолият юритиши хусусиятларини тасвирлашда унда ўқитувчи фаолиятининг мазмуни ва тузилишини моделлаштириш зарурлигига тўхталади [9, 6].

Тадқиқотимиз доирасида бўлажак чет тили ўқитувчиларининг олий таълим муассасасидаги касбий тайёргарлиги тизимининг таркибий қисмларига эътибор қаратиш муҳимдир. Шу муносабат билан А.В. Деркачнинг тадқиқотига мурожаат қилиш мақсадга мувофиқ бўлиб, унда муаллиф маданиятлараро мулоқот қила оладиган япон тили мутахассислари тайёргарлигининг ўзига хос хусусиятларини таърифлар экан, иккита ост тизимнинг (япон тили ост тизимининг) ҳосил бўлиш жараёнидаги бир-бирига киришишига эътибор қаратади. Муаллиф ўрганилаётган тилнинг ўзига хослиги тайёргарлик умумий тизимининг фаолият юритиши учун аҳамиятли эканини алоҳида таъкидлайди [10].

Ўз навбатида, чет тилини ўқитиш хусусиятларини ўрганишга бағишланган ишларни ўрганиш бизга, кўрсатиб ўтилган тадқиқотчилар билан бир қаторда, она тили ост тизимини ҳам бўлажак чет тили ўқитувчиси касбий тайёргарлигининг ост тизимларидан бири деб ҳисоблаш мумкинлигини тахмин қилиш имконини берди, чунки “тилнинг ва айниқса чет тили маданиятининг муҳим хусусиятлари тилларни ва айниқса маданиятларни қиёсий ўрганишда очилади” [182]. Она тилига ва ўз мамлакатини маданиятига таянган ҳолда чет тилини ўқитишнинг аҳамияти таржимани ўргатиш муаммолари билан шуғулланадиган таниқли лингвистларнинг тадқиқотларида таъкидланган. Она тили тузилиши ва мазмуни ҳақидаги билимлар негизда талабаларда айтиб ўтилган тизимларнинг ўхшашликлари ва фарқлари ҳақида тасаввурлар пайдо бўлади, бу эса уларга ўрганилаётган тилнинг янги элементларини ва унинг маданиятини енгил ўзлаштириш имконини беради.

Биобарин, Е.И. Пасов таъкидлаганидек, бу ҳолатда ўрганилаётган тил мамлакатининг маданиятини ва чет тили маданиятини фарқлаш керак. Муаллифнинг фикрига кўра, иккинчи тушунча анча кенг бўлиб, маънавий бойликнинг инсонга коммуникатив ўзаро муносабат жараёни ўқиш, билим олиш, ривожлантириш ва тарбиялаш жиҳатларидан бера оладиган қисмини ифодалайди. Айнан мана шунинг учун чет тили маданиятини идрок қилиш, маданият ҳодисаларини ўрганиш билан бир қаторда, талабанинг индивидуал-шахсий ривожланишини рағбатлантиради, бу эса бизнинг тадқиқотимиз учун ўта муҳимдир [9, 38].

Бўлажак чет тили ўқитувчиси касбий тайёргарлигининг “касбий маданияти” тушунчаси ўз ичига таълим олувчиларга ўзга маданият кадрларини тақдим этиш, уларни ўрганилаётган тил мамлакатининг маданий ҳодисалари билан ижодий ўзаро муносабатга киришишга ўргатиш малакасини ўз ичига олган ўзига хос мазмунга ҳам эгадир.

Бўлажак чет тили ўқитувчиларининг касбий тайёргарлигини ўрганишга бағишланган мазкур тадқиқотларни культурологик ёндашув нуқтаи назаридан ўрганиш “шахснинг таянч маданияти” [12] алоҳида аҳамиятга эгаллигига эътибор қаратиш имконини берди. Унинг асосида чет тилини ўқитиш жараёни ташкил этилиши лозим. Бу категория жуда индивидуал бўлиб, бўлажак чет тили ўқитувчисининг касбий тайёргарлиги жараёнида шаклланади. Ундан ташқари, бўлажак чет тили ўқитувчисининг касбий тайёргарлигига нисбатан бундай ёндашув ушбу жараёнда талабалар фаоллигини рағбатлантиришнинг ҳамда шахсиятини намоён қилишининг муҳимлигини таъкидлайди.

Замонавий жамиятга илмий билимнинг турли соҳаларида инсоншуносликка нисбатан қизиқишлар кучайиши хосдир. Масалан, педагогика фанининг антропологик ёндашуви педагогик жараёни гуманизм нуқтаи назаридан ўрганиш имконини беради. Бу нуқтаи назар ижодий ўзаро ҳамкорликни ва таълим жараёнида шахсни аниқ мақсадга қаратилган ривожлантиришни; шахснинг бетакрорлигини тан олишни; танлаш эркинлигини ва унинг ривожланиш қобилиятини тақозо қилади.

Касбга тайёрлаш жараёнида талабалар шахсига мурожаат қилиш педагогга бўлажак ўқитувчиларнинг индивидуал қобилиятларига таяниб, машғулотларда ижодий ҳамкорликни ташкил қилишда уларни рўёбга чиқариш учун янги-янги имкониятларни очади. Гуманистик педагогиканинг диққат марказида ноёб яхлит шахс туради, у ўз имкониятларини максимал даражада амалга оширишга интилади, янги тажрибани қабул қилиш учун очик, мураккаб ҳаётий вазиятларда онгли ва масъулиятли танлов қилишга қодир. Касбий тайёргарликнинг гуманистик йўналганлиги педагогик ҳамкорлик субъектининг фаоллигини, унинг мустақил қарорлар ва ҳаракатларга ҳуқуқини тан олишга асосланади. Касбий таълим марказида инсон ўзининг имкониятларини амалга оширишга ва ўзлигини намоён қилишга интилишлари билан туради.

Бўлажак чет тили ўқитувчиси касбий тайёргарлигининг ўзига хос хусусиятлари унинг мазмунида мавжуд бўлиб, шак-шубҳасиз, ривожлантирувчи хусусиятга эга бўлиши лозим. Айнан ривожлантирувчи таълим бўлажак чет тили ўқитувчисига ўз ички имкониятларини, ўзининг “тил шахсини”, ўз индивидуал-шахсий йўналганлигини ривожлантиришига имкон яратиши лозим. Буюк донишмандлар ва файласуфларнинг қарашлари бунга асос бўлади. Масалан, Л.Н. Толстой таъкидлайдики, кишиларнинг ривожланиши – бу улар хислатларининг ғайриихтиёрий равишда намоён бўлиши, ўқитувчининг таъсири эса – йўналтирувчидир. “Ҳар қандай ўқиш фақат ҳаёт юзага келтирган саволга жавоб бўлиши лозим” [7, 76].

Замон фалсафаси инсонни универсал мавжудот сифатида қабул қилади. Ушбу фикрдан келиб чиқиб, айтиш мумкинки, ҳар бир барча яширин қобилиятлар мавжуд. Бундай ҳолатда индивидуал фарқларни у ёки бу қобилиятларни рўёбга чиқаришга тайёрликнинг турлича даражаси, яъни инсоннинг уларни амалга оширишдаги яширин имкониятлари ҳосил қилади [10].

Ўқитувчи олий таълим муассасасида бўлажак мутахассиснинг касбий тайёргарлиги жараёнида талабадаги айнан мана шу эҳтиёжга таяниши мумкин. Касбий тайёргарликнинг гуманистик йўналганлиги субъект тажрибасининг фаол соҳиби сифатида ўқувчи индивидуаллигининг, кадр-қимматининг устуворлигини тан олишни билдиради. Таълим олувчининг шахс сифатида ривожланиши, яъни унинг ижтимоийлашуви фақат меъёрлар бўйича белгиланган фаолиятни ўзлаштириш йўли билан эмас, балки субъектив тажрибани шахсий ривожининг муҳим манбаи сифатида доимий ўзгартириши орқали кечади. Шундай қилиб, чет тили ўқитувчилари тайёргарлигининг гуманистик йўналганлиги таълим олувчининг шахсий тажрибасига имкон қадар мурожаат қилишни, унинг ўз ишларини ташкил қилишга, ўзини англашга ва ўз-ўзини ривожлантиришга эҳтиёжини тақозо қилади.

Умуман олганда, тадқиқотчилар таълим жараёни шу жараён субъектларининг эҳтиёжларига, ўз-ўзини ривожлантириш ички мақсадларини қондиришга, ижтимоийлашувга, турли вазиятларда танлаш эркинлигига ва унинг бетакрорлигини тан олишга қаратилган бўлиши лозим.

Бундай ёндашувни олий таълим муассасаларида ўқитишга нисбатан кўриб чиқадиган бўлсак, унда қайд этиш мумкинки, унинг мақсади бўлажак профессионалларни тайёрлаш жараёнида шахсни тўлақонли ижодий ривожлантириш, том маънода юқори малакали мутахассисни етиштириб чиқариш учун энг мақбул шароитларни яратишдан иборат.

Талабалар касбий тайёргарлиги гуманистик йўналишини ҳозирги даврда тадқиқ қилувчиларнинг илмий ишларини таҳлил қилиш бизга бундай ўқитиш турини ташкил қилишнинг ҳамма томонидан тан олинган, бўлажак мутахассисларни олий таълим муассасасида касбий тайёрлашнинг гуманистик йўналишини акс эттирадиган бир қатор хусусиятларига эътибор қаратиш имконини берди: касбий тайёргарликнинг талабалар ижодий фаолияти шахсга хос ифодаланишига қаратилганлиги; касбий тайёргарлик жараёни иштирокчилари индивидуаллигининг биз томонимиздан шахсий ўзаро қабул қилиниши сифатида баҳоланадиган эмпатия; ўқитувчилар ва

талабалар ижодий алоқаларининг ҳамкорлик тамойиллари асосида ташкил этилиши; талабалар касбий тайёргарлик вазифаларини бажаришнинг ўз индивидуал-шахсий хусусиятларига мос келувчи усулини танлашдаги эркинликни тақозо қилувчи муқобиллик мавжудлиги.

Шахснинг шаклланишида, хусусан, унинг касбий шаклланишида танлаш эркинлиги мавжуд бўлишининг аҳамиятини экзистенциал психология ҳам таъкидлайди. Масалан, шахснинг шаклланиш жараёнини тушунишга нисбатан экзистенциал ёндашувнинг асос бўлувчи постулатларидан бири эркинликка интилиш инсонга туғилишидан хослиги тўғрисидаги тезисдир. Танлаш эркинлиги шахснинг ривожланиши учун зарур бўлган омил саналади. Демак, касбий-педагогик тайёргарлик таълим жараёнини шундай ташкил этишни талаб қиладики, бунда инсоннинг ушбу туғма эҳтиёжи ўзини рўёбга чиқариш учун зарур воситаларни топа олиши керак.

Шунингдек, олимлар педагогика олий таълим муассасасида бўлажак ўқитувчиларда педагогик қобилиятлари ва ўқитувчи касбига мойилликларни, касб учун муҳим шахсий сифатларни шакллантириш ва ривожлантириш борасидаги ишларнинг махсус тизими керак деб ҳисоблайдилар ҳамда ўқитувчи ва талабаларнинг педагогик ўзаро ҳамкорлиги жараёнида индивидуал-шахсий фаолликнинг аҳамиятини алоҳида таъкидлайдилар.

Масалан, тил ўқитувчисининг махсус педагогик касбий қобилиятларини тавсифлар экан, В.А. Крутецкий куйидаги гуруҳларни ажратади:

- асос бўлувчи (буларга у сўзни ҳис этишни, эмоционал ифодалиликини, нутқ маданиятини киритади);

- лингвистик (тил ҳодисаларини таҳлил қилиш қобилияти, лингвистик кузатувчанлик ва хотира);

- методик (тил ҳодисаларида муҳимларини ажратиш қобилияти, муаммоли вазиятлар яратиш қобилияти, методик хилма-хиллик қобилияти) [13,46].

Коммуникатив компетенцияни индивидуал-шахсий намоён бўлиш воситаси сифатида шакллантириш ва ривожлантиришнинг чет тили ўқитувчиси учун алоҳида аҳамиятини “Whole language” чет тилини ўқитиш методикасида яхлит сифатида йўналишга тавсиф берган И.Г. Винокурцева ҳам [41], субъект-субъект муносабатлари ва коммуникация усуллари рағбатлантирувчи “РИТМ” янги технологиясини тақдим этган И. Цатурова ҳам таъкидлаганлар.

Чет тили ўқитувчиларининг олий таълим муассасасидаги касбий тайёргарлигининг коммуникатив йўналганлиги муаммоси “тил шахси” тушунчаси билан бевосита боғланган. Уни мутахассислар касбий тайёргарлиги жараёнида шакллантириш муаммосига замонавий методик ва психологик-педагогик тадқиқотларда (В. К. Терентьева, В. М. Тирина, Е. О. Стеценко ва б.) катта ўрин ажратилган бўлиб, уларда бўлажак чет тили ўқитувчиси касбий тайёргарлиги мазкур тушунча таъсири остида кўриб чиқилади.

Хулоса. Шундай қилиб, бўлажак ўқитувчининг касбий омилкорлиги унда касб вазифаларини бажаришга унумли ва ижодий ёндашишга имкон берадиган касбий жиҳатдан муҳим сифатлар бўлишини талаб қилади. Шу муносабат билан, тадқиқотимиз доирасида бўлажак ўқитувчилар касбий тайёргарлигини ўқитувчи шахсининг ва чет тили ўқитувчиси шахсининг касбий жиҳатдан аҳамиятли сифатларини шакллантириш таъсири остида ўрганадиган ишларни таҳлил қилиш муҳим бўлди.

Шундай қилиб, бўлажак чет тили ўқитувчиси касбий тайёргарлиги ўрганилган тадқиқотларни таҳлил қилиш бизга касбий тайёргарлик жараёнида талабаларда ўқиш давомида бўлажак ўқитувчининг касбий жиҳатдан аҳамиятли сифатларини шакллантиришга кўмаклашадиган муайян фаолият тури ташкил этилишини англаб етиш имконини берди. Унинг ўз касбий мажбуриятларини муваффақиятли бажариши бу сифатларнинг мавжудлиги ва ривожланганлик даражасига боғлиқ. Ундан ташқари, номи тилга олинган муаллифлар ишларининг таҳлили бўлажак ўқитувчиларнинг олий таълим муассасасидаги касбий тайёргарлиги жараёнида эгалланган касбий жиҳатдан аҳамиятли сифатлар мажмуи чуқур индивидуал хусусиятга эга эканини тасдиқлайди, чунки ҳар бир талабанинг шахсий ўзига хослигига тўғридан-тўғри боғлиқ.

Талабалар касбий тайёргарлигига, хусусан, бўлажак чет тили ўқитувчиларининг касбий тайёргарлигига нисбатан турли ёндашувларни ўрганиш натижасида биз олий таълим муассасасида чет тили ўқитувчилари касбий тайёргарлигининг айрим ўзига хусусиятларини тушуниб олишга муваффақ бўлдик:

- чет тили ўқитувчиларининг олий таълим муассасасидаги касбий тайёргарлиги шахснинг таянч маданияти асосида ташкил қилинади;

- бўлажак чет тили ўқитувчиларининг касбий тайёргарлиги тил шахсини ривожлантиришни тақозо қилади;

- бўлажак чет тили ўқитувчиларининг олий таълим муассасасидаги касбий тайёргарлиги профессионал-педагогик компетенцияларни шакллантиришни тақозо қилади.

Адабиётлар:

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. -Тошкент.: “O‘zbekiston”, 2021 йил, -464 бет
2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М. Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси // Халқ сўзи, 2020, 25 январь, №19 (7521) сони.
3. Мирзиёев Ш. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга курашимиз. - Тошкент.: “Ўзбекистон”, 2017. 178-бет.
4. Булынин А.М. Основные подходы к проф. подготовке будущего учителя - Комсомольск - на - Амуре: изд-во КГПУ, 2000
5. Новиков А. М. Развитие отечественного образования: полемика, размышления, Ассоциация "Проф. образование". - М.: Эквес, 2005. - 255с.
6. Сластенин В. А., Мажар, Н. Е Диагностика профессиональной пригодности молодёжи к педагогической деятельности. Москва, 1991.
7. Толстой Л. Н. Педагогические сочинения. - М.: Педагогика, 1989. - 544с.
8. Потебня, А. А. Мысль и язык. - М.: Лабиринт, 1999. - 300с.
9. Пассов, Е. И. Учитель иностранного языка. Мастерство и личность. М., 1993.- 158 с.
10. Деркач А. В, Подготовка специалистов японского языка к межкультурной коммуникации на основе взаимодействия с образовательными учреждениями Японии. - Дисс. канд. пед. наук. - Петропавловск - Камчатский. - 2005.
11. Арсеньев А. С. Философские основания понимания личности. - М.: Академия, 2001.-592с.
12. Бердичевский, А. Л. Содержание обучения на основе базовой культуры личности/ Иностранные языки в школе. №2,2004. с. 17-20
13. Крутецкий В. А. Психология обучения и воспитания школьников. - М.: Просвещение, 1976. - 303с.

XODJAYEVA Nilufar Amatdjanovna

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filili
O'zbek tili va adabiyoti, tillar
kafedrası o'qituvchisi
nilufarxodjaeva2203@gmail.com

TIBBIYOT OLIYGOHLARI TALABALARINING LEKSIK KOMPETENSIYASI RIVOJLANTIRISHGA KOMMUNIKATIV YONDASHUV

Tibbiyot oliygohi talabalari tilni o'rganishda bir maqsadga ega bo'lishlari mumkin, bu "chet tilidan samarali foydalana olish", ya'ni tibbiyotga oid adabiyotlarni tushuna olish, turli xalqaro konferensiyalarda chet tilida muloqot qila olishlari lozim. Chet tili o'qitish mazmuni bo'lmish til materiallari leksika, grammatika va fonetikasi darsda birga unumli ravishda olib borish, ayniqsa talabalarning leksik kompetensiyasini rivojlantirishda qiyinchiliklar vujudga keladi. Buning uchun talabalarga leksik minimumni qanday qilib unumli ravishda yetkazib bera olish, unga kommunikativ ravishda yondashish muhimdir.

Kalit so'zlar: leksika, grammatika, fonetika, kommunikativ kompetensiya, tafakkur, nutq, lingvistik vosita.

КОММУНИКАТИВНЫЙ ПОДХОД К РАЗВИТИЮ ЛЕКСИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ СТУДЕНТОВ МЕДИЦИНСКОГО ВУЗА

Студенты медицинского вуза могут иметь одну цель в изучении языка, а именно «эффективно им пользоваться», то есть уметь понимать медицинскую литературу, уметь общаться на иностранном языке на различных международных конференциях. Трудно эффективно свести воедино лексику, грамматику и фонетику на уроке, что составляет содержание обучения иностранному языку, особенно в развитии лексической компетенции учащихся. Для этого важно эффективно донести до учащихся лексический минимум, подходить к нему коммуникативно.

Ключевые слова: лексика, грамматика, фонетика, коммуникативная компетенция, мышление, речь, языковой инструмент.

COMMUNICATIVE APPROACH TO THE DEVELOPMENT OF LEXICAL COMPETENCE OF MEDICAL STUDENTS

Students of a medical university may have one goal in learning a language, namely "to use it effectively", that is, to be able to understand medical literature, to be able to communicate in a foreign language at various international conferences. It is difficult to effectively bring together vocabulary, grammar and phonetics in the classroom, which is the content of teaching a foreign language, especially in the development of students' lexical competence. To do this, it is important to effectively convey the lexical minimum to students, to approach it communicatively.

Key words: vocabulary, grammar, phonetics, communicative competence, thinking, speech, language tool.

Kirish. Ikkinchi va chet tillarini o'qitish va o'rganish sohasi uzoq vaqtdan beri munozaralarga sabab bo'lib kelgan. Tilni o'rganishning turli xil nazariyalari va usullari joriy etildi. Grammatik tarjima usuli chet el va ikkinchi tillarni o'qitish sohasini o'nlab yillar davomida egallab kelgan va bugungi kunda ham qo'llanilmoqda. Shu jumladan lug'at chet tillarini o'qitishda asosiy vosita hisoblanadi. Lug'at - bu tilni bilishning asosi hisoblanadi, chunki odam so'zsiz boshqa til ko'nikmalaridan foydalana olmaydi. Bizning fikrimizcha, lug'at grammatikadan ham muhimroq, chunki lug'atlardan to'g'ri foydalanish malakalariga ega bo'lgan taqdirdagina xorijiy tillarni o'rganishda muvaffaqiyatga erishish mumkin. Faqat grammatikani bilish kommunikativ yondashuvda, ya'ni, muloqotda yordam bermasligi amaliy faoliyatda o'z tasdig'ini topgan, grammatika faqat lug'at boyligini muloqotda qo'llash uchun vosita hisoblanadi.[1] Tibbiyot oliygohi talabalari tilni o'rganishda bir maqsadga ega bo'lishlari mumkin. Bu "chet tilidan samarali foydalana olish", ya'ni tibbiyotga oid adabiyotlarni tushuna olish, turli xalqaro konferensiyalarda chet tilida muloqot qila olish malakalariga ega bo'lishlari lozim.


Asosiy qism. Chet tilidan samarali foydalanish uchun talabaga grammatik bilim bilan birgalikda leksik kompetensiya juda zarur. Xatto leksik birlik yetarli darajada bo'lmasa tildan foydalana olmaslik mumkin. Chet tili o'qitish mazmuni bo'lmish til materiallari leksika, grammatika va fonetikani darsda birga unumli ravishda olib borish, ayniqsa talabalarning leksik kompetensiyasini rivojlantirishda qiyinchiliklar vujudga keladi. Buning uchun talabalarga leksik minimumni qanday qilib unumli ravishda yetkazib bera olish, unga kommunikativ ravishda yondashish muhimdir.

Kommunikativ kompetensiya "muloqot qilish qobiliyatiga" ega bo'lishni anglatadi. [2] Kommunikativ kompetensiya odatda boshqa odamlar bilan kerakli aloqalarni o'rnatish va saqlash qobiliyatini deganidir. Kompetensiya samarali muloqotni ta'minlaydigan bilim, ko'nikma va malakalar to'plamini o'z ichiga oladi. Ushbu turdagi kompetensiya aloqa chuqurligini va doirasini o'zgartirish, aloqa sheriklari tomonidan tushunish va tushunish qobiliyatini o'z ichiga oladi. Bu inklyuziv atama bo'lib, u tilni bilish va kommunikativ ehtiyojlarni qondirish uchun real hayot sharoitida tildan foydalanish ko'nikmalarini anglatadi. Til, ko'plab tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, aloqa vositasidir va u to'rtta asosiy ko'nikmalarni o'z ichiga oladi; tinglash, gapirish, o'qish va yozish. Ushbu til ko'nikmalarini egallash uchun nafaqat grammatik qoidalarni o'rganish, balki ularning barchasini egallamaguncha shu kabi ko'nikmalar bilan muntazam shug'ullanish kerak. U har doim til ko'nikmalariga ega bo'lganda va u ishtirok etadigan kontekstga ko'ra ularni samarali va mos ravishda ishlatishga muvaffaq bo'lganda, biz u kommunikativ kompetensiyaning kerakli darajasiga erishgan deb aytishimiz mumkin.[1]

N.D.Galskova til o'rganishda muloqot tamoyilini zamonaviy metodologiyaning yetakchi tamoyillaridan biridir deb hisoblaydi Avvalo, kommunikativlik chet tilini o'rganish muloqot orqali, real muloqotga imkon qadar yaqin vaziyatlarda amalga oshiriladi, deb taxmin qiladi. Bu tamoyil, shuningdek, talabalarning boshqa til madaniyati vakillari bilan muloqot qilish qobiliyati va tayyorgarligini rivojlantirishni ta'minlaydi.[3] E.I.Passov o'quv jarayonida kommunikativlik tamoyilini amalga oshirish mashg'ulotning nutq yo'nalishi, vaziyatlilik, funktsionallik, talabalarning o'zaro munosabatlarining shaxsiy tabiati, yangilik va boshqa parametrlarni hisobga olishni talab qiladi deb ta'kidlaydi. [4]

Inson jamiyatda faol mehnat qilsagina muvaffaqiyatga erisha oladi. Jamiyat hayotida faol bo'lish, birgalikda yashash va ishlash esa shuni taqozo etadiki, odamlar bir-biri bilan o'zaro munosabatda bo'lishi, o'z fikrlari, bilimlari va tajribalarini almashishlari va o'z faoliyatlarini muvofiqlashtirishi shart, chunki fikrlar almashinuvisiz birgalikda ishlash va insoniyat jamiyati ham mavjud bo'lmaydi. Tafakkur ob'ektiv mavjud bo'lsa-da, odamlarning fikrlari almashinmaguncha jamiyat uchun haqiqatga aylanmaydi va bu almashinuv muayyan aloqa vositalari orqali amalga oshiriladi. Inson o'z fikrlarini boshqa odamlar uchun ochiq shaklga keltirish uchun turli xil imkoniyatlarga ega. Shunday qilib, masalan, rassom o'z fikrlarini rasmlari, kompozitsiyalari, ranglari va boshqalar orqali yetkazib beradi va shu bilan boshqa odamlarga ta'sir qiladi. Ohanglar, ritmlar va hokazolardan foydalanadigan bastakor ham insonlarga ko'p fikrlarni yetkaza olishi mumkin. Matematiklar, fiziklar, kimyogarlar va boshqa olimlar o'z sohalari formulalarida ushbu fanlar bilan shug'ullanadiganlarning barchasi tushunadigan ifoda vositalariga ega. Va nihoyat, har bir kishi muayyan vaziyatlarda o'zlarini boshqalarga tushunish uchun foydalanishi mumkin bo'lgan imo-ishoralar va yuz ifodalariga ega.

Biroq inson fikrlarini ifodalashning ushbu vositalarining barchasi inson hayotining ko'proq yoki kamroq to'liq qismini qamrab oladi va samaradorligi cheklangan. Olimlarning fikricha, til umuminsoniydir, chunki u inson bilimi, faoliyati va tuyg'usining barcha sohalariga singib ketgan. Rassomlik yoki musiqadagi badiiy ifoda vositalarining o'ziga xosligini e'tibordan chetda qoldirmasdan turib, tilning universalligi tufayli ko'p hollarda yuqoridagi ifoda vositalarini tilga „tarjima“ qilish mumkin, deb aytish mumkin. Og'zaki muloqotning oddiy va tipik holati bu suhbatdir. Suhbat sharoitida biz bir-biri bilan bog'liq bo'lgan kamida to'rtta elementni topamiz. Avvalo, gaplashayotgan ikki kishi bo'lishi kerak: sherik A va sherik B. Agar A sherik B sherigiga biror narsa bildirmoqchi bo'lsa, u lingvistik vositadan foydalanishi kerak, ya'ni u B sherik tomonidan lingvistik deb tushuniladigan ma'lum bir ma'noga ega bo'lgan belgilardan iborat tovush to'lqinlarini yuborishi kerak. Suhbatning bu uch elementi, sherik A, sherik B va lingvistik vositalarni bevosita kuzatish mumkin. To'rtinchi element - gapirilayotgan voqelikning ko'rinishidir. Ko'rinish turibdiki, A sherik bilan lingvistik vositalar o'rtasida bevosita bog'liqlik mavjud. Bu bog'liqlik A sherikning lisoniy vositalarni hosil qilishiga, so'ngra so'zlovchi (jo'natuvchi)ni ham ma'lum darajada vositalardan xulosa chiqarish mumkinligiga asoslanadi, masalan, B sherik so'z tanlash, his-tuyg'u, ovoz ohangi va boshqalarga nisbatan. B. sherik bilan lisoniy vositalar o'rtasida ham to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlik mavjud bo'lib, respondent (eshituvchi, qabul qiluvchi) xabarni tushinishi kerak. Biroq, lingvistik belgining voqelikka bevosita aloqasi yo'q. U haqiqat bilan faqat A va B ongi orqali bog'lanadi. Haqiqat A va B ongida aks etadi. Haqiqat va A va B sheriklar o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlik mavjud lekin til haqiqat o'rtasidagi munosabatlar faqat odamlar orqali ifodalanadi.



1-rasm. Lingvistik muloqotning soddalashtirilgan sxemasi (G.Jäger)

1-rasm aloqa jarayonini juda osonlashtiradi. Shuning uchun, jarayon quyida qisqacha tavsiflanadi: Har doim bir kishi boshqasiga biror narsa bildirsa, buning uchun aloqaning maqsadiga olib keladigan sabab bor. Agar bu niyat amalga oshsa, ya'ni, agar ko'rib chiqilayotgan shaxs qabul qiluvchi tomonidan og'zaki belgilar sifatida qabul qilingan va tushuniladigan tovush to'lqinlarini yuborsa, respondentdan reaksiya kutish mumkin. Agar lingvistik vositalar (kommunikativ ta'sir) bilan qo'zg'atilgan tushunish effekti so'zlovchining (jo'natuvchining) niyatiga to'g'ri kelsa, u holda quyidagi misoldagi kabi muloqot muvaffaqiyatli bo'ladi: Vrach va hamshira kasalni ko'rikdan o'tirmoqda. Shaxs A, ya'ni vrach bemorning qon bosimi oshganligini tushunib yetadi va shaxs B ga ya'ni hamshiraga, tanometrni olib berishini so'raydi. Bu holat va tanometrning B shaxsi yaqinida ekanligi, shuningdek, A ning qon bosimini o'lchab ko'rish niyati uni B ga murojaat qilishga undaydi: *Please give me the tanometer!* B ning reaksiyasi, B bu istakni tushunadi, deb faraz qilgan holda, ehtimol A tanometrni topshirishi mumkin, bu bilan aloqa jarayoni tugallanishi mumkin, chunki so'zning natijasi aytilishga olib kelgan niyatga mos keladi. Ushbu misoldan ko'rinib turibdiki, og'zaki muloqot modeli nutqning sababidan boshlanishi kerak. Bizning misolimizda bu sabab tashqarida mavjud bo'lgan va A ongiga bog'liq bo'lmagan haqiqatda yotadi. Ammo, umuman olganda, nutqning sabablari sifatida biz nutq mavzusidan tashqaridagi ikkalasini ham hisobga olishimiz kerak

Birinchi turdagi holat vaziyatga qarab birlamchi gaplar deyiladi; ikkinchi holatda vaziyatli ikkinchi darajali gaplar haqida gapiriladi. Biroq, sababning tabiatidan qat'i nazar, har bir so'zning sababi borligi aniq. Sabab hissiy organlar orqali A odamga ta'sir qiladi va markaziy asab tizimidagi murakkab jarayonlarni, ya'ni fikrlashni rag'batlantiradi. Muhim omillar - bu so'zning sababini darhol idrok etish, idrok etuvchi sub'ektning his-tuyg'ulari va kechinmalari bir-biriga ta'sir qiladi. Ushbu fikrlash jarayonlarining natijasi niyatdir. Bu niyat amalga oshishi mumkin, chunki A shaxsida kod bor; Bu miya yarim korteksida saqlanadigan tegishli tilning barcha birliklari (fonemalar, morfemalar, so'zlar, idiomalar, sintaktik tuzilmalar) va ularni tanlash qoidalaridan va kombinatsiyadan iborat. Endi mo'ljallangan xabar mavjud kalit asosida shifrlangan (kodlangan) bo'lishi kerak. Nutq signalini shunday kodlash mumkinki, nutq a'zolariga o'ziga xos impulslar yuborilib, ular harakatlanib, tovush to'lqinlarini hosil qiladi. Ammo bu shunday jarayonki, boshqa nerv impulslari qo'lni yozish harakatlarini rag'batlantirsa, kodlash ham markaziy asab tizimi tomonidan boshqariladi va muloqot qilish niyatini amalga oshirish markazdan boshqariladigan kodlashdan keyin amalga oshiriladi. Nutqning markaziy boshqariladigan organlari atrofdagi havoni tebranish orqali tovush to'lqinlarini hosil qiladi, ularning fizik xossalari nafas chiqarish, fonatsiya va artikulyatsiyada ishtirok etuvchi organlar bilan belgilanadi. Havo muhitida (kanal yoki uzatish kanali) tarqaladigan tovush to'lqinlari xabarni qabul qiluvchi yoki qabul qiluvchi B shaxsida ob'ektiv voqelik hodisasi sifatida harakat qiladi, xuddi sabab yuboruvchi A ga ta'sir qilganidek. Shunday qilib, tovush to'lqinlari B uchun sabab bo'lib, u eshitish orqali idrok qiladi va A ga o'xshab, asab tizimida murakkab jarayonlarni keltirib chiqaradi. Quuloq orqali qabul qilingan tovush to'lqinlari nerv impulslariga aylanadi, keyinchalik ular nutq signallari sifatida dekodlanadi; bu jarayon dekodlash deb ataladi. Ovoz to'lqinlari maqsadli joyga, B ning axborot manbaiga, ya'ni idrok, tajriba, hissiyot va kod sohalariga yetib boradi.

Biroq haqiqatda taqdim etilgan og'zaki muloqot modeli yanada murakkabroq, chunki tasvirlangan jarayonlar har doim ham oddiy voqealar ketma-ketligi sifatida tushunilmasligi kerak, lekin ko'pincha bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir. Kod va tajriba bilan doimiy ravishda maslahatlashgan holda dekodlash amalga oshiriladi. Xuddi shu narsa kodlash uchun ham amal qiladi. Boshqa tomondan, hali hisobga olinmagan bir nechta boshqaruv qurilmalari mavjud. Transmitterda bir nechta qayta aloqa zanjirlari

mavjud. Texnologiyadan olingan bu atama og'zaki muloqotdagi turli jarayonlarni tasvirlash uchun ishlatiladi: kinestetik ma'no so'zlovchiga, masalan, til va pastki jag'ning holatini va harakatini idrok etishga imkon beradi, shuning uchun barcha artikulyatsiya harakatlari axborot manbai haqida xabar berish mumkin. Bu yerda siz to'g'ri bo'lganingiz yoki noto'g'ri ekanligingiz taqqoslanadi. Eshitish ham xuddi shunday ta'sirga ega. Nutq asboblari tomonidan ishlab chiqarilgan tovush to'lqinlari ham jo'natuvchining qulog'iga tegadi va keyin qabul qiluvchi kabi yana axborot manbasiga yetib boradi. Bu ko'p jihatdan axborot manbasidan keyingi impulslar paydo bo'ladigan fikr-mulohazalarga bog'liq. Shunga o'xshash fikr-mulohaza qabul qiluvchida oldindan aytib o'tilgan shifrni ochishning maqsadli sayt hududlari bilan o'zaro ta'sirida ham mavjuddir.[5]

Chet tillarini o'qitish metodikasi uchun o'rganishni qayerdan boshlash kerakligi tildanmi yoki nutq birliklaridanmi doimo muhim bo'lib kelgan. Metodika tarixida ular asosan tilni (tizim sifatida) o'rgatgan davr bo'lgan, keyin nutqqa ko'proq e'tibor bera boshlagan. Hozirgi vaqtda nafaqat til yoki nutq, balki nutq faoliyati o'rgatilmoqda. Ushbu kontseptsiyani taniqli tilshunos L.V. Shcherba kiritgan. Nutq faoliyati - bu xabarni yaratish (gapirish, yozish) va / yoki xabarni idrok etish (tinglash, tushunish, o'qish) uchun boshqa odamlar bilan o'zaro munosabatda bo'lish jarayonida tildan foydalanadigan odamning maqsadli va maqsadli faoliyatidir. Dastlabki ikki tur mahsuldor, qolganlari esa nutq faoliyatining retseptiv turlaridir. [3]

Chet tilida nutqiy faoliyatni o'rgatishning asosi alohida so'zlar va ularni gaplarga o'tkazish qoidalari emas, balki tayyor nutq shakllari – nutqiy shakllardir. Nutq namunasi deganda nutqning tipik segmenti (tipik jumla) tushuniladi, unga o'xshash tarzda tuzilishi, umumlashtirilgan mazmuni va kommunikativ maqsadi bo'yicha o'xshash bo'lgan ko'p sonli bayonotlarni shakllantirish mumkin.[6] Nutq namunasi o'rganish birligi sifatida afzalligi shundaki, unda tilning barcha tomonlari o'zaro bog'liqdir: grammatik, leksik, fonetik (ritmik-intonatsion). Lingvistik tadqiqotlar natijalari metodistlarga ta'lim mazmunini aniqlashtirish, eng ko'p uchraydigan til va nutq materialini tanlash va uni turli xil nutq faoliyati turlarini o'rgatish uchun talabalarga taqdim etiladigan nutq namunalari shaklida tartibga solish imkonini beradi. Zamonaviy kommunikativ yondashuv sharoitida o'quv materialini talabalarga nafaqat nutq namunalari ko'rinishida, balki dialogik yoki monologik xarakterdagi mikromatnlarda taqdim etiladi.

Xulosa qilib, chet tilini o'qitishning zamonaviy nazariyasi va metodologiyasida asosiy o'rinni tibbiyot oliygohlarida yetakchi maqsadlaridan biri sifatida e'tirof etilgan "chet tilining kommunikativ kompetensiyasi" tushunchasi ya'ni lingvistik, sotsiolingvistik, diskursiv, sotsial-madaniy, ijtimoiy va kognitiv kompetensiyalar tashkil etadi. Ushbu konsepsiyaning o'zi o'z mazmunining murakkabligi, ko'p qirraliligi bilan ajralib turadi, bu talabalarning chet tilidan muloqot vositasi sifatida foydalanishga tayyorligini shakllantirishni o'z ichiga oladi.

Adabiyotlar:

1. Xodjayeva N.A “Chet tillarini o'qitishda leksik kompetensiyani rivojlantirish” Tafakkur ziyosi 1/ 2022 165-167 betlar
2. Hymes, D.H. (1972) “On Communicative Competence” In: J.B. Pride and J. Holmes (eds) Sociolinguistics. Selected Readings. Harmondsworth: Penguin
3. Гальскова Н. Д. Теория обучения иностранным языкам [Текст]: лингводидактика и методика: учебное пособие для вузов / Н. Д. Гальскова, Н. И. Гез, 2008.–5-изд. стереотип. М.: Академия, 2008.–333с
4. Методика преподавания иностранного языка : учеб. пособие / Т. П. Леонтьева [и др.] ; под общ. ред. Т. П. Леонтьевой. – 3-е изд., испр. – Минск : Высшая школа, 2017. – 239 с. стр 11
5. “Die Deutsche Sprache Kleine Enzykloepadie” Herausgegeben von Erhard Agricola, Wolfgang Fleischer und Helmut Protze unter Mitwirkung von Wolfgang Ebert " Leipzig . 1969.
6. Теория и практика обучения иностранным языкам: традиции и инновации: Сборник статей международной научно-практической конференции памяти академика РАО Инессы Львовны Бим.– М.: Тезаурус, 2013. – с. 331 бет

ANIQ VA TABIIY FANLARNI O‘QITISH

ABDULLAYEVA M.A.

BOZOROV E.X.

Namangan davlat universiteti doktoranti

O‘zbekiston Respublika fanlar akademiyasi
Yadro fizikasi instituti professori

“RADIATSIYA XAVFSIZLIGI” FANIDA DOZIMETRIYA ASOSLARI, DOZIMETRIK KATTALIKLAR MAVZUSIDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANIB DARS JARAYONINI OLIB BORISHNING SAMARADORLIGI

Ushbu maqolada Oliy ta’lim muassasalarida Radiatsiya xavfsizligi fani uchun dozimetriya mavzusini Blum taksonomiyasi negizida, Blum kubi interfaol metodini qo‘llash orqali pedagogik faoliyatni olib borishga yo‘naltirilgan. Hamda dozimetriya haqida atroflicha ma’lumotlar berilgan. Hozirgi kunda ta’lim jarayonida interfaol metodlar (innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalari)dan foydalanib, ta’limning samaradorligini ko‘tarishga bo‘lgan qiziqish. e’tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Maqolada ham metodni dars mashg‘ulotlarida foydalanish bo‘yicha takliflar berildi va pedagogik tahlil qilindi.

Kalit so‘zlar: kognitiv, psixomotor, affektiv, taksonomiyasi, dozimetriya, dozimetr

ОСНОВЫ ДОЗИМЕТРИИ В РАДИАЦИОННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ, ЭФФЕКТИВНОСТЬ ПРОЦЕССА ЗАНЯТИЙ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ ПО ТЕМЕ ДОЗИМЕТРИЧЕСКИЕ ВЕЛИЧИНЫ

В данной статье предмет дозиметрии для науки о радиационной безопасности в высших учебных заведениях направлен на ведение педагогической деятельности на основе таксономии Блума, с использованием интерактивного метода куба Блума. Также представлена подробная информация о дозиметрии. В настоящее время проявляется интерес к повышению эффективности обучения с использованием интерактивных методов (инновационных педагогических и информационных технологий) в образовательном процессе. В статье внесены предложения по использованию метода на занятиях и проведён педагогический анализ.

Ключевые слова: когнитивный, психомоторный, аффективный, таксономия, дозиметрия, дозиметр.

FUNDAMENTALS OF DOSIMETRY IN RADIATION SAFETY, EFFECTIVENESS OF LESSON PROCESS USING INTERACTIVE METHODS ON THE SUBJECT OF DOSIMETRIC QUANTITIES


In this article, the subject of dosimetry for the science of radiation safety in higher education institutions is directed to conduct pedagogical activity on the basis of Bloom taxonomy, using the interactive method of Bloom cube. Also detailed information about dosimetry is provided. Currently, there is an interest in increasing the effectiveness of education using interactive methods (innovative pedagogical and information technologies) in the educational process. attention is growing day by day. In the article, proposals were made for the use of the method in classes and a pedagogical analysis was made.

Key words: cognitive, psychomotor, affective, taxonomy, dosimetry, dosimeter.

Kirish. Oliy o‘quv yurtlarida bugungi kundagi dolzarb vazifalardan biri bu, dars mashg‘ulotlarida ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi, ilg‘or pedagogik texnologiyalardan unumli va o‘z o‘rnida foydalanishdir. Hozirgi kunda dars mashg‘ulotlarini tashkil etishning zamonaviy usullaridan biri interfaol metodlardan foydalanishiga keng ahamiyat qaratilmoqda. Interfaol metodlar yordamida har bir darsda talabalarni faol qilish jarayoniga undash, mustaqil ravishda aqliy faoliyatini rivojlantirishga imkoniyat yaratish mumkin. Zamonaviy pedagogik interfaol metodlar asosida o‘tilgan darslarda pedagog va talabalar fanlararo bog‘lanishni, mavzularning mazmun-mohiyatini chuqur tahlil etadi. Darsda muamoli vaziyatlar yaratiladi. Ba’zan pedagog, ba’zan esa talabalar o‘zlari muammoni o‘rtaga tashlaydilar va fikr yuritib, yechimni topishga intiladilar.

Asosiy qism. Zamonaviy pedagog har bir dars mashg‘ulotini qiziqarli va mazmunli tashkil etishi zarur. Pedagog shunday metoddan foydalanishi kerakki, u darsda ortiqcha vaqtni olmasin, foydalanishda

pedagog ham, talaba ham qiyinchilikka duch kelmasin. Shunday interfaol metodlardan biri bu “Blum kubi” metodidir. Ushbu metod Benjamin Blum tomonidan o‘ylab topilgan va pedagogik faoliyat uchun yagona algoritmlar tizimining muallifi sifatida tanilgan. U taklif qilgan nazariya yoki “taksonomiya” ta’lim maqsadlarini uchta blokka ajratadi: kognitiv, psixomotor va affektiv. Oddiy qilib aytganda, bu maqsadlar “Men bilaman”, “Men yarataman” va “Men qila olaman” bloklari bilan belgilanishi mumkin. Ya’ni, talabaga tayyor bilim taklif etilmaydi, balki muammo o‘rtaga tashlanib, muhokama qilinadi. Talaba esa o‘z navbatida o‘z tajribasi va bilimidan foydalanib, bu muammoni hal qilish yo‘llarini topishi kerak. Ushbu metodda ko‘rilayotgan masalani turli tomondan, qadama-qadam, osondan qiyinga tomon yo‘nalishda tasavvur etish imkoniyatini beradi. Kubning har tomoni muayyan topshiriqni ifodalaydi. Masalan,



1-rasm. Blum kubi sxemasi

“Radiatsiya xavfsizligi” fanini o‘qitishning “Blum kubi” interfaol metodi bilan tushuntirishning samaradorligi.

Blum taksonomiyasi - bu rasmiy ta’lim orqali erishiladigan turli xil maqsadlarga ega bo‘lgan tasnif. Benjamin Blum tomonidan faqat faktlarni eslab qolish o‘rniga (tushunarli ta’lim) tushunchalarni, jarayonlarni, protseduralarni va printsiplarni tahlil qilish va baholash kabi ta’limdagi yuqori fikrlash usullarini targ‘ib qilish uchun yaratilgan. Blum kubi esa Blum va uning hamkorlari tomonidan ishlab chiqilgan oltita asosiy toifa kubning olti tarafidan iborat. Ular quyidagilar: Bu nima, Taqqoslang, Tahlil qiling, Tushintiring, Qo‘llang, Xulosa. Har bir tomonda toifalar mavjud bo‘lib, ularning barchasi soddadan murakkabgacha va konkret dan mavhumgacha davom etadigan bo‘lsa, taksonomiya asosiy natijaga erishiladi.

Misol uchun “Dozimetrik kattaliklar” mavzusini talabalarga quyidagicha yetkaziladi va tushuntiriladi: Dozimetriya – (yunoncha so‘zdan olingan bo‘lib, dosis — ulush, bo‘lak va metro — o‘lchayman degan ma’noni anglatadi) — amaliy yadro fizikasi sohasi, ionlovchi nurlarning jonli va jonsiz tabiat ob’yektlariga ta’sirini ifodalaydigan fizik miqdorlarni o‘rganish, xususan nurlanish dozasini (me’yorini) aniqlash, shu miqdorlarni o‘lchash usullari va asboblarni yaratish bilan shug‘ullanadigan soha. Dozimetr - gazda hosil bo‘lgan ionlar tokini o‘lchashga mo‘ljallangan asboblarni ionizatsiya dozimetrlari deyiladi. Dozimetriyaning asosiy vazifasi ionlashtiruvchi nurlanishning aholiga va boshqa obyektlarga ta’sir darajasini va xavfsiz miqdorini aniqlash va baholashdan iborat. Dozimetriya yordamida zararlanish o‘chog‘ida qutqaruv va tezkor avariya tashkil qilish vazifalarini muvaffaqiyatli hal qilish uchun turli ob’yektlarning radioaktiv moddalar bilan zararlanish darajasini aniqlashda, oziq-ovqat, suv va boshqa mahsulotlarning iste’mol qilishga yaroqliligini aniqlash uchun, har hil obyekt va sub’yektlarning nurlanib qolishining oldini olish uchun radioaktiv nurlanishni aniqlash va o‘lchash ishlari bajariladi. Dozimetriya ishlarini tashkil qilish bilan aholi

radiatsiyaviy xavfsizligini ta’minlash amalga oshiriladi. Dozimetriya oid darsni olib borayotgan pedagog Blum kubi metodini qo’llayotganda dastlab, proektordan dozimetrlarning rasmlarini ko’rsatadi.

- Bu o’z o’rnida kubning 1 tomoni ya’ni **Bu nima?** topshirig’idan boshlanadi.



2-rasm. Dozimetrlar

Surat namoyishidan so’ng talabalar tomonidan bu nima ekanligi birin-ketin so’rab boriladi (noto’g’ri javob berilgan bo’lsa ham inobatga olinadi). Bu bosqich orqali talabalarning dastlabki tushunchalari aniqlanadi. Javoblar to’g’ri noto’g’riligi tahlil qilinadi. Fikr-mulohazalardan so’ng, kubning 2-tomoniga ya’ni ikkinchi bosqichga o’tiladi.

- Bu qurilma **nima uchun** ishlatiladi, boshqa qurilmalar bilan **taqqoslang**. Talabalar tomonidan dastlabki fikrlar eshutiladi. Fikrlar muhokamasidan so’ng, pedagog tomonidan rasmdagi qurilmalar qanday qurilmalar ekanligi, qanday maqsadda ishlatilishi, vazifasi kabilar ma’ruza qilinadi.

- Kubning 3-tomoni **Tushuntiring** bosqichi. Dozimetrda radiatsiya qanday o’lchanadi, qanday turlari mavjud, dozimetr ishlash prinsipi kabilar tushuntiriladi. Yuqoridagi bosqichlar singari dastlab, talabalar fikri so’ng pedagog tomonidan aniq va to’g’ri javoblar to’ldirishlar qilinadi.

- Kubning 4-tomoni **Tahlil qiling** bosqichi. Bu bosqichda talabalar mustaqil ravishda fikrlashdi. Radioaktivlik yadro portlashlar, radiatsiyaviy xavfli obyektlardagi avariylardagina emas u turli materiallarda ham uchrashi mumkin haqida o’z fikrlarini bildirib, tahlil qilinadi. Masalan, O’zbekiston sharoitida turli xil qurilish materiallarini ishlab chiqarishlari mavjud. Tog’ jinslaridan olinadigan qurilish materiallari turli tekshiruvlarsiz, xususan, radioaktivlikka tekshirilayotgani yo’q. Aksariyat ko’r-ko’rona foydalanish tashkil etilgan. Tashqaridan, respublika tashqarisidan keltirilayotgan materiallar ham yuqoridagi kabi. Ular bo’yicha xavfsizlik ishlarini etarli deb bo’lmaydi. Ionlashtiruvchi nurlanish manbalari turlicha bo’ladi. Shu sababli dozimetriyada ularni aniqlash, o’lchash metodlari va vositalari ham turlichadir. Shu kabi masalalar tahlili va yechimlari olib boriladi.

- Kubning 5-tomoni **Qo’llang** bosqichi. Bu bosqichda mavjud dozimetr o’lchash asboblari talabalarga ko’rsatiladi. O’lchash usullari ketma-ketligi o’rgatiladi. Bu bosqichda amaliy tarzda bajarish ishlari olib borilib, talabalar ongida yaxshi saqlanib qoladi. Joylarda radiatsiya darajasini, radioaktiv moddalarni aniqlashda va tashqi muhit obyektlarining radioaktiv ifloslanishini o’lchashda DP-5 turdagi asboblardan foydalaniladi. Xuddi shuningdek ta’sir va yutilgan nurlanish dozasi DP-22V, DP-24, DP-23A, ID-1, ID-11 turdagi dozimetrlar to’plami bilan o’lchanadi.

▪ Kubning 6-tomoni *Xulosa va Takliflar* bosqichi. Eng so‘ngi xulosalovchi bosqich sanaladi. Bu bosqichda pedagog aktiv bo‘ladi. Mavzuni yakunlaydi, xulosa qiladi.

Taklif etilgan metodning sinovi (approbatsiyasi) Namangan davlat universiteti, Hayot faoliyati xavfsizligi kafedrasini, Hayotiy faoliyat xavfsizligi yo‘nalishi talabalarini sinovdan o‘tmoqdalar. Talabalar uslubiy ko‘rsatmalardan va kafedra o‘qituvchilari tomonidan tayyorlangan materiallardan foydalanadilar. Taqdim etilgan konseptual yondashuvning istiqbolligi va potentsiali shunda namoyon bo‘ladiki, talabaning ham darslarda aktiv rolda bo‘lishi talabalarning keyingi mavzularni yaxshi o‘zlashtirishiga yordam beradi.

Xulosa. Ushbu metodni texnika fanlarini o‘qitishda talabaga ta’limning ijtimoiy, amaliy va shaxsiy ahamiyatini tushunishga yordam beradi. “Blum kubi” mavzuning haqiqiy hayotda qo‘llanilishini tahlil qilishga yordam beradi, shuning uchun talabalar tomonidan amaliy qo‘llash bilan bog‘liq savollar berilib, javobiga ham ega bo‘ladilar. Metoddagi uzviylik dars mashg‘ulotida to‘xtalishlar bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaydi. Aksincha bahs munozara, yangi fikrlar bilan boyitiladi. “Blum kubi”ning har bir bosqichiga talab darajasida javob berilsa, mukammal kub hosil bo‘ladi. Ana shundagina natijaga erishiladi. “Blum kubi”ning asl mohiyati ham shunda.

Ushbu maqola № AM-PZ-2019062031 ““Yadro energetikasi”, “Yadro tibbiyoti va texnologiyalari”, “Radiatsion tibbiyoti va texnologiyalari” fanlari bo‘yicha bakalavr va magistr uchun multimediali darsliklarini yaratish” nomli innovatsion loyiha doirasida yozib tayyorlangan materiallarning pedagogik tahlili asosida yozilgan bo‘lib, darsliklar mualliflariga minnatdorchilik bildiramiz.

Adabiyotlar:

1. Raximov O.D., Sapaev M.S., Nazarov B.F, Oliy ta’limda zamonaviy ma’ruzalar. Qarshi 2012 y. 13-19 betlar
2. Raximov O.D, Turg‘unov O.M., Mustafaev Q.O., Ro‘ziev H.J Zamonaviy ta’lim texnologiyalari Toshkent 2012 y. 35-bet
3. Shaxodjaev Maxmud Axmedovich Mamadaliyeva Lola Kamildjanovna Professional ta’lim o‘qituvchisini innovatsion faoliyatini rivojlantirish Farg‘ona 2022
4. Axmedov I. A., Saidxo‘jaeva N. S. Radiatsiya xavfsizligi Toshkent 2019 y. 59-bet
5. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Qarshi.: Nasaf, 2000 y.
6. Ro‘ziyeva D., Usmonboyeva M., Holiqova Z. Interfaol metodlar: mohiyati va qo‘llanilishi / Met.qo‘ll. – T.: Nizomiy nomli DTPU, 2013 y
7. Innovatsion ta’lim texnologiyalari, Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To‘rayev A.B. – T.: “Sano standart” nashriyoti, 2015 y.

BATIROVA Roziyaxon Baxtiyarovna

Farg‘ona politexnika instituti “Intellektual muhandislik tizimlari” kafedrası muhandisi

BOZOROV E.X.

O‘zbekiston Respublika fanlar akademiyasi Yadro fizikasi instituti professori

TEZ NEYTRON REAKTORLARI MAVZUSINI O‘QITISHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH

Maqolada o‘qitishning zamonaviy interfaol texnologiyalarining asosiy masalalari qaralgan. Shu bilan birga zamonaviy interfaol texnologiyalaridan foydalangan holda “Tez neytron reaktorlari” mavzusini o‘qitishning asosiy vazifalari va samaradorligi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: o‘qitishning zamonaviy texnologiyalari, interfaol texnologiyalar, vositalari, samaradorligi, tez neytron reaktorlar, uran, sovutish, himoya, klister, SWOT, Venn diagramma, interfaol.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ В ПРЕПОДАВАНИИ ТЕМАТИКИ РЕАКТОРА НА БЫСТРЫХ НЕЙТРОНАХ

В статье рассматриваются основные вопросы современных интерактивных технологий обучения. При этом выделены основные задачи и эффективность преподавания темы «Реакторы на быстрых нейтронах» с использованием современных интерактивных технологий.

Ключевые слова: современные технологии обучения, интерактивные технологии, средства, эффективность, реакторы на быстрых нейтронах, уран, охлаждение, защита, клистер, SWOT, диаграмма Венна, интерактивный.

USE OF INTERACTIVE METHODS IN TEACHING THE SUBJECT OF FAST NEUTRON REACTORS

The article deals with the main issues of modern interactive learning technologies. At the same time, the main tasks and effectiveness of teaching the topic "Fast neutron reactors" using modern interactive technologies are highlighted.

Key words: modern teaching technologies, interactive technologies, tools, efficiency, fast neutron reactors, uranium, cooling, protection, klister, SWOT, Venn diagram, interactive.

Kirish. Bugungi kunda mutaxassisliklari bo‘yicha pedagog kadrlar tayyorlashning sifatini ta‘minlashda talabalarni ilm-fan taraqqiyotining eng so‘nggi yutuqlaridan xabardor qilish, bugungi kunda fan va texnika sohasidagi yangiliklarni o‘quv dasturlari mazmuniga kiritish va shular zaminida zamonaviy bilimlarni shakllantirishga zamin yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Binobarin, zamonaviy o‘qitish texnologiyalari, ular bilan bog‘liq metodik yondashuvlar bo‘ljak pedagog kadrlarlarda zaruriy bilimlar, muhim qonuniyatlar, ko‘plab fundamental tushunchalarni nisbatan yengil, chuqur va mustahkam shakllantirish uchun qulay sharoit yaratadi.[1]


Oliy ta‘lim muassasalarida yadro reaktorlari fanini o‘qitish yuzasidan bilim va malakalarni shakllantirish va uni rivojlantirish, mazkur jarayonga nisbatan tizimli, kompleks yondashuvni taqozo etadi. Hozirgi tez suratlarda rivojlanayotgan vaqtda bo‘ljak kadrlarning chuqur bilimga, samarali faoliyat yurita olish mahoratiga ega bo‘lishi va mutaxassisliklariga tegishli fan asoslari borasida talabalarda yetarli nazariy hamda amaliy bilimlarga ega bo‘lishlari, ta‘lim jarayonida yangi innovatsion texnologiyalaridan unumli foydalanish malakasining qanchalik shakllanganligiga bog‘liqdir. Shu sababli, ta‘lim jarayonini takomillashtirish, zamonaviy ped texnologiyalari imkoniyatlaridan, jumladan innovatsion texnologiyalar tizimlarini yaratish va undan ta‘lim jarayonida unumli foydalanishning nazariy hamda amaliy asoslarini yaratish ko‘rilayotgan mavzuimizni dolzarbligini belgilaydi.

Asosiy qism. Hozirgi kunda dunyoning ko‘plab rivojlangan mamlakatlarida talabalarining qiziqishi, ilmiy ijodkorligini oshiruvchi, shu bilan birga ta‘lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi yangi pedagogik texnologiyalarni qo‘llash bo‘yicha katta tajriba to‘plangan. Shu tajriba asosini interfaol metodlar tashkil etib, Oliy ta‘lim muassasalarida “Tez neytron reaktorlari” mavzusini interfaol usullardan foydalanib o‘qitishni o‘rganish bo‘yicha mashg‘ulotlarni innovatsion texnologiyalar yordamida tashkil etishdan asosiy maqsad - talabalarni tez neytron reaktorlarini imkoniyatlari, hozirgi kunda aholini zamonaviy

yoritish va isitish jixozlaridan keng foydalanish imkoniyatlarini yanada oshirish, yadro texnologiyalari va tizimlari, tez neytron reaktorlari texnologiyalarining jamiyatdagi o’rni va ahamiyati, yadro texnologiyalariga xizmat ko’rsatish, tamoyil va uslublari bilan chuqur hamda har tomonlama amaliy jixatdan tanishtirishdan iboratdir.

Bu usullarning o’ziga xosligini keltirib o’tadigan bo’lsak, ular faqat pedagog va talabalarning birgalikda faoliyat ko’rsatishi evaziga amalga oshiriladi. Hozirgi kundagi ko’pgina uslubiy innovatsiyalar interfaol usullarni qo’llash bilan bog’lik. Biz quyida tez neytron reaktorlari mavzusini o’qitish jarayonida qo’llash mumkin bo’lgan ba’zi bir texnologiyalarni bayon etishga harakat qilamiz.

“Venn diagrammasi” grafik organayzeri talabalarda mavzuga nisbatan tahliliy yondashuv, ayrim qismlar negizida mavzuning umumiy mohiyatini o’zlashtirish ko’nikmalarini, tasavvurlarini hosil qilishga yo’naltiriladi. Bunga asosan kichik guruhlarini shakllantirish asosida aniq sxema bo’yicha amalga oshiriladi. Grafik organayzer talabalar tomonidan mavzu yuzasidan nazariy bilim, ma’lumot yoki dalillarni qiyosiy tahlil qilishga yordam beradi. Grafik organayzerdan muayyan bo’lim yoki boblar bo’yicha yakuniy darslarni tashkil etishda foydalanish yanada samaralidir. Tez neytron reaktorlari mavzusini interfaol usullardan foydalanib o’qitishni o’rganishda Tez neytron reaktorlarini “Venn diagrammasi” grafik organayzeri ko’rinishida quyidagicha ifodalanadi:



1-rasm. “Venn diagrammasi” grafik organayzeri ko’rinishida

“SWOT” tahlili bu strategik rejalashtirish va qaror qabul qilishda yordam beradigan usul hisoblanadi.

“SWOT” so’zi quyidagi inglizcha so’zlarning qisqartmasidan olingan:

S – Strengths (Kuchli tomonlar);

W – Weaknesses (Zaif tomonlar);

O - Opportunities (Imkoniyatlar);

T - Threats (Xavflar).[2]

“SWOT-tahlil” strategiyasi muammoning asosiy to’rt jihatini yoritishga xizmat qiladi. Talabalar tomonidan “Tez neytron reaktorlari” mavzusining mazmuniga mos muammolarni atroflicha o’rganish orqali mohiyatini yoritadi, ularni keltirib chiqaruvchi omillarni izlab, hal qilish imkoniyatlarini topadi. Tez neytron reaktorlari mavzusini interfaol usullardan foydalanib o’qitishni SWOT tahlilida ifodalanishini quyida keltirildi:

“SWOT” tahlilini talabalar oson tushunishlari uchun uni 4 katakli jadvalda namoyish etdik. Tepadagi ikki katakda Tez neytronli reaktorlarni kuchli tomonlari va zaif tomonlari ma’lumot sifatida keltirildi va ular ichki omillar deb ataladi. Pastdagi ikki katakka Tez neytronli reaktorlarni imkoniyatlar va xavflari qo’yilgan va ular tashqi omillar hisoblanadi.

“Sinkveyn” strategiyasi J.Still, K.Meredit, Ch.Temil tomonidan ishlab chiqilgan. (fr. “besh qator” ma’nosini anglatadi) ma’lumotlarni sintezlash (alohida ma’lumotlar asosida yaxlit g’oyalarni shakllantirish)ga yordam beradigan qofiyasiz she’r bo’lib, u asosida o’rganilayotgan mavzu (tushuncha, hodisa, voqea)larga

oid ma'lumotlar to'planadi; har bir o'quvchi (tinglovchi) ushbu ma'lumotlar yig'indisi (qofiyasiz she'r)ni o'z so'zlari bilan turli variant yoki nuqtai nazarlar orqali ifodalash imkoniyatiga ega.[3]

S	Tez neytronli yadro reaktorining kuchli tomoni	Radiaktiv elementlarni tez reaksiyaga kirishi. Elektr energiyasini olishda kamharjligi
W	Tez neytronli yadro reaktorining kamchiliklari	-Tez neytron reaktoridan dunyo mamlakatlarida deyarli foydalanilmaydi; - Tez neytron reaktorida sovutish suvi sifatida suvdan foydalanilmaydi; - Tez neytron reaktorida nurlangan materiallarni qayta ishlash jarayonida chiqindilar hosil bo'lishi; -Hosil bo'lgan chiqindilarni bartaraf etish(xafsizlikni ta'minlash maqsadida ko'mish);
O	Tez neytronli yadro reaktorining afzalliklari	-Tez neytron reaktori yordamida katta quvatda elektr energiyasini olish; -Elektr energiyasini olish yo'lida yer osti boyliklarini saqlab qolinishi va yer osti b'shliqlarini hosil bo'lmasligi; -Elektr energiyasini olish yo'lida azon qatlamida tuynuklar hosil bo'lmasligi;
T	Tez neytronli yadro reaktorining to'siqlari	Tez neytron reaktorlarini loyihalash va qurishda iqtisodiy jixatdan katta mablag' talab qilinishi.


2-rasm. «SWOT» usuli “Tez neytron reaktori” mavzusida tahlili

Mavzuga oid ya'ni biz “Tez neytron reaktori” mavzusiga qo'llayotganimiz uchun reaksiya jarayonlarini bir necha so'zlar bilan ifodalaymiz. “Tez neytronli reaktor” mavzusi “Sinkveyn” usulida quyidagicha ifodalanadi:

Reaktor		
Tezkor reaktor	Tez neytron	
Radiaktiv elementlarni parchalaydi, reaksiyaga kirgizadi	Issiqlik chiqaradi	Elektr energiyasini ishlab chiqaradi
Tez neytron reaktorining ishlash prinsipi		
Yadro tezlatgich		

3-rasm. “Tez neytronli reaktor” mavzusi “Sinkveyn” usulida ifodalanishi

“Klaster” grafik organayzeri. “Klaster” (g'uncha, to'plam, bog'lam yoki boshqacha aytganimizda mavzuga oid tayanch sozlar mantiqiy zanjir) grafik organayzeri mukammal ishlangan strategiya hisoblanadi va bu usulda talabalar bilan yakka tartibda, kichik guruhlar asosida tashkil etiladigan mashg'ulotlarda qo'llash mumkin. Klasterlar ilgari surilgan g'oyalarni umumlashtirish, ular o'rtasidagi aloqalarni topish imkoniyatini yaratadi. Bu usulda asosiy tayanch so'z o'qituvchi yoki talaba tomonidan aytiladi va atrofiga shu so'zni ifodalaydigan mantiqiy zanjirlar tuziladi.[4] Bu Grafik organayzerda biz tayanch so'z sifatida “Tez neytron reaktori”ni keltirdik va bu “Klaster” grafik organayzerini quyidagicha ifodaladi.



3-rasm. “Klaster” grafik organayzeri

Mashg'ulot jarayonida pedagog tomonidan ta'lim oluvchilarga strategiyaning mohiyati, afzalliklari haqida yetarlicha ma'lumot berilishi talabalar tomonidan mustaqil ravishda hal etiladigan muammo mohiyatining to'la tushunilishini ta'minlash va kutilgan natijaga erishishga yordam beradi.

Bu metodlarni dars jarayoniga qo'llashda quyidagi natijalarga erishish mumkin: Mashg'ulotlardagi interfaol usullar pedagog va ta'lim oluvchi(talaba)ni o'zaro tushunishga, hamjihatlikda faoliyat yuritishga, umumiy, lekin har bir ishtirokchi(ta'lim oluvchilar) uchun muhim materiallarni va muammoli holat(mavzuga oid) birbo'lib xal etishga(yechimini topish) olib keladigan muloqotni tashkil etish va rivojlantirishni nazarda tutadi, hamda talabalarda hal etilayotgan muammoli holat hodisa(Tez neytronli reaktordagi reaksiya jarayoni) yuzasidan mantiqiy, izchil fikrlash, ichki mohiyatini tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantiradi.

Tez neytronli reactor mavzusini o'rganish jarayonida interfaol texnologiyalardan foydalanish dars mashg'ulotlari jarayonida quyidagi ijobiy quvonarli natijalarga erishiladi:

- talabalarining Tez neytronli reactor mavzusi bo'yicha bilimlari va tasavvurlarini shakllantirishni ta'minlaydi;

- talabalarda tez neytronli reaktorni ishlash prinsiplari va tashkil etuvchi elementlari tasavvur qilish hamda ko‘z o‘ngida aks ettirish samaradorligi oshadi;
- tez neytronli reaktorlar mavzusiga oid taxminiy tushunchalar hamda kamchilar va xatolar bartaraf etiladi;
- talabalarni mavzu(Tez neytron reaktori)ga oid tushunchalari va inkor qilinmaydigan fikrlash qobiliyatlarini o‘rnatadi.
- dars mashg‘uloti jarayonida talabalar mavzu(Tez neytron reaktori) yuzasudano‘z-o‘ziga baho berishlari, o‘zaro bir birlarini baholashlari hamda tanqidiy qarashlari rivojlanadi;
- talabalar uchun mashg‘ulot jarayoni muhim va sifatli o‘qitilayotgan predmet mazmuniga aylanadi va talabalar tomonidan o‘qish jarayoniga yuqori va teran yondashuv, ijobiy fikrlar vujudga keladi;
- har bir talabani o‘zi mustaqil fikr yurita olishga, mavzuga oid mushohada qilishga, mustaqil izlanishlariga undaydi;
- interfaol usullaridan foydalanib olib borilgan dars jarayonida talabalarning mavzuga oid tushunchalari, tasavvurlari va ularni mustaqil ravishda izlanishlari, tanqidiy va mantiqiy fikrlashlari, qobiliyatlarini rivojlantirishda samaradorligi yuqori bo‘ladi.

Xulosa. “Tez neytron reaktor” mavzusini interfaol usullari asosida o‘rganishda quyidagi asosiy vazifalarni bajarish lozimligini ta’kidlashimiz mumkin:

- pedagog-o‘qituvchi(ta’lim beruvchilar) tomonidan fanning mazmunini yoritib beruvchi sillabus yaratilinishi kerak;
- olib borilayotgan dars mashg‘ulotlarini bugungi kun, ya’ni zamon talablari asosida zamonaviy interfaol texnologiyalardan foydalanib tashkil etish;
- mashg‘ulotlarni interfaol usullardan foydalanib tashkil etishga oid bajarilgan ishlanmalar yuzasidan elektron slaydlar ya’ni taqdimotlar yaratish;
- dars mashg‘ulotlarni interfaol texnologiyalar asosida tashkil etish bo‘yicha nazorat topshiriqlari va mustaqil ta’lim yuzasidan ko‘rsatmalar ishlab chiqish;
- mashg‘ulotlarni interfaol texnologiyalar asosida tashkil etish yuzasidan keyslar to‘plami, amaliy topshiriqlar, ishlanmalar yaratish va ularni amaliyotga tatbiq etish.

Ushbu maqola № AM-PZ-2019062031 “Yadro energetikasi”, “Yadro tibbiyoti va texnologiyalari”, “Radiatsion tibbiyoti va texnologiyalari” fanlari bo‘yicha bakalavr va magistrlar uchun multimediali darsliklarini yaratish“ nomli innovatsion loyiha doirasida yozib tayyorlangan materiallarning pedagogik tahlili asosida yozilgan bo‘lib, darsliklar mualliflariga minnatdorchilik bildiramiz.

Adabiyotlar:

1. Raximov O.D., Turg‘unov O.M., Mustafaev Q.O., Ro‘ziev H.J Zamonaviy ta’lim texnologiyalari /Toshkent, “Fan va texnologiya nashriyoti”, 2013y., 7-27-betlar.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni “2017—2021-yillarda O‘zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”. //7 fevral, 2017 yil.
3. Ro‘ziyeva D., Usmonboyeva M., Xoliqova Z. Interfaol metodlar: mohiyati va qo‘llanilishi. // Uslubiy qo‘llanma. -T.: “TDPU”, 2013, -116 bet.
4. Ядерная энергетика: Учебное пособие Азаренков Н. А., Булавин Л. А., Залюбовский И.И., Кириченко В. Г., Неклюдов И. М., Шиляев Б. А. – Х.ХНУ имени В. Н. Каразина 2012. 535 с.
5. Levin V.E. Yadro fizikasi va yadro reaktorlari. 4-nashr. - M.: Atomizdat, 1979 yil.
6. <https://bank.nauchniestati.ru/primery/doklad-na-temu-jadernyj-reaktor/>, <https://optolov.ru/uz/the-interior-of-a-country-house/chto-nazyvayut-yadernym-reaktorom-kak-rabotaet-yadernyi-reaktor.html>

AXMADJONOV Mexridin Faxridinovich

Farg‘ona politexnika instituti
Fizika kafedrası assistenti

“FOTODIODLAR, FOTOTRANZISTORLAR. TIBBIYOTDA FOTOMETRIK USULLARNI QO‘LLANILISHI” MAVZUSINI O‘TISHDA “AJURLI ARRA” STRATEGIYASINI QO‘LLASH

Annotatsiya. Ushbu maqolada “Tibbiy elektronikasi” fani amaliy mashg‘ulotlarni interfaol usul yordamida olib borish haqida ma‘lumot berilgan. Ta‘lim metodining maqsadi yoritilgan. Mavzuni hamkorlikka asoslangan “Ajurli arra” strategiyasi bilan yoritishga oid masalalar tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: “Ajurli arra” strategiyasi, fotodiodlar, fototranzistorlar, tibbiyotda fotometrik usullar, kolorimetriya, oksigemometriya, polarimetriya.

ПРИМЕНЕНИЕ СТРАТЕГИИ “АЖУРНАЯ ПИЛА” ПРИ ПРОВЕДЕНИИ ТЕМЫ “ФОТОДИОДЫ, ФОТОТРАНЗИСТОРЫ. ПРИМЕНЕНИЕ ФОТОМЕТРИЧЕСКИХ МЕТОДОВ В МЕДИЦИНЕ”

Аннотация. В данной статье представлена информация о проведении практических занятий по направлению «Медицинская электроника» с использованием интерактивного метода. Объясняется цель воспитательного метода. Проанализированы вопросы, связанные с освещением темы стратегией «Пила», основанной на сотрудничестве.

Ключевые слова: стратегия «Пила», фотодиоды, фототранзисторы, фотометрические методы в медицине, колориметрия, оксигеметрия, поляриметрия.

APPLICATION OF THE “OPENWORK SAW” STRATEGY DURING THE TOPIC “PHOTODIODES, PHOTOTRANSISTORS. APPLICATION OF PHOTOMETRIC METHODS IN MEDICINE”

Abstract. This article provides information on conducting practical classes in the direction of "Medical Electronics" using an interactive method. The purpose of the educational method is explained. The issues related to the coverage of the topic by the "Saw" strategy based on cooperation are analyzed.

Key words: "Jigsaw" strategy, photodiodes, phototransistors, photometric methods in medicine, colorimetry, oxyhemometry, polarimetry.

Kirish. “Ajurli arra” strategiyasi – hamkorlik ta‘limi texnologiyalarining muhim turi bo‘lib, hamkorlik ta‘limida keng foydalaniladi.

Ushbu strategiyani qo‘llash jarayonida talabalar tayyor matnlar bilan ishlaydi. 1986-yilda F.Slavin tomonidan “Ajurli arra-2” metodi ishlab chiqilgan bo‘lsa-da, biroq “Ajurli arra” strategiyasi o‘zining ommaviyligini saqlab qoldi.


Asosiy qism. “Ajurli arra” strategiyasi (fr. “ajour” – bir yoqdan ikkinchi yoqqa o‘tgan, ikki tomoni ochiq) – yaxlit mavzuni bir nechta qismlarga ajratgan holda mazmunini yoritish asosida talabalarning uni puxta o‘zlashtirishi, o‘z bilimlarini boshqalarga yetkazib berish layoqatiga ega bo‘lishi ta‘minlovchi strategiya

“Ajurli arra” strategiyasining texnologik modeli quyidagicha (1-rasm).

Mashg‘ulotda “Ajurli arra” strategiyasini qo‘llash quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

1. O‘qituvchi talabalarni “Ajurli arra” strategiyasi mohiyati bilan tanishtiradi
2. O‘qituvchi talabalarni kichik guruhlariga ajratadi
3. O‘zlashtiriladigan mavzuning matnini bir nechta qismlarga ajratilgan holda alohida qog‘ozlarda qayd qilinadi hamda paketlanga solinadi.
4. Matnli materiallar joylashtirilgan paket guruhlariga tarqatib beriladi.
5. Guruhlar matnli materiallardan foydalanib, topshiriqni bajarishga kirishadi.
6. Topshiriq bajarilgach, har bir guruhdan matnni yaxshi o‘zlashtirgan talaba ajratib olinib, ulardan ekspert guruhi shakllantiriladi
7. Ekspert guruhi a‘zolari o‘zlari o‘zlashtirgan material mazmunini boshqalarga yetkazish rejasini tuzadi.

8. Ekspert guruhi a’zolari o’zlari o’zlashtirgan material mazmunini boshqa guruhlarga ham tushuntirib beradi. [1]



1-rasm. “Ajurli arra” strategiyasining texnologik modeli

Mazkur strategiyani qo‘llashda talabalarning mavzuni puxta o‘zlashtirganligi, o‘zlari ega bo‘lgan bilimlarni boshqalarga yetkazib berish layoqatiga ega bo‘lishlari muhim sanaladi.

O‘zlashtiriladigan mavzuning matnini talabalrga namuna sifatida quydagicha taqsimlanadi.

Mavzu: Fotodiodlar, fototranzistorlar. Tibbiyotda fotometrik usullarni qo‘llanilishi.

1-guruhga: Fotodiodlar.

Bu yarim o‘tkazuvchi diodlar bo‘lib, ularda ichki effekt ishlatiladi (fotoeffekt nurlanish ta’sirida juft zaryad tashuvchilarning generatsiyasidan iborat). Yorug‘lik oqimi fotodiodning teskari tokini boshqaradi. Fotodiodga yorug‘lik ta’sirida fotoeffekt sodir bo‘ladi va diodning o‘tkazuvchanligi oshadi, teskari tok ko‘payadi.

Bunday rejim fotodiodli deyiladi. Agar yorug‘lik oqimi bo‘lmasa, bunda diod orqali oddiy boshlanuvchi teskari tok oqadi va u qorong‘ilik toki deyiladi.

Odatda fotodiod sifatida $n - p$ o‘tishli yarim o‘tkazuvchi diodlar ishlatiladi, u tashqi ta’minlash manbai bilan teskari yo‘nalishda siljigan.

$n - p$ o‘tishida kvantlar yorug‘likni yutganida yoki unga yaqin hududlarda yangi zaryad tashuvchilari hosil bo‘ladi. Diffuzion uzunligidan oshmagan masofada $n - p$ o‘tishni atrofidagi hududlarda paydo bo‘lgan asosiy bo‘lmagan zaryad tashuvchilari $n - p$ o‘tishga diffundirlanadi va elektr maydoni ta’sirida u orqali o‘tadi. Ya’ni teskari tok yuritilganda oshadi. $n - p$ o‘tishida bevosita kvantlarni yutilishi o‘xshash natijalarga olib keladi. Teskari tokni oshgan miqdori fototok deyiladi.

2-guruhga: Fototranzistorlar.

Qo‘shqutbli fototranzistorlar tashqi ko‘rinishidan oddiydan farqi shundaki, uning korpusida «darcha» ochilgan, u orqali yorug‘lik oqimi baza hududiga ta’sir ko‘rsatadi. Fototranzistorlar fotodiodlarga qaraganda katta integral sezgirlikka ega.

Baza hududiga yorug‘lik nuri ta’sir qilganida unda elektron va teshiklarni generatsiyasi boshlanadi va ular kollektorli o‘tish tomoniga harakatlanadilar va bo‘linadilar. Teshiklar kollektorli o‘tish maydoni ta’sirida bazadan kollektorga yurishadi va uni tokini oshirishadi, elektronlar bazada qalinlashadi va emitterli o‘tishni to‘g‘ri kuchlanishini oshiradi, bu sababli bu o‘tishda teshiklar injeksiyasi kuchayadi. Buning hisobiga qo‘shimcha kollektorli tok oshadi.

3-guruhga: Konsentratsiya kolorimetriyasi

Kolorimetriya (Lot. Color – rang) – biologik muhit tarkibini ularning eritmalarini bo‘yash darajasi bo‘yicha o‘rganishning fizik-kimyoviy usuli. U vizual va fotometrik o‘lchovlarga asoslangan. Ma’lumki, rangning miqdoriy xarakteristikasi bo‘yovchi moddaning eritmadagi konsentratsiyasidir. Ko‘pgina biologik suyuqliklar (qon, siydik, safro) uchun diagnostik eritmalar tayyorlash usullari ishlab chiqilgan. Usulning miqdoriy nisbatlari Buger– Lambert–Ber qonuniga asoslangan bo‘lib, unga ko‘ra yorug‘likning eritma bilan yutilishi (yutilishi) qatlamning qalinligi va eritmadagi yutuvchi moddaning konsentratsiyasiga bog‘liq. Bu

qonun faqat monoxromatik nurlanishlar uchun amal qiladi ($\lambda = \text{const}$), shuning uchun lazerni nurlantiruvchi sifatida ishlatish qulay. Agar I_0 va I – eritmaga kirish va chiqishdagi nurlanish intensivliklari, L esa o‘rganilayotgan eritmadagi nurlanish yo‘lining uzunligi deb faraz qilsak, bu nisbat qonunga mos keladi

$$I = I_0 \cdot 10^{-\varepsilon c L},$$

bu yerda xarajatning molyar yutilish koeffitsiyenti, s – eritmadagi moddaning konsentratsiyasi. Fotometrik o‘lchashlar bilan eritmaning optik zichligi aniqlanadi:

$$D = \lg(I_0/I)$$

u holda $D = \varepsilon Lc$ ni tashkil qiladi. Nurlanishning to‘lqin uzunligi funksiyasi bo‘lganligi uchun ma’lum bir qiymat uchun moddaning molyar yutilish koeffitsiyenti λ qiymatlari jadvallari tuziladi. L qiymati fotometr dizaynining o‘ziga xos xususiyati hisoblanadi. Eritmaning optik zichligini o‘lchab, moddaning kerakli konsentratsiyasi formula bo‘yicha topiladi

$$s = D/\varepsilon L, [s] = \text{mol}\%/\text{l}.$$

Biologik suyuqliklarning eritmaları uchun o‘lchangan konsentratsiyalar oralig‘i $10^{-8} \dots 10^{-3}$ mol/l ni tashkil qiladi.[2,3]

4-guruhga: Oksigemometriya.

Oksigemometriya (lotincha oxygenium – kislorod, yunoncha haima - qon) - tashqi nafas olish funksiyasining samaradorligini baholash uchun inson qonining kislorod bilan to‘yinganlik darajasini aniqlash usuli. Bu oksigemoglobin va kamaytirilgan gemoglobinning yutilish spektrlaridagi farqlarga asoslangan.

Eritmalardagi kamaytirilgan gemoglobin o‘tayotgan qizil rangni o‘zlashtiradi ($\lambda_{kr} = 620 \dots 680$ nm) oksigemoglobin eritmasidan ko‘p marta kuchli. Infraqizil nurlanish ($\lambda_{ik} = 810$ nm) gemoglobinning bu shakllari bilan teng ravishda so‘riladi.

Uzluksiz qonsiz oksigemometriyaning eng keng tarqalgan usuli. Oksigemometrning foto datchigi bemorning quloq‘iga (ko‘proq – quloq solinchasiga) qo‘yiladi. Datchikda ikkita fotodetektor mavjud: biri selen, qizil nurga sezgir, ikkinchisi oltingugurt-kumush, infraqizil nurlanishga sezgir. Birinchisi qon oksigenatsiyasini aniqlash uchun, ikkinchisi qon tomirlarini to‘ldirishda puls o‘zgarishi bilan bog‘liq buzilishlarni qoplash uchun ishlatiladi. Boshqa tomonda joylashgan miniatyura lampochkasi porlaydi va aurikula to‘qimalarini 40°S haroratgacha isitadi, vazodilatatsiya va kapillyarlar orqali volumetrik qon oqimining ko‘payishi sodir bo‘ladi. Ning analitik munosabatlaridan foydalanish Buger–Lambert–Ber qonuni kamaytirilgan va umumiy gemoglobinning konsentratsiyasi uchun quyidagi munosabatlarni yozish mumkin:

$$C_B = \frac{D_K}{\varepsilon_K I(t)}, C = C_O + C_B = \frac{D_{IK}}{\varepsilon_{IK} I(t)},$$

bu yerda $I(t)$ – lampochka va fotodetektorlar orasidagi biotissuyesning o‘zgaruvchan qalinligi. Keyin oksigemoglobin konsentratsiyasini quyidagicha ifodalash mumkin

$$C_O \sim (C_O + C_V) / C_V = (D_{IK} \varepsilon_K) / (D_K \varepsilon_{IK}).$$

Ushbu usul uchun olingan oksigenatsiya qiymati nisbiy qiymatdir. Oksigemoglobinning mutlaq qiymatlarini olish uchun qon namunalari asosida kalibrlash talab etiladi.


5-guruhga: Polarimetriya.

Bu optik faol muhitdan o‘tayotganda optik diapazonning monoxromatik tekisligi-qutblangan nurlanishining qutblanish tekisligining aylanish burchagi bilan moddaning konsentratsiyasini aniqlash usuli (6.3-rasm).

Optik faol moddalarning konsentratsiyasini qutblanish tekisligining aylanishini ro‘yxatdan o‘tkazish orqali topish mumkin. Amalda, odatda oddiy nisbat ishlatiladi

$$\alpha = \alpha_0 S L,$$

bu yerda α_0 – nurlanishning ma’lum λ to‘lqin uzunligida modda tomonidan qutblanish tekisligining o‘ziga xos aylanishi bo‘lsa, L – moddaning eritmadagi nurlanishning optik yo‘li, C – moddaning eritmadagi istalgan konsentratsiyasi.



2-rasm. Radiatsion qutblanish tekisligining aylanishi

Polarimetriya tibbiy laboratoriya tadqiqotlarida qon va biologik suyuqliklarning boshqa eritmalaridagi shakar (saxarimetriya) kontsentratsiyasini aniqlash uchun eng katta foydalanishni topdi.

Qutblanish tekisligining aylanish burchagining chastota dispersiyasi spektropolyarimetriya usulida qoʻllaniladi. Bu usul olingan qarama-qarshiliklarga asoslanadigiyidagi bir necha optik faol moddalarning kontsentratsiyalarini aniqlash imkonini beradixolatda.[5,6]

Ushbu metod tajriba-sinovi Buxoro davlat tibbiyot instituti Xorijiy talabalar fakulteti Tibbiyotda innovatsion va axborot texnologiyalari, biofizika kafedrasida amalga oshirildi va Tibbiy biologiya, tibbiy profilaktika, xalq tabobati fakulteti 60910600-Tibbiy biologik ishi yoʻnalishning 2-bosqich talabalari ishtirok etdilar. Metodni mashgʻulotda qoʻllab koʻrganimizda oʻzining samarali natijasini koʻrsatdi. Sinov sifatida ikkita guruh tanlab olindi. 1-guruhga dars oddiy anʼanaviy usulda oʻtildi. 2-guruhga ushbu metod qoʻllanilganda, dars keskin bahs-munozaralar bilan oʻtdi va talabalar faol ishtirok etdilar.

Ushbu tadqiqot ishimiz samaradorligini tekshirishda Student kriteriyasidan foydalanadik. Unga muvofiq “Tibbiyot elektronikasi” fanini oʻqitishdagi samaradorlik yuqori ekanligi aniqlandi. Bundan kelib chiqadiki, ushbu fandan maʼruzalarni oʻqitishda “Ajurli arra” strategiyasidan foydalanish samaradorligi yuqoriligi koʻrish mumkin.

Xulosa. Xulosa oʻrnida quydagilarni aytish mumkin, ushbu metoddan foydalanish “Tibbiyot elektronikasi” fanini oʻqitishda yuqori samara beradi. Chunki har bir talaba guruhlarda faol harakat qiladi. Talabalarning oʻz fikrini mustaqil bayon qilish va asoslab himoya qila olish koʻnikmalari shakllanadi. Talabalarning fanga boʻlgan qiziqishi ortadi, dunyoqarashi kengayadi. Bunda oʻqituvchi talabalarning kamchiliklarini toʻldirib umumiy xulosani beradi. Faol qatnashgan talabalar baholanadi.

Yuqoridagi pedagogik texnologiyani qoʻllab oʻtkazilgan “Tibbiyot elektronikasi” dars jarayonlari talabalar tomonidan ham maʼqullandi. Oddiy, anʼanaviy usulda tashkil qilingan dars jarayonidan farqli ravishda yangi pedagogik texnologiyalar asosida oʻtkazilgan dars jarayoni oʻzining sezilarli samarasini koʻrsatdi.

Ushbu maqola №AM-PZ-2019062031 ““Yadro energetikasi”, “Yadro tibbiyoti va texnologiyalari”, “Radiatsion tibbiyoti va texnologiyalari” fanlari boʻyicha bakalavr va magistrlar uchun multimediali darsliklarini yaratish” nomli innovatsion loyiha doirasida yozib tayyorlangan materiallarning pedogogik tahlili asosida yozilgan boʻlib, darsliklar mualliflariga minnatdorchilik bildiramiz.

Adabiyotlar:

1. Муслимов Н., Усмонбоева М., Сайфулов Д., Тўраев А. Инновацион таълим технологиялари Тошкент. 2015 й.
2. Афанасьев А.И., Рогаткин Д.А., Сергиенко А.А. и др. Методики и аппаратура неинвазивной оптической тканевой оксиметрии // Сб. «Голография: Фундаментальные исследования, инновационные проекты и нанотехнологии». Матер. XXVI школы по когерентной оптике и голографии. / Под. Ред. проф. Малова А.Н. Иркутск: Изд-во «Папирус», 2008. С. 505–513.
3. Далиев Х.С., Бозоров Э.Х и др медицинская электроника учебник Ташкент. 2019 г.
4. Ремизов А.Н. Медицинская и биологическая физика.- М.: Высш. шк., 1987.
5. Физика визуализации изображений в медицине : В 2 т. / Пер. с англ. под ред. С. Уэбба. - М.: Мир, 1991.
6. Sakai T., Nagao M, and Fujibayashi S., "Line Extraction and Pattern Detection in a Photograph ," Pattern Recognition, vol. 1, pp. 233-248, 1969.

XAYDAROVA Charos

Toshkent Davlat texnika universiteti, Umumiy kimyo kafedrası 2- bosqich tayanch doktranti

UDK 54:371.3

**BIOPOLIMERLAR MAVZUSINI O'QITISHDA 3 D TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH AFZALLIKLARI
(TDTU ning Biotibbiyot yo'nalishi talabalari uchun)**

Maqolada ta'lim tizimini modernizatsiya qilishda texnik, ya'ni biotibbiyot yo'nalishi talabalari uchun kimyo fanidan biopolimerlar mavzusini o'qitishda qo'llaniladigan virtual va 3D ta'lim texnologiyalari, simulyatorlar va panoramik tasvirlarni ta'lim jarayoniga qo'llash to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Shuningdek, ta'lim muassasalari kimyo ta'limida o'quv jarayonining sifat samaradorligini oshirishda 3D-modellash, 3D-skanerlash, 3D-bosma chizmalarining ahamiyati to'g'risida g'oyalari, simulyatorlarning imkoniyatlari, Nazzar.uz texnologiyasi, uning kimyo ta'limida qo'llanilishi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: 3D informatsion texnologiyalar, 3D-modellash, 3D-skanerlash, biopolimerlar, oqsillar, nuklein kislotalar, virtuallik, Nazzar.uz., 3D-bosma chizmalar.

**ПРЕИМУЩЕСТВА 3Д ТЕХНОЛОГИИ ПРИ ОБУЧЕНИИ ТЕМЫ БИОПОЛИМЕРЫ
(в ТГТУ студентам по специальности БИОМЕДИЦИНА)**

В статье рассматривается использование виртуальных и 3D образовательных технологий, симуляторов и панорамных изображений при модернизации образовательной системы в учебном процессе, применяемых при преподавании темы биополимеры по химии для студентов технических, биомедицинских специальностей.

А также приведены представления о значении 3D-моделирования, 3D-сканирования, 3D-печати чертежей в повышении качественной эффективности образовательного процесса в химико-образовательных учреждениях, возможностях тренажеров, технологии Nazzar.uz.

Ключевые слова: 3D информационные технологии, 3D модели, 3D сканирование, биополимеры, белки, нуклеиновые кислоты, виртуальность, Nazzar.uz., 3D принтеры.

**ADVANTAGES OF USING 3D TECHNOLOGIES IN TEACHING
THE SUBJECT OF BIOPOLYMERS
(For students of the Biomedical Department of TDTU)**

The article provides information on the use of virtual and 3D educational technologies, simulators (simulators) and panoramic images used in the educational process in the modernization of the education system when studying the topic of biopolymers in chemistry for students of technical, in particular biomedical education.

Keywords: 3D information technology, 3D models, 3D scanning, biopolymers, proteins, nucleic acids, virtuality, Nazzar.uz., 3D printer.

Kirish. Uzluksiz ta'lim tizimini moderenizatsiya qilish, ta'lim, fan-texnikaning rivojlanishi va axborot texnologiyalari sohasidagi erishilgan yutuqlar insoniyat oldida turgan turli-tuman yangidan yangi muammolarni yechishga imkon beradi.

Uzluksiz ta'lim tizimini isloh qilishning muhim yo'nalishlaridan biri axborot texnologiyalarining eng so'nggi yutuqlari, ya'ni 3D texnologiyalarni qo'llab kimyo fanining o'quv jarayonini tizimli modernizatsiyalash hisoblanadi. Hech kimga sir emas hozir yoshlarni tabiiy fanlarga qiziqtirish juda qiyin ayniqsa kimyo faniga o'quvchilarni qiziqtirish kimyo ta'limi oldidagi muammo hisoblanadi. Kimyo ta'limida kunduzgi, kechki va sirtqi ta'limni tashkillashtirishda kimyoviy jarayonlarni, ma'ruza, laboratoriya va amaliy mashg'ulotlarini olib borishda interaktiv ta'lim texnologiyalari, virtual ta'lim, 3D texnologiyalaridan foydalanish o'quv jarayonining sifat samaradorligini oshirishda xizmat qiladi, hamda fan va ishlab chiqarish integratsiyasini rivojlantirish bilan xarakterlanadi.

Tadqiqot obyekti va qo‘llanilgan metodlar. Kompyuterning tasavvur qilinadigan xotirasi - virtual xotira sifatida qabul qilinib, u fizik jihatdan hech bir alohida olingan xotira tashuvchisiga muvofiq kelmaydi, ya’ni, virtual xotira kompyuter elementlarining o‘zaro funksional ta’sirlashuvi natijasi sifatida yuzaga keladi. Virtual xotirani yuzaga keltiruvchi dasturiy vositalar yordamida inson juda ulkan hajmdagi axborotlardan foydalana olish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Amaldagi zamonaviy kompyuterlarning barchasi maxsus Java virtual mashinasi bilan jihozlangan.

XXI asr yuqori texnologiyalar asri bo‘lib, kompyuter grafikasi tushunchasi bizning hayotimiz bilan chambarchas bog‘liq bo‘lmoqda.

Jamiyatimizda har xil yoshdagi insonlar qalbidan 3D virtual, 3D hayot uch o‘lchamli modellashtirish Maya, ZBrush, Blender, 3D Max, Nazzar.uz kabi ko‘pgina programma mahsulotlari o‘rin egallamoqda.

“D” atamasi inglizcha “dimensions” so‘zidan olingan bo‘lib, “o‘lchamlar” ma’nosini beradi. 3D texnologiyasi tasvirni vizual va tovushli uzatib berishning dunyodagi eng ilg‘or usuli hisoblanadi.

Olingan natijalar va ular tahlili. Barcha aqlli insonlar 3 o‘lchamli tasvir, uch o‘lchamli grafika, uch o‘lchamli modellashtirish kabi to‘liq tushunchalarga egadirlar. Zamonaviy kinoindustriya, arxitektura dizayn hatto ta’lim sohasini olib qaraydigan bo‘lsak, turli xil 3D maxsus effektlar orqali real jarayonlarni kuzatish mumkin.

Virtual texnologiyalarni kimyo ta’limida laboratoriya mashg‘ulotlarini tashkil etishda qo‘llanilasa fanni o‘qitishda yuqori samaradorlikka erishiladi. Bunda virtual kimyo laboratoriya xonalari veb-muhitda yaratiladi va tajribalar xoxlagancha bajarib ko‘rish mumkinligi talabalarga tushuntiriladi. Portlash xavfi bor tajribalar, zaharli xususiyatga ega bo‘lgan tajribalar ham virtual kimyo laboratoriyasida bajarib ko‘rish mumkin. (1-rasm).



1-rasm. Virtual borliqni aks etuvchi kimyo xonasi va kimyo laboratoriyasi.



Bugungi kunda uch o‘lchamli haykallar, yirik obyektlarning kichraytirilgan modellari (mashinalar, samolyotlar, binolar), shuningdek, turli ilmiy ishlanmalar modellarini yasash imkoniyati mavjud. Buning uchun albatta 3D printerlardan foydalanilmoqda. Kimyo ta’limida ham bunday modellarni 3D printerlar yordamida yasash imkoniyati mavjud. Kimyoviy texnologiyadan laboratoriya mashg‘ulotlarini ko‘rish imkoniyati bo‘lmaganda, 3D printelardan kimyoviy ishlab chiqarish korxonalarining modellarini yasash, ko‘rish va kimyoviy jarayonlarni tasavur qilish mumkin. (2-rasm).

2 –rasm. 3D printerdan kichik sanoat korxonalaridagi ishlab chiqarish texnologiyalarining modellarini yasash



3-rasm. 3D-printerlar va ular yordamida ishlab chiqilgan materiallar

- a) turli hajmdagi tubi yassi kolbalar, kimyoviy stakan, varonka
- b) ampulalar
- c) kimyoviy probirkalar
- d) og'zi yopiq probirkalar

3D printerlar¹ - uch o'lchamli chizmalar asosida narsa-buyumlar "chop etuvchi" printerlardir. Hozircha bu kabi ishlanmalar tor doirada amalga oshirilayotgan bo'lsa, yaqin kelajakda bimalol uy sharoitida 3D -printerdan masalan bir juft krossovka, kiyim yoki ro'zg'or buyumi chiqarib olishning imkoni bo'ladi. Uch o'lchamli chop etilayotgan mahsulotlarning narxi pasayishini inobatga olsak, ushbu texnologiyaga talab oshmoqda. Bugungi kunda kimyo laboratoriyasida ishlatiladigan jihozlarning 100 dan ortiq detallarini [2,3 596p,376c.] 3D chop etish texnologiyasi asosida ishlab chiqarilmoqda (3-rasm).

Virtual reallikning yaratishda axborot texnologiyalarining kompyuter grafikasi, real vaqt rejimi va dasturlash texnologiyalarisiz shakllantirib bo'lmaydi. Bunda hozirda kompyuter grafikasining OpenGL, Direct 3D, Java 3D, va VRML kutubxonalaridan, dasturlashdan esa, C++, Perl, Java, Delphi va Python tillaridan foydalanilmoqda [4,5. 146,504c].

Bugungi kunda virtual reallikka asoslangan ta'lim resurslarini quyidagicha tasniflash mumkin:

- birinchi daraja — maxsus texnik vositalar (shlem-display, maxsus qo'lqop va boshqalar) vositasida to'la virtuallikka erishish;
- ikkinchi daraja — uch o'lchamli (yoki stereoskopik) monitorlar yoki proyektor va maxsus ko'zoynak yordamida hajmli tasvir hosil qilish;
- uchinchi daraja — kompyuterning standart monitori yoki proyeksiya vositasi asosida virtual reallikni namoyish qilish.

Simulyatorlar esa shunday haqiqiy asbob-uskuna va jihozlarsiz virtual holatda kompyuter hamda network qurilmalarini yasash va sinovdan o'tkazishga imkoniyat yaratadi. Bu o'z-o'zidan nafaqat katta miqdorda mablag'lar tejalishiga, balki ularga umuman ehtiyoj ham tug'dirmaydi.

Simulyatorlarning qariyb hech qanday moliyaviy mablag'lar talab etmasligi ma'lum tadqiqotlarni talabalar tomonidan yuzlab, kerak bo'lsa minglab marotaba qayta-qayta amalga oshirishga imkoniyat yaratadi. Simulyatorlardan foydalanishning yana bir afzallik tomoni- ularning xavfsiz ekanligidir [6,7.210,23].

¹ International Journal of Control and Automation Vol. 13, No. 2, (2020), pp. 289 - 298
289 Practical Efficiency of Use of Module System, Innovative Electronic Textbook And 3D Technologies in Chemistry Education
G.A.Ikhtiyarova, M.Sh.Akhadov.

Hozirgi fan-texnikaning katta sur'atlarda rivojlanishi real-hayotiy tadqiqot uskunalarini ushbu rivojlanish bilan bir qatorda ketishida qiyinchilik tug'diradi. Simulyatorlarda esa bunday to'siqlar mavjud emas va hatto ushbu “virtual tadqiqotxonalar” fan-texnika rivojlanish tezligiga qo'shimcha tezlik qo'shadi.

Virtual ta'lim texnologiyalarini amalga oshirish bo'yicha quyidagicha:

Birinchidan, virtual ta'lim texnologiyalarini qo'llashning bizning ta'lim muhitimizga qo'llaganda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ijobiy va salbiy oqibatlarni jahon tajribasidan kelib chiqqan holda baholash;


Ikkinchidan, o'zbek tilida virtual ta'lim texnologiyalaridan samarali foydalanish bo'yicha qo'llanmalar tayyorlashga alohida e'tibor qaratish;

Uchinchidan, milliy virtual ta'lim muhitlari va qurilmalari yaratish uchun ilmiy tadqiqotlar olib borish va tadqiqot natijasidagi dasturiy ta'minot va qurilmalarni targ'ibotini olib borish.

To'rtinchidan, virtual ta'lim resurslarini ishlab chiqaruvchilarni hukumat tomonidan rag'batlantirish mexanizmlarini joriy etish kabi xulosa va takliflar berish mumkin.

Biz quyida kimyo sohasida qo'llaniladigan simulyatorlarning mavjud imkoniyatlarini ko'rib o'tamiz. Simulyatorlar orqali orqali D.I.Mendeleyev davriy jadvalida mavjud barcha elementlarning kimyoviy va fizikaviy xususiyatlarini o'rganish mumkin [8, C.219–232.]. Odatda kimyoviy reaksiyalar ro'y berish vaqtida reaksiyaga qatnashayotgan molekularning boshqa molekulaga aylanish jarayonini (molekulyar darajada) kuzatish iloji yo'q. Bu dastur orqali kimyoviy jarayonlarni modellashtirish, turli reaksiyalarni o'tkazish va eng asosiysi, buni xavfsiz amalga oshirish mumkin[9.21-236].

Simulyatorlar orqali ixtiyoriy shakldagi idishlardan foydalanib, turli reaktivlarni o'zaro aralashtirib kimyoviy reaksiyani ko'zlash mumkin. Kimyoviy reaksiya vaqtida reaktivlarning rangi, moddalar ulushini, kimyoviy reaksiya formulalarni maxsus oynada ko'rish imkoniyati dasturning kuchli pedagogik qurol sifatida foydalanish imkoniyatini beradi. Simulyatorlarning bunday imkoniyatlari kimyo fanini o'qitishda inqilobiy o'zgarishga sabab bo'ldi.(4-rasm).





4-rasm. Simulyatorlar orqali kimyo xonasida laboratoriya mashg'ulotlarini bajarish jarayonini vizualizatsiya qilish

Biz maqolada yana bir 3D texnologiyani o'zida mujassamlashtirgan, hozirgi kunda keng ommaga tarqalgan panoramik tasvirlarni o'zida mujassamlashtirgan Nazzar.uz. dasturi haqida aytib o'tmoqchimiz. Nazzar.uz - bu kengaytirilgan voqelik elementlarini har qanday moddiy muhitga birlashtira oladigan innovatsion dastur hisoblanadi [10].

Bunda smartfoningizni ekrandagi Nazzar.uz. belgisiga ko'rsatganingizda haqiqiy ob'ekt tasviri smartfonda paydo bo'ladi va turli xil effektlar bilan to'ldiriladi. Mediyadagi statik rasm "hayotga keladi" va video bo'lakka aylanadi..

Ekrandagi fotosuratlar va rasmlar uch o'lchovli bo'ladi, ularni har tomonlama va har nuqtai nazardan ko'rishga imkon beradi. Audio foydalanuvchi smartfoni karnayi yordamida eshitiladi. Rasmdan "ko'proq ma'lumot olish", tomosha qilish paytida smartfon ekranida paydo bo'ladi [11.1466].

Biotibbiyot yo'nalishi talabalariga asosan kimyo fanidan polimerlar mavzusi o'tiladi. Biopolimerlar yuqori molekular tabiiy birikmalar. Nuklein kislotalar, oqsillar va polisaxaridlarni o'z ichiga oladi. Bulardan tashqari, aralash biopolimerlar ham bo'lib, ularga nukleoproteid, glikoproteid, lipoproteid, glikolipid, liposaxarid va boshqa(lar) kiradi. Asosiy biopolimerlardan nuklein kislotalar hujayralarda genetik vazifani bajaradi. Oqsillar hujayralarning eng zarur tarkibiy qismi bo'lib, bir qator muhim vazifalarni o'taydi. Oqsil fermentlar hujayralarda ro'y berayotgan moddalar almashinuvida kimyoviy reaksiyalarni tartib bilan va zarur tezlikda olib boradi. Mushak oqsillari, mikroob xivchinlari va hujayra vorsinkalari qisqarib, kimyoviy energiyani mexanik ishga aylantiradi. Shuning hisobiga organizmlar harakatlanadi. Qon oqsillari kislorod (gemoglobin)ni tashib, organizmni yot oqsillar (u-globulinlar)dan himoya qiladi va qon ivishida ishtirok etadi(5-rasm). Polisaxaridlar to'qimalar tuzilishida ishtirok etib, rezerv biopolimerlar funktsiyasini bajaradi. Biopolimerlarning tuzilishi molekularlarning uzoq vaqt davom etgan evolyutsiyasi natijasidir, shuning uchun ular biologik vazifasini to'la bajarishga moslashgan..



5-rasm. Nuklein kislotalar va oqsillarning 3D ko'rinishi

Xulosa. Xulosa qilib shuni alohida ta'kidlaymizki, yuqorida keltirilgan 3D dasturlardan foydalanilganda biotibbiyot yo'nalishi talabalariga barcha tirik organizmlarning hayot faoliyatida muhim rol o'ynaydigan aminokislotalar, uglevodlar, vitaminlar, nuklein kislota va oqsillarning molekulyar tuzilishini, strukturasi fazoviy modellarini animatsiyalarda tuzilishini ko'rganda aniq tasavvur hosil bo'ladi. Talabalar simulyatorlar orqali ixtiyoriy shakldagi idishlardan foydalanib, turli reaktivlarni o'zaro aralashtirib kimyoviy reaksiyalarni kuzatish mumkin. Kimyoviy reaksiya vaqtida reaktivlarning rangi, moddalar ulushini, kimyoviy reaksiya formulalarni maxsus oynada ko'rish imkoniyati dasturning kuchli pedagogik qurol sifatida foydalanish imkoniyatini beradi. Bunda, albatta, talabalarning dunyoqarashi yanada ortadi, o'qish jarayonini tashkillashtirilganda, talabalar kimyo faniga qiziqish bilan yondashadilar. Yuqorida tavsiya qilayotgan axborot texnologiyalarning eng so'nngi yutuqlari va dasturlardan foydalangan holda o'quv raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, uzluksiz ta'lim muassasalarida elektron-ta'lim muhitini virtual 3D makonini shakllantirish, bu muhitda o'quv jarayonini masofaviy tashkillashtirish hamda ta'lim sifatini oshirishga olib keladi, bu esa hozirgi kunning kimyogarlari uchun ayni muddaodir.

Adabiyotlar:

1. O.Diegel, A.Nordin, D.Motte. A Practical Guide to Design for Additive Manufacturing. Springer, Singapore, 2019; [https://doi.org/ 10.1007/978-981-13-8281-9](https://doi.org/10.1007/978-981-13-8281-9)
2. A.Gebhardt, J.S.Hotter. Additive Manufacturing: 3D Printing for Prototyping and Manufacturing. Hanser Publishers, 2016.pp.596
3. Соловьев, М.М., Самоучитель по 3D max: Соловьев, М.М. - М.: Солон-пресс, 2007. - 376 с
4. Хамидов В.С. Эркин ва очик кодли LMS тизимлар таҳлили, infocom.uz журнали 2013 й., №7,8. 14 бет,
5. Alsina-Jurnet, I., Gutiérrez-Maldonado, J., & Rangel Gómez, María-Virgina (2011). The role of presence in the level of anxiety experienced in clinical virtual environments. *Computers in Human Behavior*, 27, 504–512.
6. Berns A., Gonzalez-Pardo, A., & Camacho, D. (2013). Game-like language learning in 3-D virtual environments. *Computers & Education*, 60(1), 210– 220.
7. Bers M. & Chau, C. (2010). The virtual campus of the future: stimulating and simulating civic actions in a virtual world. *Journal of Computing in Higher Education*, 22, P.1–23 .
8. Bronack, S., Riedl, R., & Tashner, J. (2006). Learning in the Zone: A social constructivist framework for distance education in a 3-dimensional virtual world. *Interactive Learning Environments*, 14(3), 219–232.
9. Qurbanaliyeva Z., Jo'raqulova N. X., Ixtiyarova G. A. Kimyo sohasida 3D virtual texnologiyalardan foydalanish istiqbollari. “Olima ayol- intellektual salohiyat va jamiyat taraqqiyoti yo'lidagi fidoyi kuch” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. Toshkent-2019 yil 16 may, 21-23 betlar.
10. www [http:// nazzar.uz](http://nazzar.uz). Технология будущего.
11. Ixtiyarova G.A., M.Ahadov, Ch.Q. Haydarova Virtual laboratoriyadagi uch o'lchovli o'zaro ta'sirning kimyo ta'limidagi o'rni. *Pedagogik mahorat Ilmiy-nazariy va metodik jurnal*. 2020y, № 2. B.146-152.
12. Ixtiyarova G.A., Dehqononova Sh.N., Haydarova Ch.Q., Juraqulova N.X.Oliy ta'limda virtual ta'lim texnologiyalari “Markaziy Osiyo davlatlari olim ayollarining ilm fan sohasiga qo'shgan hissasi” Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari (1-qism) Toshkent 2020.

АВЛИЁКУЛОВ Абдуғафур Абдуғаниевич

Термиз давлат университети катта ўқитувчиси

**УМУМТАЪЛИМ МАКТАБЛАРИДА МАТЕМАТИКА ФАНИНИ ИНТЕГРАЦИЯ
МЕТОДОЛОГИЯЛАРИ ОРҚАЛИ ЎҚИТИШНИНГ ПЕДАГОГИК-ПСИХОЛОГИК
АСОСЛАРИ**

*”Янги Ўзбекистон мактаб остонасидан бошланади”
Ш. Мирзиёев*

Ўзбекистонда интеграциялашган таълимни амалга оширишда хорижий тажрибаларни ўрганиш, математика таълимида интеграцияни шакллантириш, умумтаълим мактаблари таълим-тарбия жараёнига интегралитив ёндашув муаммолари ҳақида сўз юритамиз.

Калит сўзлар: интеграция, фан ва таълим, математика, алгебра, геометрия, ўқитиш, таълим, тарбия, муаммо.

**ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ОБУЧЕНИЯ
ПОСРЕДСТВОМ МЕТОДОЛОГИИ ИНТЕГРАЦИИ МАТЕМАТИКИ В
ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ШКОЛЕ**

*«Новый Узбекистан начинается с порога школы»
Ш. Мирзиёев*

Рассматриваются вопросы по совершенствованию и распространению опыта интеграции образования в Узбекистане и за рубежом, по проблемам формирования математической интеграции, образования и воспитания, обучения в общеобразовательной школе курса в обеспечения учебно-воспитательного процесса.

Ключевые слова. Интеграция, наука и образования, математика, алгебра, геометрия, обучения, воспитания, проблема.

**PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL FUNDAMENTALS OF TEACHING THROUGH
METHODOLOGY OF INTEGRATION OF MATHEMATICS IN GENERAL EDUCATION
SCHOOLS**

*"New Uzbekistan begins at the school threshold"
Sh. Mirziyoev*

Archada dorivor foydalanish yil davomida (daraxt shoxlariga zarar bermaslikka harakat qilganda) to'planishi mumkin bo'lgan ignabargli novdalar mavjud. Ular o'z ichiga efir yog'i bilan birga temir, marganets, xrom, alyuminiy, mis, stilben, kofe kislotasini oladi. Stilbenning mavjudligi kontratseptiv vositalar manbalari sifatida igna ekstraktlarini o'rganish istiqbolli soha hisoblanadi.

Archa g'uddasi qaynatmasi va infuzioni yuqori nafas yo'llari va bronxial astma kasalliklarida, ignalar skurvga qarshi vosita sifatida ishlatiladi, ayniqsa qish vaqti. Ignalilar ham diuretik, mikroblarga qarshi ta'sirga ega. Buyraklar va kasalliklar uchun tavsiya etiladi. Aan'anaviy tibbiyotda archa ignalari damlamasidan o'pka sili, iskorbit, tomchilar va nafas olish tizimining yallig'lanish kasalliklarini davolashda ishlatiladi.

Nafas olish uchun suvga qo'shilgan archa igna yog'i mo'jizaviy tarzda yo'talni yengillashtiradi, balg'amni ajratishni osonlashtiradi, yiringli otit va tonzillitni davolaydi. Yosh ignalarning infuzioni xuddi shunday ta'sirga ega, bu bakteritsid ta'siridan tashqari, vitaminlar manbai hisoblanadi.

Topshiriqlar:

1. Qaysi gaz ajralgan?
 - A) ozon
 - B) kislorod
 - C) azot
 - D) atomar kislorod
2. Nima sababdan kasallar bu gaz bilan nafas olganda sog'aygan?
3. Qora rangli birikma nima?
4. Qancha qora rangli birikma hosil bo'lgan?

Javob:

- 1) Aniqlanishicha, archa o'simligi havoga ozon (O_3) gazi chiqarar ekan.
- 2) Ozon gazi esa beqaror bo'lib molekular va atomar kislorodga parchalanadi. Ozon aralashgan havo bilan nafas olinganda **atomar kislorod** ta'sirida kasallik tez tuzalar ekan.
- 3) Kumush sirg'a havodagi ozonni o'ziga biriktirib oksidlanadi.
$$2O_3 + 2Ag = (Ag^I Ag^{III})O_2 + 2O_2$$
- 4) 24,8 g

Xulosa. Demak, yuqoridagi qiziqarli PISA testlari Maktab kimyo ta'limda o'quvchilarni tabiiy va texnik fanlarga bo'lgan qiziqishlarini rivojlantirishdan iborat. Bajaradigan ishini sevib bajarish, qiziqishlarini rivojlantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Raxmonov Sh.T. Umumiy o'rta ta'lim kimyo kursini o'qitishda STEAM yondashuvning samaradorligi O'zbekiston milliy universiteti xabarлари, 2022, №1., 158-162 B.
2. Qurbonova L.M. Pisa xalqaro baholash dasturining amaliy ahamiyati. Pedagogikal education Problems and solutions International conference. Chirchik. 2022.
3. Ixtiyarova G. Bekchanov D., Ahadov M. Kimyoni o'qitishda zamonaviy texnologiyalar oq'uv qo'llanma / Toshkent 2019., 223-230 bet.
4. Pisa released items – science // Document: Released PISA Items_Science.doc 2006. p.95.
5. O'tkir zehinlilar kitobi. B. Akbarov, M. Primqulov. Toshkent - O'zbekiston-2015.



РАДЖАБОВ Акмал Абдухалиқович

Ўзбекистон-Финландия педагогика институти
Педагогика кафедраси ассистенти

СТРЕСС ҲОЛАТИНИНГ МАМЛАКАТИМИЗ ПСИХОЛОГЛАРИ ТОМОНИДАН ЁРИТИЛИШИ

***Аннотация:** Мақолада спортчи фаолиятига таъсир этадиган стрессларнинг келиб чиқиши сабаблари, таъсир доиралари ва уларнинг психологик хусусиятлари ёритилган.*

***Калит сўзлар:** спортчи, стресс, стрессорлар, нерв системаси, мусобақа жараёни ва бошқалар.*

ОБЪЯСНЕНИЕ СТРЕССОВОГО СОСТОЯНИЯ ПСИХОЛОГАМИ НАШЕЙ СТРАНЫ

***Резюме:** В статье описаны причины стресса, сферы влияния и их психологические особенности, влияющие на результативность спортсменов.*

***Ключевые слова:** Спортсмен, стресс, стрессоры, нервная система, соревновательный процесс и др.*

EXPLANATION OF THE STATE OF STRESS BY PSYCHOLOGISTS OF OUR COUNTRY

***Abstract:** The article describes the causes of stress, the spheres of influence and their psychological characteristics that affect the performance of athletes.*

***Keywords:** Athlete, stress, stressors, nervous system, competition process and more.*

Кириш. Бугунги кунда туб ислохотлар таъсирида шиддат билан ривожланаётган янги Ўзбекистонни ривожланган давлатлар сафидан муносиб ўрин топиши учун мамлакатимизда яшаётган ҳар бир онгли фуқаро зиммасида, жумладан, жисмоний маданият ходимлари ҳамда спортчилар зиммасида ҳам масъулиятли ва шарафли вазифалар турибди. Мамлакатимиз спортчиларининг жаҳон миқёсида ўтказилаётган йирик мусобақалар ва олимпиада ўйинларида қатнашиб, нуфузли ўринларни қўлга киритаётганлиги улар бу масъулиятли вазифани бажаришга астойдил киришганлигидан далолатдир. Албатта, нуфузли мусобақаларда иштирок этиш ўз-ўзидан бўлмаслиги ҳаммага аён. Бунинг учун спортчиларнинг жисмоний ва руҳий тайёргарлик даражасини янада ошириш, уларда ватанпарварлик ҳиссини камол топтириш, Ватанимиз спортини қисқа муддат ичида жаҳондаги йирик ва юксак тараққий этган давлатлар спорти даражасига кўтариш лозим.[1]

Асосий қисм. Спорт турлари ҳар хил бўлганидек, спортчиларнинг мусобақага тайёрлиги ва уларда мусобақа жараёнида пайдо бўладиган ҳиссий-эмоционал таъсирланиш даражалари ҳам турлича бўлади. Баъзи бир спортчилар муваффақиятга қийинчилик билан эришсалар-да, бошқаларида эса кучли ҳиссий таъсирланиш, хавотирланиш, ваҳимага тушиш, учинчисида эса асаб тизимининг заифлиги, тўртинчисида ҳиссийларнинг тез ўзгарувчанлиги ва стрессли кечинмаларнинг мавжудлиги сабабли спорт мусобақаларида юқори кўрсаткичларга эришиши жуда оғир кечади. Шунга кўра, спортчилар билан психологик тайёргарлик ишлари олиб борилмас экан, спорт мусобақалари муваффақиятсиз ва самарасиз бўлиши кузатилади.

Мамлакатимиз психолог олимлари (Э.Ф.Ғозиев, Ғ.Б.Шоумаров, В.М.Каримова, А.М.Жабборов, Ш.Р.Баротов, З.Т.Нишонова, Н.С.Сафоев, Д.Ғ.Мухамедова, Р.С.Самаров, З.Ғ.Гаппаров, Р.З.Ғайнутдинов, Р.А.Абдурасулов, Ф.Ғ.Ғазиева, З.Ғ.Ғайзиев, А.Назаров ва бошқ.) томонидан спорт фаолиятида стрессли кечинмаларни юзага келиш сабаблари, стрессларни чакирувчи омиллар, стрессли кечинмаларнинг психодиагностикаси ва психокоррекцияси ҳамда психопрофилактик чоратadbирлар тизими соҳасида бир қатор назарий ва амалий масалаларни ҳал қилишга йўналтирилган тадқиқот ишлари олиб борилганлигини эътироф этишимиз мумкин.

Мамлакатимизда фаолият кўрсатаётган етакчи психолог олимларнинг спорт фаолиятида стрессли кечинмаларни психодиагностикаси ва психокоррекциясига доир илмий-назарий қарашлари ёшларни спорт фаолияти билан шуғулланишларини илмий асосда ташкил этишда, уларнинг ҳаётга тўғри йўналганлиги ва жисмонан баркамоллигини таъминлашда, спортчи психологиясига хос

кадриятларни эътиборга олишда, спорт тури ва соҳалари билан боғлиқ миллийлик ва миллий менталитетимизни сақлаш ҳамда авайлаб-асрашда муҳим аҳамият касб этади.

Жумладан, Ғ.Б.Шоумаров [2] ўз тадқиқотларида ёшлар камолотида жисмоний ва психологик тараққиётнинг уйғун кечишига, спортчининг жисмоний соғлом, руҳий бақувват, спорт фаолиятида муваффақиятга эришишда эмоционал кечинмаларни бошқариш ва уларни бартараф этиш ҳамда спортда энгиш масаласини ижобий ҳал қилиш мумкинлигига алоҳида эътибор билан қараганлигини кўрамиз. У спортчиларни тайёрлаб берадиган ўқув муассасаларида психологик хизмат масаласини тадқиқ этиш асосида спортчининг индивидуал хусусиятлари билан эмоционал-ҳиссий кечинмалари ўзаро узвий боғлиқликда рўй беришини илмий ўрганиб, юзага келадиган салбий ҳиссиётларни энгиш ва бартараф этишнинг муҳим жиҳатларини маҳаллий мисоллар ёрдамида таҳлил қилган. Шунингдек, муаллифнинг спортчи фаолияти ва эмоционал ҳолати ўзгариши муаммосига доир собиқ иттифоқ ва хорижий мамлакатлар психологиясидаги турли қарашлар, ёндашувларга таҳлилий ва танқидий ёндашувларини ҳам кузатамиз.

В.М.Каримова [3] ёшларни оилага тайёрлашда жисмоний тарбиянинг ўрни, балоғатга етган кизни янги оилага таёрлаш босқичидаги ёки янги оила муҳитига борганда стрессли ҳолатлар ва стрессоген омилларга тарбиявий-психологик бардошлилиги, соғлом оила концепцияси, соғлом она-соғлом бола ғоялари ҳамда шахснинг ўзаро муносабатлар доирасида эмоционал мулоқотни назорат қилиш муаммолари билан атрофлича шуғулланганлигини ҳамда зарур илмий хулоса, тавсия ва ечимларни илгар сурганлигини гувоҳи бўламиз.

А.М.Жабборов[4] тадқиқотларида миллий спорт ўйинларининг жамият тараққиётидаги нуфузи ва спортда шахс такомиллашувидаги муҳим хусусиятларнинг психологик моҳиятини ёритишдаги илмий қарашлари муҳим аҳамият касб этади. Миллий спорт турлари миллат ёшлари ҳаётида, фаолиятида, камол топиши ва ривожланишида зарур жисмоний ҳамда тарбиявий психологик омил сифатида намоён бўлади. Муаллифнинг илмий изланишларида ҳиссий кечинмаларнинг методологик асослари, илмий назарий жиҳатлари, чет эл ва мамлакатимиз психологларининг стрессли кечинмалар намоён бўлишига нисбатан ёндашувлари, унинг спорт фаолиятида ўрганилиши, муайян мезонларга кўра таснифланиши, татбиқий жиҳатларига доир илмий-назарий фикрлари ва таҳлилларини учратамиз. Айниқса, спортчиларни мусобақага тайёрлаш босқичларида ва спорт фаолиятида стрессли кечинмаларни психодиагностика қилиш, стрессларни таснифлаш ва психокоррекциялашнинг ижтимоий-психологик механизмларини яратиш зарурат сифатида муҳимлигини кўрсатиб ўтганлиги алоҳида аҳамият касб этади.

Ш.Р.Баротов[5] спорт жамоалари ва жамиятда психологик хизмат кўрсатишни ташкил этишнинг илмий асослари ва амалий йўналишлари соҳасида қатор тадқиқотлар олиб бориш билан бирга, спорт фаолиятининг ўзига хос жиҳатлари ва спортчи камолоти билан боғлиқ соғлом турмуш тарзининг муҳим томонларини илмий асослашга ҳаракат қилган. Шунингдек, у спорт жамоаларидаги психологик муҳитни мўътадиллаштириш, спортчи-мураббий муносабатларини тўғри йўлга қўйиш, эмоционал зўриқишни келтириб чиқарувчи омилларни аниқлаш, таснифлаш, олдини олиш ва бартараф этиш билан боғлиқ чора-тадбирларда психологик хизматнинг ўрни ва аҳамияти анча муҳим эканлигини етарлича илмий далиллар билан асослаганлигини кўришимиз мумкин.

З.Т.Нишоновна[6] илмий изланишларида спортга қизиққан ва спорт муассасаларида таҳсил олаётган спортчиларнинг турли ташқи таъсирлар ҳамда қутилмаган вазиятларда эмоционал кечинмалари ўзгарганда коррекция қилишнинг илмий-методик жиҳатлари ҳақида тўхталиб, психологик ёрдам амалиётида эмоционал бузилишларни коррекция қилишда турли хилдаги терапия яъни когнитив терапия, гештальт терапия ва бошқа психотерапевтик йўналишларга хос миллий-маданий кадриятли усуллардан фойдаланиш аҳамиятли эканлигини эътироф этади. У спорт фаолиятида самарали ҳисобланган ижтимоий-психологик тренинг дастурларини ишлаб чиққан ва спорт фаолиятида стрессли кечинмаларни босқичма-босқич бартараф этишга йўналтирилган машқлар тизимини яратган: шахснинг ўзини-ўзи ва ўз ҳис-туйғуларини англаш, ўз шахсини қайта баҳолаш, ҳиссиётлар устида ишлаш ва улар келтириб чиқарувчи оқибатларни англаш, шахслараро муносабатдаги қийинчиликлар, когнитив жараёнларни ривожлантириш, баркамолликка интилиш, спорт жамоаси ва мураббийлар билан ишлаш дастурлари яратилган ва уни амалиётга кенг жорий қилиш мумкинлиги асослаб берилган.

Н.С.Сафоев[7] талаба ёшларда ўзлигини англашнинг психологик хусусиятлари ҳақида тадқиқотлар олиб бориб, турли вазиятларда спортчи талабалар шахсида пайдо бўладиган салбий эмоционал кечинмаларни олдини олишда ўзини-ўзи англашнинг муҳим қонуниятларини изоҳлашга интилади. Бундан ташқари, муаллиф шахсда рўй берадиган салбий ўзгаришлар ва муаммоли вазиятлар пайтида ўзини-ўзи назорат қилиш, ўзини тўғри бошқариш, муаммоларни энгиб ўтиш

механизмини ўрганиб, уларнинг ижтимоий-психологик ва миллий-маданий жабҳалари ҳақида кенг тўхталганлигининг гувоҳи бўламиз.

Д.Ғ.Мухамедова [8] бошқариш менежментининг муҳим замонавий хусусиятлари ҳақида тўхталиб, спорт фаолияти тизимининг функционал психологик моделига асосланган ҳолда бошқаришга хос муҳим тавсия ва ечимларни изоҳлайди. Муаллиф спорт фаолиятидаги стрессли кечинмаларни, спорт фаолиятини бошқариш ва ташкил этишнинг ўзига хос хусусиятлари, уларнинг дастурлари, шакллари, босқичлари тўғрисида кенгроқ тўхталиб, спорт менежменти фаолиятига доир спортчиларни мусобақага тайёрлаш, ўйин жараёнидаги стрессларни аниқлаш ва унга қарши курашиш усулларига зарур илмий тавсия ва хулосаларни илгари сура олган.

Р.С.Самаров [9] ўз тадқиқотларида турли фаолият билан шуғулланувчи шахсларда, хусусан спорт фаолияти билан шуғулланувчи спортчиларнинг ёлгон ахборотлар қабул қилиш жараёнида уларнинг ахборот хавфсизлигини таъминлашга доир зарур мулоҳазалар билдирган. Муаллиф спортчи фаолиятида юзага келадиган стрессли кечинмалар, спорт фаолиятини муайян тизимга солиш, спортчиларни тўғри йўналтириш, мураккаб вазиятларда тўғри қарор қабул қилиш ва эмоционал ўзини ўзи бошқариш ва назорат қилиб бориш зарур эканлигини асослаб беришга эришган.

Етакчи психолог олим Э.Ғ.Ғозиевнинг[10] мамлакатимиз психология фанида ҳиссий-эмоционал ва иродавий ҳолат муаммоларини тадқиқ этиш ҳамда унинг психологик моҳиятини ёритишдаги қарашлари муҳим аҳамият касб этади. Спорт фаолиятида стрессли кечинмалар инсон ҳаётида, у бажараётган фаолиятда ва камол топишида зарур психологик омил сифатида таъсир кўрсатиши кенг изоҳлаб берган. Муаллифнинг илмий изланишларида ҳиссий кечинмаларни методологик асослари, илмий-назарий жиҳатлари, чет эл ва мамлакатимиз психологларининг ҳиссий эмоционал ҳолатга нисбатан ёндашувлари, унинг спорт фаолияти ва спортчи шахсида намоён бўлишини ўзига хос жиҳатлари ўрганилган, муайян мезонларга асосланган ҳолда таснифлаб, татбиқий жиҳатларига оид илмий-назарий фикрлар билдирилган.

Муаллиф эмоцияни бирор бир ҳиссийнинг инсон томонидан бевосита кечирилиши (кечиши) жараёнидан иборат деб қарайди. Қўрқинч, даҳшат кучли ҳиссий кечинма сифатида объектларга шахснинг муносабатини акс эттириб, турлича шаклда намоён бўлиши мумкин: одам даҳшатдан қотади, қўркувдан анграйиб қолади, ўзини идора қила олмай ҳар томонга уради, ҳатто хавф-хатарга ўзини ташлаши ҳам мумкин [10].

Э.Ғозиев ўз мулоҳазаларида, стресс - оғир жисмоний ва мураккаб аклий юкламалар юзага келганда, ишлар меъёридан ошиб кетиб, хавфли вазиятлар туғилганда зарурий чора-тадбирларни зудлик билан топишга интилганда вужудга келадиган ҳиссий зўриқишдир деб баҳолайди. Мана шундай шароитлар ва вазиятларнинг барчасини бирон-бир эмоция тури рўёбга чиқаради. Стресс эмоционал ҳолатининг пайдо бўлиши ҳамда кечишининг психологик хусусиятларини аниқлаш нафақат учувчилар, космонавтлар, диспетчерлар (инглизча ишлаб чиқаришни мувофиқлаштирувчи маъносини англатади) учун, балки судьялар, корхона раҳбари, таълим тизими ходимлари учун ҳам алоҳида ижтимоий-психологик аҳамият касб этиши ҳақида тўхталиб ўтган[10].

Муаллифнинг фикрича, стресс ҳолатида шахснинг хатти-ҳаракатлари ўзига хос тарзда ўзгаради, унда кўзғалишнинг умумий реакцияси пайдо бўлади, унинг ҳаракатлари тартибсиз равишда амалга оширилади. Стресснинг кучайиши эса тесқари реакцияга олиб келади, натижада тормозланиш, сустлик, заифлик, фаолиятсизлик устуворлик қила бошлайди. Лекин стресс ҳолатида физиологик ўзгаришлар ташқи томондан қарийб кўзга ташланмаслиги мумкин. Бироқ муаммони ечишдаги қийинчилик, диққатни тақсимлашдаги саросималикни стресснинг ташқи ифодаси деб тахмин қилиш мумкин. Шахс стресс ҳолатида вақтни чамалашда янглишади, онг фаолияти енгил тормозланади, идрок кўлами тораяди.

Стресс ҳолатида шахснинг психологик хусусиятлари, турмуш тажрибаси, шаклланган малакаси муҳим роль ўйнайди. Кескинликнинг олдини олишда шахснинг олий нерв фаолияти, нерв системасининг хусусиятлари алоҳида аҳамият касб этади. Ундаги юксак ҳис-туйғулар (масъулият, бурч, жавобгарлик, ватанпарварлик, садоқат ва бошқ.) стресс ҳолатида хатти-ҳаракат бузилишининг олдини олишга хизмат қилади деб таъкидлайди[10;11].

З.Ғ.Гаппаров олиб борган тадқиқотларида спорт фаолиятида юзага келадиган стрессда жисмоний ва психологик боғлиқликни илмий асослашга ҳаракат қилган. Спорт мусобақаларида спортчиларнинг ҳиссий ҳолатини ўрганиш асносида старт олди ҳаяжони ва уни назорат қилиш ҳамда бошқариш усуллари тўғрисида атрофлича маълумот берган[12].

Р.З.Ғайнутдинов олиб борган тадқиқотлар спорт фаолиятининг илмий ва эмпирик ўрганишга дастуриламал бўлиб хизмат қилади. У ўз изланишларида муваффақиятга эришиш ва муваффақиятдан қочиш мотивларини назарий ва амалий жиҳатдан чуқур таҳлил этган. Айниқса,

муваффақиятсизликни келтириб чиқарувчи ижтимоий-психологик сабабларини батафсил ёритилганлигини кўришимиз мумкин.

Муаллифнинг спортчилар психологик ҳолатини миллий маданий муҳит шароитида тадқиқ этишдаги ишлари эътиборга лойиқдир. Р.З.Гайнутдинов ўз тадқиқотларида спортчилар фаолиятида стрессли кечинмаларни юзага келиши, кўринишлари, давомийлиги, уни келтириб чиқарувчи оқибатлари ҳақида тўхталиб, спортчиларни ўйин жараёнида тайёрланишлари ва ўйин жараёнини ўтказишларида жисмоний ва психологик тайёргарлик уйғун ҳолда кечиши, жисмоний ва психологик тоннинг пасаймаслиги енгишнинг энг муҳим омили эканлигини асослашга интиланган.

Мамлакатимизда сўнги йилларда спортчиларни психологик ҳолатини ўрганиш борасида Р.Абдурасулов[13]нинг олиб борган тадқиқот ишлари ҳам назарий ва амалий жиҳатдан муҳим аҳамият касб этади. У шахс шаклланишида спортнинг ўрни ва роли ҳақида алоҳида тўхталиб, спортчиларнинг мусобақадан олдин ва мусобақадан кейинги стрессли кечинмаларини олдини олиш, бошқариш ва бартараф этиш усуллари тўғрисида кенг мулоҳазалар билдирган.

Муаллиф спортчиларларнинг мусобақага психологик-физиологик тайёргарлик жараёнида нерв тизимининг мувозанатлашганлиги ва нафас олиш тизими фаолиятининг бошқариш усуллари ҳам тадқиқ этган. Спортчиларни психологик тайёргарлиги жараёни якунида психолог-психотерапевт ёки спорт психологи ва мураббий ёрдамида спортчи ўзи учун зарур бўлган характер ҳислатлари ҳамда шахсий сифатларини тарбиялаш учун яқка тартибдаги режани тузишда психопрофилактик ёрдам олишлари муҳим эканлиги кўрсатиб ўтилган[13].

Ёш олима Ф.Газиёва[14] спортда гуруҳий жипслик шаклланиши ва ривожланишининг ижтимоий-психологик хусусиятлари тўғрисида тўхталиб, футбол жамоасининг ижтимоий ва фаолият жараёнидаги жипслигини муайян мезонлар асосида ўлчаш, уларга таъсир этувчи умумий боғлиқликни аниқлаш, ижтимоий жиҳатдан жамоа аъзоларини яқинлаштириш, командани жипслигини таъминлашга қаратилган механизмлар ҳақида батафсил маълумотлар бериб ўтган. Шу билан биргаликда муаллиф спорт фаолиятида жамоавий жипсликдан қочишнинг асосий сабаби стрессга мойил спортчиларнинг мавжуд эканлиги билан боғлаб тушунтирган. Демак, спорт фаолиятида стрессли кечинмаларни олдини олиш ва уни бартараф этиш жамоавий жипсликнинг асосий манбаи ҳисобланишини таъкидлайди.

Казусли вазиятларда спортчи эмоционал ҳолатларини тадқиқ этган З.Файзиёв ўз изланишлари натижаларига таяниб, спорт фаолиятида барқарор эмоционал ҳолатларни таъминловчи қуйидаги тавсияларни илгари сурганлигини кўради:

- Спортчиларда ўзини-ўзи бошқариш, назорат қилиш, фаолият натижаларини баҳолаш, ўйин жараёнида эмоционал барқарорлик, муваффақиятни ҳис қилиш кўникмаларини шакллантиришда уларнинг типологик ва шахслик хусусиятларини ҳисобга олиш лозим.

- Спортчиларнинг ҳамкорликда олиб борадиган фаолияти казусли вазиятларни енгишнинг энг муҳим омилларидан бири ҳисобланади. Спортчилар жамоасида ҳамкорликдаги жисмоний-психологик машғулотларни олиб бориш, жипсликни таъминлаш ва салбий эмоционал ҳолатларнинг олдини олиш ҳамда уни бартараф этиш учун хизмат қилади.

- Спортчиларда хавотирланиш даражасини камайтириш ёки бартараф этиш мақсадида ўзини-ўзи мусобақага психологик тайёрлаш устувор вазифа ҳисобланади.

- Спорт фаолиятида мусобақадан олдинги мақсадли ижтимоий-психологик тренинглар казусли вазиятларни енгиш ва муваффақиятга эришиш ҳиссини шакллантиради.

- Спортчи шахсида пайдо бўладиган салбий эмоционал ҳолатларни бошқаришда жисмоний-психологик машқлардан фойдаланиш муваффақият гарови эканлигини таъкидлаган [15].

А.Назаров спорт соҳасида олиб борган тадқиқот натижаларига таяниб, спортчилардаги психологик муҳофазани ўрганишга имкон берувчи психодиагностик методикаларни қўллашнинг самарали имкониятларини аниқлашга эришган. Спортчилардаги психологик муҳофаза омилларини ривожлантириш моделини яратган ва спортчи талабалар фаолиятида қўллаган. Муаллий тадқиқотларига асосланиб, спортчиларнинг психологик муҳофаза омилларини ривожлантиришга мўлжалланган психологик тренинг дастурини ишлаб чиққан ва шу асосида амалий тавсиялар берган[103].

Хулоса. Ўзбекистон давлат жисмоний тарбия ва спорт университети профессори З.Г.Гаппаров раҳбарлигида Р.Д.Холмухаммедов, Ф.К.Турдиев, А.А.Шабанов, Д.Р. Рапиджонова ва бошқалар спорт фаолиятида спортчиларнинг эмоционал ҳолатларини ва уларнинг махсус малакаларини такомиллаштириш бўйича олиб бораётган илмий изланишлари спортчиларни спорт мусобақаларига психологик тайёрлашда алоҳида ўрин тутади.

Самарқанд давлат университетида жисмоний маданият факультети ходимлари Ҳ.Рафиев, Ж.Эшназаров, Й.Машарипов, Т.Ҳайитов, Б.Ҳайдаров, У.Дўсанов, Ф.Қосимовлар ва Қарши давлат университети Жисмоний маданият факультети профессор-ўқитувчилари Ш.Султонов Ж.Хуррамов ва Ф.Эгамбердиевлар томонидан олиб борилаётган илмий изланишлар ҳам спортчиларни спорт мусобақаларига психологик ва жисмоний тайёрлашда муҳим аҳамият касб этмоқда.

Адабиётлар:

1. Мирзиёев М.М. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қураимиз. – Тошкент.: “Ўзбекистон”, 2017. – 488 б.
2. Шоумаров Ғ.Б. Ўзбекистон таълим тизимида психологик хизмат муаммолари. –Т.: 1998. -13-15 б.
3. Каримова В.М. Саломатлик психологияси. - Т.: Янги аср авлоди. 2005. -71 б.
4. Жабборов А. М. Ўқитувчи этнопсихологияси. –Қарши.: “Насаф”. –2015. -180 б.
5. Баротов Ш. Р. Психологик хизмат. –Т. 2018. -33 б.
6. Нишанова З.Т, ва бошқ. Психологик хизмат. –Т.: 2014. -106 б.
7. Сафаев Н.С. Психологические особенности национального самосознания студенческой молодежи: Дис. д-ра. псих. наук. – Т.: УзНУ, 2005. -124 с.
8. Мухамедова Д.Г. Менеджмент в образовании: аспекты содержания подготовки кадров // Педагогик таълим. –Ташкент.: –№3. 2013. -17-21с.
9. Самаров Р.С. Шахс ва стресс. Ўқув-услубий қўлланма. –Тошкент, 2004. –40 б.
10. Ғозиев Э. Ғ. Умумий психология. –Т.: 2010. -544 б.
11. Гаппаров З.Г. Спортивная психология: Учебник для студ. ин-та физкультуры / Гаппаров З.Г.; МВ и ССО РУз. - Т.: ООО “Мехридарё”, 2009, - 312 б
12. Абдурасулов Р.А. Ўқувчи шахсини шакллантиришда спорт машғулотларининг ўрни. Монография. –Тошкент.: Фан ва технология. 2013. -204 б.
13. Газиёва Ф.Э, Спортда гуруҳий жипслик шаклланиши ва ривожланишининг ижтимоий-психологик хусусиятлари. Психология фанлари бўйича фалсафа доктори(PhD) илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертация автореферати. –Тошкент.: 2019. -55 б.
14. Файзиёв З.Х. Казусли вазиятларда спорчи эмоционал ҳолатини коррекциялашнинг ижтимоий-психологик механизмлари. Автореферат. Психология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)//-Бухоро. -2020. -52б
15. Назаров А.М. Спортчиларда психологик ҳимоя механизмларини ривожлантиришнинг ижтимоий-психологик хусусиятлари. Автореферат. Психология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)//-Бухоро. -2021. -57б

САФАРОВА Зебинисо Гуломали қизи

Бухоро давлат педагогика институти
Жисмоний маданият факультети магистри

АБДУЛЛАЕВ Меҳриддин Жунайдуллоевич

Бухоро давлат педагогика институти
Жисмоний маданият факультети профессори,
п.ф.ф.д.(PhD),

БОЛАЛАР ВА ЎСМИРЛАР СПОРТ МАКТАБИДА ЮГУРИШ ТУРЛАРИГА ТАНЛАБ ОЛИШДА АНАТОМИК-МОРФОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ

Давлатимиз раҳбари ва ҳукуматимиз томонидан бугунги кунда жисмоний тарбия ва спортни ривожлантириш борасида жуда кўплаб қарорлар, фармонлар ва фармойишлар чиқарилаётганлиги соҳани янада ривожлантиришга хизмат қилади. Енгил атлетикачиларни югуриш турларига бўлажак спортчиларни саралаб олиш масалаларига кам аҳамият қаратилганлиги олиб борилган тадқиқот жараёнида аниқланди.

Калит сўзлар: енгил атлетика, масофа, кислород, марафон, жисмоний тарбия, анатомик-морфологик хусусиятлар.

АНАТОМИЧЕСКИЕ И МОРФОЛОГИЧЕСКИЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ ДЕТЕЙ И ПОДРОСТКОВ ПРИ ВЫБОРЕ ВИДОВ БЕГА В СПОРТИВНОЙ ШКОЛЕ

В настоящее время издаются множество указов, постановлений и распоряжений, посвящённых развитию физической культуры и спорта руководством и правительством нашей страны. Выбор будущих спортсменов по видам лёгкой атлетики осуществлён в ходе исследования.

Ключевые слова: лёгкая атлетика, дистанция, кислород, марафон, физическая подготовка, анатомо-морфологические особенности.

ANATOMICAL AND MORPHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF CHILDREN AND ADOLESCENTS IN THE SELECTION OF RUNNING TYPES IN A SPORTS SCHOOL

The fact that the head of our state and our government are issuing a lot of decisions, decrees and orders on the development of physical education and sports today serves to further develop the field. In the course of the research, it was found that little importance is paid to the issues of selection of future athletes for athletics running.

Key words: athletics, distance, oxygen, marathon, physical training, anatomical-morphological characteristics

Кириш. Енгил атлетика соҳасида фаолият юритаётган кўплаб мураббийлар спортчилар тайёрлаш тизимига ўз обрў-эътиборига лойиқ ишларни амалга оширилаётганлиги албатта қувонарли ҳол. Аммо ҳамон спортчилар тайёрлаш тизимида ўзига хос камчиликларни мавжудлиги учрамоқда. Илмий масканларда соҳани илмий ўрганган ҳолда машғулот жараёнларини ташкил этиш бўйича етакчи олимлар бир қанча ишларни амалга ошириб келмоқда. Жумладан, спортчиларни спорт турларига саралаш, машғулотларга жалб этиш, машғулотларни режалаштириш ва бошқариш бўйича К.Т. Шокиржонов, Ф.А. Керимов, Р.Д. Холмухаммедов, В.Н. Никутишкин, М.Н. Умаров, Н.Т. Тўхтабоев, М.С. Олимовлар томонидан илмий тадқиқотлар олиб борилган.

Аммо енгил атлетикачиларни югуриш турларига бўлажак спортчиларни саралаб олиш масалаларига кам аҳамият қаратилганлиги олиб борилган тадқиқот жараёнида аниқланди. Бугунги кунда жаҳон ареналарида спорт натижаларининг кун сайин ўсиб бориши спорт машғулотларини янги вариантларини ишлаб чиқиш асосида такомиллаштириш энг долзарб масалаларидан бирига айланмоқда.

Асосий қисм. Ўзбекистонда юксак маънавиятни янада ривожлантириш, мавжуд таълим тизимини такомиллаштириш, унинг миллий асосларини мустаҳкамлаш, ҳамда замон талабларига мос ҳолда юқори даражага кўтариш катта аҳамиятга эга бўлмоқда. Бу борада кадрлар тайёрлаш бўйича умум миллий дастур ва мактаб таълимини ривожлантиришга доир давлат дастури ҳам қабул қилинди. Чунончи 9 йиллик умумий ўрта ва 3 йиллик ўрта махсус, касб хунар таълимининг мустақил ва мажбурий босқичларига ўтиш кадрлар тайёрлаш миллий моделининг алоҳида ажралиб турадиган хусусиятларидан биридир. Бу даврда инсон ҳаётида муҳим рол ўйнаши билан бир қаторда жисмоний

ва рухий ривожланишнинг асосий жараёнлари намоён бўла бошлайди ва балоғатга етиш даври содир бўлиб, ушбу давр, бундан кейин катта ҳаётга, меҳнат фаолияти, оила қуришга тайёргарликнинг асоси сифатида хизмат қилади.

Ўқувчиларнинг бўйи 11-12 йил мобайнида, ўғил болаларда ўрта ҳисобда 52-54 см, қиз болаларда 40-42 смга ўсади. Бўй ўсишининг йил сайин ўсиш суръати, боланинг ёши улғайган сайин камайиб боришга мойил. Лекин маълум вақтга келганда бўй ўсиши тезлашуви содир бўлади. У жинсий етилиш олдидан жадал рўй беради ва “пубертат сакраш” деб аталади. Бу давр қиз болаларда 11-13 ёшга, ўғил болаларда 13-15 ёшга тўғри келади. Бир йил ичида гавда узунлиги 10 см.га ўсиши мумкин. 18 ёшга тўлганда бу давр амалда тўхтайдди. [5,6]

Қиз болалар туғилганидан бошлаб ва 9 йил мобайнида ўғил болаларга нисбатан секинроқ ўсадилар, бироқ 10-11 ёшда улар ривожланишда ўғил болаларни қувиб ўта бошлайдилар ва шу мойиллик 14-15 ёшгача сақланиб қолади. 14-15 ёшда ўғил бола ривожланишда қиз боладан узил кесил ўзиб кетади. Бўй ўсиши билан бир қаторда гавда шакли ва унунг нисбатлари ҳам ўзгаради. 9-10 ёшгача гавданинг юқори ярим узунлиги пастки ярмидан бир мунча устунлик қилади, 10-11 ёшдан эса оёқларнинг фаол ўсиши кузатилади.

Болаларнинг ўсиш ва ривожланиш жараёнида аъзолар ва тизимларнинг фаолияти такомиллашади. Бош миянинг анатомик тузилмалари, асосан 8-9 ёшларда шакилланиб бўлади, бироқ тана аъзоларининг функционал ривожланиши Болалар ва ўсмирлар спорт мактабига қабул қилинганидан токи тамомлагунича давом этади. Гавда ўлчамларининг катталашуви ва таянч ҳаракат аппаратининг такомиллиги етиши нафас ҳамда юрак қон томир тизимининг ривожланиши билан чамбарчас боғлиқдир.

Болалар ва ўсмирлар спорт мактаби ёшида жинсий етилиш жараёни содир бўлади. У бир неча йил: қиз болаларда ўрта ҳисобда 10-16 ёшгача, ўғил болаларда 11дан 17 ёшгача давом этади. Ҳамма болаларда ўсиш вояга етиш суратлари бир хил бўлавермайди. Айрим болалар (10-15%) кўпчилик тенгдошларига қараганда тезроқ ўсадиларва ривожланадилар. Тахминан худди шунча бола ўзининг ёш меъёридан орқада қолади. Яъни болаларнинг айрим қисмида “биалогик” ёши салендар (“паспорт”) ёшидан ўзиб кетиши ёки орқада қолиши, кечикиши мумкин. [6]

Биалогик ёш гавда оғирлиги ва узунлиги, таянч ҳаракат аппарати (Кўкрак қафаси айланаси, мушаклар кучи ва бошқалар) жинсий ривожланишнинг шу ёш учун ўртача кўрсаткичларига мувофиқ аниқланади. Агар, болада биалогик ва паспорт ёши ўртасидаги тафовут 1,5-2 ёш атрофида бўлса, бу меъёр ҳисобланади, бордию тафовут икки йилдан ортса ёки орқада қолса, бу албатта саломатликда ўзгаришлар борлигини кўрсатади.

Енгил атлетика оммавий спорт турлари ичида энг асосийси бўлиб, организмга таъсири ниҳоятда кенг доирада бўлади. Енгил атлетика билан ҳар қандай ёшдаги кишилар шуғиллаиши мумкин. Уинг таъсирида у организмнинг функционал имқониятлари, жисмоний сифатлари, куч, тезкорлик, чидамлик каби хислатларини анча катта даражада ривожлантириш мумкин. Енгил атлетикада бир канча турдаги жисмоний машқлар билан шуғилланилади. Уларга сиортча юришдан тортиб т у р л и масофаларга югуриш, узунликка сакраш, лангар чўп билан сакраш, тўкмок, ядро улоққтириш киради.

Бу машқдаги ҳаракатлар жисмоний машқларнииг физиологик таснифи буйича циклик ҳаракатлардир. Бундай ҳаракатларда ҳаракат цикллари бир хил шаклга эра бўлади ва биринчи цикл икинчи циклни юзага келишини таъминлайди. Қисқача айтганда юриш ва югуриш каби циклик ҳаракатларда ҳаракат цикллари бир-бири билан уланиб кетган бўлади. Динамик иш ўтиладиган масофага караб тўрт хил кувватда бажарилиши Б.С. Фарфель томонидан белгиланган: қисқа масофалар /60, 100, 200 м/, тўсикли югуришлар /100,1 10. 200 м/ га максимал кувват билан. ўрта масофалар /400, 800, 1500 м/ субмаксимал кувват билан, узоқ масофалар /3000, 5000, 10000 м / катга кувват билан ва ниҳоят хаддан ташқарн узоқ масофалар /20, 30. 42 км 195 м .соатлаб югуриш, 20 дан 50 км гача спорт юриши/ ўртача кувват билан ўтилади. Кўрсатилган масофаларни ўтишла организмнинг функционал системаларни иши узига хос даражада ўзгаради.

Ҳаракат аппаратида содир бўладиган ўзгаришлар. Қисқа масофаларни ўтишда бажариладиган иш асосан анаэроб шароитда бажарилиб, ҳаракатда иштирок этадиган мускуллар энг юқори тезлик билан қисқаради. Машқ қилиш натижасида мускулларнинг кўзгалувчанлиги, кўзгалувни ўтказувчанлиги, лабиллиги (функционал ҳаракатчаилиги) ортади, яъни мускулларнинг қисқариш вақти камайдди. Бунда қисқариш ҳаракат тезлигини ортишига олиб келади. Ҳаракат тезлиги ишда катнашадиган мускуллар турига ҳам боғлиқ. Маълумки, мускуллар тез кўзгалувчан ва секин кўзгалувчан толаларга эга. Оқ мускулларда тез кўзгалувчан толалар кўп бўлади. Демак югурувчиинг оёқ мускулларида тез кўзгалувчан толалар канчалик кўп бўлса, уинг ҳаракат тезлиги шуичалик

юкори бўлади. Энг таникли югурувчиларни биопсия методи билан текширилганида қисқа масофага югурувчиларда мускулнинг 80-85% ни тез кўзгалувчан, 20-15% ни эса секин кўзгалувчан толалардан иборатлиги аниқланган. Марафончиларда эса 85- 90% секин кўзгалувчи. 10-15% тез кўзгалувчи толалар бўлиши кўрилган.

Узоқ масофаларни ўтишда, бажариладиган ишни таъминлайдиган энергия асосан оксидланиш жараёнлари ҳисобига олинади, яъни иш аэроб шароитда бажарилади.

Қон таркибида юзага келадиган ўзгаришлар. Маълумки, ҳар қандай жисмоний машқ таъсирида қоннинг марфологик таркиби ва физик-кимёвий хоссаларини ўзгариши юзага келади. Бундай ўзгаришлар асосан ўтиладиган масофага, ишнинг кувватига боғлиқ бўлади. (I-жадвал), Текширишларда, олинган натижалар югуришда фақат қоннинг шакли элементлари сонини ортиши, гемоглабин миқдорини кўпайиши эмас, балки қон реакциясини ўзгариши, қоннинг ёпишқоқлигини ортиши ва бошқаларни кўрсатади, Масалан, қонда сут кислотаси миқдорини кўпайиши, глюкозанинг камайиши ва хоказо. Бироқ бу ўзгаришлар даражаси ишнинг муддати ва кувватига боғлиқ бўлишини яна бар марта эслатиш фойдадан холи эмас. [5,9]

1- жадвал

Ҳар-хил масофаларга югуриш эритроцитлари, лейкоцитлар сони ва гемоглабин миқдорини ўзгариши. Ю.М. Циганкова бўйича

Масофа	1мм қондаги Эритроцитлар	Гемоглабин миқдори	1 мм қондаги лейкоцитлар
Қисқа	4 760 000	88%	9 340
Ўрта	4 980 000	92 %	9 340
Узоқ	4 890 000	89 %	10 000
ўта узоқ	4 860 000	83 %	22 000

Жадвалда келтирилган далиллар узоқ масофаларни айниқса ҳаддан ташқари узоқ масофаларни ўтишда миоген лейкоцитознинг 1-нейтрофил фазаси юзага келишини кўрсатади, яъни 1 мм қондаги лейкоцитлар сони тинч ҳолатдагига нисбатан 3-4 марта ортади.

Қисқа масофаларни ўтишда спринтерча югуришда: мускул тўқимасида сут кислотасининг шиддатли ҳосил бўлиши юзага келиб, унинг миқдори 130-200 мг% гача ортади. Вахоланки нормада у 10 мг% бўлади.

Ўрта ва узоқ масофаларни ўтишда қон таркибидаги сут кислотасининг миқдори 200-250 мг% гача боради. Бу жараён қоннинг рНини насайишига, қон реакциясининг кислотали томонга силжишига олиб келади. Спринтерчиларда ва ўрта масофага югурувчиларда қоннинг ишқор резерви пасаяди.

Ўта узоқ масофаларни ўтишда, масалан, марафон югуришида қон таркибида қоннинг нормадагига нисбатан анча камайиши, яъни 40-60 мг% гача пасайиш кузатилади, нормада 80-120 мг%.

Юкори ҳароратли шароитларда югуриш билан шуғулланиш қоннинг физикавий ва кимёвий хоссалари, яъни унинг ёпишқоқлиги солиштирма оғирлигини ортишига, қоннинг қуюқлашишини юзага келтиради, қон ивиши тезлашади.

Спортчиларни югуриш билан шуғилланишида қон айланиш органлари - юрак ва томирлар ишининг такомиллашишида муҳим рол ўйнайди. Айниқса узоқ ва ўта узоқ масофаларга югурувчи жисмоний яхши чиниққан шахсларнинг тинч ҳолатида юракнинг бир дақиқадаги қисқариш сони 50 мартагача ўрта масофаларга югурувчиларда 56 мартагача, қисқа масофаларда югурувчиларда эса 63 мартагача зарба уриши аниқланган. Ўта узоқ масофаларга югурувчи айрим спортчиларда юракнинг бир дақиқадаги қисқариш сони 32-36 марта тебраниши мумкин экан. [5,6,8]

Югуриш билан шуғулланиш натижасида юракнинг вақт бирлигидаги қисқариш сонининг камайиши юрак мускулнинг ривожланиши, унинг ҳажмининг ортиши, қоннинг систолик ҳажмини кўпайиши билан боғлиқ бўлади. Узоқ масофага югурувчилар - стайерларда юракнинг ҳажми ўртача ҳисобда 970 см ни, ўрта масофаларда югурувчиларда- 1002 см ни ташкил этади. Қоннинг систолик ҳажми 70-80 мл. га тенг бўлади.

Ўрта ва узоқ масофаларга югуришда қоннинг систолик ҳажми 160-190 мл. гача, қисқа масофаларга югуришда эса 150-170 мл. гача ортади. Югурувчиларда артерия қон босимн маррага етгандан кейин 160-200 мм.симоб устунига тенг бўлади. Узоқ ва ҳаддан ташқари узоқ масофаларга

югуришда диастолик босим кўпинча пасаяди.

Нафас органларининг функциясининг ўзгариши югуриш турларида нафаснинг ўзгариши ўтиладиган масофага қараб турлича бўлади. Шунга айтиш керакки, югурувчиларда ўпканинг тириклик сифими /ЎТС/ 5,5 л. дан 5,8 л. гача бўлиб, юқори малакали югурувчиларда 6 л. гача боради,

Қисқа масофаларга югуришда ўпка вентиляцияси биринчи дақиқаларда 60-80 л/дак.ни ташкил этади. Ўрта масофаларга югуришда ўпка вентиляцияси 140-160 л/ дак.га етади нафас олиш сони узок масофаларга дақиқасига 40-60 марта ўпка вентиляцияси 160-180 л/дак ни ташкил этади. Қисқа масофаларга югуришда кислородга талаб 12-20 л. атрофида бўлиб, унинг 5-10% ни югуриш вақтида ўзлаштирилади. Ўрта масофаларга югуришда кислородга талаб 30-50 л бўлиб, унинг 10-40% и югуриш давомида ўзлаштирилади. (1. 2 - жадвал).

Ўта узок масофаларга, масалан, марафонча югуришда кислородга талаб 500 л. бўлиб, унинг деярли ҳаммаси югуриш пайтида ўзлаштирилади.

Кислород қарзи қисқа масофаларга югуриш да 15 л.ни, ўрта масофаларга югуришда 20 л. га, узок масофаларга югуришда 10-15 л, га ва ўта узок масофаларга югуришда 5 л, гача боради.

2 – жадвал

Югуриш тезлиги ва ўтадиган масофага қараб кислород ўзлаштирилиши ва кислород қарзи миқдорининг ўзгариши (Н. К. Светличная буйича)

Масофа /м/	Ўртача тезлик /м/сек/	Кислородга талаб л	Кислород ўзлаштирилиши л %	Кислород қарзи л %
200	8.9	11.6	1.2 10.3	10.4 89.7
300	8.0	13.9	2.0 14.4	11.9 35.6
400	8.0	16.6	3.0 18.0	13.6 86.0
400	8.34	19.0	3.0 15.8	16.0 84.2
400	8.89	23.5	3.0 12.7	20.5 87.3

Энергия алмашинувининг хусусиятлари. Югуришнинг энергия билан таминланиши унинг асосини ташкил этади. Спортчининг энергия билан боғлиқ имкониятлари, ундаги энергия захирасининг миқдори билан боғлиқ бўлмай, зарур шароитда энергияни сафарбар этиш қобилияти билан белгиланади.

Югуриш тезлиги спортчининг жисмоний чиниққанлигига қараб энергия сарфи кенг доирада тебранади. Эркақлардагига нисбатан энергия сарфи аёлларда 15-20% кам бўлади.

1. м.масофага сарфланадиган энергия миқдори қисқа масофаларга югуришда энг юқори даражада бўлади. Югуришда сарфланадиган энергиянинг умумий миқдори масофа ортган сари кўпая боради.

Назарий тушунчалар ва мусобака тажрибаларидан хулоса қилиш мумкинки, энг яхши югурувчи кишининг энергия билан таъминланиши тахминан куйидаги нисбатларда бўлади. Спринтерлар 100 м масофни ўтишида асосан энергия манбаъи креатин фосфат бўлиб, 400 м масофани ўтишда гликолитик йул билан энергия ҳосил бўлиши ҳисобига иш бажарилади.

Ўрта масофага югурувчиларда 60-80% энергия гликолитик жараён ҳисобига ва аэроб йул билан (40-20%) ни энергия ҳосил бўлиши ҳисобига иш бажарилади. Марафончиларда эса керакли энергиянинг 10% ни гликолитик йул билан 90% ни аэроб йул билан энергия ҳосил бўлиши ҳисобга олинади. [3,5]

Тана ҳароратини ўзгариши динамик ишнинг бошқа турларига ўхшаш югуриш ҳам иссиқликнинг кучли ҳосил бўлиши билан кузатилади. Айниқса, ташқи муҳит ҳарорати юқори бўлганида ва узок муддатли югуришларда : спортчининг тана ҳароратини 2° С хатто ундан ортик кўтарилиши мумкин. Тана ҳарорати нормага нисбатан бундай ортиши, яъни терморегуляциянинг бузилиши физиологик системалар ишига салбий таъсир кўрсатиш билан спортчининг иш қобилиятининг пасайишига олиб келади.

Ўрта масофаларга югуриш 800 ва 500 м.ли масофаларга югуриш ҳақиқий ўрта масофалар бўлиб, “узок спринт” ҳам ҳамма хусусияти ва физиологик таърифи бўйича суб максимал қувватли ишга киради. Худди спринт югуришлардагига ухшаш иш қобилият энергиянинг ҳосил бўлиши билан боғлиқ, лекин бу ерда энергия ҳосил бўлишининг анаэроб механизми секин аста анаэроб йул билан энергия ҳосил бўлишига ўрин бера бошлайди.

Д. Ж Пулсо, Патрик Милрой (2011) берган маълумотларига кўра, 400м га югурувчиларда МКИ 4.9 л/ дақ ёки 67 мл /дак/ кг ни ташкил этади. 800 ва 1500 м.га югурувчиларда эса бу рақамлар 5,4 ва 7,5 баробар.

Хулоса. Шундай килиб, ўрта масофаларга югуришда мускуллар имконияти борича максимал кислород қарзи тўпланган шароитда ишлайди. Бундай ҳолатда кислород қарзи 24-26 л. ни ташкил этади, унинг 65% дан 84% игача бўлган қисми лактат фракцияни ташкил этади. Н.К Светличная тажрибасига кўра бу организмда жуда кўп миқдорда-250-300 мг% ва ундан кўп сут кислотаси тўпланиши билан боғлиқ бўлади. Бундай ҳолатда қон реакцияси кислотали томонга кескин ўзгаради, рН 7.0 ва ундан паст бўлади. Жисмоний чиникмаган кишиларда қоннинг рН ни бундай пасайишида кислотали кома ривожланиши мумкин.

Адабиётлар:

1. Xamroyev Behruz Xalimovich. Developing student's readiness to use adaptive physical culture. International Journal of Advanced Research in Management and Social Sciences. Vol. 11 | No. 2 | February 2022
2. Safarov D.Z.O'., Xamroev B.X. Oliy ta'limda gimnastika darslarini innovatsion ta'lim texnologiyalar asosida o'qitishi samaradorligi // Scientific progress, 2021. T. 1. № 6.
3. Islomov E.Yu., Xamroev B.X., Safarov D.Z.U. Upravlenie vospitaniem yunogo sportsmena vo vremya zanyatiy fizicheskimi uprajneniyami i na trenirovke // Questions nauki i obrazovaniya, 2020. No. 20 (104).
5. Savrievich F.F. "The basis of physical education of schoolboys-physical education knowledge" Web of Scientist: International Scientific Research Journal 2 (05), 41-48
6. Fazliddinov F. "Professional competence of the specialist in physical culture" academia: An International Multidisciplinary, 2020
7. Sabirova N.R. "The Importance Of Three-Stage Model In Developing The Functional Status Of Athletes." International Journal on Economics, Finance and Sustainable Development 3.3 (2021): 190-196.
8. Sabirova Nasiba Rasulovna. (2021). The Importance Of Three-Stage Model In Developing The Functional Status Of Athletes. International Journal on Economics, Finance and Sustainable Development, 3(3), 190-196.
9. Dustov Bakhtiyor Akmalovich, Toshov Murod Khalilovich, Sabirova Nasiba Rasulovna, Fazliddinov Farkhod Savrievich. Journal of Critical Reviews ISSN- 2394-5125 Vol 7, Issue 6, 2020 Review Article Psychological impact of football games to the formation of individuality of the student Dustov Bakhtiyor Akmalovich, Toshov Murod Khalilovich, Sabirova Nasiba Rasulovna, Fazliddinov Farkhod Savrievich.
10. Sabirova Nasiba Rasulovna, Yusupov Jurabek Nusratilloevich Possibilities of using the tools used in teaching short-distance running techniques 2021/5/7 Web of Scientist: International Scientific Research Journal
11. Islomov E.YU., Xamroev B.X., Safarov D.Z.U. Upravlenie vospitaniem yunogo sportsmena vo vremya zanyatiy fizicheskimi uprajneniyami i na trenirovke // Voprosi nauki i obrazovaniya, 2020. № 20 (104).
12. Samijonovich, T. S., Abdullaev, M. J., Tolybaevich, N. A., & Yurievna, N. O. (2020). Improving Methodology Of Action Games In Training Athletes Of Different Ages. European Journal of Molecular & Clinical Medicine, 7(6), 2907-2914.
13. Abdullaev M. J. Methodology of application games in the training of young athletes //European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. – 2020. – Т. 8. – №. 11.
14. Samijonovich, T. S., AbdullaevMolecular & Clinical Medicine, 7(6), 2907-2914.
15. Abdullayev, M. J., Berdiyev, O. I., & Omonova, N. R. (2021). Methodology Of Organization Of" Physical Education And Sports" Lessons In Higher Educational Institutions. The American journal of social science and education innovations (TAJSSEI) SJIF-5.857 DOI-10.37547/TAJSSEI, 3(02), 312-320.
16. Абдуллаев, М.Ж. (2018). Swot-анализ в структуре информационных технологий физического воспитания. In Система менеджмента качества в вузе: здоровье, образованность, конкурентоспособность. Сб. науч. тр. VII Междунар. науч.-практ. конф (pp. 14-18).
17. Junayduloevich, Abdullaev Mehriddin. "Methodology of application of moving games in the training of young athletes." Конференции. 2020.
18. Абдуллаев, М. Ж. "Взаимосвязь физического и психического развития детей в процессе физического воспитания." вестник интегративной психологии (2018): 10.
